O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Farxodova Dilnoza Qudrat qizi

MUTAXASISLIKKA KIRISH

Oliy o‘quv yurtlarining 60110500-boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun

O‘quv qo‘llanma

“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2025

UO‘K 37.013(075.8)
74.00ya73
F 25
Farxodova, D.Q.
Mutaxasislikka kirish [Matn] : o’quv qo’llanma / D.Q. Farxodova; muharrir A. Qalandarov; - Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024. – 284 b.
KBK 74.00ya73

Ushbu o‘quv qo‘llanma 60110500–boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda mutaxasislikka kirish fanining predmeti, maqsad va vazifalari, prinsiplari, ta’lim metodlarining tasnifi, mutaxasislik fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

Mas’ul muharrir:
A.R.Hamroyev, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Taqrizchilar:
N.B.Adizova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Ro‘yxatga olish raqami 429-581.

ISBN 978-9910-705-26-7

SO‘ZBOSHI

Davlat va jamiyat taraqqiyotini taminlashda bugungi kunda shakllanayotgan yosh avlodning bilimdonligi va tadbirkorligi muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, oliy o‘quv yurtlarining shu kundagi vazifasi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha har tomonlama chuqur va mustahkam bilimga ega bo‘lgan, mustaqil tafakkur qila oladigan, qurilayotgan huquqiy, demokratik davlatimiz siyosatini xalq ommasi va yoshlar o‘rtasida targ‘ibot qilishga layoqatli, g‘oyaviy e’tiqodli, ijodkor va intizomda namuna bo‘la oladigan barkamol avlodni tarbiyalashda hamda ularning sifatli va samarali bilim olishlarini ta’minlash uchun o‘quv-tarbiya, ilmiy va jamoat ishlarini yuqori talablar darajasiga ko‘tarish maqsadida talabalar bilan ta’limning dastlabki bosqichlaridayoq muntazam va astoydil shug‘ullanishdan iborat.

Ko‘p yillik tajribamiz shuni ko‘rsatmoqdaki, 1-2 kurs talabalarining ko‘plari oliy maktab qoidalarini juda sekinlik bilan o‘zlashtiradilar, o‘z vaqtlarini to‘g‘ri rejalashtira olmaydilar va undan unumli foydalanishni bilmaydilar. Ba’zan esa o‘zlari tanlagan kasbi haqida yetarli tasavvurga ega bo‘lmaydilar ham. Shu sababli oliy o‘quv yurtlari barcha fakultetlari o‘quv rejalariga “Mutaxassislikka kirish” fani kiritilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad talabalarni oliy maktab hayotiga tezroq moslashtirish, uning sharoitiga ko‘niktirish bo‘lib, oqibat natijada fanlarni yaxshi o‘zlashtirishlariga yordam berish, ulgurmovchilikning oldini olish va oliy o‘quv yurtlarida muvaffaqiyatli o‘qishlarini ta’minlashdir. Shu bilan bir qatorda, talabalarda o‘zlari tanlagan o‘qituvchilik va tarbiyachilik kasbiga qiziqish va mehr uyg‘otishdir. Fanning asosiy vazifasi - talabalarni kasbiy faoliyatning ilmiy asoslari bilan tanishtirish; Oliy o‘quv yurtida o‘quv mehnati madaniyatini egallashlariga ko‘maklashish; pedagogik amaliyotni o‘tashlariga yordam berish; asosan mustaqil ravishda talabalarning o‘zlarida o‘qituvchi va tarbiyachi shaxsiga kerak bo‘lgan fazilatlarni shakllantirish va o‘z–o‘zlarini tarbiyalashga o‘rgatishdir. Ta’limning, vazifasi fuqarolar va yoshlarning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo‘lgan har bir kishining aqliy–amaliy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini

namoyon etish, intellektual jihatdan rivojini ta’minlash, o‘zi xohlagan kasbini tanlash, uni mukammal egallab, shu sohada faoliyat ko‘rsatish uchun moddiy – ma’naviy, tarbiyaviy – didaktik shart – sharoit yaratishdan iboratdir. Bu umumiy vazifadan ta’limning har bir bo‘g‘ini, turi va bosqichining o‘ziga xos vazifalari kelib chiqadi.

1-MODUL. MUTAXASISLIKKA KIRISH FANI - PEDAGOGIK FAN

1-MAVZU: MUTAXASISLIKKA KIRISH FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. Mutaxassislik fanlarining maqsadi va vazifalari.
2. Mutaxassislik fanlarining oʻrganadigan masalalari.
3. Mutaxassislikka kirish fanining boshqa fanlar bilan oʻzaro aloqadorligi.

Tayanch soʻzlar: fanning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, fanning boshqa fanlar bilan oʻzaro aloqadorligi va dolzarbligi, mutaxassislarni tayyorlashdagi oʻrni.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1.Qosimova K., Matjonov S., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tilioʻqitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X.Husnixat va uni oʻqitish metodikasi. –T.:TDPU, 2013. –70 b.

3.Икромова Р, Ғуломова Х, Йўлдошева Ш, Шодмонқулова Д, Она тили, 4-синф, -Т.: 2017.

4. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2017.

5. Фузалиев С, Худойберганова М, Йўлдошева, “Она тили”, 3-синф, -Т,: “Ўқитувчи”, 2018.

6. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2016.

7. Қосимова К, Фузалиев С, Неъматова А, “Она тили”, 2-синф, -Т,: “Чўлпон”, 2018.

8. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2015.

9. Ғаффорова Г, Шодмонов Й, Ғуломова Х , “Она тили”, 1 - синф, -Т,: “Шарқ”, 2019.

10. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 1-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2014.

11. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2015.

12. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2016.

13. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2017.

14. Ҳ.Бакиева, Н.Аҳмедова, Н.Азизова, Д.Носирова, Б.Тешабоева, У.Исмоилова, Б.Эгамбердиева “Саводга ўргатиш дарслари”.-Т.: “Эхтремум-пресс”, 2014. -119 б

15. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Yevaluation of Yeducational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019.

Axborot manbalari

1.http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

2.http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

3.http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

4.www.pedagog.uz

5.www.timssandpirls.bc.edu.

6. www. pedagog. uz

7. www. Ziyonet. uz

«Mutaxassislikka kirish» fanining maqsadi, vazifalari, fanning obyekti va predmeti. Ijtimoiy hayotda narsa va hodisalar ishtirokidagi jarayonlarning yaratuvchisi, boshqaruvchisi sifatida *mutaxassis* so‘zi ishlatiladi. Mutaxassisni tayyorlash mutaxassisliklar asosida bevosita oliy ta’lim muassasalari (keyingi o‘rinda «OTM»)da amalga oshiriladi. ***Mutaxassislik*** – o‘quv rejaga

muvofiq oʻquv dasturini oʻzlashtirgandan keyin talabaga beriladigan oliy ta’lim darajasi, undan soʻng mutaxassisning malakasi (darajasi)dir. Bugungi kunga kelib Boloniya jarayonida ishtirok etish qoidalari bilan bogʻliq holda, yagona Yevropa oliy ta’limi dasturida ishtirok etuvchi mamlakatlar universitetlariga abituriyentlar uchun «mutaxassis» malaka darajasi oʻrniga oliy ta’limning ilmiy darajalari – bakalavr, magistr ishlatiladi.

Muayyan mutaxassisliklarning (masalan, shifokor,farmatsevt, kimyogar, xoreograf va boshqalar) oʻz nomi mavjud. Jamiyatda «mutaxassis» soʻzi bilan birgalikda usta soʻzidan ham foydalaniladi. Usta kasb-hunar egasi hisoblanib, malakali mutaxassis sifatida: pichoqchi usta, miskar usta, kashtadoʻz usta va hokazolar ishlatiladi. Ta’lim jarayonida ham kasb-hunar, ilm va shu kabilarni oʻrgatuvchi shaxs «usta» deb yuritiladi. Mutaxassis – biror sohada maxsus bilim va tajribaga ega boʻlgan kishi, ixtisos egasi. Masalan: fiziologiya mutaxassisi, qishloq xoʻjaligi mutaxassislari, yosh mutaxassislar. Mutaxassislik ilm-fan, texnika, sanoat sohalardagi mustaqil kasblardir. Mutaxassis – bu mohir tashkilotchi, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish masalasini amalga oshira oladigan xodim hisoblanadi. U odamlar bilan ishlaydi, jamiyatni boshqaradi, jamoa tajribasiga tayanib ish koʻradi, oʻz oʻrtoqlarining maslahatiga quloq soladi, qoʻlga kiritilgan yutuqlarga tanqidiy yondashadi. Bunday kishi yuqori madaniyatli, keng mulohazali, tadbirkor, oʻz ishining ustasi, jamiyatning haqiqiy ziyolisidir.

Oliy ta’limda talabalar 1-bosqichdan boshlab muayyan mutaxassislikni egallashlari uchun dastlab «Mutaxassislikka kirish» fani bilan tanishadilar. «Mutaxassislikka kirish» fanining maqsadi talabalarda ishlab chiqarish va mehnat faoliyatiga koʻnikma hosil qilishdan iboratdir. Bundan koʻzlangan maqsad talabalarni Oliy maktab hayotiga moslashtirish, uning sharoitini oʻzlashtirib olishda koʻmaklashish boʻlib, natijada fanlarni yaxshi oʻzlashtirishlarida yordam berish, ta’lim yoʻnalishiga tegishli fanlarni oʻzlashtirishga yuzaga keladigan muammolarning oldini olishdan iboratdir.

«Mutaxassislikka kirish» fanining **obyekti** asosan ta’lim va tarbiya jarayoni, **predmeti** esa tashkil qilinayotgan ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotidir.

Mutaxassislikka kirish fanini o‘qitishdan maqsad – bo‘lajak o‘qituvchi, tarbiyachilarni tayyorlash, O‘zbekiston ta’lim tizimi, ta’lim muassasalarini tashkil etilishining huquqiy, me’yoriy va uslubiy asoslari, auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv faoliyati, kasbiy faoliyatining asosiy vazifalari, pedagoglarga qo‘yiladigan talablar va ta’lim sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bilan tanishtirishdan iborat.

Mutaxassislikka kirish fanining vazifasi – ta’limning rivojlanish tizimini, ta’limni tashkil etish va boshqarishning huquqiy-me’yoriy asoslarini, mutaxassislikka kirish fanida pedagogning kasbiy faoliyati va unga qo‘yiladigan talablar, ta’lim muassasalarini boshqarish, kasbiy faoliyat vazifalari, ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishi, ta’limga oid ilmiy – tadqiqot ishlari bilan tanishtirish, ta’lim muassasasining o‘rni va ahamiyatini ochib berishdan iborat. Mutaxassislikka kirish fani birinchi kurs talabalariga o‘quv yurtlarining qisqacha tarixiy taraqqiyoti, ularning tuzilishi va vazifalari, o‘quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o‘qitish jarayonining asosiy shakllari, o‘quv rejasining mazmuni, ilmiy- tekshirish ishlari, o‘quv va ilmiy ishlarni bajarishda texnik vositalardan foydalanish, talabalarni huquq va burchlari, talaba trayektoriyasi va mustaqil ishlashni to‘g‘ri tashkil etish, kitob bilan ishlash, bibliografiya texnikasi kabilar bilan tanishtiradi. Ushbu kursda o‘quv materiallarning o‘zlashtirilishi uchun nimalar qilinishi lozimligi, o‘zlashtirishni hisobga olish, talabalarni nazoratlarga tayyorlash hamda ularni o‘tkazishni tashkil etish, talabalar o‘quv tadqiqot va ilmiy tekshirish ishlarining asosiy mazmuni, ularning turmushi, madaniyati va dam olishini tashkil etish, o‘quv mehnati va turmush nafosati singari sohalarga ham alohida o‘rin ajratiladi.

«Mutaxassislikka kirish» fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi. «Mutaxassislikka kirish» fanining xususiyatlari shundan iboratki (uni qo‘llash haqida gap ketganda), u tizimli, analitik, daliliy, ixtisoslashgan,umumlashtiruvchi, uslubiy, jamlovchi, vaqtinchalik, tekshiriladigan va ochiqdir.

Aslida fan – nazariy dalillar haqida bilimlarni amalga oshirish va hosil qilish uchun ilmiy va mantiqiy mezonlarga ega bo‘lgan usul. Ilmiy sohada *rasmiy, tabiatshunoslik, ijtimoiy* fanlar mavjud.

Ijtimoiy fanlar tarkibiga: pedagogika, psixologiya, jamiyatshunoslik (sotsiologiya), tarix va iqtisodiyot kiradi.

«Mutaxassislikka kirish» fani ijtimoiy fanlar tarkibidagi barcha fanlar bilan aloqadorlikda faoliyat yuritadi. Jumladan, pedagogika tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Psixologiya insondagi aqliy va ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, xislatlarni o'rganadi, hissiyot va g'oyalarning kelib chiqishi hamda oqibatlarini tahlil qilib, sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar va kategoriyalarni tadqiq qiladi. Jamiyatshunoslik (Sotsiologiya)insoniyat jamoalari o'rtasida va ichida o'rnatilgan munosabatlar, shuningdek, din, san'at, jins, adolat va boshqalar kabi jamoaviy hodisalarni tahlil qilish, o'rganishni nazarda tutadi. Tarix ham ijtimoiy fan sifatida (garchi u ba'zida turli xil tabiiy fanlar bilan bog'liq bo'lsada) o'tmishdagi voqealarni o'rganishga, insoniyat paydo bo'lganidan boshlab boshdan kechirgan eng muhim hodisalarning oqibatlarini izlash, tartibga solish va tushunishga e'tibor qaratadi. Iqtisodiyot jamiyatdagi harakatlantiruvchi hamda tartibga soluvchi ijtimoiy fan bo'lib, moddiy ne'matlar va xizmatlarni almashish, taqsimlash va iste'mol qilishni o'rganadi.

«Mutaxassislikka kirish» fanining dolzarbligi, mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni. Ta'lim va tarbiya «Mutaxassislikka kirish» fanining asosiy tushunchalari hisoblanadi.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi sanaladi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'limning

mohiyati, metodi, tashkiliy shakllarini o‘zgartirib boradi.

Ta’lim mohiyati – e’tibori bilan dars berish jarayonini, ya’ni pedagog (o‘qituvchi) faoliyatni, umuman o‘quvchining bilish, o‘rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda o‘quv jarayonini, ya’ni o‘quvchi faoliyatini bildiradi. Ta’lim jarayoni ta’lim beruvchi – o‘qituvchi va ta’lim olayotgan o‘quvchilar faoliyatining yig‘indisidan iborat. Ta’lim va tarbiya jarayonidashaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o‘sadi. Ta’lim avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorislikni ta’minlaydi. Kishilarning ijtimoiy tarixiy tajribalari yosh avlodga ta’lim orqali o‘tadi.

Ta’lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba’zi nazariyalar ta’limni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga bog‘liq bo‘lmagan hodisa sifatida baholasalar, ba’zilari esa ta’limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari qaratilganligini ta’kidlaydi.

Ta’limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o‘zgarib borgani kabi, ta’limning xarakteri, yo‘nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o‘zgarib boradi. Ta’lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta’lim shaxsda bilish qobiliyatlarni, yuksak his-tuyg‘ularni, idrok va tafakkurni tarkib toptiruvchi kuchli omildir.

Ta’lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini halqilish – jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, komil insonni tarbiyalashga yordam beradi.

Ta’lim o‘quvchining bilish qobiliyatini o‘stiruvchi asosiy omildir. O‘quvchilar qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzida namoyon bo‘ladi. Didaktik tamoyillarda ta’limning mazmuni va jarayonlariga qo‘yilgan talablar belgilanadi. Ta’limning maqsadi va vazifalari ijtimoiy muhit, shuningdek, muayyan o‘quv yurtlari funksiyasigamuvofiq tarixan o‘zgarib boradi. Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta’lim tizimining barcha yo‘nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. 1996-yildan

boshlab lotin imlosiga asoslangan yangi oʻzbek alifbosi joriy etildi va shu yildan boshlab yangi yozuv asosida dasturlar, qoʻllanmalar va darsliklar yaratishga kirishildi, oʻqituvchilar lotin imlosi asosidagi yangi oʻzbek alifbosi boʻyicha qayta tayyorlash kurslaridan oʻtkazildi. Xalq talimi boʻlimlari qoshida bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligini belgilaydigan

«Tashxis markazlari» tashkil etildi. Oʻquvchilarning bilim va koʻnikmalarini reyting asosida nazorat qilish, maktab bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyasini kompyuter yordamida test orqali amalga oshirish, ta'lim amaliyotini diagnostik tahlil etish, ta'lim muassasalarida marketing tizimidan foydalanish kabi qator pedagogik yangiliklar joriy etildi. Texnika taraqqiyoti asriga kelib, yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda «Ta'lim toʻgʻrisida»gi qonuni qabul qilindi. Ta'lim mazmuni va mohiyatini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilish, Xalqaro baholash dasturlaridan unumli foydalanish, kreativ va tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini takomillashtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Ta'lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq, ijtimoiy shart-sharoit, fan va texnika, adabiyot va san'at holati va shu kabilarni hisobga olgan holda belgilanadi. Professional ta'lim va oliy oʻquv yurtlaridagi ta'limning mazmuniga umumiy ma'lumotdan tashqari muayyan kasb va mutaxassislik uchun zarur boʻlgan maxsus bilim, malaka va koʻnikmalar ham kiradi. Ta'lim mazmuni oʻquv reja va dasturlari, darslik va boshqalarda yoritiladi. Ta'limda qoʻyilgan maqsadga erishish uchun turli metod, vosita, tashkiliy tizim va shakllar (ma'ruza, suhbat, tajribalar oʻtkazish, koʻrgazmali qurollarni qoʻllash, kuzatish, mashq va shu kabi)dan foydalaniladi. Oʻquv jarayonida texnik vositalar (kino, televideniye, radio, kompyuter, EHM va boshqalar)ni keng qoʻllash ta'lim metodini ishlab chiqishga kata ta'sir koʻrsatadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim maqsadlarida axborot- kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish ham keng qoʻllanilib kelinmoqda. Ta'lim AKTlariga bulutga asoslangan oʻquv dasturlari, ilovalar, bloglar yoki forumlar, raqamli doskalar, talabalar va oʻqituvchilar uchun turli interaktiv onlayn vositalardan foydalanishni misol tariqasida keltirish mumkin.

Ta’limni tashkil etishning umumiy ta’lim, alohida (individual) ta’lim, tashkiliy ta’lim, sinf-dars ta’limi, kurs tizimi ta’limi va boshqa turlari mavjud. Hozirgi sharoitda ijtimoiy talablar, o‘quvchilarning imkoniyati va ehtiyojlariga muvofiq ta’lim tobora takomillashtirilib, yangi metod va shakllari ishlab chiqilmoqda.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon va ayniqsa, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiya bo‘lmasa na bir odam, na kishilik jamiyati mavjud bo‘la oladi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

Pedagogik adabiyotlarda «Tarbiya» atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda, tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyatda ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy muhit, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi.

Tor ma’noda tarbiy shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi estetik didining o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bu oila, tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlarida amalga oshiriladi. Ta’lim va ma’lumot olish tor ma’nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki ta’lim va ma’lumotolish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay,balki axloqiy-ma’naviy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi.

Yosh avlodning,umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o‘sish va rivojlanish uchun har qanday

jamiyatda hammoddiy va ma’naviy boyliklar, ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma’naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yoshavlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo‘lishi lozim.

Ta’lim va tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan:

Markaziy Osiyodagi pedagogik qarashlar qadimgi turkiy yozuvlar, tangriga e’tiqod qilish tamoyillarida va zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari, Sharq xalqlari tabiatning asosiy unsurlari – yer, suv, havo va olovni e’zozlash haqidagi qarashlari va g‘oyalari Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga keng yoyilib, Qadimgi Misr, Bobil, Lidiya mamlakatlari xalqlarining tafakkur tarziga singib ketgan. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, Yunonistonning ilk falsafiy maktabi- Milet maktabi ham o‘z g‘oyalarini Sharqdan olgan. Miloddan avvalgi 2 – 1-asrlarda Marv, Balx, Termiz, Sig‘noq, Samarqand, Buxoro zaminini o‘ziga qamrab olgan hududda kushonlar saltanati qaror topib, unda budda dini hukm suradi, uning mohiyati bu joyda yashovchixalqning tafakkur tarziga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ammo Avesto g‘oyalari xalq ongidan butunlay chiqib ketmaydi. Milodiy 3-asrga kelib tenglik g‘oyalarini ilgari suruvchi moniylik ta’limoti paydo bo‘ldi. Bu ta’limot mazdakiylar harakatining ma’naviy tayanchi bo‘lgan.

Markaziy Osiyo Zardushtiylik, keyinchalik esa Islom dinlari ta’sirida shakllangan. Sharqona tarbiya mazmunini xalq og‘zaki ijodi, Qur’oni karim va hadisi sharif tashkil qildi va tarbiyaning bosh maqsadi «komil inson» tarbiyasiga qaratildi.

Mashhur faylasuflardan biri Ibn Sino O‘rta Osiyo va umuman, Islom olamida ta’lim va tarbiya mazmunini shakllantirishda yuksak hissa qo‘shdi. Bunda u Arastu va Aflotunishlariga tayandi. Ibn Sino o‘quvchilar o‘rtasida raqobatbardoshlik va taqlid qilishning ahamiyati, guruh bahslari va munozaralarning foydaliligini aytib, o‘quvchilarni birgalikda, jamoada o‘qitishning afzalliklari

to‘g‘risida bir qator fikrlarni ilgari surdi. Abu Ali ibn Sino 6 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun mo‘ljallangan o‘quv dasturida Qur’onni o‘rganish, metafizika, til, adab (husnixat), axloq qoidalari va qo‘lda ishlash ko‘nikmalarini kiritgan. Biroq G‘azzoliy ayollarga ko‘proq mos keladigan adabni maktabda o‘qitishga qat’iy qarshi bo‘lgan. U bolalarga donishmandlarning asarlarini o‘rgatishni va ularni islom asosining muhim shaxslari, Payg‘ambar sahobalarining hayoti bilan tanishtirishni tavsiya qilgan. Nosiriddin Tusiy o‘quvchilarning yoshiga, hissiy rivojlanishiga yordam berishni maslahat bergan. Chunki bolalar bir-biridan tabiiy ravishda farq qiladi. Masalan, ba’zi o‘quvchilar o‘qish qobiliyatini, boshqalari qo‘lda ishlash ko‘nikmalarini, boshqalari adabiyotni egalashni, ba’zilari esa voiz bo‘lishni o‘zlarida namoyon qiladilar, shu bois, o‘quvchilar ushbu fanlarga qiziqishlariga qarab jalb qilinishi lozim, deb ta’kidlagan olim. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ta’limga e’tibor, ilm-fanga homiylik davlat siyosatiga aylangan. Barcha shaharlarda oliy ta’lim dargohlari madrasalar barpo etilib, o‘z davrining yetuk olim-u ulamolari tolibi ilmlarga dars berishga jalb etilgan. Sohibqiron birinchi galda ta’lim va tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ilmli, ma’rifatli shaxslarning jamiyatdagi mavqeyini ko‘tarish yo‘lidan borgan. Ulkan saltanatning barcha shahar va yirik qishloqlarida ko‘plab boshlang‘ich maktablar barpo etilgan. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, bu davrda o‘g‘il bola 4 yil, 4 oy va 4 kunlik bo‘lganda maktabga berish an’anasi amalda bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim ulkan saltanatning barcha madaniy o‘lkalarini qamrab olgan edi.

Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida Samarqandda Rasadxona, Buxoroda, G‘ijduvonda va Samarqandda madrasalar qurilgan. Bu davrda birgina Samarqand shahrida 100 dan oshiq olimlar fanning turli sohalarida ajoyib yutuqlarga erishgan. Ular orasida Taftazoniy, Mavlono Ahmad, o‘z zamonasining «Aflotuni» deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy, Muhammad Hafoviy, mavlono Ali Qushchi va boshqa taniqli zotlar bor edi. Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasida oltmishga yaqin olimlar fanning turli sohalarida faoliyat olib borgan. Qozizoda Rumiy Ulug‘bekning «Ziji Ko‘ragoniy» asaridayulduzlar jadvalini tuzishda

qatnashgan.

XVI – XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida xalq ta’limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo‘lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qorixonalar mavjud bo‘lgan. Madrasalar musulmon oliy o‘quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Odatda, maktablarda asosan o‘qish va yozish, arifmetika va adabiyot o‘qitilgan. Qorixonalarda esa asosan ko‘zi ojizlar o‘qib, Qur’on, doston va she’r-u g‘azallar yodlaganlar. Maktablar qizlar uchun alohida, o‘g‘il bolalar uchun alohida bo‘lgan.

Sho‘ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo‘ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash shakllangan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o‘zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko‘rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiqi tufayli «tarbiya»da ijtimoiy muassasalarning o‘rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli hisobga olinmadi.

Sho‘rolar davrida tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin, degan qarash hukmron bo‘lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo‘lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo‘lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo‘nalishga solinishi mumkin bo‘lgan qiyofasiz to‘da, olomon tarzida qarash qaror topdi, bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy obyekti bo‘lmish shaxs va uning o‘ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho‘ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog‘liq jarayonlar yangi hamda sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv shakllana boshladi. Uni izohlashda g‘ayriilmiy

sinfiy-partiyaviy g‘oyalardan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e’tibor qaratildi. Buning uchun xalqpedagogikasi boyliklari, o‘zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o‘rganildi. Natijada, O‘zbekiston pedagogikasi fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o‘ziga xos o‘rni borligi tan olina boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo‘ldi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to‘g‘ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to‘g‘ri tayin etish imkonini berdi.

Bugungi kunda zamonaviy tarbiya va ta’limning maqsadi har tomonlama barkamol, XXI asr ko‘nikmalariga ega shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, jamiyat a’zolarining maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish, jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi «inson kapitali»ni tayyorlash, umuminsoniy madaniyatlardan xabardor bo‘lish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash, ma’lum jins va kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a’zolarining harakatini tartibga solish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Savol va topshiriqlar

1.Mutaxassislikka kirish fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

2.Mutaxassislikka kirish fanining obyekti va predmeti haqida ma’lumot bering.

3.Mutaxassislikka kirish fani qaysi fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda faoliyat yuritadi?

4.Mutaxassislikka kirish fanining dolzarbligi, mutaxassislar tayyorlashdagi o‘rnini izohlang.

2-MAVZU. BOSHLANG‘ICH SINF DAVLAT TA’LIM STANDARTI VA O‘QUV DASTURI MAZMUNI.

Reja:

1.Ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish usullari.

2. Nutqiy kompetensiyalar va lingvistik kompetensiyalarga DTSda qo‘yiladigan talablar.

3. O‘qitishning mazmunini aniqlovchi asosiy hujjat.

Tayanch so‘zlar: *ta’lim mazmuni, Davlat ta’lim standarti, malaka talablari, o‘quv va ishchi o‘quv reja, fanning o‘quv dasturlari, kompetensiya, nutqiy kompetensiya.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tilio‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X.Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.:TDPU, 2013. –70 b.

3.Икромова Р, Ғуломова Х, Йўлдошева Ш, Шодмонқулова Д, Она тили, 4-синф, -Т.: 2017.

4. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2017.

5. Фузалиев С, Худойберганова М, Йўлдошева, “Она тили”, 3-синф, -Т,: “Ўқитувчи”, 2018.

6. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2016.

7. Қосимова К, Фузалиев С, Неъматова А, “Она тили”, 2-синф, -Т,: “Чўлпон”, 2018.

8. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2015.

9. Ғаффорова Г, Шодмонов Й, Ғуломова Х , “Она тили”, 1 -синф, -Т,: “Шарқ”, 2019.

10. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 1-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2014.

11. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2015.

12. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2016.

13. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2017.

14. Ҳ.Бакиева, Н.Аҳмедова, Н.Азизова, Д.Носирова, Б.Тешабоева, У.Исмоилова, Б.Эгамбердиева “Саводга ўргатиш дарслари”.-Т.: “Эхтремум-пресс”, 2014. -119 б

15. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Yevaluation of Yeducational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019.

Axborot manbalari

1.http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

2.http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

3.http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

4.www.pedagog.uz

5.www.timssandpirls.bc.edu.

6. www. pedagog. uz

7. www. Ziyonet. uz

Ta’lim mazmuni tushunchasi. Ta’lim mazmuni talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi, shuningdek, ijodiy faoliyat tajribasi va dunyoga hissiy-irodaviy munosabati. Ta’lim mazmuni fanning hozirgi holatiga mos keladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning pedagogik jihatdan fanlarning umumiy asoslariga ta’lim jarayonida

ishtirok etuvchi shaxslarning mulki bo‘ladigan tarzda qayta ishlangan yig‘indisi. Jamiyatimizdagi o‘zgarishlar sharoitida pedagogika bir vaqtning o‘zida butun jamiyat manfaatlariga javob beradigan va shu bilan birga, har bir shaxsning qobiliyat va iste’dodini jadal rivojlantirishga qaratilgan ta’lim mazmunini shakllantiradi. Ta’lim mazmuni – davlat standarti, tegishli fan bo‘yicha o‘quv rejasi va hokazo hujjatlarda mustahkamlanadi. Muayyan ta’lim muassasasida ta’lim mazmuni ushbu ta’lim muassasasi tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladigan, qabul qilinadigan va amalga oshiriladiganta’lim dasturi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti Ta’lim mazmunini aks ettiruvchi hujjatlar: Davlat ta’lim standartlari (keyingi hollarda DTS deb ishlatiladi), Davlat ta’lim talablari (keyingi hollarda DTT deb ishlatiladi), malaka talablari, o‘quv va ishchi o‘quv reja, fanning o‘quv dasturlari.

Davlat ta’lim standartlari – davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui. Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional hamda oliy ta’lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi.

Davlat ta’lim talablari – maktabdan tashqari ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini, ta’lim tuzilmasini va ta’limni amalga oshirish shartlarini, ta’lim oluvchilarningjismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy va kasbga oid sifatlari to‘g‘risidagi normalarni belgilaydi.

Oliy ta’lim muassasida o‘qitishning mazmunini aniqlovchi asosiy hujjat o‘quv rejasi va dastur hisoblanadi. O‘quv rejasi - bu davlat hujjati bo‘lib, mazkur o‘quv muassasida o‘quv-tarbiyaviy jarayonning mazmunini, hajmini, turini, ketma-ketligini, davrini va muddatini aniqlab beradi. Bu hujjatda ko‘rsatilgan o‘quv fanining ro‘yxati, ularni o‘rganish ketma-ketligi, soatlar miqdori, maslahat va imtihonlar, shuningdek imtihonlar ro‘yxati har bir guruh uchun majburiy hisoblanadi va uni O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi ruxsatisiz o‘zgartirib bo‘lmaydi. O‘quv rejasi o‘ziga umumta’lim va professional- texnik ta’lim zanjirini biriktiradi va bu fanlar bo‘yicha fan tartibi, haftadagi soatlar miqdori, ta’lim davri keltiriladi. Barcha bu tavsiflar soatlar

setkasida namoyon bo‘ladi. O‘quv soatlari taqsimoti – o‘qitiladigan o‘quv predmetining zanjirlar bo‘yicha ro‘yxatini va o‘quv yo‘qlamasining haftadagi, yarim yillikdagi, o‘quv yilidagi va butun ta’lim davridagi muddatining soatlardagi qiymatini o‘rnatadi. Umumlashtirilgan mavzular rejasi – ishlab chiqarish mavzusini va o‘quvyili strukturasi (o‘quv mashg‘ulotlar, imtihonlar, ta’til va h. k.) ni muvofiqlashtiradi.

Fanlarning o‘quv dasturlari – bu davlat hujjati bo‘lib, nazariy va ishlab chiqarish ta’limining mavzularini o‘rganishda mazmunini, majburiy hajmini ketma-ketligini aniqlab beradi. O‘quv dasturi har bir o‘quv rejasi uchun ishlab chiqiladi. Darslik-ma’lum soha bo‘yicha o‘quv hujjatlari asosida tuziladi. Unda ma’lum predmet bo‘yicha ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadi. O‘quv qo‘llanma-bosma, grafikaviy tasviriy va boshqa materiallardan iborat bo‘lib, ta’lim va tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun mo‘ljallanadi. O‘quv qo‘llanmasining namunali varianti (yoki uning qismi) quyidagilarni ko‘zda tutadi; kirish (qo‘llanmaning ma’lum nomlanishi, uning bo‘limi, qismi, mavzusi ko‘rsatilgan hisob vazifani qo‘yish); bayon etish (topshiriqni yechish jarayoni, isbot yo‘llari, muhokama va boshqalar); xulosa bilan tugatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasida maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: 2022 -2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur (keyingi o‘rinlarda Rivojlantirish dasturi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin (1-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, quyidagilar Rivojlantirish dasturining

asosiy yoʻnalishlari etib belgilansin:

-maktab ta’limiga ilgʻor xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan;

-milliy oʻquv dasturini toʻlaqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

-jamiyatda oʻqituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib ragʻbatlantirish;

-oʻqituvchilarning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

-umumiy oʻrta ta’lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilgʻor maktab direktori va namunali oʻqituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish;

-umumiy oʻrta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yoʻnalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish, bola ta’lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning oʻrnini oshirish;

-oʻquvchilarning boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yoʻnaltirish tizimini takomillashtirish;

-alohida ta’lim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga integrasiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv ta’lim jarayonlarini jadallashtirish;

-umumiy oʻrta ta’limda barcha ma’lumot almashinuvi jarayonlarini maktabgacha va maktab ta’limi tizimini boshqarishning yagona dasturiy majmuasi orqali amalga oshirilishini hamda ushbu sohada elektron davlat xizmatlari koʻlamini kengaytirish;

-umumiy oʻrta ta’lim muassasalarining navbatlilik koeffisientini optimal darajaga yetkazish, zamonaviy modellar boʻyicha maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash hamda zarur jihozlar bilan ta’minlash.

Xalq ta’limi vazirligi tomonidan xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida Milliy oʻquv dasturi yaratilganligi va 2021/2022-oʻquv yilidan boshlab 1- va 2-sinflarda 252 nomdagi yangi zamonaviy

darsliklar, oʻquvchi mashq daftarlari hamda pedagoglar uchun oʻquv qoʻllanmalar joriy qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

-oʻquv qoʻllanmasining namunali varianti (yoki uning qismi) quyidagilarni koʻzda tutadi;

-kirish (qoʻllanmaning ma’lumnomlanishi, uning boʻlimi, qismi, mavzusi koʻrsatilgan hisob vazifani qoʻyish);

-bayon etish (topshiriqni yechish jarayoni, isbot yoʻllari, muhokama va boshqalar); xulosa bilan tugatiladi.

Yechishning tizimlashgan va argumentlangan natijasi oʻquv jarayoni ta’limning oxirgi natijalariga erishish maqsadida oʻqituvchi va oʻquvchining maqsadli. Oʻquv jarayoni-oʻzaro boʻgʻlangan elementlardan tashkil topgan murakkab pedagogik sistemani: maqsadi, mazmunini, shakli, uslubi va oʻqitish vositalarini namoyon qiladi. Oʻqitishning psixologik-pedagogik qonunchiligiga boʻysunadi, ta’limning didaktik tamoyillariga qat’iy rioya qilishni talab qiladi. Oʻquv rejasida koʻrsatilgan fanlar ularni oʻrganish tartibi, har bir oʻquv faniga ajratilgan vaqt, konsultatsiya va imtihonlar barcha oʻquv guruhlari uchun majburiydir. Oʻquv rejasi oʻquv yurtining turi, maqsadi va vazfalarini, oʻquvchilarning soni va oʻqish muddatini belgilovchi davlat hujjatlari asosida ishlab chiqiladi. Oʻquv rejasiga kirgan hujjatlarni malaka tavsifnomasi, mavzular rejasi va oʻquv dasturlari tashkil etadi.

Malaka tavsifnomasi-ishchining bilimi hamda kasbiy saviyasiga qoʻyiladigan asosiy talablar mujassamlangan normativ hujjatdir. Unda ishchi u yoki bu kasbi doirasidagi ishlarni ongli va toʻgʻri bajarishi uchun egallashi zarur bilimlar ifodalanadi.

Oʻquv rejasida koʻrsatilgan fanlar ularni oʻrganish tartibi, har bir oʻquv faniga ajratilgan vaqt, konsultatsiya va imtihonlar barcha oʻquv guruhlari uchun majburiydir. Oʻquv rejasi oʻquv yurtining turi, maqsadi va vazfalarini, oʻquvchilarning soni va oʻqish muddatini belgilovchi davlat hujjatlari asosida ishlab chiqiladi. Oʻquv rejasiga kirgan hujjatlarni malaka tavsifnomasi, mavzular rejasi va oʻquv dasturlari tashkil etadi. Malaka tavsifnomasi ishchining bilimi hamda kasbiy saviyasiga qoʻyiladigan asosiy talablar mujassamlangan normativ hujjatdir. Unda ishchi u yoki bu kasbi doirasidagi ishlarni ongli va toʻgʻri bajarishi uchun egallashi zarur bilimlar ifodalanadi. Malaka tavsifnomasi ish va kasblar, xalq

xo‘jaligining muayyan sohalaridagi mashg‘ulotlarning yagona ta’rif malaka ma’lumotnoma asosida tuziladi.

Malaka tavsifnomasida kasb va ixtisoslarning aniq nomlari, texnik va maxsus bilimlar, mehnat ko‘nikma va malakalari, malaka oshirish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar ifodalanadi. Bu hujjatlar o‘quv rejasi va dasturlarini tuzishda asos bo‘ladi, shuningdek bitirish imtihonlarida o‘quvchilarning bilimlarini sifatli aniqlash uchun xizmat qiladi.

Mavzular rejasi-o‘quv dasturining bir qismini tashkil etib, unda mavzularning tartibi va nomi, ularning o‘tish uchun, shu jumladan, nazariy, laboratoriya amaliy mashg‘ulotlari va ishlab chiqarish ta’limi uchun ajratilgan vaqtlar ko‘rsatiladi. O‘quv dasturlari, Fanni hajmini, uni o‘qitishning mazmuni va tartibini belgilaydi.

Ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish usullari.

Nutqiy kompetensiyalar va lingvistik kompetensiyalarga DTSda qo‘yiladigan talablar. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi yuqori sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining dastlabki bosqichi bo‘lib, u tekshiradigan masalalarniboshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tadbiqan (muvofiq ravishda) o‘rgatadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish grammatika, imlo va unga bog‘liq holda nutq o‘stirish metodikasinigina emas, balki xat-savod o‘rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o‘qish metodikalarini ham o‘z ichiga oladi.

Ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi — o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan — muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limi muassasalarida Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi:

-o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

-o‘quvchlarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi,

morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

-ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Ona tili fani bo‘yicha umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari (barcha ta’lim olish tillari bo‘yicha) bitiruvchilariga qo‘yilgan malaka talablari:

1. Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish*):

A1

-berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi;

-matnni tushunib o‘qiy oladi;

-og‘zaki nutqda so‘z va gaplar talaffuziga rioya qila oladi;

-65 — 70 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi;

- xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yarata oladi, xatboshi va husnixatga amal qiladi;

-imlo va tinish belgilarini ishlatish qoidalariga amal qila oladi;

-do‘sti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma yoki xat yoza oladi.

A1+

-sodda matnning asosiy mazmunini tushunadi va tushuntira oladi;

- matn mazmunini tushunib ifodali o‘qiy oladi;

-70 — 75 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi;

-7-8 gapdan iborat xabar yoki rasm asosida matn tuza oladi.

2. Lingvistik kompetensiya (*fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika,grammatika va uslubiyatga oid*):

A1

-ona tilidagi nutq tovushlarini farqlay oladi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga amalqila oladi;

-mavzuga oid yangi so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi;

-yozma nutqda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay oladi.

A1+

-so‘zlarning tovush tarkibini orfoepik jihatdan to‘g‘ri shakllantira oladi;

-gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini farqlay oladi va

yozma nutqda oʻrinli qoʻllay oladi.

Boshlangʻich taʼlimda **–** oʻquvchilarning savodxonligini taʼminlash, ularni ogʻzaki va yozma nutqida adabiy nutq meʻyorlariga rioya qilishga oʻrgatishdan iborat. Mazkur ona tili oʻquv dasturi quyidagi boʻlimlarni oʻz ichiga oladi:

Savod oʻrgatish va nutq oʻstirish.

Fonetika, grammatika, imlo va nutq oʻstirish.

Savodga oʻrgatish davri 2-sentabrdan to dekabr oyining oxirigacha boʻlgan muddatni, yaʼniikki oʻquv choragini qamrab oladi. Savodga oʻrgatish jarayoni tayyorgarlik va alifbe davridan tashkil topadi. Tayyorgarlik va alifbe davrida taʼlim savodga oʻrgatishning tahlil-tarkib (analitik-sintetik) tovush usulida amalga oshiriladi. Savodga oʻrgatishning tahlil-tarkib usuliga koʻra matndan gap, gapdan soʻz, soʻzdan boʻgʻin va tovush, yoki aksincha, tovush > boʻgʻin > soʻz > gap > matn uzviy aloqada butundan boʻlakka, boʻlakdan butunga qarab tahlil-tarkib qilinadi. Bu esa oʻquvchilar tafakkur ini onglilik, tushunarlilik, mantiqiylik, didaktik mezonlar asosida rivojlantirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Boshlangʻich taʼlimning ilk savodgaoʻrgatish davridanoq, oʻquvchilar nutqini yangi soʻzlar hisobiga boyitishga alohida eʼtibor qaratiladi.

“Alifbe” darsligida berilgan: yangi soʻzlar, matn, kichik hikoya va sheʻrlardan foydalanib, oʻquvchilarni soʻz maʼnosi bilan atroflicha tanishtirishda, sheʻriy va nasriy matnlarni yodlatish, qayta hikoyalashga eʻtibor beriladi. Sinfdan tashqari oʻqish darslari oʻquvchilarni bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirib borishga, ularni mustaqil oʻqishga, oʻqituvchi va ota-onalar yordamida badiiy oʻqishga qiziqtirish, nutqini boyitish va rivojlantirishga yordam beradi. Boshlangʻich taʼlimning ilk savodga oʻrgatish davridanoq, oʻquvchilar nutqini yangi soʻzlar hisobiga boyitishga alohida eʼtibor qaratiladi.

Ona tili erkin fikrlay olish, oʻzgalar fikrini anglash, oʻz fikrlarini ogʻzaki va yozma ravishda bayon qila olish, kishilar bilan erkin muloqotda boʻla olish koʻnikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili (1-4-sinf) mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Nutq va gap.

Ona tilining fonetik tizimi: nutq tovushlari va harflar, unli tovushlar va harflar, undosh tovushlar va harflar, jarangli va jarangsiz undoshlar, alifbo, bosh va kichik harflar, tutuq belgisi (fonetik tahlil).

Bo‘g‘in va bo‘g‘in tuzilishi, so‘zlarni bo‘g‘inlab ko‘chirish. So‘z va so‘z ma’nolari (lug‘aviy tahlil: bir ma’noli so‘zlar, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar);

So‘z tarkibi: asos va qo‘shimcha (turlovchi, tuslovchi va yasovchi), asoslarda tovush o‘zgarishi, asos va qo‘shimchalar imlosi;

So‘z ma’nosi: so‘zlarning ma’nosiga ko‘ra guruhlash: shaxs-narsalar nomini bildiruvchi so‘zlar, shaxs-narsalarning harakatini, belgisini, sanog‘ini va tartibini bildiruvchi so‘zlar, shaxs-narsaga ishorani ifodalovchi so‘zlar (shaxsga nisbatan kishilik olmoshi).

Gap, gapning fikr bildirishi, gapning maqsadga ko‘ra turlari (darak, so‘roq, buyruq va his-hayajonni bildiruvchi gaplar), gapda tinish belgilarining ishlatilishi (nuqta, so‘roq, undov va h.k.), yozma nutqda ishlatiladigan muhim (ayrim) belgilar: vergul, qavs, ikki nuqta, ko‘p nuqta;

Gapning gap bo‘laklariga ko‘ra tuzilishi: gapning asosiy mazmunini bildiruvchi bo‘laklar (ega va kesim), gapning asosiy mazmunini to‘ldiruvchi bo‘laklar (ikkinchi darajali bo‘laklar – ularning turi va nomlaridan mustasno);

Gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi, so‘z birikmasi, gapning uyushiq bo‘laklari, ularning o‘zaro bog‘lanishi (ohang, bog‘lovchi so‘zlar yordamida);

Undalma uning shaxsga qarab bilishi, undalmali gaplarda tinish belgisining ifodalanishi. Gap va matn, matnning tuzilishi: mavzu, voqea tafsiloti, asosiy fikr bayoni, xulosa chiqarish, reja tuzish, sarlavha, xat boshi, dialog, monolog nutq, bayon, kichik hikoya;

Undalma uning shaxsga qarab bilishi, undalmali gaplarda tinish belgisining ifodalanishi. Gap va matn, matnning tuzilishi: mavzu, voqea tafsiloti, asosiy fikr bayoni, xulosa chiqarish, reja tuzish, sarlavha, xat boshi, dialog, monolog nutq, bayon, kichik

hikoya;

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch va fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning shakllantirilishi belgilab berilgan. Bunga ko‘ra, Ona tili fanini o‘qitish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagi tayanch kompetensiya elementlari shakllantirilib boriladi.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari: Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

-radiodan eshitgan, televizordan ko‘rgan lavhalarni tushunish va turli manbalardan kerakli ma’lumotlarni izlab topish hamda undan foydalana olish;

-darsda kitob bilan ishlay olish, o‘rganilayotgan mavzuni, kerakli qoidani, mashqni topish, mashq topshiriqlarini tartibi bilan bajarish.

A1+

-media vositalaridan, didaktik materiallaridan foydalanib, topshiriqlarni bajarish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

-o‘quv fanlarini o‘rganish va bir-biridan farqlash;

-mustaqil ma’noga ega bo‘lgan bir necha so‘zdan tuzilgan so‘zni topish va namuna asosida so‘zlar tuzish;

-rasmli kitoblar, jurnal va gazetalarni mustaqil o‘qib-o‘rganish orqali bilimini muntazam oshirib borish;

-kun tartibiga rioya qilish, uni to‘g‘ri tashkil etish va badantarbiya bilan shug‘ullanish;

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

-orasta kiyinish va gigienik talablarga amal qilish;

-maktabning ichki qoidalariga va odob-axloq qoidalariga rioya qilish;

-yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish;

-milliy bayramlarni, milliy qadriyatlarni, o‘zi yashab turgan tarixiy obidalarni bilish va ularni bir-biridan farqlash.

A1+

Vatanimizda mustaqillik yillarida bunyod etilgan inshootlarni hamda tarixiyobidalarni bilish va ularni bir-biridan farqlash.

TK - tayanch kompetensiyalar

TK1 - kommunikativ kompetensiya
TK2 - axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
TK3 – o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi
TK4 - ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
TK5 - milliy va umummadaniy kompetensiya
TK6 - matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardorbo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - nutqiy kompetensiya
FK2 - lingvistik kompetensiya

Kommunikativ kompetensiya:

B1

-jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun kundalik hayotda uchraydigan ona tiliga oid birikmalar va mazkur birikmalarning nomini faqatgina ona tilida emas, balki xorijiy tillarda ham bilish.

B1+

-o‘zaro samarali muloqotga kirisha olish layoqati.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

B1

-media manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish. Xavfsizlik choralari haqida bilish.

B1+

-media manbalardan olingan ma’lumotlarni saralash va ulardan samarali foydalana olish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

B1

-kimyo fani va undagi asosiy qonuniyatlar haqida bilish, doimiy ravishda o‘zini o‘z rivojlantirib, kamolotga intilish, kimyo bo‘yicha bilimlarni mustaqil ravishda oshirib borish.

B1+

-bilim va tajribalari asosida hayot davomidagi tajribasidan foydalangan hisob kundalik turmushda uchraydigan muammolarni

hal eta olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

B1

-jamiyatda oʻz oʻrnini bilgan hisob tabiatdagi voqea, jarayonlarga daxldorlikni his etib, ona tiliga oid moddalardan iborat boʻlgan tabiat boyliklarini muhofaza qilish ishlarida faol ishtirok qilish.

B1+

-tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni, mahsulotlardan tejab foydalanishni bilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:

B1

-organik kimyo fanining rivojlanish tarixi va bu yoʻnalishdagi Vatanimiz kimyo sohasining taraqqiyoti, oʻzbek kimyogarlarining olib borayotgan ishlaridan xabardor boʻlish.

B1+

-vatanga sadoqatli boʻlishni oʻrganish, orasta kiyinish madaniyatiga ega boʻlish, badiiy va san’at asarlari hisoblangan me’moriy obidalarni qayta tiklashda ona tiliga oid birikmalarning ahamiyatini bilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:

B1

-organik kimyo fanining rivojlanish tarixi va bu yoʻnalishdagi Vatanimiz kimyo sohasining taraqqiyoti, oʻzbek kimyogarlarining olib borayotgan ishlaridan xabardor boʻlish.

B1+

-vatanga sadoqatli boʻlishni oʻrganish, orasta kiyinish madaniyatiga ega boʻlish, badiiy va san’at asarlari hisoblangan me’moriy obidalarni qayta tiklashda ona tiliga oid birikmalarning ahamiyatini bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi:

B1

-oʻrganilgan bilimlar asosida hisoblashlarni bilish va fan-texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish.

B1+

-mavzular asosida oʻrganilgan bilimlar orqali kundalik turmushda foydalaniladigan jarayonlardagi hisoblashlarni, mehnat

unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish.

Mazkur o‘quv dasturda fanni chuqurlashtirilib o‘qitiladigan sinflar uchun mavzularga ajratilgan soatlar alohida ko‘rsatilgan. Shuningdek, me’yoriy hujjatlarni yuritishda tayanch va fanga oid kompetensiyalar quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

TK – tayanch kompetensiya

FK – fanga oid kompetensiyalar

FK1–ona tiliga oid jarayon, hodisalarni kuzatish tushunish va tushuntirish kompetensiyasi

FK2 – element va birikmalarni ona tiliga oid tilda ifodalash kompetensiyasi

FK3–ona tiliga oid jihozlar bilan ishlay olish tajribalar o‘tkazish va amaliyotda qo‘llash kompetensiyasi.

Namunaviy matn ogzaki va yozma qayta hikoya qilinadi. O‘qish darslarida asosan og‘zaki qayta hikoyalash mashq qilinsa, ona tili darslarida u ko‘proq yozma tarzda o‘tkaziladi.

Bayon o‘qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma'lum tayy-orgarlikdan so‘ng yozma qayta hikoyalashdir. O‘qish darslarida matn ustida ishlash, o‘qilgan matn yuzasidan savollarga javob berish, reja tuzish va reja asosida og‘zaki qayta hikoyalash bolalarni bayon yozish-ga tayyorlaydi.

Qayta hikoyalashning turlari xilma-xildir. Har qanday qayta hikoya qilingan matn yuzasidan bayon yozish mumkin, ammo bayon yozish og‘zaki qayta hikoyalashga nisbatan qiyin va murakkab faoliyatdir. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozish sur'ati sekin, shunga ko‘ra bayon uchun kichik hajmdagi, kompozitsiyasi sodda, til tomondan ham mos matn tanlanadi. Bayon matni asta-sekin murakkablashtira boriladi: awal hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi matn tanlansa, unga yana lavhalar, tasvir elementlari kiri-tila boriiadi, qatnashuvchilar soni orttiriladi, muhokama elementlari ham qo‘shiladi; keyinroq shaxsini o‘zgartirib bayon yozishga o‘tiladi. Shunday qilib, bayon asta-sekin ijodiy tus ola boradi.

Boshlang‘ich sinflar ona tili dasturiga ko‘ra, 2-sinfda katta bo‘lmagan (30-40 so‘zli) matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida so‘roqlar asosida bayon yozish, 3-sinfda 40—60 so‘zdan iborat

matnning mazmunini jamoa bo‘lib tuzilgan 3-5 ta reja asosida bayon yozish, 4- sinfda esa mustaqil tuzilgan reja asosida (70-90 so‘zli) bayon yozish ko‘zda tutiladi.

Mashq sifatida bayonning ahamiyati katta: bayon bolalarda adabiy nutqni to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi, nutq madaniyatini yax-shilaydi, badiiy uslubni singdiradi, tilga sezgirlikni oshiradi.

Bayon uchun kishilarning fidokorona mehnati, hayotini, ona tabiat tasvirini, fan, texnika, madaniyat borasidagi yutuqlarni aks ettiradigan yuksak g‘oyali matn tanlanishi, bayon mavzusi o‘quvchilaming bi-lish tajribasini kengaytirishi, ularning dunyoqarashini shakllantirishi zarur.

Qayta hikoyalash va bayonda bolaning tabiiy nutqi eshitilishi, ya'ni berilgan namunani tushunmasdan yodlamasligi, namuna leksikasidan, nutq birliklaridan, sintaktik qurilishidan foydalana olishi zarur.

Til vositalari matnni o‘qish, suhbat, matn tahlili davomida o‘zlash-tiriladi; matndagi so‘zlar va nutq birliklari bolalarning „o‘ziniki" bo‘lib qoladi. Qayta hikoyalashda namunadagi u yoki bu gapni bola esga tushirishga harakat qiladi, o‘zlashtirgan mazmunni to‘liqroq, aniqroq berish uchun gaplar tuzadi. Bu bilan o‘quvchining mustaqillik darajasi va bilish faolligi o‘sadi, ijodiy elementlar qo‘shila boradi.

Qayta hikoyalashda namunadagi izchillik, bog‘liqlik saqlanishi, asosiy faktlar berilishi, ayniqsa, ilmiy matnni qayta hikoyalashda barcha muhim o‘rinlar to‘liq bayon qilinishi zarur.

Vaqti-vaqti bilan ilgari eshitilgan, o‘qituvchi o‘qib bergan yoki radio, televizordan yozib olingan matnni qayta hikoyalatish, o‘quvchi bir marta ovoz bilan yoki ichda o‘qigandan so‘ng qayta hikoyalatishdan foydalanishni tajribada qo‘llab turish ham mumkin. Bu ishni turli xil uslublarda olib borish imkoniyatini yaratadi va uni jonlantiradi. Ko‘pincha qayta hikoyalashga maxsus tayyorgarlik ko‘riladi, bunda quyidagilarga rioya qilinadi:

1. Qayta hikoyalash va uning turi haqida o‘quvchilar ogohlantiriladi: to‘liq, detallari bilan, tilning tasviriy vositalaridan foydalanib matnga yaqin qayta hikoyalash; tanlab (masalan, bir

qatnashuvchi shaxsga tegishli oʻrinlarinigina) qayta hikoyalash, qisqartib qayta hikoyalash.

2. Suhbat, matn mazmunini tahlil qilish, matn tili ustidagi xilma-xil ishlar, qayta hikoyalashda zarur boʻlgan soʻz, nutq birliklari va gaplarni ajratish va aniqlash.

3. Qayta hikoyalashda ifodalilikni berish uchun ifodali oʻqishni puxtalash.

4. Hikoyani mantiqiy va kompozitsion qismlarga boʻlish, har bir qismga sarlavha topish, matnni qayta hikoyalashga moʻljallangan rejani tuzish.

5. Matn qismlarini qayta hikoyalash, uning kamchiliklarini tahlil qilish.

6. Oʻquvchilarning hayotiga bogʻlash (oʻrni bilan), ya'ni oʻqilgan matn mazmuniga bogʻliq holda oʻquvchilarning shaxsiy tajribasida uchraydigan va uchragan analogik holatga e'tibor berish. Boshqacha qilib aytganda, har bir darsda ma'lum ta'lim maqsadi asosida qayta hikoyalashga muntazam oʻrgatib borish zarur.

Toʻliq yoki matnga yaqinlashtirib qayta hikoyalash

Qayta hikoya qilish va bayonning bu turi boshqa turlariga nisbatan boshlangʻich sinflarda koʻp oʻtkaziladi, chunki bu oʻqilgan matnni butun detallari va bogʻlanishlari bilan bolalar yodida mustahkamlash, namunaviy matnning mazmuni va tilini oʻzlashtirish vositasi boʻlib ham xizmat qiladi. Bolalar tez yodlab oladigan kichik matnni, she'riy misralarni buzmaslik uchun she'rni, ayniqsa, butun bir poetik obrazni tasvirlovchi lirik she'rni hikoya qilish tavsiya etilmaydi.

Toʻliq hikoya qilish uchun dastlab aniq sujetli, hikoya uslubida yozilgan matn tanlanadi, keyin bolalar hikoyaga tasviriy (tabiat tas-viri, kishilar va boshqa predmetlarning tashqi koʻrinishi tasviri) va muhokama elementlarini kiritishni oʻrganadilar.

Hikoya qilishga oʻrgatish vaqtida oʻquvchilarni „Bu fikr yozuv-chi asarida qanday ifodalangan?" savoliga javob berishga oʻrgatish maqsadga muvofiqdir.

Bola hikoya qilishga qiziqsa, agar hikoyani oʻqituvchigina emas, sinfdagi barcha bolalar eshitsa, bunday hikoyalash jonli va qiziqarli boʻladi. Hikoya qilishga oʻquvchilarning qoʻshimchasi,

ma'lum qismini qayta hikoya qildirish, hikoyachini rag‘batlantirish sinfda ijodiy muhitni vujudga keltiradi.

Matnga yaqin hikoya qilishda savollar matn mazmunigagina qaratilmasligi, o‘quvchilar mustaqillik darajasini pasaytiradigan matn mazmuni yuzasidan beriladigan savollarni asla-sekin kamaytira borish, bolalarni kengroq, umumiyroq savollarga javob berishga o‘rgata borish zarur.

To‘liq hikoya qiiishda hikoyani qanday boshlashni bilmaslik, ya'ni boshlanishi berilgan matn mazmunini davom ettira olmaslik, to‘liq bayon qila olmaslik yoki noto‘g‘ri bayon qilish, bayon tilining kambag‘alligi kabi kamchiliklar uchraydi. Hikoya qilishdagi ikkinchi kamchilikni yo‘qotish, uning oldini olish uchun matn butunicha puxta tahlil qilinadi, ko‘pincha asosiy mazmunni ifodalaydigan qismi alo-hida tahlil qilinadi. Bunday kamchilikni yo‘qotishga matnni qismlarga bo‘lish, har bir qismga sarlavha topib, matn rejasini tuzish va reja asosida hikoya qilish ham yordam beradi. Bunda tanlab hikoya qilish (hikoya qilishning o‘zaro uzviy bog‘langan boshqa turlari ham) yor-damchi vazifani bajaradi. Tilda kambag‘allikka yo‘l qo‘ymaslik uchun lug‘at, tasviriy vositalar va gap ustida izchil ishlab borish talab etiladi. To‘liq yoki matnga yaqin bayon yozish savod o‘rgatish davridanoq boshlanadi va barcha sinflarda o‘tkaziladi.

Bolalarni o‘z fikrini mustaqil yozishga (o‘qilgan matnni hikoya qilishga) o‘rgatishni, iloji boricha, erta boshlash ma'qul. Buning uchun o‘quvchilar og‘zaki hikoya qilayotganda qo‘llagan alohida so‘zni yozishdan gapni yozishga, so‘ng matn qismlarini yozishga va 2-sinfdan boshlab maxsus tanlangan kichik matn asosida bayon yozishga o‘rgatiladi.

Ish quyidagicha uyushtiriladi: bayon uchun tanlangan matnni o‘quvchilar bir-ikki marta o‘qiydilar (o‘qituvchi o‘qib berishi ham mumkin); bolalarning matn mazmunini to‘g‘ri tushunganliklarini aniqlash, o‘qilgan matnni, uning g‘oyaviy mazmunini, qismlari orasi-dagi bog‘lanishni to‘liq bilib olishga qaratilgan suhbat o‘tkaziladi; matn rejasi tuziladi (reja suhbat vaqtida tuzilishi ham mumkin); lug‘at ishi o‘tkaziladi (so‘zning ma'nosi va yozilishi tahlil qilinadi), muhim-roq sintaktik tuzilmalarga va tilning tasviriy vositalariga diqqat jalb qilinadi.

Ayrim gaplar, hatto matn qismlari tuzdiriladi; oʻquvchilar bayon matnini mustaqil yozadilar, oʻqituvchi esa ular ishini kuza-tadi, sinfdagi boshqa oʻquvchilarga xalaqit bermay ayrim bolalarga individual yordam beradi; bolalar yozgan bayonlarini oʻzlari tekshi-radilar, takomillashtiradilar va daftarni tekshirish uchun oʻqituvchiga topshiradilar.

Oʻquvchilar yozgan bayon muhokama qilinayotganda, ular yozgan matnni bayon matniga qiyoslash maqsadga muvofiq boʻlib, bu ish mazmunda va bolalar bayoni tilida yoʻl qoʻyilgan kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Tanlab hikoya qilish matndan tor mavzuga, oʻqituvchining topshirigʻiga old qismini tanlab qayta hikoyalashdir. Masalan, oʻqilgan matndan faqat personajning tashqi koʻrinishi tasvirlangan qismnigina qayta hikoya qilish, faqat ikki personajning uchrashish manzarasini qayta hikoyalash, faqat tabiat tasvirini hikoya qilish va boshqalar.

1. Oʻqilgan matn qismini yoki bir voqeani unga chizilgan rasm asosida hikoya qilish.
2. Oʻqituvchi topshirigʻi yoki berilgan savol asosida alohida lavhani hikoya qilish.
3. Berilgan mavzu boʻyicha matnning turli qismlaridan olingan parchalarni hikoya qilish. Bu ish tanlab hikoya qilishning murakkab-roq turi hisoblanadi.

Tanlab hikoya qilish uchun oʻquvchi matnni boshidan oxiriga-cha qayta oʻqib chiqishga yoki yodga tushirishga, kerakli materialni yigʻishga toʻgʻri keladi. Buning uchun oʻquvchilarga matnni ichda oʻqish topshiriladi yoki ovoz bilan tanlab oʻqish topshirigʻi beriladi. Bunday tanlab hikoya qilish ba'zan yozma bayon sifatida ham oʻtkaziladi. Matn mazmunini qisqartirib qayta hikoyalash va bayon yozish murakkab mantiqiy usullardan foy-dalanishni talab qiladi, shuning uchun ham u toʻliq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash va bayonga nisbatan qiyin. Bunda matndan ikkinchi darajali oʻrinlarni tushirib qoldirib, asosiy, muhim oʻrinlar tanlab olinib, hikoya qilinadi. Buning uchun oʻquvchining oʻzi matnning asosiy mazmunini aniqlashi, bogʻlanishli, izchil qayta hikoyalashi, uning

hikoyasi matnni qisqartish tarzida boʻlmasligi, oʻzlashtirilgan matnning asosiy mazmunini oʻz soʻzlari bilan bera olishi zarur.

Qisqartirib qayta hikoyalashga oʻrgatish uchun bayon mazmunini qisqartirib tuzish oson boʻlgan hikoya tarzidagi matn tanlash tavsiya etiladi. Qisqartirib qayta hikoyalash elementlari 1-sinfdan kiritiladi. Oʻqilgan matnni tahlil qilish jarayonida oʻquvchilardan uning bir qismini qisqa — bir gap bilan aytish soʻraladi. Keyin oʻquvchilarga matnning ikki qismini, nihoyat, butun matnni qisqartib qayta hikoyalash tavsiya etiladi.

Oʻquvchilar matnni toʻliq qayta hikoya qilishga oʻrganganlaridan soʻnggina matnni qisqartib qayta hikoyalashga oʻrgatiladi. Qisqartirib qayta hikoyalash, oʻz navbatida, matn rejasini tuzish, ya'ni matn qismlariga sarlavha topish bilan bogʻliq, asarning asosiy mazmunini qisqa ifodalash esa matn ustidagi analitik-sintetik ishlarning natijasidir. Ba'zan oʻquvchilar asarning asosiy mazmunini (gʻoyasini) qisqa, bir gap bilan ifodalashga oʻrgatilgach, matn rejasini tuzishga, keyin matnni qisqartib qayta hikoyalashga, undan soʻng matn mazmunini toʻliq qayta hikoya qilishga oʻrgatilishi ham mumkin.

Qayta hikoyalash bogʻlanishli nutqni oʻstirishning zaruriy bos-qichidir. Boshlangʻich sinflar ona till dasturiga koʻra, matn mazmunini qisqartirib bayon yozishni 3-sinfda oʻrgatish koʻzda tutiladi. Qisqartirib bayon yozishga tayyorgarlik matn qismlariga sarlavha topish, matn rejasini jamoa boʻlib tuzish bilan bogʻliq holda 2-sinfdan boshlanadi. Qisqartirib bayon yozish uchun oʻqituvchi yoki oʻquvchilarning oʻzlari matnni bir-ikki marta oʻqiydilar, soʻng matn mazmuni yuzasidan suhbat oʻtkaziladi va yoziladigan asosiy fikr hamda tushirib qoldiriladigan oʻrinlar ajratiladi. Qisqartirib bayon yozishga ogʻzaki tayyorgarlik jarayonida matn rejasi tuziladi, lugʻat ustida ishlanadi, gap va matnning ayrim qismlari tuzdiriladi. Ogʻzaki qisqa qayta hikoya-lashdan matnni qisqartib bayon yozishga oʻtiladi. Qisqartib bayon yozishga ogʻzaki tayyorgarlik mashqlari asta kamaytirilib boriladi.

Bogʻlanishli nutq, ogʻzaki hikoya va yozma insho

Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli boʻlib, maktabda alohida oʻrin tutadi; barcha nutqqa oid mashqlar ma`lum mazmunda inshoga boʻysunadi.

Insho 1-sinfda kichik ogʻzaki axborot va ehtirosli hikoyadan boshlanib, oʻz fikrini ifodalashga, oʻquvchi shaxsining tashkil

topishiga xizmat qiladigan, ta`lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi.

Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo‘lib, his-hayajon uyg‘otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko‘rgan-kechirganlari va o‘zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-natija bog‘lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o‘quvchilarda o‘ziga, o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug‘diradi.

“Insho” asli arabcha so‘z bo‘lib, ma`nosi *“yaratish”, “bino qilish”, “boshlash”* demakdir. Bu co‘zning ma`nosi hozirda ancha torayib, asosan, o‘quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma`nosida qo‘llanadi.

Insho − ijodiy ish bo‘lib, u o‘quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o‘ylash, mantiqiy bog‘lanishni belgilash, so‘z, so‘z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o‘zaro bog‘lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o‘quvchidan aqliy kuchini to‘la ishga solish bilan birga, o‘z maonaviy faoliyatini boshqarish ko‘nikmasini ham talab etadi.

Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo‘shiladi. O‘quvchi inshoni mustaqil, ijodiy xarakterda bo‘lgani uchun, «o‘ziniki»ni yozgani uchun ham sevadi.

Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi − inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o‘quvchilar nutqini o‘stirish, aqliy, ijodiy o‘sishiga mo‘ljallangan dasturga o‘tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o‘sdi.

Og‘zaki va yozma inshoga o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o‘z inshosini aniq fikrga bo‘ysundirish, material to‘plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko‘nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik» vazifalar ham amalga oshiriladi, yaoni matnni yozishda imlo qoidalari va husnixatga eotibor berish, matnni xatboshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi.

Og‘zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi.

Insho **material manbaiga ko‘ra** quyidagi uchga bo‘linadi:

1.o‘quvchining o‘zi ko‘rgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, yaoni mehnat, kuzatishlar, ekskursiyalar, o‘yinlar, o‘z tajribasi va boshqa jonli materiallar asosidagi insho;

2. kitob materiali, rasmlar, film, spektakl, o‘qituvchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho;

3.turli manbalar materialidan foydalaniladigan insho.

Janriga ko‘ra hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi insholarga bo‘linadi.

Boshlang‘ich sinflarda tasvir va muhokama elementlari mavjud bo‘lgan hikoya tarzidagi inshodan ko‘proq foydalaniladi.

Inshoni tasnif qilish ta`limiy vazifalarni chuqur anglash va metodik vositalarni tanlashga, shuningdek, ish turlarini zaruriy yo‘nalishda, baravar taqsimlashga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o‘quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir.

Rasm asosidagi insho maktablarda tez-tez o‘tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm bolalar sezgisiga ta`sir etadi, hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o‘quvchilarga tanish bo‘lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Rasm asosidagi inshoning uch asosiy turi bor:

1) rasmlar seriyasi yoki rasmli reja asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;

2) syujetli, o‘quvchilarni o‘ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;

3) rasmni tasvirlash (tasviriy insho).

O‘quvchilar avval rasmlar seriyasi asosida, so‘ng bir rasm asosida, undan so‘ng tasviriy insho yozish (rasmni tasvirlash)ga o‘rgatiladi. Dasturga ko‘ra, 1-sinf o‘quvchilari o‘yinlari, mehnatlari, voqea-hodisalar haqidagi taassurotlari asosida o‘qituvchi rahbarligida hikoya tuzishlari va uni ma`lum tayyorgarlikdan so‘ng yozishlari, 2 - sinfda rasmlar seriyasi asosida kichik hikoya tuzish va uni jamoa tarzda tuzilgan reja asosida yozish, tabiatni kuzatish va mehnat jarayoni haqida, bolalarning o‘yinlari, ishlari, sayillari haqida, avval o‘qituvchi rahbarligida, keyin mustaqil ravishda kichik hikoya tuzish va uni yozish, shaxsiy ishlari haqida xat yoza olishlari, 3 - sinfda rasmlar (bir mavzuga oid bir necha rasm, syujetli bir rasm, rasmni tasvirlash) asosida hayotiy tajribalari, kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan taassurotlari asosida rejani, avval jamoaviy ravishda, keyin mustaqil tuzib hikoya qilish va uni yozishlari talab etiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning hayotiy tajribalari kam bo‘lgani uchun ko‘pincha rasmlardan, ekskursiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘quvchilar rasmlar asosida fikrini quyidagi tartibda izchil ifoda etishga o‘rgatiladi:

1. Rasmni diqqat bilan kuzating.
2. Rasmdagi muhim voqealarni tartib bilan hikoyalang.
3. Voqea qachon va qaerda yuz berganini ayting.
4. Rasmga sarlavha qo‘ying.
5. Hikoyaga xulosa o‘ylang.
6. Reja tuzing.
7. Rasmdagi voqeani og‘zaki hikoya qiling va insho yozing.

O‘qituvchining savollari asosida o‘quvchilar hikoyaning asosiy qismining mazmunini aniqlashtiradi. Masalan: 4-sinf “Ona tili” darsligidagi 415-mashqda rasm asosida ertakni davom ettirish topshirig‘i berilgan. O‘qituvchi rasmlar seriyasi yuzasidan quyidagi kabi topshiriqlarning berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

-1-rasmda qanday voqea yuz berganini hikoya qiling.

-2-rasmda qanday voqea yuz berganini hikoya qiling.

-3-rasmda qanday voqea yuz berganini hikoya qiling.

-Laylak cholga oxirida nima uchun urto‘qmoqni berdi?

-Odamlar qanday ishlari uchun jazolanadilar?

-O‘ylang, ertakka qanday sarlavha qo‘yish mumkin? Nima uchun?

-Ertakni to‘liq hikoyalab bering.

-Shu ertak asosida ijodiy insho yozing. Unga o‘zingiz voqealar qo‘shishingiz mumkin.

-O‘rtog‘ingizning hikoyasida qaysi so‘zlarni ishlatishini xohlar edingiz? Nima uchun?

O‘quvchilar berilgan tavsiyalar ustida ishlashadi. Mazkur ish faoliyatida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurining rivojlantirilganini, ya’ni rasmni analiz qilishi, savollar tuzish, sarlavha topish orqali rasm mazmunini umumlashtirganligini, qismlarning o‘zaro bog‘lanishini, fikrini asoslashini, xulosa chiqarishini ko‘rish mumkin. Bunda eng muhim ish rasm va uning qismlariga tuzilgan rejaning asoslanganligida. Bu o‘quvchilarni o‘z fikrlarini dalillashga o‘rgatadi.

O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini yozma ifodalashlarida, birinchi navbatda, to‘g‘ri yozish ko‘nikmalari shakllantirilishi kerak. To‘g‘ri yozuv avtomatilashadigan hodisa. To‘g‘ri yozuvga doir bilim sistematik mashqlar davomida ko‘nikmaga, so‘ng malakaga aylanadi. Bu o‘quvchilar uchun qiyin jarayon. Malaka til hodisalarini ongli egallash asosida anglanadi, o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini ishga solish uchun tafakkuri aktivlashtiriladi va rivojlantiriladi.

Nutqiy xatolar va ularni bartaraf qilish yo‘llar

Nutqiy xatolarga noto‘g‘ri (noo‘rin) tanlangan so‘zlar, noto‘g‘ri tuzilgan gaplar, morfologik shakllarni noto‘g‘ri ishlatish kiradi. Boshlang‘ich sinflarda bunday xatolar ustida ishlash ancha qiyin, chunki ularni to‘g‘rilash va oldini olish uchun ona tili dasturida berilgan qisqa nazariy ma’lumot yetarli emas. Bolalar nutqini takomillashtirish ustida rejali, muntazam ish olib borish uchun asosiy nutqiy xatolar turini bilish zarur. Bunday nutqiy xatolarni o‘rganish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablarini tekshirish xatolarni to‘g‘rilash va oldini olish uchun zamin hozirlaydi. Nutqiy xatolar uch turga ajratiladi: lug‘aviy-uslubiy, morfologik- uslubiy, sintaktik-uslubiy. Boshlang‘ich sinflarda lug‘aviy-uslubiy xatolar ko‘proq uchraydi. Bunday xatolarga quyidagilar kiradi: 1. Bir so‘zni qayta-qayta ishlatish. Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, o‘quvchi so‘zni ishlatishga kam e’tibor beradi va faol lug‘atidagi so‘zdan takroriy

foydalanadi; ikkinchidan, o‘quvchining so‘z boyligi kam, sinonimlarni bilmaydi, takrorlanadigan so‘zlar o‘rniga olmoshlardan foydalana olmaydi. Agar o‘qituvchi bir so‘zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning ma’nodoshlaridan yoki shu so‘z o‘rniga olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagi o‘quvchi matnni e’tibor bilan o‘qib, takrorlarini nisbatan tez tuzata oladi. 2. So‘zning ma’nosini yoki ma’no qirrasini tushunmaslik natijasida uni aniq ma’nosida ishlata olmaslik. Bunday xato bolaning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so‘z boyligining kamligi sababli yuzaga keladi. Leksik xatolar xilma-xil bo‘lgani uchun uni to‘g‘rilash va tushuntirish usullari ham turlicha, ammo bunday xatolarning oldini olishning umumiy yo‘li bor: bu yaxshi nutqiy sharoit yaratish, o‘qilgan va qayta hikoya qilingan matnni til tomondan tahlil qilish, matndagi so‘zlarning ma’no qirrasini tushuntirishdir. 3. Morfologik-uslubiy xatolarga so‘z shaklini, so‘z o‘zgartuvchi va so‘z yasovchi qo‘shimchalarni noto‘g‘ri qo‘llashdan kelib chiqadigan xatolar kiradi. Sintaktik-uslubiy xatolarga so‘z birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. Bunday xatolar juda xilma-xildir. Kompozitsion, mantiqiy va dalillarni noto‘g‘ri bayon qilish nutqiy xato hisoblanmaydi. Tipik kompozitsion xatoga insho, hikoya, bayonning tuzilgan rejaga mos kelmasligi, ya’ni voqea, kuzatishlarni bayon etishda izchillikning buzilishi kiradi. Inshoga tayyorgarlik vaqtida o‘quvchilar kuzatish, material to‘plash, dalillarni tanlashda tartibsiz, rejasiz ish tutsalar, hikoyani qanday boshlash, keyin nimalar haqida yozish va uni qanday tugatishni aniq ko‘z oldilariga keltira olmaydilar, natijada kompozitsion xatoga yo‘l qo‘yadilar. Bunday xato hikoya mazmunini to‘liq qamrab ololmaslik, materialni o‘z o‘rniga joylashtira olmaslik natijasidir. Inshoni rejali, izchil yozish ko‘nikmasi murakkab ko‘nikma bo‘lib, u o‘quvchilarda muntazam bajariladigan mashqlar yordamida asta shakllana boradi.

Mantiqiy xatolar:

1. Tasvirlanayotgan voqea-hodisa uchun zarur bo‘lgan so‘z, ba’zan zarur lavha, dalil tushirib qoldiriladi. Bunday xatoning sababini tushunish uchun o‘quvchining insho yozish vaqtidagi ruhiy holatini kuzatish talab etiladi. U sekin yozadi, ammo ishga berilib ketib, tez fikrlaydi, ya’ni u hikoya mazmunini biladi, ammo

tez fikrlash va sekin yozish natijasida ayrim oʻrinlar yozuvda aks etmay qoladi.

2. Mantiqiy izchillik buziladi. Masalan, Zavodda paxtadan ip qilinadi. Terimchi paxtani paxta terish mashinasida teradi. Bunday mantiqiy xatolarni oʻquvchilar matnni qayta oʻqish va tahlil qilish jarayonida oson toʻgʻrilaydilar.

Oʻquvchilar yoʻl qoʻygan xatolarni guruhlash, ularning turlarini aniqlash va har bir xatoning kelib chiqish sabablarini oʻrganish asosida nutqqa oid xatolarni toʻgʻrilash va ularning oldini olish tizimi ishlab chiqiladi:

1) nutqqa oid xatolarni oʻquvchilar daftarida toʻgʻrilash;

2) sinf oʻquvchilari uchun umumiy boʻlgan nutqqa oid xatolar ustida sinfda ishlash (buning uchun darsning 15-20 minutlik qismi ajratiladi va tekshirilgan insho va bayon tahlil qilinadi, oʻquvchilarning yoʻl qoʻyilgan xatoni mustaqil ravishda topishga va uni toʻgʻrilashga imkon beriladi);

3) ayrim individual xatolar ustida darsdan tashqari vaqtda ishlash, xatoni topish, tushuntirish va toʻgʻrilash;

Koʻrsatilgan yoʻnalishlarning hammasi har bir sinf oʻquvchilari uchun, ayniqsa, III va IV sinf oʻquvchilari uchun muvofiq keladi. Nutqiy xatolarni toʻgʻrilash va oldini olish til ustida ishlash bilan bogʻlab, maqsadga muvofiq holda uyushtiriladi. Nutqiy xatolarni toʻgʻrilash. Oʻquvchilar ogʻzaki va yozma nutqida yoʻl qoʻygan nutqiy xatolarni oʻz vaqtida toʻgʻrilab borish zarur. Oʻquvchi yoʻl qoʻygan xatosining toʻgʻri variantini oʻzlashtirsin, imkoni boʻlsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni toʻgʻrilashning eng foydali usuli yoʻl qoʻygan xatosini oʻquvchining oʻzi toʻgʻrilashi hisoblanadi, agar oʻquvchi xatosini toʻgʻrilay olmasa, uni oʻqituvchi toʻgʻrilaydi. Xato turiga qarab toʻgʻrilanadi: gap yoki soʻz birikmasi qayta tuziladi, soʻz boshqasi bilan almashtiriladi, zarur soʻz qoʻshiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi. Insho yoki bayonni tahlil qilish darsida xatolar ustida ishlash maqsadi uchun darsning ikkinchi qismi – 20-25 minuti ajratiladi. Oʻqituvchi oʻquvchilar insho yoki bayonni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni oʻqib beradi, mazmundagi, mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va nutqiy xatolar aniqlanadi. Yoʻl qoʻyilgan xatoni toʻgʻrilash yoʻli

tushuntiriladi. Shundan so‘ng xato ustida birgalikda ishlanadi: o‘qituvchi yo‘l qo‘yilgan xatoning bir turini to‘g‘rilash yuzasidan topshiriq beradi: «Noo‘rin ishlatilgan so‘zni boshqasi bilan almashtiring». Xatosi bor matnni o‘qib yoki yozib beradi, o‘quvchilar yo‘l qo‘yilgan xatoni topadilar, maqsadga muvofiq so‘z bilan almashtirib, uni to‘g‘rilaydilar va tushuntiradilar. Grammatikaga oid mavzuni o‘rganishda o‘quvchilar yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatoning oldini olish uchun mazkur mavzu ularga qanday imkoniyatlar yaratishi tushuntiriladi.

Masalan, «Olmosh» mavzusini o‘rganganda, kishilik olmoshlarining takrorlangan so‘zlar o‘rnida qanday ishlatilishi o‘quvchilarga misollar bilan tushuntirilsa, ular ham insho yoki bayon yozishda shunga rioya qiladilar.

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishdagi muvaffaqiyat quyidagi uch asosiy omilga bog‘liq:

1) so‘zga e’tibor bilan munosabatda bo‘lish, o‘quvchilarning ko‘p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to‘g‘ri va ifodali nutqi, ya’ni nutqiy sharoit;

2) bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;

Xatolarni to‘g‘rilash va ularning oldini olish

O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolarni guruhlash, ularning turlarini aniqlash va har bir xatoning kelib chiqish sabablarini o‘rganish asosida nutqqa oid xatolarni to‘g‘rilash va ularning oldini olish tizimi ishlab chiqiladi:

1) nutqqa oid xatolarni o‘quvchilar daftarida to‘g‘rilash;

2) sinf o‘quvchilari uchun umumiy bo‘lgan nutqqa oid xatolar ustida sinfda ishlash (buning uchun darsning 15-20 minutlik qismi ajratiladi va tekshirilgan insho va bayon tahlil qilinadi, o‘quvchilarning yo‘l qo‘yilgan xatoni mustaqil ravishda topishga va uni to‘g‘rilashga imkon beriladi);

3) ayrim individual xatolar ustida darsdan tashqari vaqtda ishlash, xatoni topish, tushuntirish va to‘g‘rilash;

4) yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan nutqiy xatolarning oldini olishga qaratilgan uslubiy mashqlar tizimi (o‘qish va grammatika darslarida matnni til tomonidan tahlil qilish o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xato ustida ishlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi);

5) o‘quvchilarni tuziladigan matn leksikasidan, ayrim sintaktik qurilmalardan foydalanishga tayyorlash maqsadida har bir hikoya, insho, bayondan oldin uni til jihatidan mashq qilish;

6) imkoni bo‘lsa, grammatik mavzu o‘rganilayotganda, shu mavzu xatoning oldini olish uchun asos bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatish – tushuntirish;

7) o‘quvchilarni yozgan insho va bayonlarini o‘zlari tekshirishiga va mustaqil takomillashtirishi (tahrir qilish)ga maxsus o‘rgatish.

Ko‘rsatilgan yo‘nalishlarning hammasi har bir sinf o‘quvchilari uchun, ayniqsa, III va IV sinf o‘quvchilari uchun muvofiq keladi.

Nutqiy xatolarni to‘g‘rilash va oldini olish til ustida ishlash bilan bog‘lab, maqsadga muvofiq holda uyushtiriladi.

Nutqiy xatolarni to‘g‘rilash. O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqida yo‘l qo‘ygan nutqiy xatolarni o‘z vaqtida to‘g‘rilab borish zarur. O‘quvchi yo‘l qo‘ygan xatosining to‘g‘ri variantini o‘zlashtirsin, imkoni bo‘lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to‘g‘rilashning eng foydali usuli yo‘l qo‘ygan xatosini o‘quvchining o‘zi to‘g‘rilashi hisoblanadi, agar o‘quvchi xatosini to‘g‘rilay olmasa, uni o‘qituvchi to‘g‘rilaydi. Xato turiga qarab to‘g‘rilanadi: gap yoki so‘z birikmasi qayta tuziladi, so‘z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so‘z qo‘shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi.

Insho yoki bayonni tahlil qilish darsida xatolar ustida ishlash maqsadi uchun darsning ikkinchi qismi 20-25 minuti ajratiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar insho yoki bayonni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni o‘qib beradi, mazmundagi, mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va nutqiy xatolar aniqlanadi. Yo‘l qo‘yilgan xatoni to‘g‘rilash yo‘li tushuntiriladi. Shundan so‘ng xato ustida birgalikda ishlanadi: o‘qituvchi yo‘l qo‘yilgan xatoning bir turini to‘g‘rilash yuzasidan topshiriq beradi: Noo‘rin ishlatilgan so‘zni boshqasi bilan almashtiring. Xatosi bor matnni o‘qib yoki yozib beradi, o‘quvchilar yo‘l qo‘yilgan xatoni topadilar, maqsadga muvofiq so‘z bilan almashtirib, uni to‘g‘rilaydilar va tushuntiradilar. Ayrim o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan individual xatolar darsdan tashqari vaqtda,

qo‘shimcha mashg‘ulot jarayonida to‘g‘rilanadi. O‘quvchi bilan individual suhbatda ham, sinfda jamoa bo‘lib ishlash jarayonidagi kabi bolalarning aqliy faolligiga, ya’ni u xatosi nimadaligini tushunibgina qolmay, balki uni to‘g‘rilashi va tushuntirishiga erishish muhimdir. Grammatikaga oid mavzuni o‘rganishda o‘quvchilar yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatoning oldini olish uchun mazkur mavzu ularga qanday imkoniyatlar yaratishi tushuntiriladi. Masalan, Olmosh mavzusini o‘rganganda, kishilik olmoshlarining takrorlangan so‘zlar o‘rnida qanday ishlatilishi o‘quvchilarga misollar bilan tushuntirilsa, ular ham insho yoki bayon yozishda shunga rioya qiladilar. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishdagi muvaffaqiyat quyidagi **uch asosiy** omilga bog‘liq:

1) so‘zga e’tibor bilan munosabatda bo‘lish, o‘quvchilarning ko‘p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to‘g‘ri va ifodali nutqi, ya’ni nutqiy sharoit;

2) bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;

3) nutq o‘stirishda o‘qituvchining til nazariyasiga, grammatikaga, leksikologiya va stilistika elementlariga asoslanish ko‘nikmasi.

Savol va topshiriqlar

1.Ta’lim mazmuni tushunchasiga ta’rif bering.

2.Davlat ta’lim standarti ta’rifini keltiring.

3.O‘quv rejasi va o‘quv dasturi haqida ma’lumot bering?

4.Nutqiy kompetensiyalar va lingvistik kompetensiyalar nima?

3-MAVZU. BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR. QO‘LLANILADIGAN O‘QUV VOSITALARI VA ULARNING VAZIFALARI.

Reja:

1. Qo‘llaniladigan o‘quv vositalari va ularning vazifalari
2. Boshlang‘ich sinf darslariga qo‘yiladigan talablar.
3. Dars turlari, darslarda qo‘llaniladigan o‘quv vositalari va ularning vazifalari.

Tayanch so‘zlar: *ta’lim mazmuni, Davlat ta’lim standarti, malaka talablari, o‘quv va ishchi o‘quv reja, fanning o‘quv dasturlari, o‘quv vositalari.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tilio‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X.Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.:TDPU, 2013. –70 b.

3.Икромова Р, Ғуломова Х, Йўлдошева Ш, Шодмонқулова Д, Она тили, 4-синф, -Т.: 2017.

4. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2017.

5. Фузалиев С, Худойберганова М, Йўлдошева, “Она тили”, 3-синф, -Т,: “Ўқитувчи”, 2018.

6. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2016.

7. Қосимова К, Фузалиев С, Неъматова А, “Она тили”, 2-синф, -Т,: “Чўлпон”, 2018.

8. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2015.

9. Ғаффорова Г, Шодмонов Й, Ғуломова Х , “Она тили”, 1 -синф, -Т,: “Шарқ”, 2019.

10. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 1-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2014.

11. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2015.

12. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2016.

13. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2017.

14. Ҳ.Бакиева, Н.Аҳмедова, Н.Азизова, Д.Носирова, Б.Тешабоева, У.Исмоилова, Б.Эгамбердиева “Саводга ўргатиш дарслари”.-Т.: “Эхтремум-пресс”, 2014. -119 б

15. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Yevaluation of Yeducational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019.

Axborot manbalari

1.http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

2.http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

3.http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

4.www.pedagog.uz

5.www.timssandpirls.bc.edu.

6. www. pedagog. uz

7. www. Ziyonet. uz

Ona tili fanini o‘qitishning bosh maqsadi yoshlarimizning ijodiy- mustaqil, o‘z fikrini erkin va ta’sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimizga, avlod-ajdodlarimiz

qoldirgan boy ma’naviyatimizga, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida yangi tahrirdagi DTS lari asosida o‘quvchilarni ona tili ta’limi sohasi bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yilgan talablar standart me’zon orqali aks ettiriladi:

1. O‘qish texnikasi
2. O‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash
3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O‘quvchilar shu parametrlar asosida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi kerak. Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda 1-4- sinf ona tili fanini o‘qitishning oldiga bir qator vazifalar qo‘yiladi:

1. O‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish;
2. O‘z fikrini o‘zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda og‘zaki va yozma ifodalay olish;
3. Bir ma’noni turli shakllarda bera olish ko‘nikmalarini shakllantirish, so‘zlardan o‘rinli foydalanish;
4. Dunyoni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Shuningdek boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi o‘quvchilarga nutq faoliyatining asosiy turlarini o‘stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni ham hal etishni ko‘zda tutadi.

Bolalarda ahloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish;

Bolalarga atrof- muhit, kishilar, tabiat va jamiyat haqida tushuncha berish;

Nafosat hissini tarbiyalash;

Mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatish;

O‘quv mashg‘ulotlariga, bilim manbai bo‘lgan kitobga qiziqish uyg‘otish. Ona tili o‘qitishning mazmuni va metodlari o‘quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil qilishga ko‘maklashish lozim.

Ona tili — har bir elatning, xalqning, millatning o‘z tili. Ona tili lug‘at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an’analarini ifodalaydigan so‘z va tushunchalardan iborat bo‘ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq.

Ona tili – millatning ruhidir. Til — davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog‘i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.

Ona tili fanini o‘qitishning bosh maqsadi yoshlarimizning ijodiy- mustaqil, o‘z fikrini erkin va ta’sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimizga, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviyatimizga, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida yangi tahrirdagi DTS lari asosida o‘quvchilarni ona tili ta’limi sohasi bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yilgan talablar standart me’zon orqali aks ettiriladi:

1. O‘qish texnikasi
2. O‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash
3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O‘quvchilar shu parametrlar asosida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi kerak. Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda 1-4- sinf ona tili fanini o‘qitishning oldiga bir qator vazifalar qo‘yiladi:

1. O‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish;
2. O‘z fikrini o‘zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda og‘zaki va yozma ifodalay olish;
3. Bir ma’noni turli shakllarda bera olish ko‘nikmalarini shakllantirish, so‘zlardan o‘rinli foydalanish;
4. Dunyoni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Shuningdek boshlang‘ich sinf ona tili ta'limi o‘quvchilarga nutq faoliyatining asosiy turlarini o‘stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni ham hal etishni ko‘zda tutadi.

-bolalarda ahloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish;

-bolalarga atrof- muhit, kishilar, tabiat va jamiyat haqida tushuncha berish;

-nafosat hissini tarbiyalash;
-mantiqiy tafakkur yuritishga oʻrgatish;

Oʻquv mashgʻulotlariga, bilim manbai boʻlgan kitobga qiziqish uygʻotish. Ona tili oʻqitishning mazmuni va metodlari oʻquvchilarga dastur ta'lab qilgan hajmda puxta bilim berish, koʻnikma va malaka hosil qilishga koʻmaklashish lozim.Mazkur maqsad va vazifalarni toʻlaqonli bajarish uchun oʻqituvchi faqat dars bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Darsdan tashqari paytlarda ham muntazam ish olib borishi yaxshi natija beradi. Tilni oʻrganishga doir kechalar, toʻgaraklar, maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan qoʻshimcha darslar, sinfdagi iqtidorli oʻquvchilar bilan ishlash kabilardan foydalanish kerak.Oʻquvchilarga til ta'limini singdirishda ularning yosh va bilim darajalarini ham hisobga olish zarur. Chunki 2-sinf oʻquvchisiga 4-sinf hajmdagi bilimni berilsa oʻquvchi buni hazm qila olmaydi, oʻzlashtiraolmaydi ham. Aksincha 4-sinf oʻquvchisiga 1-2-sinfdagi bilimlar berish bilan cheklanib qolinsa bu ham oʻquvchi uchun zerikarli boʻladi. Natijada oʻquvchilarda tilni oʻrganishga boʻlgan havas, qiziqish rivojlanish oʻrniga susayadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchisi DTS larida berilgan me'yoriy majburiy ta'lablarni bilishlari kerak. 1-4-sinflarda oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakasiga quyidagi asosiy talablar qoʻyiladi.

Maktabda amaliy ishlarning ahamiyati oʻquvchilar tomonidan toʻgʻri baholansada, oʻquvchilarning nazariy bilimlaridan amalda foydalanishga qiynaladilar. Yozma ishlarni bajarishda grammatika qoidalaridan kam foydalanadilar. Aslida esa imlo savodxonlikni oshirish uchun koʻchirib yozish va amaliy mashqlar muhim oʻrin tutadi.

Psixologik tadqiqodlardan ma'lum boʻlishicha, imlo savodxonlik asta-sekinlik bilan shakllanadi. Amaliy ishlardan qoidaga oʻtishda ham oʻzlashtirish jarayoni sekinlik bilan kechadi. Dastlab oʻqituvchi rahbarligida ogʻzaki muhokama qilinadi. Asta-sekin oʻquvchilar oʻylab, mulohaza qilib anglay boshlaydilar. Borcha yozuv darslarida oʻquvchilarga toʻgʻri yozish qoidalarini ta'kidlab turish va amaliy ishlarni bajarish orqali ularning imlo savodxonliklarini oshirish mumkin.

Barcha ona tili darslarida oʻquvchilar bilishini va malaka qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadida oldin oʻtilgan darslarni takrorlashga vaqt ajratiladi. Takrorlash bilimlarni aniqlashga, hisobga olish va shu bilan bir vaqtda mustahkamlashga yordam beradi. Boshlangʻich sinflarda oldin oʻtilganlarni takrorlash bilan bir vaqtda va takrorlash jarayonida oz-ozdan yangi bilimlar berib boriladi. Takrorlash orqali oʻquvchilar oʻz bilimlarini tartibga soladilar, mustahkamlaydilar.

Ilgʻor tajribali oʻqituvchilar darslarni tashkil etishda oldin oʻtilganlarni mustahkamlash, yangi bilimlarni oʻzlashtirish bilan bir vaqtda keyingi darsda oʻrganiladigan mavzu uchun zamin tayyorlaydilar.

Xozirgi zamon darsi shundan iboratki, oʻquvchi, tinglovchi, oʻqituvchi esa maʼruzachi boʻlib qolmasligi kerak. Balki oʻqituvchi darsni kuzatib tartibga soluvchi rejissyorga aylanmogʻi lozim. Oʻqituvchi darsni shunday tashkil etishi kerakki hamma oʻquvchi shu mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritsin, oʻz fikrini ayta olsin, kamchiligi boʻlsa oʻrtoqlari va oʻqituvchi javobidan kelib chiqib toʻgʻrilay olsin. Darsning xarakter xususiyatiga qarab dars interfaol usulda boʻlishiga erishishi lozim. Darslarda testlardan va tarqatmali materiallardan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

1-4-sinf ona tili darslari bilan tanishtirish va ularning bir-biridan farqi. Maʼlumki, boshlangʻich sinf ona tili darsligining adabiy til meyorida amaliy oʻzlashtirishlarga yordam berishdir. Darslikning asosiy qismini xilma-xil mashqlar tashkil etadi.

Savod oʻrgatish darslari oʻqish samaradorligini ijobiy tomonga taʼsir qilishning eng qulay usulidir. Sinfda va sinfdan tashqari oʻqish darslari boshlangʻich sinflarda oʻtiladigan barcha predmet dasturlarining boʻlimlari bilan bevosita bogʻliq. Oʻqish darslarida oʻtilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish koʻnikmalarini shakllantirish dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, ularning didaktik asosini belgilash ham mashgʻulotning predmeti hisoblanadi. Aytish joizki maktab oʻquvchilarni nutqini va talaffuzini oʻstirishda xalq ogʻzaki ijodi naʼmunalaridan foydalanish kata ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o‘quvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko‘rish, nutq buzulish sabablarini o‘rganish lozim. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to‘ldirilib, qaysi tovushlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq o‘stirish ongli o‘qishni, so‘zlash va yozishga o‘rgatishni, til haqida o‘quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo‘lgan bilim berishni, ularning lug‘at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e’tibor va qiziqishni o‘stirish, kitob o‘qishga muhabbat uyg‘otishni ko‘zda tutadi. Ba’zi bolalar tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlay ham olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni o‘zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tug‘diradi. Bunday hollarda logoped mashg‘ulotlar yordamiga muxtoj bo‘ladilar. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta'lim standarti (DTS) davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalarini, asosiy prinsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat ta’lim standartlarini joriy etish hamda davlat ta’lim standartlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi. Davlat ta’lim standartining maqsadi - umumiy o‘rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi:

1) o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish, ya’ni A1- o‘quvchi berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna olishi; matnni tushunib o‘qiy olishi; og‘zaki nutqda so‘z va gaplar talaffuziga rioya qila olishi; 65-70 so‘zdan iborat diktantni yoza olishi; xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yarata olishi, xatboshi va husnixatga amal qilishi; imlo va tinish belgilarini ishlatish qoidalariga amal qila olishi; do‘sti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma yoki xatyoza olishi. A1+ sodda matnning asosiy mazmunini tushunishi va tushuntira olishi; matn mazmunini tushunib ifodali o‘qiy olishi; 70-75 so‘zdan iborat diktantni yoza olishi; 7-8 gapdan iborat xabar yoki rasm asosida matn tuza olishi) ni rivojlantirish;

2) o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid;

3) ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid, ya’ni A1 ona tilidagi nutq tovushlarini o‘rganish.

Boshlang‘ich ta’limning ona tili fani o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. Ushbu o‘quv dasturida 1-4-sinf o‘quvchilarida tayanch hamda fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Boshlang‘ich ta’limning ilk savodga o‘rgatish davridanoq, o‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar hisobiga boyitishga alohida e’tibor qaratila “Alifbe” darsligida berilgan: yangi so‘zlar, matn, kichik hikoya va she’rlardan foydalanib, o‘quvchilarni so‘z ma’nosi bilan atroflicha tanishtirishda, she’riy va nasriy matnlarni yodlatish, qayta hikoyalashga e’tibor beriladi. Sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘quvchilarni bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirib borishga, ularni mustaqil o‘qishga, o‘qituvchi va ota-onalar yordamida badiiy o‘qishga qiziqtirish, nutqini boyitish va rivojlantirishga yordam beradi. Ona tili erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda bayon qila olish, kishilar bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili dasturining tuzilishi va mazmuni.

Ona tili (1-4-sinf) dasturining mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

I. Nutq va gap.

II. Ona tilining fonetik tizimi:

1) nutq tovushlari va harflar, unli tovushlar va harflar, undosh tovushlar va harflar, jarangli va jarangsiz undoshlar, alifbo, bosh va kichik harflar, tutuq belgisi (fonetik tahlil);

2) boʻgʻin va boʻgʻin tuzilishi, soʻzlarni boʻgʻinlab koʻchirish. Soʻz va soʻz maʼnolari (lugʻaviy tahlil: bir ma'noli soʻzlar, qarama-qarshi ma'noli soʻzlar, koʻp ma'noli soʻzlar);

III. Soʻz tarkihi: asos va qoʻshimcha (turlovchi, tuslovchi va yasovchi), asoslarda tovush oʻzgarishi, asos va qoʻshimchalar imlosi;

IV. Soʻz ma'nosi: soʻzlarning ma'nosiga koʻra guruhlash: shaxs-narsalar nomini bildiruvchi soʻzlar, shaxs-narsalarning harakatini, belgisini, sanogʻini va tartibini bildiruvchi soʻzlar, shaxs-narsaga ishorani ifodalovchi soʻzlar (shaxsga nisbatan kishilik olmoshi).

V. Gap, gapning fikr bildirishi:

1) gapning maqsadga koʻra turlari (darak, soʻroq, buyruq va his-hayajonni bildiruvchi gaplar);

2) gapda tinish belgilarining ishlatilishi (nuqta, soʻroq, undov va h.k.), yozma nutqda ishlatiladigan muhim (ayrim) belgilar: vergul, qavs, ikki nuqta, koʻp nuqta;

3) gapning gap boʻlaklariga koʻra tuzilishi: gapning asosiy mazmunini bildiruvchi boʻlaklar (ega va kesim), gapning asosiy mazmunini toʻldiruvchi boʻlaklar (ikkinchi darajali boʻlaklar - ularning turi va nomlaridan mustasno);

4) gapda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi, soʻz birikmasi, gapning uyushiq boʻlaklari, ularning oʻzaro bogʻlanishi (ohang, bogʻlovchi soʻzlar yordamida);

5) Undalma uning shaxsga qarab bilishi, undalmali gaplarda tinish belgisining ifodalanishi.

VI. Gap va matn, matnning tuzilishi: mavzu, voqea tafsiloti, asosiy fikr bayoni, xulosa chiqarish, reja tuzish, sarlavha, xat boshi, dialog, monolog nutq, bayon, kichik hikoya;

VII. Husnixatga oʻrgatish.

Husnixatga oʻrgatishning vazifasi harf, soʻz, gap va matnni toʻgʻri va chiroyli yozishni takomillashtirishdir. Yozuvni oʻrganish jarayonida oʻquvchi tovushning shakli boʻlgan harfni, soʻz va gapni kitobdan va doskadan toʻgʻri, husnixat qoidalariga rioya qilib koʻchirib yozish, yozganlarini tekshira olish va yoʻl qoʻygan grafik kamchilik hamda xatolarini oʻqituvchi rahbarligida oʻzi tuzata olishi kerak. Bu davrda eshitib yozish koʻnikmalari ham

rivojlantirib boriladi. 1-sinfda o‘quv yilining 2-yarmidan boshlab husnixat malakalari takomillashtirib boriladi. Shuningdek, 2-4-sinflarda esa har bir ona tili darsining 5-8 daqiqasi “Husnixat daqiqasi”ga ajratiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nutqini o‘stirishda hikoyalar katta ahamiyat kasb etadi. Ijodiy qayta hikoyalashda o‘qilayotgan hikoya yoki hikoyani yangi epizodlar bilan to‘ldirish orqali hikoya kontekstni yoki shaklini o‘zgartirish orqali aytiladi. Sahnalashtirishda o‘quvchilar o‘qilgan hikoyani sahnalashtirilgan hikoyaga aylantiradilar. Bu, ular hikoyaning ssenariysi, kostyumi, imo-ishoralari haqida o‘ylashadi ishtirokchilar, monologni dialogik nutqqa aylantiradi.

Mazkur maqsad va vazifalarni to‘laqonli bajarish uchun o‘qituvchi faqat dars bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Darsdan tashqari paytlarda ham muntazam ish olib borishi yaxshi natija beradi. Tilni o‘rganishga doir kechalar, to‘garaklar, maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan qo‘shimcha darslar, sinfdagi iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash kabilardan foydalanish kerak. O‘quvchilarga til ta’limini singdirishda ularning yosh va bilim darajalarini ham hisobga olish zarur. Chunki 2-sinf o‘quvchisiga 4-sinf hajmdagi bilimni berilsa o‘quvchi buni hazm qila olmaydi, o‘zlashtiraolmaydi ham. Aksincha 4-sinf o‘quvchisiga 1-2-sinfdagi bilimlar berish bilan cheklanib qolinsa bu ham o‘quvchi uchun zerikarli bo‘ladi. Natijada o‘quvchilarda tilni o‘rganishga bo‘lgan havas, qiziqish rivojlanish o‘rniga susayadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi DTS larida berilgan me’yoriy majburiy ta’lablarni bilishlari kerak. 1-4-sinflarda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasiga quyidagi asosiy talablar qo‘yiladi:

1-sinf. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Miqdoriy ko‘rsatgich: 15-20 so‘zdan iborat diktant yoza olish.

Talablar:

a) imlo xatolarga yo‘l qo‘ymaslik;

b) ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi;

Diktant turlari: Lug‘at diktant, izohli diktant, nazorat diktanti.

Miqdoriy ko‘rsatgich: 2-3 gapdan iborat sodda matnni (fikr ehtiyoji bilan bog‘liq mavzu asosida) yaratish.

Talablar:

a) matndagi gaplarni mazmunan oʻzaro bogʻliqligi va aloqadorligi, koʻrsatilgan mavzu doirasida birlashish;
b) harf va tinish belgilarini toʻgʻri yozish;
d) harflarni bir-biridan uzmay yoza olish;
e) soʻzlar orasidagi oraliqni toʻgʻri belgilash;
Matnni xarakteri: Oʻquvchiga tanish boʻlgan va koʻz oldiga keltira oladigan buyum, manzara, voqea–hodisalar tasviri.

2-sinf. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Miqdoriy koʻrsatgich: 35-40 soʻzdan iborat diktant yoza olish.
Talablar:
a) imlo xatolarga yoʻl qoʻymaslik;
b) ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi;

Diktant turlari: lugʻat diktant, yoddan yozuv diktanti, nazorat diktanti.
Miqdoriy koʻrsatgich: 3-4 gapdan iborat boʻlgan kichik va sodda matn (Fikr ehtiyoji bilan bogʻliq mavzu asosida) yaratish.
Talablar:
a) matndagi gaplarning mazmunan oʻzaro bogʻliqligi va aloqadorligi, koʻrsatilgan mavzu doirasida birlashishi;
b) harflar va tinish belgilarini toʻgʻri yozish;
d) soʻz va gaplarni toʻgʻri yozib, tinish belgilarini oʻz oʻrniga qoʻya olish.

Matnning xarakteri:
Rasm, manzara, joy, voqia-hodisalar tasviri, oʻquvchiga tanish boʻlgan narsa, buyum tasviri.

3-sinf. Diktant turlari: saylanma diktant, lugʻat diktanti, ta'kidiy diktant, yoddan yozuv diktanti, nazorat diktanti, izohli diktant, koʻrsatish diktant.
Miqdoriy koʻrsatgich: 4-5 gapdan iborat boʻlgan matn (fikr ehtiyoji bilan bogʻliq mavzu asosida) yaratish
Talablar:
a) matndagi gaplarni mazmunan oʻzaro bogʻliqligi va aloqadorligi, koʻrsatilgan mavzu doirasiga birlashish;
b) soʻz va iboralarni toʻgʻri yozish, gap oxiriga kerakli tinish belgisini qoʻya olish;
d) tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;

e) matnda so‘zlarni takrorlashdan saqlanish va sinonimlarni qo‘llay olish.

Matnning xarakteri:

Manzara. O‘quvchi ko‘z oldida sodir bo‘lgan voqea-hodisa tasviri.

4-sinf. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Miqdoriy ko‘rsatgich –70-80 so‘zdan iborat diktant yoza olish.

Talablar:

a) imlo-xatolarga yo‘l qo‘ymaslik;

b) ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi;

Diktant turlari: saylanma diktant, lug‘at diktant, ta’kidiy diktant, yoddan yozuv diktanti, nazorat diktant, izohli diktant, ko‘rsatish diktant.

Miqdoriy ko‘rsatgich: 5-6 gapdan iborat bo‘lgan matn (Fikr ehtiyoji bilan bog‘liq mavzu asosida) yaratish.

Talablar:

a) matndagi gaplarning mazmunan o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi, mavzu doirasida birlashishi;

b) matnda xatboshining yaxlitligi va fikr izchilligini taminlash;

d) uyadosh so‘zlardan (gul: atirgul, ranogul, binafsha, lola) foydalana olish.

Matnning xarakteri: xotira asosida manzara, voqea- hodisa, narsa-buyum, joy, kinofilm va hokazolarning tasviri, kichik insho, xat-xabar

Boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan talablar. Boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan muhim talablardan biri o‘quvchilar bilimini shakllantirish borasida ularning qobiliyatlarini o‘stirish ustida ishlash bilimlarni ongli bo‘lishiga erishish, o‘quvchilarga har bir ishni o‘ylab bajarishga odatlantirishdir.

Maktabda amaliy ishlarning ahamiyati o‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri baholansada, o‘quvchilarning nazariy bilimlaridan amalda foydalanishga qiynaladilar. Yozma ishlarni bajarishda grammatika qoidalaridan kam foydalanadilar. Aslida esa imlo savodxonlikni oshirish uchun ko‘chirib yozish va amaliy mashqlar muhim o‘rin tutadi.

Psixologik tadqiqodlardan ma'lum boʻlishicha, imlo savodxonlik asta-sekinlik bilan shakllanadi. Amaliy ishlardan qoidaga oʻtishda ham oʻzlashtirish jarayoni sekinlik bilan kechadi. Dastlab oʻqituvchi rahbarligida ogʻzaki muhokama qilinadi. Asta-sekin oʻquvchilar oʻylab, mulohaza qilib anglay boshlaydilar. Borcha yozuv darslarida oʻquvchilarga toʻgʻri yozish qoidalarini ta'kidlab turish va amaliy ishlarni bajarish orqali ularning imlo savodxonliklarini oshirish mumkin.

Barcha ona tili darslarida oʻquvchilar bilishini va malaka qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadida oldin oʻtilgan darslarni takrorlashga vaqt ajratiladi. Takrorlash bilimlarni aniqlashga, hisobga olish va shu bilan bir vaqtda mustahkamlashga yordam beradi. Boshlangʻich sinflarda oldin oʻtilganlarni takrorlash bilan bir vaqtda va takrorlash jarayonida oz-ozdan yangi bilimlar berib boriladi. Takrorlash orqali oʻquvchilar oʻz bilimlarini tartibga soladilar, mustahkamlaydilar. Ilgʻor tajribali oʻqituvchilar darslarni tashkil etishda oldin oʻtilganlarni mustahkamlash, yangi bilimlarni oʻzlashtirish bilan bir vaqtda keyingi darsda oʻrganiladigan mavzu uchun zamin tayyorlaydilar. Xozirgi zamon darsi shundan iboratki, oʻquvchi, tinglovchi, oʻqituvchi esa ma'ruzachi boʻlib qolmasligi kerak. Balki oʻqituvchi darsni kuzatib tartibga soluvchi rejissyorga aylanmogʻi lozim. Oʻqituvchi darsni shunday tashkil etishi kerakki hamma oʻquvchi shu mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritsin, oʻz fikrini ayta olsin, kamchiligi boʻlsa oʻrtoqlari va oʻqituvchi javobidan kelib chiqib toʻgʻrilay olsin. Darsning xarakter xususiyatiga qarab dars interfaol usulda boʻlishiga erishishi lozim. Darslarda testlardan va tarqatmali materiallardan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

1-4-sinf ona tili darslari bilan tanishtirish va ularning bir-biridan farqi. Ma'lumki, boshlangʻich sinf ona tili darsligining adabiy til meyorida amaliy oʻzlashtirishlarga yordam berishdir. Darslikning asosiy qismini xilma-xil mashqlar tashkil etadi.

3-sinf ona tili darsligi asosan 4 ta boʻlimdan iborat.

1. Takrorlash
2. Gap
3. Soʻz tarkibi
4. Soʻz turkumlari

Shuningdek o‘quv yili oxirida yil davomida o‘tilganlarni takrorlash berilgan. Bu bo‘limlar uchun berilgan mashqlar asosan o‘quvchilarni 4 ta bo‘lim yuzasidan puxta bilim olishlari uchun asos bo‘laoladi. 2019- yilda nashr etilgan ona tili darsligida 2022- yildagi darslikdan farqlari bor.

Masalan 2019- yildagi darslikda 43-mashqdagi “Turnalar” she’riga rasm berilmagan 2022-yildagi shu mashqqa rasm ishlangan. 53-mashqqa ham rasm ishlangan. 130-mashq eski darslikda gap shunday tahlil qilingan. Yoqimli kuy odamni allalaydi… Nima? Kuy - ega nima qiladi? Allalaydi- kesim Qanday kuy? Yoqimli. Kimni allaladi?-odomni. Shu mashqni yangi daslikda quyidagicha belgilangan. Yoqimli kuy odomni allalaydi. Bu belgilash ancha tushunarli va qulay. 250-mashq.

Eski darslikda: Yangi darslikda:

Gul-gulli. Gul-gulli;

Maza-Maza-mazali;

Shira-Shira;

Yog‘-Yog‘.

Umuman yangi darslik eski darslikdan birmuncha mukammal ishlangan. 4-sinf ona tili darsligi R.Ikromova, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, D.Shodmonovalar muallifligidagi darslik asosan sakkista katta bo‘limni o‘z ichiga olgan bo‘lib, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, bilish faolligini oshirishga qaratilgan. Bu darslikda oltita asosiy bo‘lim bo‘lib har bir bo‘limda o‘rganilishi zarur bo‘lgan reja-mavzular berilgan. Yangi darslikdagi so‘z turkumlari bo‘limida berilgan mashqlar, eski darslikdagi mashqlardan tubdan farq qiladi yangi darslikdagi berilgan qoida va mashqlar o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari uchun juda qulay berilgan. Umuman yangi to‘ldirilgan nashrlar o‘quvchilarning ona tili fanidan puxta bilim olishlarida katta ahamiyatga ega.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi faninn o‘rganish jarayonida muammoli ma’ruzalar o‘tkazish, interfaol metodlar, pedagogik strategiyalardan foydalaniladi. Metodika-metod va usullarning yig‘indisidan iborat bo‘lib, qandaydir harakatni amalda bajarilishidir. O‘qitish metodikasida u yoki bu fanni o‘rganish haqida tushuniladi. Adabiyotlarda shunday so‘z talqini uchraydi:

Lekin bu ikki tushuncha ham amalda teng huquqlidir. Chunki o‘qitish-bu o‘rgatilganni , o‘rgatish esa-ularni birgalikdagi usulidir. O‘qitish metodikasining metodologik asoslari bilim nazariyasi bo‘lib, umumiy qonuniyatlarni, inson atrofida sodir bo‘layotgan, uni urab to‘rgan dunyo shakli va metodlarni o‘rganadi. O‘qitish metodikasi o‘quv predmeti sifatida bo‘lg‘usi pedagogga quyidagini tushunitirishi kerak. qanday va nimaga o‘qitish, qanday ketma-ketlikda va nimaga endi shunday o‘qitiladi, boshqacha emas. U nafaqat metodlarning bilim ta’limmazmunini, o‘qitilayotgan fanlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Maxsus fanlar o‘qitish metodikasi fanida talabalarga mutaxassislik fanlarini ishlab chiqarishiga tadbiq etilgan hisob o‘quvchilarga o‘qitish metodlarini o‘rgatishdan iborat. O‘quv jarayonida tarbiyaviy ishlarni olib borish, mutaxassislikka bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quv dasturlari hamda hujjatlarini to‘gri yuritish kabi muammolarni yechishga yordam beradi. O‘qitish metodikasi fani asosan pedagogika, psixologiya, fiziologiya va mutaxassislik fanlari bilan bo‘g‘lik holda o‘qitiladi. Dars deganda o‘qituvchning o‘quv guruxiga uyushgan tayyorgarlik darajasi bir xil, tarkibi o‘zgarmas o‘quvchilar bilan mashg‘ulot o‘tkazishi tushuniladi. Har bir dars o‘quv jaryonining bir qismi hamda bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashning bir butun mantiqiy yakunlangan bosqichidir.

Har bir dars quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Maqsad va mazmunning aniqligi; bu talab darsning butun o‘quv materialini va uning har qaysi qismini to‘g‘ri tanlash bilan amalga oshadi.

Ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarning birligi; ta’limning tarbiyaviy harakteri uning obyektiv qonuniyati hisoblanadi. Shu bilan birga o‘qituvchi o‘quvchilarning kasbiy bilimlarini shakllantirishda hamma imkoniyatlaridan foydalanishi kerak.

Darsda o‘quvchilarning jamoa va yakka tartibdagi ishini to‘g‘ri qo‘shib olib borish; o‘qituvchi dars davomida butun gurux bilan ishlashdan tashkari o‘quvchilarning yakka tartibdagi topshiriqlar bo‘yicha mustaqil ishlashini ham keng joriy qilishi lozim.

Darsni samarali tashkil etish-bu talab darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanishni, o‘qituvchi va o‘quvchilarning darsga

yaxshi tayyorlanishini, mashg‘ulotning yangi texnik jihozlar bilan ta’minlanishini, uning barcha elementlari, strukturasi puxta to‘zilishini takozo etadi. Ayni vaqtda ta’limning quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, ma’ruza-seminarli va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari.

Dars o‘qituvchining rahbarligi asosida aniq belgilangan vaqt davomida o‘quvchilar guruhi (sinf)ni ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish, hamma o‘quvchilar bevosita mashg‘ulot davomida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, o‘quvchilarning idrok etish qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratuvchi ish vositalari, metodlaridan foydalanishning tashkiliy shaklidir. Dars ta’limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o‘ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o‘quvchilarning doimiy guruhi, o‘quvchilariga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o‘rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o‘z xususiyatini ham aks ettiradi). Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo‘lishi mumkin. Bu o‘quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o‘uvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog‘liq.

O‘qitish metodlari klassifikasiyasi. O‘qitish metodlari juda ko‘p va xilma-xildir, ular yildan-yilga ko‘payib bormoqda, takomillashmoqda, o‘qitishning yangi vositalari yaratilmoqda. Jamiyatning madaniy darajasi oshishi bilan o‘quvchilarning rivojlanish darajasi oshib bormoqda. Shuning uchun metodlarni sistemaga solish va sinflarga ajratish zaruriyati kelib chiqmoqda. Quyidagi belgilar bo‘yicha o‘qitish metodlari tizimini keltirib chiqarish mumkin.O‘quvchilarning fikrlashi harakteri bo‘yicha ilyustrativ- tushuntirish, evristik, tekshirish metodlari.Bilimlar manbalarining turi bo‘yicha: so‘zlab berish, ko‘rgazmali so‘zlab berish. O‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi lari shakli bo‘yicha: ma’ruza, suhbat, tushuntirish, mustaqil ish, dasturli o‘qitish.

O‘quvchilar ta’limni amalga oshirish bo‘yicha yangi pedagogik texnologiyalar.

Tekshirish metodi. Tekshirish metodida oʻquvchilarning tajribalari asosiy oʻrinni egallaydi. Misol tariqasida tajribaal masalalarni yechishni keltirish mumkin. Unda oʻquvchilar masalani hal qilish uchun oʻzining nazariy bilimlari va tajriba oʻtkazish koʻnikmalaridan foydalanadilar. Ular avval fikran tajribani amalga oshiradilar, tekshirish rejasini tuzadilar. Zarur holllarda oʻquv va ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Tekshirish metodida oʻquvchilardan maksimum mustaqil ishlashni talab etiladi.

Oʻqitishning ogʻzaki bayon etish metodlari. Ogʻzaki bayon monologik va dialogik shakllarda olib boriladi. Oʻqitishning monologik shakliga, tavsiflash, izohlash soʻzlab berish, ma'ruzalar kirib, materialni bayon qilish, asosan, oʻqituvchining oʻzi tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'ruza. Ma'ruza oʻqituvchining koʻproq vaqt materialni monologik bayon qilish koʻrinishidir. U koʻrgazmali vositalardan foydalangan hisob tavsiflash, izohlash, soʻzlab berish va boshqa monologik bayon qilishlarni oʻz ichiga oladi. Maktab ma'ruzasi Oliy oʻquv yurti ma'ruzasidan davom etish vaqti bilan farqlanadi. Maktab ma'ruzasi 30 minutdan oshmaydi. Dialogik metodlar suhbatning barcha turlari, seminarlar kiradi.

Suhbat-bu oʻqituvchining oʻquvchilar bilan oʻzaro muloqatidir. Bunda oʻqituvchi oʻquvchilarga savol beradi, oʻquvchilar javob qaytaradi. Ba'zida suhbat jarayonida oʻquvchilarda savollar kelib chiqadi, unga oʻqituvchi javob beradi yoki oʻquvchilarning javob berishi tashkil qilinadi. Keyingi yillarda maktab amaliyotida ham seminarlar joriy qilinmoqda, u ham oʻqitishning oʻzaro muloqat dialogik metodiga kiritiladi.

HUSNIXAT. Yozuvga oid koʻnikmalarni shakllantirish: yozuv chiziqlarini farqlash, harf unsurlari va harflarni yozuv chiziqlari orasida toʻgʻri joylashtirish; harflarning qiyaligi, ulanishi hamda soʻzlar orasini bir xil masofada chamalab yozish, kichik va bosh harflarni toʻgʻri va aniq yozish hamda husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yozish.

Ayrim yozuv qoidalari. Gigiyena qoidalariga rioya qilishga oʻrgatish: yozuv vaqtida partada toʻgʻri oʻtirish, daftarni belgilangan qiyalikda qoʻyish, yozuv qurollaridan toʻgʻri foydalanish, daftarni toza tutish.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya *(tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish)* **elementlari:** mavzu doirasida o‘qituvchi nutqini, sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi; *O, N, A, I, M, T,L, B, K, R, O‘, D, U, Y, E, G, Ng, S, H, Sh, x, Q, Ch, J, G‘, Z, V, X, F* harfini qo‘shib o‘qiy oladi, tuzilishi murakkab so‘zlarni bo‘g‘inlab, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o‘qiy oladi hamda (‘) tutuq belgisi qatnashgan so‘z va matnlarni ravon o‘qiy oladi; *kichik o, bosh O, kichik n, bosh N, kichik a, bosh A , kichik i, bosh I, kichik m, bosh M, kichik t, bosh T, kichik l, bosh L, kichik b, bosh B, kichik k, bosh K, kichik r, bosh R, kichik o‘, bosh O‘, kichik d, bosh D, kichik u, bosh U, kichik y, bosh Y, kichik e, bosh E, kichik g, bosh G, kichik ng, kichik s, bosh S, kichik h, bosh H, kichik sh,bosh Sh, kichik p, bosh P, kichik q, bosh Q, kichik ch, bosh Ch, kichik j, bosh J, kichik g‘, bosh G‘, kichik z, bosh Z, kichik v, bosh V, kichik x, bosh X, kichik f, bosh F harfini* va ular ishtirok etgan so‘zlarni, (‘) tutuq belgisi qatnashgan so‘zlarni to‘g‘ri va aniq yoza oladi.

Alifboni yozma shaklda yoza oladi. Harflarni bir-biriga bog‘lab, ko‘chirib, namunaga qarab yoza oladi.

Bosma va yozma harflarni, ular ifodalaydigan tovushlarni to‘g‘ri talaffuz eta oladi.

Lingvistik kompetensiya elementi: o‘zbek tilida nutq tovushlarini to‘g‘ri qo‘llay oladi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi.

Boshlang‘ich sinflarda suhbat metodining muammoli o‘qitish metodi sifatida qo‘llanilishi ta'limda o‘quvchilarni faollashtirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Muammoli o‘qitish metodiga amerikalik pedagog va psixolog Dyun 1894-yilda asos solgan. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o‘quvchilarning bilish qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish hamdir. Bunda suhbat davomida o‘qituvchining topshirig‘i bilan o‘quvchining oldiga biror muammo qo‘yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Bu muammoni

oʻquvchi oldin egallagan bilimlari asosida hal etadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli oʻqituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi. Muammoni oʻquvchi hal qila olmasa, uni oʻqituvchining hal qilishiga toʻgʻri keladi. Shuning uchun boshlangʻich sinfda muammoli oʻqitish metodi yarim izlanishli muammoli metod deb ham yuritiladi. Masalan, muammoli oʻqitish metodini leksik-semantik va grammatik mashqlarni tashkil etishda ham qoʻllash mumkin. Bu metoddan 1-sinfdan boshlab foydalanish mumkin. Bu metod "Tovush va harf" mavzusini oʻrganayotganda tovushning soʻz maʼnosini farqlashdagi vazifasini tushuntirishda, "Soʻz maʼnosi", "Nutq va gap" mavzularini oʻrganishda ham qoʻllanadi. Masalan, "Soʻz maʼnosi" mavzusini oʻrganish uchun xat taxtaga turli ma'nodagi, yaʼni turli soʻz turkumiga kiradigan soʻzlar aralash holda yozib qoʻyiladi. Soʻzlar: kitob, qurdi, shifokor, sakkiz, qizil, qalam, oʻqidi, yashil, binokor, oʻnta, oʻqituvchi, sakkiz.

Oʻquvchilar bilan quyidagicha savol-javob tashkil qilinadi:

Soʻzlarni oʻqing.

- Birinchi soʻz nimani bildiryapti? Narsanimi, shaxsnimi?
- Bu soʻzga qanday soʻroq beramiz?

Ikkinchi soʻz harakatni bildiryaptimi yoki narsanimi?

- Bu soʻzga qaysi soʻroqni beramiz?
- Qaysi soʻzlar sanoqni bildiryapti?
- Bu soʻzlarga qaysi soʻroqni beramiz?

Qaysi soʻzlar rangni bildiryapti?

- Bu soʻzga qaysi soʻroqni beramiz?

Soʻzlar ichidan shaxsni (kasb egasini) bildirayotgan soʻzlarni topib, bir ustun qilib yozing.

- Ikkinchi ustunga narsani bildirgan soʻzlarni topib yozing.
- Uchinchi ustunga harakatni bildirgan soʻzlarni topib yozing va hokazo.

Oʻquvchilar topshiriqni oʻqituvchi yordamida bajarib boʻlgach, muammoli savol oʻrtaga tashlanadi:

Yuqoridagi soʻzlar nimasiga koʻra farqlanyapti?

Oʻquvchilar "maʼnosiga koʻra" degan fikrni ayta olmasalar, oʻqituvchi bu muammoni hal qiladi: Bu soʻzlar maʼnosiga koʻra va soʻroqlariga koʻra farq qiladi. Oʻylang, soʻzlarni qaysi

xususiyatlariga koʻra guruhlarga ajratamiz? Soʻzlarni nechta guruhga ajratish mumkin? Savol-javoblardan koʻrinib turibdiki, oʻquvchilar bilan suhbat rivojlantirilib borilyapti va oʻquvchilar suhbat davomida yangi-yangi ma'lumotlarni egallab bormoqdalar. 3-4-sinflarga oʻtganda bunday suhbatlar oxirida oʻquvchilarning oʻzlari xulosa chiqaradilar. Bunday suhbatlarda oʻquvchilarning yoshi, saviyasidan tashqari, vaqt ham hisobga olinadi. Suhbat uzoq davom etsa, oʻquvchilar charchab qoladilar, oʻzlashtirish darajasi ham susayadi. Boshlangʻich sinf ona tili darslarida mustaqil ish metodi asosan oʻrganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qoʻllaniladi. Oʻquvchilar oʻqituvchining topshirigʻi bilan mustaqil ishlarni ogʻzaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va koʻp vaqtni olmasligi, oʻquvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida txnjarishga moʻljallangan boʻlishi kerak. Mustaqil ishlash uchun topshiriq 1-sinfdan boshlab beriladi va u asta-sekin marakkablashtirilib boriladi. 1-sinfda "Yozgan soʻzlaringizni lugʻatdan tekshiring "Rasmga qarab sabzavot nomlarini alifbo tartibida yozing", "Rasmni kuzating" Unda tasvirlangan narsalarni aniqlang va ularning nomini yozing kabi topshiriqlar beriladi. Masalan, mashqda "Oʻlkamda bahor" mavzusida sujetli rasm berilgan. Oʻquvchilar rasmni kuzatib narsa nomlarini yozadilar. Bunda bir oʻquvchi 5 ta, ikkinchi oʻquvchi 10 ta va hokazo soʻz yozishi mumkin. Aslida rasmda 30 tadan ortiq narsa tasvirlangan: togʻ, osmon, bulut, qor, terak, tol, oʻrik, koʻylak shirt, tufli, lenta, soch, bosh, qir, dala, oʻt, gul, qoʻl, oyoq, quloq, burun, yuz, ogʻiz, barmoq, boʻyin, qorin, yubka, jemper daraxt va hokazo. Bu oʻquvchilarning e'tibor bilan kuzatishga yatuvchanlikka oʻrgatadi.

Analiz-sintez metodi savod oʻrgatish darslariga rus-tuzem maktablari va tatar oʻqituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. Ona tili ta'limi jarayoniga analiz-tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, oʻrganilgan grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etiladi. Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik tahlil shu metodning amalda namoyon boʻlishdir. Sintez qismlarga boʻlib oʻrganilgan grammatik materialni yaxlitlashdir. Masalan, ot, sifat, fe'l, son kabi soʻz turkumlari oʻrganilayotganda ularga oid

so‘zlar berilib, ular ishtirokida gap tuzish, aralash berilgan so‘zlardan gap tuzish, aralash berilgan gaplarni voqealar rivoji asosida tartiblashtirib matn tuzish, mazmunan tahlil qilingan rasm asosida hikoyacha tuzish kabi ishlarda sintez metodi namoyon bo‘ladi. Analiz-sintez metodida ham o‘quvchilarni faollashtirish o‘qituvchining o‘quvchilarga beradigan savol va topshiriqlariga, ishni tashkil etish shakllariga bog‘liq bo‘ladi. Induksiya metodida o‘quvchilar o‘qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi. Deduksiya metodida o‘quvchi tayyor qoida – ta’rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi. Bu metodlarning samarasi o‘qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo‘naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o‘quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug‘atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog‘liq bo‘ladi.

“Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liklikda qo‘llanilib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini o‘zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi ma’lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog‘liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”. G.M.Kodjaspirova, A.Y.Kodjaspirovlarning fikricha, “O‘qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq O‘qitish metodikasiga qo‘yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:
1)aniqlik;

2)asoslanganlik;

3)rejalashtirilgan harakatning maqsad va vazifalarga mosligi;

4)qayta ishlab chiqishga yo‘nalganlik;

5)hayotbilanuyg‘unlik;

6)natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o‘qitish metodikasi o‘zida quyidagilarni aks ettiradi:

- ta’limning maqsad va vazifalarini – ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy;

- ta’limning qonuniyat va tamoyillarini; - ta’lim mazmunini;

- ta’limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;

- ta’limning umumiy va xususiy metodlarini;
- o‘quv vositalari;
- o‘qitish natijasini. usullari, uslublari va texnikasidir”.

Pedagogika fanini o‘qitish metodikasi metodologiyasi fan metodologiyasining falsafiy va maxsus-ilmiy darajalariga asoslanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, metodologiyaning barcha darajalari o‘zaro bog‘liq va bir-biriga bo‘ysunadi, shuning uchun ular yaxlit tizimni tashkil qiladi.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, quyida o‘qitish metodikasi mohiyatini yoritib beruvchi asosiy tushunchalarga izoh berib o‘tamiz:

1) o‘rgatish – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;

2) o‘rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi;

3) o‘qitish – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o‘zaro harakati;

4) ta’lim – o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;

5) bilim – ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘oyalari yig‘indisi;

6) ko‘nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallash;

7) malaka – avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi;

8) maqsad – o‘qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda safarbar etilishi;

9) mazmun –o‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;

10) tashkil etish - qo‘yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon;

11) shakl - o‘quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig‘i, mazmuni uchun qobiq;

12) metod - o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo‘li;

13) vosita - o‘quv jarayonining predmetli qo‘llab-quvvatlanishi, yangi materialni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan obyekt;

14) natija - o‘quv jarayonining so‘nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

15) metodik (uslubiy) ko‘rsatma – muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari, loyihalar, laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko‘rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo‘yicha talabalarda zarur amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilishga mo‘ljallangan ta’lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo‘llanma.

Savol va topshiriqlar

1.Dars jarayonini olib borishda o‘qitish metodini kim tanlaydi?

2.O‘quvchilarni tarbiyalashda o‘qituvchining shaxsiyati qanday ahamiyatga ega?

3.Og‘zaki bayon etish qaysi metodlarni o‘z ichiga oladi?

4.Dialogik metodlarga qaysi metodlar kiradi?

5.Boshlang‘ich sinf darslariga qo‘yiladigan talablarni ayting.

4-MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINF DARSLIGI VA QO‘SHIMCHA QO‘LLANMALAR

Reja:

1. Boshlang‘ich sinflarda darslikning roli, vazifalari.
2. Darslik matniga qo‘yiladigan talablar.
3. Darslik bilan ishlash ish turlari.

Tayanch so‘zlar: *4K modeli, draslik, qo‘llanma, nutq o‘stirish, o‘qish darslari, ona tili darslari, savodxonlik ko‘nikmalari, Davlat ta’lim standarti, metod, texnologiyalar*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh.,

Sariyev Sh. Ona tilio‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X.Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. – T.:TDPU, 2013. –70 b.

3.Икромова Р, Ғуломова Х, Йўлдошева Ш, Шодмонқулова Д, Она тили, 4-синф, -Т.: 2017.

4. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2017.

5. Фузалиев С, Худойберганова М, Йўлдошева, “Она тили”, 3-синф, -Т,: “Ўқитувчи”, 2018.

6. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2016.

7. Қосимова К, Фузалиев С, Неъматова А, “Она тили”, 2-синф, -Т,: “Чўлпон”, 2018.

8. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2015.

9. Ғаффорова Г, Шодмонов Й, Ғуломова Х , “Она тили”, 1 - синф, -Т,: “Шарқ”, 2019.

10. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 1-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2014.

11. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2015.

12. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2016.

13. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2017.

14. Ҳ.Бакиева, Н.Аҳмедова, Н.Азизова, Д.Носирова, Б.Тешабоева, У.Исмоилова, Б.Эгамбердиева “Саводга ўргатиш дарслари”.-Т.: “Эхтремум-пресс”, 2014. -119 б

15. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis,

Michael O. Martin. International Association for the Yevaluation of Yeducational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019.

Axborot manbalari

1.http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

2.http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

3.http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

4.www.pedagog.uz

5.www.timssandpirls.bc.edu.

6. www. pedagog. uz

7. www. Ziyonet. uz

Maktablardagi sifatli ta’lim ko‘p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog‘liq. Ya’ni u ta’lim standartlariga javob berish bilan birgalikda o‘quvchini qiziqtirish va fanga bo‘lgan mehrini uyg‘otishi kerak. Boshlang‘ich sinf darsliklarining tubdan yangilangani nafaqat o‘quvchi va ustozlarni, balki ota-onalarni ham quvontirdi. Ammo ular borasidagi tanqidiy fikrlar ham yo‘q emas. Xo‘sh, 2023/2024-o‘quv yilida taqdim etilgan darsliklar avvalgilaridan nimasi bilan farq qiladi? Bu savolga javob olish maqsadida soha mutaxassislari va ota-onalarning fikrlari bilan o‘rtoqlashdik. — Bu yil taqdim etilgan boshlang‘ich sinf darsliklari o‘qituvchilar uchun yangilik bo‘ldi. O‘quvchilar kitoblar berilgan kun qanchalik quvonishganini so‘z bilan ta’riflab berib bo‘lmaydi. Haqiqatan ham hozirgi kitoblar avvalgilaridan ancha ustun. Kitobning ko‘rinishi va rang-barang suratlari har bir o‘quvchini o‘ziga qaratoladi. Avvalgi kitoblar ancha qalin va og‘ir edi. Ayni o‘sish davridagi bola uchun bu qator qiyinchiliklarni tug‘dirardi. Yangi darsliklarning choraklarga bo‘lingani o‘quvchini yil davomida ortiqcha yukni ko‘tarib yurishdan xalos qildi.

1—4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etilgan. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama— O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 726-qaroriga

muvofiq ta’lim muassasalarining matbaa mahsulotlari texnik reglament asosida ishlab chiqariladi. Yangi boshlang‘ich sinf darsliklari ana shu texnik reglamentning eng maksimal darajasidan ham yuqori sifatda ishlab chiqarilgan. Bu o‘z navbatida darslikdan uzoq yil foydalanishga sabab bo‘ladi. Ular sifati va chidamlilik darajasi bo‘yicha Yevropa poligrafiyasi standartlariga to‘liq javob beradi. Darslikning vazni, o‘lchami, shriftlari bo‘yicha reglament tasdiqlangan va shu talablardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarilgan rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi:

Kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Darsliklarni ishlab chiqishda bolalar ruhiy holati ham hisobga olinadi. Ularda ijodkorlar va fikrlash qobiliyatini oshirish uchun rasmlar va illyustratsiyalardan keng foydalanilgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola matnlarga nisbatan, tasvirlar orqali ma’lumotni tezroq qabul qiladi. Shu bois yangi darsliklarni yaratishda matnlar bilan birga, rangtasvirlarga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Darslik - muayyan o‘quv fani mazmunini o‘quv dasturida ko‘rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilib beradigan kitob sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan keyin iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishning oziga xos yo‘liga ega bo‘ldi. Mustaqillik omili talim sohasini ham tubdan yangilash zaruratini vujudga keltirdi. Ushbu talablar quyidagilardan iboratdir:

O‘quv darsligida ilmiy bilimlar tizimi va hajmi o‘quv dasturi talablariga tegishli hajmda sinf talabalarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari hamda g‘oyaviy yo‘nalishi tizimli va izchil bo‘lishi, keltirilgan ma'lumot va dalillarning asosli, ishonchli bo‘lishi, ular to‘g‘ri tahlil, aniq ta’rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi lozim. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslariga qo‘yilgan zamonaviy talablar hamda 1-4-sinf ona tili darsliklari bilan tanishtirish va ularni bir-biridan farqi, tahlili haqida so‘z borgan. O‘qituvchilarga boshlang‘ich ona tili ta’limidan yangi

tahrirdagi DTS asosida me’yoriy-majburiy talablarni o‘quvchilar ongiga singdirish yo‘llari haqida bilim beradi. Barcha ona tili darslarida o‘quvchilar bilishini va malaka qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadida oldin o‘tilgan darslarni takrorlashga vaqt ajratiladi. Takrorlash bilimlarni aniqlashga, hisobga olish va shu bilan bir vaqtda mustahkamlashga yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda oldin o‘tilganlarni takrorlash bilan bir vaqtda va takrorlash jarayonida oz-ozdan yangi bilimlar berib boriladi. Takrorlash orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini tartibga soladilar, mustahkamlaydilar.

Yosh avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat e’tiborni talab qiladigan jarayon. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchi yoki talabaning shakllanish jarayoni zo‘r havas va sinchkovlik bilan kuzatish lozim. O‘qituvchi pedagogik jarayonda barqaror ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo‘lishi lozimligi shuningdek, o‘qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyatini va dialektikasini, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini va professional pedagogikani tushunib yetishi alohida ta’kidlangan. Bundan tashqari maqolada ta’lim tizimida axborot texnologiyalarini afzalliklari shuningdek, kompyuterlar va axborot kommunikatsiya vositalarining qo‘llanilishi, o‘quvchilarning ular bilan bemalol ishlay olishlari pedagogik jarayondagi eng muhimligi ham ta’kidlangan.

O‘qituvchi nafaqat o‘quvchiga bilim beradi, balki uning hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga yordam berib, shaxs sifatida jamiyatning faol a’zosiga aylanishiga ko‘maklashadi. Shu boisdan birinchi o‘qituvchi hamma vaqt o‘quvchi xotirasida umrbod qoladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga o‘quvchini tarbiyalashda xalqimizning boy ma’naviy merosi, qadriyatlari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘qituvchi faoliyatida xalq og‘zaki ijodi, jumladan, maqol, topishmoq, tez aytish, rivoyat, afsona, ertaklardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchini nafaqat dars jarayonida balki, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida ham tarbiyalab boradi. Shu bois tarbiyaviy ishlarni zamon talablari darajasida tashkil etishga harakat qilish, ular mazmunini turli-tuman didaktik vositalar bilan boyitib borish bugungi kun sinf rahbarlari oldida

turgan dolzarb muammolaridan biridir. Kasblarning eng ulug‘i - bu o‘qituvchilik kasbidir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy maqsadi, o‘quvchida savodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning dunyoqarashi, axloqi, estetik didi, qobiliyati va e’tiqodini rivojlantirib, ma’lum kasb egasi bo‘lishga tayyorlab borishdan iboratdir. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni o‘ta mas’uliyatli, murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois bu jarayonda faoliyat yuritish o‘qituvchidan juda katta kuch, matonat, sabr-bardosh, ijodkorlikni talab etadi. Negaki, o‘qituvchi ilk bor o‘quvchi qo‘liga qalam ushlatib, unga harfni, o‘qishni o‘rgatadi, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini boyitadi hamda ahil sinf jamoasini shakllantirib boradi. Shuningdek, bu vaqtda o‘qituvchidan har bir o‘quvchiga e'tiborli bo‘lish, ularning qiziqish va xarakter xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Darslarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish quydagicha natija beradi. Birinchidan, ta’lim xizmatlaridan foydalanishda tafovut kamayadi. Mintaqaviy ta’lim imkoniyatlar tezligi oshadi. Interaktiv usullar orqali o‘qitish va muloqotli ta’lim berish, standart o‘qitishni boyitadi. Pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘tilgan darslar jarayonni jadallashtiradi, rivojlanish potinsialini yuqori darajaga ko‘taradi. Dars mazmunini chuqur va keng miqyosda o‘zlashtirishga yordam beradi.

Maktabda amaliy ishlarning ahamiyati o‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri baholansa-da, o‘quvchilarning nazariy bilimlaridan amalda foydalanishga qiynaladilar. Yozma ishlarni bajarishda grammatika qoidalaridan kam foydalanadilar. Aslida esa imlo savodxonlikni oshirish uchun ko‘chirib yozish va amaliy mashqlar muhim o‘rin tutadi.

Psixologik tadqiqodlardan ma’lum bo‘lishicha, imlo savodxonlik asta-sekinlik bilan shakllanadi. Amaliy ishlardan qoidaga o‘tishda ham o‘zlashtirish jarayoni sekinlik bilan kechadi. Dastlab o‘qituvchi rahbarligida og‘zaki muhokama qilinadi. Asta-sekin o‘quvchilar o‘ylab, mulohaza qilib anglay boshlaydilar. Borcha yozuv darslarida o‘quvchilarga to‘g‘ri yozish qoidalarini ta’kidlab turish va amaliy ishlarni bajarish orqali ularning imlo savodxonliklarini oshirish mumkin. Barcha ona tili darslarida

oʻquvchilar bilishini va malaka qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadida oldin oʻtilgan darslarni takrorlashga vaqt ajratiladi. Takrorlash bilimlarni aniqlashga, hisobga olish va shu bilan bir vaqtda mustahkamlashga yordam beradi. Boshlangʻich sinflarda oldin oʻtilganlarni takrorlash bilan bir vaqtda va takrorlash jarayonida oz-ozdan yangi bilimlar berib boriladi. Takrorlash orqali oʻquvchilar oʻz bilimlarini tartibga soladilar, mustahkamlaydilar.

Ilgʻor tajribali oʻqituvchilar darslarni tashkil etishda oldin oʻtilganlarni mustahkamlash, yangi bilimlarni oʻzlashtirish bilan bir vaqtda keyingi darsda oʻrganiladigan mavzu uchun zamin tayyorlaydilar.

Xozirgi zamon darsi shundan iboratki, oʻquvchi, tinglovchi, oʻqituvchi esa ma'ruzachi boʻlib qolmasligi kerak. Balki oʻqituvchi darsni kuzatib tartibga soluvchi rejissyorga aylanmogʻi lozim. Oʻqituvchi darsni shunday tashkil etishi kerakki hamma oʻquvchi shu mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritsin, oʻz fikrini ayta olsin, kamchiligi boʻlsa oʻrtoqlari va oʻqituvchi javobidan kelib chiqib toʻgʻrilay olsin. Darsning xarakter xususiyatiga qarab dars interfaol usulda boʻlishiga erishishi lozim. Darslarda testlardan va tarqatmali materiallardan foydalanish ham yahshi natija beradi.

1-4-sinf ona tili darslari bilan tanishtirish va ularning bir-biridan farqi. Ma'lumki, boshlangʻich sinf ona tili darsligining adabiy til meyorida amaliy oʻzlashtirishlarga yordam berishdir. Darslikning asosiy qismini xilma-xil mashqlar tashkil etadi.

Savod oʻrgatish darslari oʻqish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfda va sinfdan tashqari oʻqish darslari boshlangʻich sinflarda oʻtiladigan barcha predmet dasturlarining boʻlimlari bilan bevosita bogʻliq. Oʻqish darslarida oʻtilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish koʻnikmalarini shakllantirish dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, ularning didaktik asosini belgilash ham mashgʻulotning predmeti hisoblanadi. Aytish joizki maktab oʻquvchilarni nutqini va talaffuzini oʻstirishda xalq ogʻzaki ijodi na'munalaridan foydalanish kata ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o‘quvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko‘rish, nutq buzulish sabablarini o‘rganish lozim. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to‘ldirilib, qaysi tovushlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq o‘stirish ongli o‘qishni, so‘zlash va yozishga o‘rgatishni, til haqida o‘quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo‘lgan bilim berishni, ularning lug‘at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e’tibor va qiziqishni o‘stirish, kitob o‘qishga muhabbat uyg‘otishni ko‘zda tutadi. Ba’zi bolalar tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlay ham olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni o‘zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tug‘diradi. Bunday hollarda logoped mashg‘ulotlar yordamiga muxtoj bo‘ladilar. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta'lim standarti (DTS) davlat ta’lim standartining maqsad va vazifalarini, asosiy prinsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat ta’lim standartlarini joriy etish hamda davlat ta’lim standartlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi. Davlat ta’lim standartining maqsadi - umumiy o‘rta ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi:

1) o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish, ya’ni A1- o‘quvchi berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna olishi; matnni tushunib o‘qiy olishi; og‘zaki nutqda so‘z va gaplar talaffuziga rioya qila olishi; 65-70 so‘zdan iborat diktantni yoza olishi; xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yarata olishi, xatboshi va husnixatga amal qilishi; imlo va tinish belgilarini ishlatish qoidalariga amal qila olishi; do‘sti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma yoki xatyoza olishi. A1+ sodda matnning asosiy mazmunini tushunishi va tushuntira olishi; matn mazmunini tushunib ifodali o‘qiy olishi; 70-75 so‘zdan iborat diktantni yoza olishi; 7-8 gapdan iborat xabar yoki rasm asosida matn tuza olishi) ni rivojlantirish;

2) oʻquvchilarda grammatikaga oid oʻzlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, soʻzning tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;
3) ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda toʻgʻri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid, ya'ni A1 - ona tilidagi nutq tovushlarini oʻzlashtirishi.

Boshlangʻich taʼlimning ona tili fani oʻquv dasturi oʻquvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. Ushbu oʻquv dasturida 1-4-sinf oʻquvchilarida tayanch hamda fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish koʻzda tutilgan. Boshlangʻich taʼlimning ilk savodga oʻrgatish davridanoq, oʻquvchilar nutqini yangi soʻzlar hisobiga boyitishga alohida eʼtibor qaratila “Alifbe” darsligida berilgan: yangi soʻzlar, matn, kichik hikoya va sheʼrlardan foydalanib, oʻquvchilarni soʻz maʼnosi bilan atroflicha tanishtirishda, she'riy va nasriy matnlarni yodlatish, qayta hikoyalashga e'tibor beriladi. Sinfdan tashqari oʻqish darslari oʻquvchilarni bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirib borishga, ularni mustaqil oʻqishga, oʻqituvchi va ota-onalar yordamida badiiy oʻqishga qiziqtirish, nutqini boyitish va rivojlantirishga yordam beradi.

Ona tili erkin fikrlay olish, oʻzgalar fikrini anglash, oʻz fikrlarini ogʻzaki va yozma ravishda bayon qila olish, kishilar bilan erkin muloqotda boʻla olish koʻnikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili dasturining tuzilishi va mazmuni.

Ona tili (1-4-sinf) dasturining mazmuni quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

I. Nutq va gap.

II. Ona tilining fonetik tizimi:

1) nutq tovushlari va harflar, unli tovushlar va harflar, undosh tovushlar va harflar, jarangli va jarangsiz undoshlar, alifbo, bosh va kichik harflar, tutuq belgisi (fonetik tahlil);

2) boʻgʻin va boʻgʻin tuzilishi, soʻzlarni boʻgʻinlab koʻchirish. Soʻz va soʻz ma'nolari (lugʻaviy tahlil: bir ma'noli soʻzlar, qarama-qarshi ma'noli soʻzlar, koʻp ma'noli soʻzlar);

III. Soʻz tarkihi: asos va qoʻshimcha (turlovchi, tuslovchi va yasovchi), asoslarda tovush oʻzgarishi, asos va qoʻshimchalar imlosi;

IV. Soʻz ma'nosi: soʻzlarning ma'nosiga koʻra guruhlash: shaxs-narsalar nomini bildiruvchi soʻzlar, shaxs-narsalarning harakatini, belgisini, sanogʻini va tartibini bildiruvchi soʻzlar, shaxs-narsaga ishorani ifodalovchi soʻzlar (shaxsga nisbatan kishilik olmoshi).

V. Gap, gapning fikr bildirishi:

1) gapning maqsadga koʻra turlari (darak, soʻroq, buyruq va his-hayajonni bildiruvchi gaplar);

2) gapda tinish belgilarining ishlatilishi (nuqta, soʻroq, undov va h.k.), yozma nutqda ishlatiladigan muhim (ayrim) belgilar: vergul, qavs, ikki nuqta, koʻp nuqta;

3) gapning gap boʻlaklariga koʻra tuzilishi: gapning asosiy mazmunini bildiruvchi boʻlaklar (ega va kesim), gapning asosiy mazmunini toʻldiruvchi boʻlaklar (ikkinchi darajali boʻlaklar - ularning turi va nomlaridan mustasno);

4) gapda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi, soʻz birikmasi, gapning uyushiq boʻlaklari, ularning oʻzaro bogʻlanishi (ohang, bogʻlovchi soʻzlar yordamida);

5) Undalma uning shaxsga qarab bilishi, undalmali gaplarda tinish belgisining ifodalanishi.

VI. Gap va matn, matnning tuzilishi: mavzu, voqea tafsiloti, asosiy fikr bayoni, xulosa chiqarish, reja tuzish, sarlavha, xat boshi, dialog, monolog nutq, bayon, kichik hikoya;

VII. Husnixatga oʻrgatish.

Husnixatga oʻrgatishning vazifasi harf, soʻz, gap va matnni toʻgʻri va chiroyli yozishni takomillashtirishdir. Yozuvni oʻrganish jarayonida oʻquvchi tovushning shakli boʻlgan harfni, soʻz va gapni kitobdan va doskadan toʻgʻri, husnixat qoidalariga rioya qilib koʻchirib yozish, yozganlarini tekshira olish va yoʻl qoʻygan grafik kamchilik hamda xatolarini oʻqituvchi rahbarligida oʻzi tuzata olishi kerak. Bu davrda eshitib yozish koʻnikmalari ham rivojlantirib boriladi. 1-sinfda oʻquv yilining 2-yarmidan boshlab

husnixat malakalari takomillashtirib boriladi. Shuningdek, 2-4-sinflarda esa har bir ona tili darsining 5-8 daqiqasi “Husnixat daqiqasi”ga ajratiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nutqini o‘stirishda xikoyalar katta ahamiyat kasb etadi. Ijodiy qayta hikoyalashda o‘qilayotgan hikoya yoki hikoyani yangi epizodlar bilan to‘ldirish orqali hikoya kontekstni yoki shaklini o‘zgartirish orqali aytiladi. Sahnalashtirishda o‘quvchilar o‘qilgan hikoyani sahnalashtirilgan hikoyaga aylantiradilar. Bu, ular hikoyaning ssenariysi, kostyumi, imo-ishoralari haqida o‘ylashadi ishtirokchilar, monologni dialogik nutqqa aylantiradi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish o‘qish orqali tevarak atrof borliq xaqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy kreativ fikrlash ko‘nikmasini egallash nazarda tutiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘quv bilim faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o‘z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda etkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlar va yozish xamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek faoliyatga yo‘nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi farqli va tanqidiy yondashuv kabilar e'tiborda bo‘lishi lozim.O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini mustaqil fikrlash darajasi va nutqini o‘stirishning zaruriy omillaridan biri lug‘atlar ustida ishlashdir. Ta’lim berishda kommunikativ yondashuv ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuning dek, integrativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, onglilik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e’tiborda bo‘lishi lozim. Tilni amaliyotdaqo‘llash, ya’ni matnni o‘qish orqali ham grammatika, ham uningqo‘llanishini o‘rgatishga asoslanadi.

O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska vahokazo) foydalanishi mumkin. O‘qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta’limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e’tirof etish kerak. Har bir o‘qituvchi ta’limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi o‘z faoliyatidan qoniqmaslikdan kelib chiqadi. Zamonaviy dars - bu aynan o‘quvchilarning bilish darajasi rivojlanib, ularni atrofdagi haqiqatni faol ravishda idrok etishga, sabab-ta’sir munosabatlarini tushunishga va topishga, mantiq, fikrlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydi. Zamonaviy darsning maqsadi aniq va o‘lchovli bo‘lishi kerak. Maqsadni dars natijasi bilan aniqlash mumkin. Darsning yangi ta’lim maqsadlariga o‘quvchilar o‘zlari tomonidan tuziladigan va shaxsan o‘zi uchun muhimligini anglaydigan maqsadlar kiradi. Zamonaviy dars mashg‘ulotlar, suhbatlar, video-munozaralar, ishbilarmonlik va rol o‘ynash o‘yinlari, ochiq savollar, aqliy hujum va boshqalar kabi mashg‘ulot usullari va o‘qitish usullaridan foydalanish bilan ajralib turadi.

Darsga qo‘yiladigan zamonaviy tarbiyaviy talablar: O‘quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, eng yaxshi axloqiy sifatlarni, olgan bilimini hayot bilan bog‘lay olishni, Vatanni uning tarixi, madaniyati, urf – odatlarini, eng asosiysi, insonni hurmat qilishni, ilmiy dunyoqarashni, iqtisodiy, huquqiy, ekologik madaniyatni tarkib toptirishni tarbiyalash kerak.

Darsga qo‘yiladigan psixologik talablar:

O‘quvchilarning individualpsixologik xususiyatlarini bilgan holda ularda xotira, ongli idrok etishni, mustahkam irodani, tasavvur qila olishni, o‘quvchilarda davlat ta’lim standartlari qo‘ygan talablarni ular yoshiga mosligini hisobga olishni ta’minlashdan iboratdir.

Darsga qo‘yiladigan gigiyenik talablar:

Sinfdagi havo harorati, yorug‘lik miqdori, uning tozaligi, estetik did bilan jihozlanishi o‘quvchilarga beriladigan

topshiriqlarning ular yoshiga mosligini hisobga olish kabilarga rioya qilish shart.

Zamonaviy darsga qo‘yilgan didaktik talablar:

Darsning ta’limiy-tarbiyaviy maqsadini aniqlash, dars mavzusini qiziqarli, ilmiy faktlar bilan belgilash, dars mavzusining mohiyatini o‘quvchilarning o‘zi mustaqil fikrlab o‘zlashtirishga erishish, darsda barcha o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, o‘quv materiallarini o‘quvchilar tomonidan sodda tarzda qabul qilishga, hayot bilanchambarchas bog‘lashga erishish, mavzu mazmuniga mos ta’lim metodlarini tanlash va ulardan ko‘proq o‘quvchilarning foydalanishiga erishish, mavzu mazmuniga mos ta’lim metodlarini tanlash. Bu metodlar asosan qisman izlanish hamda izlanish darajasiga bo‘lishi zarur.

O‘quvchilarning bilim manbalari bilan mustaqil ishlashga o‘rgatib borish, O‘quvchilarning dars mazmuniga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasi, o‘z tarixi, tili, urf – odatlari hamda boy madaniyatimiz bilan faxrlanishga o‘rgatish, dars mavzusini boshqa o‘quv fanlari bilan asoslanib o‘rganish, dars mavzusini o‘lkashunoslik tamoyiliga bog‘liqligini ta’minlash, o‘quvchilarda dars mavzusiga mos ravishda iqtisodiy, huquqiy, ekologik madaniyatni tarkib toptirish, darsda davlat ta’lim standartlariga o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablarni to‘liq bajarishga erishish, o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilim sifatini xolisona baholanishiga erishish. Dars ta’lim jarayonining yaxlitligi nuqtayi nazaridan ta’limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o‘quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o‘quv ishlarining muntazamligi ta’minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O‘quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o‘qituvchi uchun har bir o‘quvchi faoliyatiga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta’lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo‘lmaydigan ustunligi hisoblanadi. Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o‘quvchi

xususiyatlarini hisobga olish, barcha oʻquvchilarning mashgʻulot jarayonida oʻrganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratiladi. Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab boʻlishi mumkin. Bu oʻquv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, oʻquvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bogʻliq.

Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilar yoshlarini hisobga olib oʻquv ishlari turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari oʻrganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga toʻgʻri keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu yerda koʻpincha ishlar boshqa turlarini oʻz ichiga oladi: materialni ogʻzaki yetkazish. qiziqarli hikoyani oʻqish. Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinatsiyalashgan), yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uy vazifalarini tekshirish va oʻquvchilar bilan savol-javob, yangi materialni oʻrganish, oʻzlashtirishini dastlabki tekshirish, mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari oʻrganilganlarni suhbat koʻrinishida takrorlash, oʻquvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish.

Zamonaviy darsga qoʻyladigan talablar

1. Fanning ilgʻor yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni oʻquv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish.

2. Darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta’minlash.

3. Oʻquvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta oʻzlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish.

4. Oʻquvchilar anglab yetadigan fanlararo bogʻliqliklarni oʻrnatish. oʻzlashtirish darsi aralash dars mustahka mlash va takrorlash darsi Zamonaviy dars turlari: umumlashti rish va tizimlashtiri sh darsi koʻnikma ishlab chiqish darsi tekshirish darsi.

5. Ilgari oʻrganilgan bilim va malakalari, shuningdek, oʻquvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish.

6. Shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;

7.O‘quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi.

8. Pedagogik vositalardan samarali foydalanish.

9. Zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish.

10. Mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish.

11. Har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis.

Dars deb bevosita o‘qituvchining rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim mashg‘ulotiga aytiladi.

Dars-o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir. Dars-o‘quv ishlarining markaziy qismidir. O‘quv yurtlarimiz bosib o‘tgan tarixiy davr ichida ta'limni tashkil qilish shakllari o‘zgardi, rivojlandi.

Hozir o‘quv yurtlarimizda qo‘llanilayotgan sinf - dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi:

1. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko‘ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo‘ladi.

2. Dars mashg‘uloti asosan 45 minutga mo‘ljallangan bo‘lib, qat’iy jadval orqali olib boriladi.

3. Dars bevosita o‘qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.

4. Dars o‘tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta’lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o‘zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.

Ayni paytda, o‘quv yurtlarimizda ta’limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda.

1.Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar.

2. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar.

Hozirgi zamon didaktikasi ko‘p yillar davomida to‘plangan o‘qitish qoidalari, fan yutuqlari va ilg‘or tajribalar asosida boyib bormoqda deyishga asos bor. Ammo o‘quv jarayonining hamma kismlarini o‘qitishni tashkil qilishning mazmuni, usullari, vositalari

va shakllari bilan munosabatlari yaxshi ochib berilmagan. Bularning hammasi didaktik qoidalardan amalda foydalanishni qiyinlashtiradi. O‘quv yurtlari oldida turgan yangi vazifalar va ehtiyojlar o‘quvchilarga beriladigan ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga ko‘tarishni talab qiladi. O‘qituvchi o‘zining aniq sharoitlari va imkoniyatlariga eng ko‘p mos keladigan o‘quv jarayonini ongli ravishda tanlab olishi foydadan holi emas. Bu ish darsning muhim tomonlarini tanlashdagi tavakkalchilikka, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonnni boshqarishga qandaydir tasodifiy yondashishga yo‘l qo‘yadi. Dars ta’limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o‘ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o‘quvchilarning doimiy guruhi, o‘quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o‘rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o‘z xususiyatini ham aks ettiradi). Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo‘lishi mumkin. Bu o‘quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o‘quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog‘liqaydi. O‘quvchilar o‘z bilimlarini yangi manbalar bo‘yicha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar yoki ularga ma’lum bo‘lgan qoidaga yangi masalalar yechadilar, ilgari olgan bilimlarini og‘zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o‘rganganlarini yanada chuqurroq va mustahkam o‘zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo‘yicha axborot beradilar. Tuzilishi bo‘yicha bunday darslar quyidagi bosqichlardan o‘tishni ko‘zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og‘zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uyga vazifa berish. Ko‘nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog‘liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o‘rganishda davomdir.

Boshlang‘ich sinflarda suhbat metodining muammoli o‘qitish metodi sifatida qo‘llanilishi ta'limda o‘quvchilarni faollashtirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o‘quvchilarning bilish qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish

hamdir. Bunda suhbat davomida o‘qituvchining topshirig‘i bilan o‘quvchining oldiga biror muammo qo‘yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Bu muammoni o‘quvchi oldin egallagan bilimlari asosida hal etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli o‘qituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi. Muammoni o‘quvchi hal qila olmasa, uni o‘qituvchining hal qilishiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun boshlang‘ich sinfda muammoli o‘qitish metodi yarim izlanishli muammoli metod deb ham yuritiladi. Masalan, muammoli o‘qitish metodini leksik-semantik va grammatik mashqlarni tashkil etishda ham qo‘llash mumkin. Bu metoddan 1-sinfdan boshlab foydalanish mumkin. Bu metod “Tovush va harf” mavzusini o‘rganayotganda tovushning so‘z ma’nosini farqlashdagi vazifasini tushuntirishda, “So‘z ma’nosi”, “Nutq va gap” mavzularini o‘rganishda ham qo‘llanadi. Masalan, “So‘z ma’nosi” mavzusini o‘rganish uchun xat taxtaga turli ma’nodagi, ya’ni turli so‘z turkumiga kiradigan so‘zlar aralash holda yozib qo‘yiladi.

So‘zlar: kitob, qurdi, shifokor, sakkiz, qizil, qalam, o‘qidi, yashil, binokor, o‘nta, o‘qituvchi, sakkiz.

O‘quvchilar bilan quyidagicha savol-javob tashkil qilinadi:

So‘zlarni o‘qing.

- Birinchi so‘z nimani bildiryapti? Narsanimi, shaxsnimi?
- Bu so‘zga qanday so‘roq beramiz?

Ikkinchi so‘z harakatni bildiryaptimi yoki narsanimi?

- Bu so‘zga qaysi so‘roqni beramiz?
- Qaysi so‘zlar sanoqni bildiryapti?
- Bu so‘zlarga qaysi so‘roqni beramiz?
-Qaysi so‘zlar rangni bildiryapti?
- Bu so‘zga qaysi so‘roqni beramiz?

So‘zlar ichidan shaxsni (kasb egasini) bildirayotgan so‘zlarni topib, bir ustun qilib yozing.

- Ikkinchi ustunga narsani bildirgan so‘zlarni topib yozing.
- Uchinchi ustunga harakatni bildirgan so‘zlarni topib yozing va hokazo.

O‘quvchilar topshiriqni o‘qituvchi yordamida bajarib bo‘lgach, muammoli savol o‘rtaga tashlanadi:

Yuqoridagi so‘zlar nimasiga ko‘ra farqlanyapti?

O‘quvchilar “ma’nosiga ko‘ra” degan fikrni ayta olmasalar, o‘qituvchi bu muammoni hal qiladi:

Bu so‘zlar ma’nosiga ko‘ra va so‘roqlariga ko‘ra farq qiladi.

O‘ylang, so‘zlarni qaysi xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratamiz? So‘zlarni nechta guruhga ajratish mumkin?

Savol-javoblardan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar bilan suhbat rivojlantirilib borilyapti va o‘quvchilar suhbat davomida yangi-yangi ma’lumotlarni egallab bormoqdalar. 3-4-sinflarga o‘tganda bunday suhbatlar oxirida o‘quvchilarning o‘zlari xulosa chiqaradilar. Bunday suhbatlarda o‘quvchilarning yoshi, saviyasidan tashqari, vaqt ham hisobga olinadi. Suhbat uzoq davom etsa, o‘quvchilar charchab qoladilar, o‘zlashtirish darajasi ham susayadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida mustaqil ish metodi asosan o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qo‘llaniladi. O‘quvchilar o‘qituvchining topshirig‘i bilan mustaqil ishlarni og‘zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va ko‘p vaqtni olmasligi, o‘quvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Mustaqil ishlash uchun topshiriq 1-sintdan boshlab beriladi va u asta-sekin marakkablashtirilib boriladi. 1-sinfda “Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring”, “Rasmga qarab sabzavot nomlarini alifbo tartibida yozing”, “Rasmni kuzating” Unda tasvirlangan narsalarni aniqlang va ularning nomini yozing kabi topshiriqlar beriladi. Masalan, “O‘lkamda bahor” mavzusida sujetli rasm berilgan. O‘quvchilar rasmni kuzatib narsa nomlarini yozadilar. Bunda bir o‘quvchi 5 ta, ikkinchi o‘quvchi 10 ta va hokazo so‘z yozishi mumkin. Aslida rasmda 30 tadan ortiq narsa tasvirlangan: tog‘, osmon, bulut, qor, terak, tol, o‘rik, ko‘ylak shirt, tufli, lenta, soch, bosh, qir, dala, o‘t, gul, qo‘l, oyoq, quloq, burun, yuz, og‘iz, barmoq, bo‘yin, qorin, yubka, daraxt va hokazo. Bu o‘quvchilarning e’tibor bilan kuzatishga yatuvchanlikka o‘rgatadi. Analiz-sintez metodi savod o‘rgatish darslariga rus-tuzem maktablari va tatar o‘qituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. Ona tili ta’limi jarayoniga analiz -tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o‘rganilgan grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etiladi. Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik

tahlil shu metodning amalda namoyon bo‘lishdir. Sintez qismlarga bo‘lib o‘rganilgan grammatik materialni yaxlitlashdir. Masalan, ot, sifat, fe’l, son kabi so‘z turkumlari o‘rganilayotganda ularga oid so‘zlar berilib, ular ishtirokida gap tuzish, aralash berilgan so‘zlardan gap tuzish, aralash berilgan gaplarni voqealar rivoji asosida tartiblashtirib matn tuzish, mazmunan tahlil qilingan rasm asosida hikoyacha tuzish kabi ishlarda sintez metodi namoyon bo‘ladi. Analiz-sintez metodida ham o‘quvchilarni faollashtirish o‘qituvchining o‘quvchilarga beradigan savol va topshiriqlariga, ishni tashkil etish shakllariga bog‘liq bo‘ladi. Induksiya metodida o‘quvchilar o‘qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta’riflar keltirib chiqaradi. Deduksiya metodida o‘quvchi tayyor qoida – ta’rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi.

Bu metodlarning samarasi o‘qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo‘naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o‘quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug‘atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog‘liq bo‘ladi.

“Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liklikda qo‘llanilib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini o‘zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi ma’lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog‘liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”. G.M.Kodjaspirova, A.Y.Kodjaspirovlarning fikricha, “O‘qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq O‘qitish metodikasiga qo‘yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:
1)aniqlik;
2)asoslanganlik;
3)rejalashtirilgan harakatning maqsad va vazifalarga mosligi;
4)qayta ishlab chiqishga yo‘nalganlik;
5)hayot bilan uyg‘unlik;
6)natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o‘qitish metodikasi o‘zida quyidagilarni aks ettiradi: - ta’limning maqsad va vazifalarini – ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy; -

ta’limning qonuniyat va tamoyillarini; - ta’lim mazmunini; - ta’limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini; - ta’limning umumiy va xususiy metodlarini; - o‘quv vositalari; - o‘qitish natijasini. usullari, uslublari va texnikasidir”. Pedagogika fanini o‘qitish metodikasi metodologiyasi fan metodologiyasining falsafiy va maxsus-ilmiy darajalariga asoslanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, metodologiyaning barcha darajalari o‘zaro bog‘liq va bir-biriga bo‘ysunadi, shuning uchun ular yaxlit tizimni tashkil qiladi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, quyida o‘qitish metodikasi mohiyatini yoritib beruvchi asosiy tushunchalarga izoh berib o‘tamiz:

1) o‘rgatish – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;

2) o‘rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi;

3) o‘qitish – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o‘zaro harakati;

4) ta’lim – o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;

5) bilim – ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘oyalari yig‘indisi;

6) ko‘nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallash;

7) malaka – avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi;

8) maqsad – o‘qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda safarbar etilishi;

9) mazmun –o‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;

10) tashkil etish - qo‘yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon;

11)shakl - o‘quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig‘i, mazmuni uchun qobiq;

12)metod - o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo‘li;

13)vosita - o‘quv jarayonining predmetli qo‘llab-quvvatlanishi, yangi materialni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan obyekt;

14)natija - o‘quv jarayonining so‘nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

15) metodik (uslubiy) ko‘rsatma – muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari, loyihalar, laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko‘rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo‘yicha talabalarda zarur amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilishga mo‘ljallangan ta’lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo‘llanma.

Ma’lumki, XX asrning 2-yarmida boshlang‘ich sinf metodikasida badiiy asarga estetik jihatdan yondashib san`at asari sifatida o‘rganish g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lsa, psixologik izlanishlar kichik yoshdagi o‘quvchilarning potensial qobiliyati adabiyot dunyosini tanishtirishga boshqacha yondashish kerakligini taqozo etmoqda. Jumladan, N.N.Svetlovskaya o‘quvchining mustaqil o‘qish nazariyasini ishlab chiqqan bo‘lsa, Ye.A.Adamov, M.S.Vasileva, V.G.Goretskiy, M.I.Omorokov, T.G.Ramzaeva va boshqalar badiiy asarning shakl va mazmunini tahlil qilish, L.A.Gorbushina, O. V.Kubasova, L.N.Mali, L.V.Nefedova va boshqalar ishlab chiqqan metodikada o‘quvchilarning ijodiy ishlariga, ayrimlar esa o‘qish texnikasini rivojlantirish zarurligini qayd etdilar. Shunday qilib, boshlang‘ich ta’lim metodikasi metodik fan sifatida shakllanish bosqichlarini bosib otdi. Ma’lumki, badiiy asarlarni o‘qish bilan bog‘liq holda shaxsni estetik tarbiyalash, ya’ni bilim berish, tarbiyalash va e’tiqodlarini shakllantirish; ya’ni maktabda o‘qitiladigan predmetlar kabi bolalar adabiyoti namunalarini san’at asari sifatida o‘rganish vazifalari o‘qish darslariga yuklatiladi. Har bir fan o‘zining o‘ganish obyekti va predmetiga ega bo‘lganidek, hozirgi kunda boshlang‘ich sinflarda o‘qish metodikasi adabiy ta’lim metodikasi sifatida ish ko‘rishi lozimligi g‘oyasi ilgari surilmoqda. Haqiqatan ham, adabiyot o‘qitish sistematik kursiga tayyorlovchi predmet sifatida o‘qish metodikasi bolalar adabiyoti namunalari asosida o‘z maqsad va vazifalarini belgilaydi. Shundan kelib chiqqan holda boshlang‘ich sinfda o‘qish darslarining o‘rganish obyekti – o‘quvchilarning

adabiy ta’limni egallash jarayoni deb belgilanishi maqsadga muvofiqdir. “Adabiy ta’lim” atamasi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch jarayonni o‘z ichiga oladi:

1) adabiy-badiiy asarlar bilan aloqa jarayonida shaxs tarbiyasi;

2) o‘qitish, ya`ni bolalar adabiyotini maktab fanlaridan biri sifatida o‘qitish;

3) shaxsning o‘zini rivojlantirishini shakllantirish. V.V.Golubkov tomonidan ishlab chiqilgan “Nima uchun o‘rgatish kerak?” (badiiy asarni o‘rgatish maqsadi), “Nimani o‘rgatish kerak?” (adabiy ta’limning mazmuni), “Qanday o‘rgatish kerak?” (talabalarning – bo‘lajak o‘qituvchining maqsadi, mazmuni, mos metod va usullar, vositalar), “Nima uchun shunday o‘qitish kerak, boshqacha emas?”(tanlangan yo‘lning ilmiy asoslanganligi) adabiy ta’lim metodologiyasiga asoslanilgan.

Hozirgi kun metodikasida bu masalaga o‘quvchi nuqtai nazaridan qaralmoqda. Unga ko‘ra o‘quvchi tomonidan tan olingan o‘quv maqsadi sifatida quyidagilar belgilangan:

1) “Nimani o‘rganyapman?” (adabiy ta’limning o‘quvchi shaxsi tomonidan qabul qilingan mazmuni);

2) “Qanday o‘qiyman?” (bola o‘zlashtirishning qaysi usullaridan foydalanishi);

3) “Nega men shu usulda o‘rganyapman, boshqa usulda emas?” (o‘rganayotgan usullaridan qaysi birining samarali ekanini anglashi) Metodologiyaning fan sifatida rivojlanishi bir paradigmaning boshqasi bilan bog‘liqligiga asoslanib o‘qitish ko‘zga tashlanadi. Bunda “Nima uchun o‘qituvchi dars beradi?”, “Nima uchun bola o‘qiydi?” savollarga javoblar mos tushadi. 1-sinf o‘quvchisi o‘zidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish, so‘z san’atini o‘zlashtirish maqsadlarini o‘z oldiga qo‘ya olmaydi.

O‘qituvchi bu maqsadlarni o‘rtaga tashlab, o‘quvchilarni maqsad sari yo‘naltiradi.

Siz nima o‘qiyapsiz?

O‘ylang, nima uchun bu asarni o‘qiyapmiz?

Bu asarni hozirgi o‘qish va tahlil qilish usulimiz bilan yaxshi o‘zlashtira oldingizmi?

Keyinchalik o‘quvchi darslar davomida kitobxon bo‘lish uchun nimalarni bilish kerakligini, yaxshi kitob kitobxonda turli xil

kechinmalarni (qayg‘urish, tshvishlanish) yuzaga keltirishini, fikrlashga undashini, o‘zining pozitsiyasini tanlash imkonini berishini bilib boradi.

Hozirgi kunda metodikadan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari aniq dalillangan, ilmiy asoslangan ko‘rsatmalarni kutmoqda. Metodika bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini adabiy ta’limnining mazmuniga va uni o‘qitishga mustaqil ongli yondasha oladigan, o‘zgalarning tajribasini na faqat o‘rganib olmasgan, balki ular faoliyatining natijalarini ongli ravishda tahlil qilib, to‘gri xulosa chiqara biladigan bo‘lishlarini ta`minlaydi. M.A.Ribnikova metodikaning asosi sifatida 4ta didaktik qoidani keltiradi:

1.Ta’lim o‘quvchilarning anglashlariga har tomonlama ta’sir etuvchi xarakterda bo‘lishi.

2.O‘quvchilar oldilariga qo‘yilgan masalani aniq tushunishlari.

3.Metodist yangi murakkab hodisalarni tanish hodisalardek oson ko‘rsata olishi mahoratiga ega bo‘lishi.

4.Deduksiyani induksiya bilan bog‘lashi.

M.A. Ribnikova bu metodik sistemaga jonli jarayon sifatida qaraydi va asosiy diqqatni metodik sistemaga qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Bu qarashlar boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘rganilayotgan adabiy-badiiy asarlar tahlili va talqiniga yangicha yondashish lozimligini taqozo etmoqmoda. Asar tahlilini bosqichli izchillik asosida olib borish o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini aniq vaqsadga yo‘naltirish imkonini beradi. “Bumerang texnologiyasi“, “Arra” metodi kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘qish materiali – badiiy asar ustida amalga oshiriladigan ishlarning aniq maqsadga yo‘naltirilishini, o‘quv harakatlarining bosqichma-bosqich tashkil etilishini, ta’lim oluvchilarga individual yondashishni, o‘quvchilar faoliyatini kuzatish va tezkorlik bilan baholashni ta`minlaydi. “Arra” metodida o‘rganilayotgan badiiy matn tarkibiy qismlarga ajratiladi. Bu texnologiya 4-sinfda “O‘qish kitobi” darsligiga kiritilgan barcha asarlarni o‘rganishga tadbiq etilishi mimkin. Masalan, “Shaxzodaning bolaligi” hikoyasi o‘rganiladigan darsda asar dastlab audiodan eshittiriladi. Asar 4 qismga bo‘linadi. Sinf o‘quvchilari ham 4ta kichik guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga o‘qiydagin qismi belgilab ko‘rsatiladi. Har bir guruh uchun bir xil topshiriq beriladi: 1-topshiriq. O‘qigan qismlarining mazmunini to‘liq gapirib berishga tayyorlanish.

(Guruhning har bir oʻquvchisi bu topshiriqni bajarishga tayyorlanadi) Soʻngra guruhlar qayta tashkil qilinadi. Har bir guruhda oldingi guruhdagi bitta mutaxassis oʻquvchi boʻladi. Ular arra tishlari ketma-ketligida mavzuni - asar mazmuni mantiqiy ketma-ketlikda oʻrtoqlariga hikoyalab beradi.

2-topshiriq: Har bir guruh asar yuzasidan berilgan quyidagi savollarga javob beradi:

1. Malika Kuzbor Malikka nima uchun oʻgʻli Jaloliddinni ayamasdan tarbiya qilishni topshirdi?

2. Kuzbor Malikning Jaloloddinga chavandozlik sirlarini oʻrgatishining sababini izohlang.

3. Kuzbor Malikning Jaloloddinga oʻq otish sirlarini oʻrgatishining sababini izohlang.

4. Asar nima uchun toʻrt qismga boʻlindi?

3-topshiriq. Asar qahramonlariga baho berish yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaradilar va taqdimotga chiqadilar:

1. Malika Oychechak qanday ayol ekan? Unga malika va ona sifatida baho bering.

2. Kuzbor Malik qanday chavadoz va mergan ekan? Malikning malika Oychechakka munosabatida qanday xususiyatlarini payqadingiz?

3. Jaloloddin Kuzbordan nimalarni oʻrgandi?

U qanday shahzoda boʻlib yetishdi?

Siz Jaloliddin haqida yana nimalarni bilasiz?

4-topshiriq. Nutq madaniyatini egallashga qaratilgan topshiriqlar:

1.Kuzbor Malikning Malika Oychechakka koʻrsatgan ehtiromlarini ifodalagan soʻz va iboralarni aniqlab, lugʻat daftaringizga yozing va taqdimotga chiqing (ehtirom ila bosh egdi, tiz choʻkdi, buyuring, sadoqat ila, “Siz buyuk Xorazmshoh rafiqasi, men qulingizman, e’tirozga ogʻiz juftlamoqchi boʻldi, bosh ustiga, ta’zim ila).

2. Malika Oychechakning Kuzborga koʻrsatgan ehtiromini ifodalovchi soʻz va iboralarni aniqlab, lugʻat daftaringizga yozing va taqdimotga chiqing (yonidan joy koʻrsatdi, ogʻa, oʻtiring, minnatdorchilik bilan unga qaradi, uni yuz-xotir qilmang).

3. Malika Oychechakning onalik tilaklarini ifodalovchi so‘z va iboralarni aniqlab, lug‘at daftaringizga yozing va taqdimotga chiqing (injiq-tantiq shahzoda bo‘lmasin, chinakam bahodir yigit bo‘lsin, alp yigit bo‘lsin, zehni o‘tkir, Jaloliddin valiahd, bugundan shogirdingiz, o‘quvchingiz) O‘quvchilar bu topshiriqlarni bajarish uchun asarni bir necha marta o‘qiydi, o‘qish ko‘nikmalari takomillashadi. Asar mazmunini qayta hikoyalashda yuqorida aniqlagan so‘z va iboralarni nutqida qo‘llaydi, nutqi rivojlanadi. Matn ustida ishlash tarbiyaviy xulosa chiqarish bilan yakunlanadi. Bunda asar qahramonlariga tavsif beriladi, bu orqali o‘quvchilar o‘zlariga hozirgi davr nuqtai nazari bilan yondashib tegishlicha xulosa chiqaradilar: har bir yigit ajdodlari kabi alp yigitlar, bahodir yigitlar bo‘lib yetishishlari uchun harbiy bilimlarni egalamoqliklari kerak degan xulosaga keladilar.

Musobaqa tashkil qilish:

1. “Ifodali o‘qish” musobaqasi. Hikoyaning bir qismini ifodali o‘qitiladi.

2. “Eng yaxshi hikoyachi” tanlovi. Hikoya matnga yaqinlashtirib qayta hikoyalatiladi. Hozirgi adabiy ta`limni o‘qitishda maktab oldiga o‘sib kelayotgan yosh avlodni yuz yillar oldindan insoniyat tarixi davomida yaratilgan va shu vaqtgacha to‘ldirib kelingan madaniyatni egallash, bolani real hayotga tayyorlash, ongli ravishda kasb tanlashiga erishish, o‘quvchilarni atrofdagi kishilar bilan madaniyatli muomala qilishga o‘rgatish talabini qo‘ymoqda. Buning uchun o‘quvchilarning imkoniyatlarini va asosiy faoliyatlarini hisobga olgan holda o‘qitishning har bir bosqichida maktab adabiy ta`limi tayanch maqsadlarni belgilab olish lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Boshlang‘ich sinflarda darslikning roli va vazifalari qanday belgilangan?

2. Darslik matniga qo‘yiladigan talablar haqida fikr yuriting?

3. Darslik bilan ishlash ish turlari nima?

4. Darsda qo‘yilgan psixologik talablar haqida mulohaza yuriting?

5-MAVZU: TIL TA'LIMIDA O'QITISH METODLARI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Reja:

1. Til ta'limida o'qitish metodlari pedagogik texnologiyalar.
2. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan metodlar.
3. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish.

Tayanch so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, ona tili, tilning lingvistik asosi, fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, pedagogik texnologiya, ijodiy tafakkur*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tilio'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X.Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.:TDPU, 2013. –70 b.

3.Икромова Р, Ғуломова Х, Йўлдошева Ш, Шодмонқулова Д, Она тили, 4-синф, -Т.: 2017.

4. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. "Она тили : 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма" - Т,: "Шарқ" 2017.

5. Фузалиев С, Худойберганова М, Йўлдошева, "Она тили", 3-синф, -Т,: "Ўқитувчи", 2018.

6. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. "Она тили : 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма" - Т,: "Шарқ" 2016.

7. Қосимова К, Фузалиев С, Неъматова А, "Она тили", 2-синф, -Т,: "Чўлпон", 2018.

8. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. "Она тили : 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма" - Т,: "Шарқ" 2015.

9. Ғаффорова Г, Шодмонов Й, Ғуломова Х , "Она тили", 1 - синф, -Т,: "Шарқ", 2019.

10. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 1-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2014.

11. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2015.

12. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2016.

13. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2017.

14. Ҳ.Бакиева, Н.Аҳмедова, Н.Азизова, Д.Носирова, Б.Тешабоева, У.Исмоилова, Б.Эгамбердиева “Саводга ўргатиш дарслари”.-Т.: “Эхтремум-пресс”, 2014. -119 б

15. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Yevaluation of Yeducational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019.

Axborot manbalari

1.http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

2.http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

3.http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

4.www.pedagog.uz

5.www.timssandpirls.bc.edu.

6. www. pedagog. uz

7. www. Ziyonet. Uz

Pedagogik texnologiyaning yana bir muhim talabi o‘rganilishi ko‘zda tutilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilishdir. Buning uchun amaliylik ona tili ta’limining asosiy va yetakchi tamoyiliga aylanishi kerak. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini ham yaqin pedagogik

hamkorlik asosida qurilishini talab etadi. Buning uchun oʻquvchi ta’lim jarayonining faol ishlovchisiga, oʻqituvchi esa shu jarayonning tashkilotchisiga, boshqaruvchisiga aylanishi shart: yaxshi oʻqituvchi oʻzi kam gapiradi, bolani koʻproq soʻzlatadi. Shuni alohida qayd qilish joizki, oʻquvchi ona tili darslarida til hodisalarini mustaqil ravishda oʻzi kuzatsa, qiyoslasa, muayyan belgilariga qarab ularni guruhlasa, birlashtirsa, umumlashmalar hosil qilsa oʻquvchi tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Ona tili darslarida oʻquvchilarning ijodiy tafakkurini kengaytirish darsni tashkil etish usuliga ham bogʻliq. Doimiy bir xilda takrorlanadigan va qayta-qayta bir xil yoʻnalishdagi oʻquv topshiriqlaridan foydalaniladigan darslar oʻquvchini zeriktiradi, uni bezdirib qoʻyadi.

Ona tili ta’limining pedagogik texnologiyasi maqsadini belgilashdan to shu maqsadga erishganlik natijasi darajasini baholashgacha boʻlgan murakkab jarayonni oʻz ichiga olar ekan, bunda maqsadlar etalon darajasidagi andozaga erishish vositasidir. Joriy nazorat baholashi esa oʻquv jarayonini shakllantiruvchi, maqsad bilan uning natijasi oʻrtasida aloqa vazifasini oʻtovchi omil sanaladi. Pedagogik texnologiyaga oid adabiyotlarda koʻrsatilishicha ayrim xorijiy davlatlarda oʻquvchi va oʻqituvchi uchun maqsadlarni alohidaalohida belgilash odat tusiga kirgan.

Bunda maqsadlar oʻqituvchining faoliyati orqali qoʻyiladi (oʻrgatish, tushuntirish, koʻrsatish, aytib berish va h.k.), oʻquvchining harakatlarida ifodalanadigan natijalar esa ta’lim vazifalari deyiladi. Bu vazifalarni oʻlchash, aniqlash, oʻqitishni qayta takrorlash imkoniga ega bolishi uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya’ni ta’lim maqsadi shunday qoʻyilishi kerakki, unga erishilganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin boʻlsin.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy qoidasi ham oʻqitishni oʻquvchilar harakati orqali amalga oshirilishi ekan, ona tili ta’limi maqsadi ham oʻquvchini dars subyekti darajasiga koʻtaradi. Ona tili ta’lim texnologiyasi oʻquvchining ta’lim jarayoni faol ishtirokchisi ekanligini uning har bir dars qurilmasida quyidagi faoliyat turlariga jalb etilishi orqali izohlash mumkin:

1) til hodisalarini kuzatish;
2) izlanish, hodisalar sirasini davom ettirish;
3) ayri-ayri hodisalarni sharhlash;
4) hodisalarni qiyoslash;
5) hodisalar oʻrtasidagi oʻxshashliklarni aniqlash;
6) hodisalar orasidagi farqlarni aniqlash;
7) oʻxshashlik, farqlar asosida hodisalarni tasniflash;
8) hodisalar sirasi haqida umumlashma hosil qilish;
9) hodisalarning yondosh hodisalar bilan aloqadorligini aniqlash;
10) hodisalarni amaliy qoʻllash.

Mana shu oʻn xildagi mustaqil faoliyat turlarining bajarilishi ona tili ta'limi maqsadining odatdagi bir dars jarayonida voqealanishi bilan izohlanadi. Ayni kunda esa ona tili ta'limi yangi pedagogik texnologiyasida oʻziga xos tomonlari va xususiyatlari bilan oʻz aksini topayotgan maqsadlarning ifodalanish tahlili shuni koʻrsatadiki, ona tili ta'limida maqsadning qoʻyilishidan boshlab har bir dars qurilmasining etaloni sifatida unga erishuv jarayoni oʻquvchini mustaqil bilim olishga, izlanishga majbur qiladi.

Ona tili ta'limi texnologiyasida bu eng muhim omil boʻlganligi sababli pedagogik texnologiyalar tarixida muhim muammo boʻlgan har bir mavzu kesimida aniq maqsadlarning qoʻyilishi masalasiga ham nisbatan oydinlik kiritadi. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, aniq maqsadlarni ishlab chiqish juda murakkab masala boʻlib, bir kishining qoʻlidan kelmaydi. Shuning uchun bir guruh oʻqituvchilar va uslubchilarning oʻzaro hamkorlikdagi faoliyati talab etiladi. Mana shu e'tirofdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, oʻquvchining har bir dars qurilmasidagi oʻn bosqichlik faoliyati ona tili ta'limi umumiy maqsadining mavzular, sinflar kesimida yanada aniqlashuvi va oydinlashuvida muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Hozirgi kun ta'limining asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida oʻquvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yoʻllarini oʻrgatishdan iboratdir. Ta'lim jarayonida ilgʻor pedagogik texnologiya elementlari singib bormoqda. Oʻqitishning interfaol usullaridan foydalanish boʻyicha muayyan tajriba toʻplandi. Ona tili darslarida ta'limning interfaol usullaridan foydalanish oʻquvchilarda mantiqiy fikrlash koʻnikmalarini tarkib toptiradi,

guruhlarda ishlashga oʻrgatadi, koʻpchilik oldida oʻz fikrini bayon etish, oʻz nuqtayi nazarini asoslash malakalarini hosil qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini toʻgʻri tashkil etish, mavjud imkoniyatlarni safarbar etish oʻqituvchilarning asosiy vazifalaridan biridir. Har bir pedagog shuni esda tutishi kerakki, dars oʻquv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Oʻqituvchi oʻquvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil ijod qilishga oʻrgatishi lozim. Darsda beshta maqsad koʻzda tutiladi: ta'lim, tarbiya, rivojlantirish, kasbga yoʻllash va milliylik. Bu beshta maqsadni dars davomida amalga oshirish uchun interfaol usullardan foydalanib dars oʻtish yaqindan koʻmak beradi. Oʻzlashtirilayotgan tajribani toʻgʻridan toʻgʻri oʻquvchilarga oʻzaro ta'sir harakati orqali yoʻnaltirish, interfaol metodlarni qoʻllab dars oʻtishning asosi boʻlib, bunday yondashuvda oʻqituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki oʻquvchilarni mustaqil izlanishga chorlaydi.

Hozirgi zamon darsiga qoʻyiladigan eng muhim talablardan biri har bir darsda oʻrganiladigan mavzuning ilmiy asoslangan boʻlishidir, ya'ni darsda koʻzlangan maqsad va oʻquvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, avvalgi oʻrganilgan mavzu bilan bogʻlash, oʻquvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketmaketligini aniqlash, darsda kerak boʻladigan jihozlarni belgilash va qoʻshimcha koʻrsatmali qollanma bilan boyitish, interfaol metodlardan foydalangan holda darsda muammoli vaziyat yaratishdir. Darsga qoʻyiladigan asosiy talablardan biri ta'lim metodlari va usullarini bir biri bilan mustahkam bogʻlab olib borish samaradorligini oshirishdir. Darsga qoʻyiladigan asosiy talablardan yana biri barcha didaktik vazifalar darsning oʻzida hal etilishi, uyga beriladigan vazifalar oʻquvchilarning darsda olgan bilimlarining mantiqiy davomi boʻlishi kerak, dars davomida oʻqituvchi oʻquvchilarning jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrlashlarini hisobga olishi kerak, oʻtilgan har bir darsning oʻquvchilar bilan birga tahlil qilib borilishi ham yaxshi natija beradi. Interfaol usullardan foydalanishda oʻqituvchi quyidagilarni bilishi lozim:

– Interfaol usullar, uning mazmun mohiyati;

– Ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda interfaol usullarning

oʻrni va roli;

– Fanlar boʻyicha interfaol usullarni qollash tamoyillari;

– Ta’limiy va ishchanlik oʻyinlari;

– Muammoli, rivojlantiruvchi ta’lim metodlari;

– Oʻquvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta’minlash yoʻllari;

– Oʻquvchilarning mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullari;

– Koʻrsatmali oʻqitish usullari;

– Ta’lim-tarbiyani faollashtiruvchi usullar.

Interfaol usullarning ahamiyati

1. Oʻquvchilarda hamkorlikda ishlash koʻnikmasi shakllanadi.

2. Oʻquvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi. Umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga koʻmak beradilar.

3. Oʻquvchilar oʻz ishlari natijasiga, oʻqishga, ta’lim olishga shaxsan mas’ullikni his qiladilar.

Quyida interfaol usullarning ayrimlari bilan tanishib oʻtamiz:

1. Aqliy hujum.
2. Suhbat.
3. Juftlikda ishlash.
4. Kichik ma’ruza.
5. Rolli oʻyinlar.
6. Bahs-munozara.
7. Sinkveyn.
8. Tushunchalar tahlili.
9. Idrok xaritasi.
10. FSMU (Fikr, Sabab, Misol, Umumlashtirish).
11. Tanqidiy fikrlash.
12. Muzyorar
13. Hamkorlik
14. Debat
15. Bumerang…

Suhbat metodi – koʻp qoʻllaniladigan va samarali usullardan biridir. Bu koʻpincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki mazkur metodda dars jarayoni savol-javob vositasi asosida olib boriladi. Oʻqituvchi oʻquvchilarga savol berib yoki ilgari

oʻzlashtirgan bilimlarini eslariga tushirish yoxud mavjud bilimlar asosida yangi mavzulardan tegishli xulosalar chiqarishni taklif etish yoʻli bilan bilim, koʻnikma va malakalar berish nazarda tutiladi. Suhbat metodi oʻquvchi faoliyatining yangi-yangi qirralarini ochib beradi va bir maqsadga qaratilgan mustahkam harakat birligini yuzaga keltiradi.

Kichik ma'ruza – oʻtiladigan mavzuning mazmuni haqida kichik ma'lumot beriladi. Soʻng mavzu boʻyicha guruhlarda ishlanadi.

Rolli oʻyinlar – muammoli vaziyat yaratiladi. Oʻquvchilar bu muammoning yechimini rollar orqali ifodalab berishadi. Bu usulda "real" holatlarini qayta jonlantiradilar. Ularga amaliy ish faoliyatida qoʻllash mumkin boʻlgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab koʻrish va tekshirish imkoniyatlarini beradi.

Bahs-munozara usulida oʻquvchilarga bir kun oldin mavzu beriladi. Oʻquvchilar mavzuni oʻqib, savollarga javob topib, guruhlarda oʻsha savollarga javoblar bahs-munozara asosida olib boriladi. Juftlikda ishlash bu ustuvorlikka ega usullardan biridir. Oʻqituvchiga savol beriladi, beriladigan savollar muammoni chiqaradigan boʻlib, oʻquvchilar juftlikda uning yechimini topishadi.

Juftlikda ishlash oʻquvchilar orasida muammolarni bartaraf etish toʻgʻrisida muloqot uyushtirilishiga chorlaydi. Agar oʻquvchi juftligi javob yuzasidan koʻrsatmali material, jadval yoki diagrammalar tayyorlagan boʻlsa, oʻsha juftlikning har bir a'zosi fikrining mahsuli bilan gʻururlana olishi mumkin.

"Aqliy hujum" oʻquvchilarda mustaqil fikrlash imkonini beruvchi ta'lim usulidir. Mazkur usul yordamida muammoli savol yoki topshiriq vositasida barcha oʻquvchilarning fikrlari jamlanib, yakuniy xulosaga kelinadi. Bunda aytarli toʻgʻri boʻlmagan fikrlar ham, ya'ni bildirilgan barcha fikrlar inobatga olinadi, ular bekorlanmaydi. Bu narsa bayon etilgan fikrlarning keyingi tahlilida oʻquvchilarning qoʻyilgan savol yoki muammoni toʻgʻri tushunishlariga imkon beradi. Oʻrtaga tashlangan muammoli savol yuzasidan bildirilgan fikrlar doskaga yoki maxsus qogʻoz (flipchart) ga yozib boriladi. Oʻqituvchi shunday yoʻlni topishi kerakki, notoʻgʻri fikrlagan oʻquvchi oʻz xatosini darsning oxirigacha anglab,

to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirilmog‘i lozim. Bunday yondashuv aytilgan fikrlarni jamlash, tahlil qilish va umumiy xulosa chiqarish imkonini beradi.

“Aqliy hujum”ni o‘tkazish yo‘llari:

1. O‘qituvchi o‘quvchi oldiga savol, topshiriq yoki muammoni qo‘yadi (savol va topshiriqlar o‘tilgan yoki yangi o‘zlashtirilayotgan mavzu bo‘yicha, shuningdek, hayotiy voqea-hodisalar yuzasidan bo‘lishi mumkin) va o‘quvchilardan o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlari so‘raladi.

2.Barcha fikrlar doska yoki flipchartga yozib boriladi.

3. So‘ng o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga asosiy g‘oyalarni uyg‘unlashtiradi, ayrim o‘rinlarga tuzatishlar kiritadi, keyingi jarayonlarda foydalanish uchun eng muhimlari ajratib olinadi.

“Aqliy hujum”ni o‘tkazish qoidalari.

1. «Aqliy hujum»ni o‘tkazish uchun ajratilgan vaqt (reglament)ga qat'iy rioya qilish zarur.

2. Belgilangan vaqt orasida fikr aytish istagini bildirgan har bir o‘quvchiga imkoniyat yaratish zarur.

3. O‘quvchilar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar muhokama qilinmasligi, baholanmasligi kerak.

4. Zarur bo‘lib qolgan taqdirda bayon etilgan fikrlarga tuzatish kiritish mumkinki, bu narsa o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, lo‘nda, qisqa bayon etishlariga olib kelsin.

“Tanqidiy fikrlash” usuli o‘rtaga tashlangan masala yoki muammo yuzasidan o‘z fikrini aytish, o‘zgalarning fikrlarini tanqidiy idrok etish, o‘z nuqtayi nazarini asoslab berish imkoniyatiga ega bo‘lishga asoslangandir. Bunday usuldan bahs-munozara xususiyatiga ega bo‘lgan masalalar muhokamasida foydalanish mumkin. Masalan: O‘zaro muloqotda Siz yoki Sen deb murojaat qilishning qaysi biri ma’qul? Darsliklarga yozib-chizadigan o‘quvchilarga munosabatingiz va h.k.

Interfaol ta’lim usulining bunday shakli o‘quvchilarda tinglash va muloqot ko‘nikmalirini shakllantiradi, turlicha qarashlar va nuqtayi nazarlarni tushunish malakasini rivojlantiradi, bahsli masalalarni muhokama qilish, tahliliy mushohada yuritish va fikrlash qobiliyatini oshiradi, o‘z dunyoqarashini, nuqtayi nazarini, fikrini shakllantirish, uni bayon etish mahoratini takomillashtirish

imkonini beradi.

“Tanqidiy fikrlash”ni tashkil etish usullari:

1. Bahs-munozara xususiyatiga ega bo‘lgan muammo yoki topshiriq qo‘yiladi va quyidagicha savollar o‘rtaga tashlanadi:

A. Nima deb o‘ylaysiz? B. Fikringiz qanday? S. Sizningcha qanday? va h.k. Ushbu shakldagi savollar o‘quvchi nuqtayi nazarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

2. O‘quvchiga o‘z nuqtayi nazarini aniqlash, fikrini bir joyga to‘plash uchun imkoniyat va fursat beriladi.

3. O‘quvchi o‘z fikrini asoslaydi, shu o‘rinda u o‘z nuqtayi nazarini aniqlab olishi uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

A. Nega shunday deb o‘ylaysiz? B. Nimalarga asoslanib bunday xulosaga keldingiz? S. Qanday manbalardan foydalandingiz?

4. Muhokama qilinayotgan masala yuzasidan boshqa o‘quvchilarning o‘z fikrlarini bildirishlari uchun imkon beriladi. Bunda quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi: A. Kimda boshqacha fikr bor? B. Aytilgan fikrlarni ma’qullaysizmi? Nima uchun? (yoki aksincha.)

5. O‘quvchilar bilan birgalikda barcha bildirilgan nuqtayi nazarlar muhokama va tahlil qilinadi, bunda quyidagi mazmundagi savollar o‘rtaga tashlanadi:

A. Sinfdoshlaringiz fikrini nima uchun ma’qullaysiz? B. Sinfdoshingiz fikriga qarshi o‘z qarashingizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?

6. Muhokama qilingan muammo yuzasidan chiqarilgan yakuniy xulosaga o‘quvchilar tomonidan o‘z nuqtayi nazarlarining qabul qilinishi yoki qayta baholanishi bilan erishiladi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

A. Sizningcha kimning nuqtayi nazarini eng maqbul deb qabul qilish mumkin? B. Yuzaga kelgan vaziyatdan qaysi yo‘l bilan chiqishni ma’qulroq deb o‘ylaysiz?

“Tanqidiy fikrlash” usulini o‘tkazish qoidalari:

1. Aniq belgilangan vaqtda o‘quvchilar berilgan topshiriq yoki muammo bo‘yicha o‘z vazifalarini ado etishlari lozim.

2. Har bir bajarilgan ish natijalariga ko‘ra topshiriq muhokamasi va baholash amalga oshiriladi. Ishtirokchilar va kuzatuvchilar jarayon paytidagi holatlarini tahlil qilib chiqish va

muhokama etish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim. Bunda quyidagi savollar o‘rtaga tashlanadi:

A. Muhokama jarayonida qanday natijalarga erishildi? B. Qanday muammolar tilga olindi, u o‘z yechimini topdimi? S. Jarayon shartlari o‘zgartirilsa, natijalar qanday bo‘ladi va h.k. Kichik guruhlarda ishlash – dars jarayonida barcha o‘quvchilarni faollashtirish imkoniyatiga ega bo‘lish lozim.

Kichik guruhlarda ishlash jarayonida alohida masalalar yuzasidan o‘z fikrini guruhda muhokama qilishga, turlicha fikrlarni uyg‘unlashtirib, umumiy nuqtayi nazarga kelishga o‘rgatiladi. Shuningdek, bir o‘quvchi guruh boshlovchisi sifatida sinfdoshlari oldida so‘zga chiqib, guruh nuqtayi nazarini himoya qiladi va bu bilan o‘quvchida ko‘pchilik oldida so‘zlash, o‘z fikrini himoya qilish, fikrlarini uyg‘unlashtira olish kabi ko‘nikma va malakalar shakllana boradi.

Kichik guruhlarda ishlash yo‘llari:

1. Topshiriq, chalkash masala yoki savol asosida muammo tanlab olinadi. Topshiriqda bahsli jihatlar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

2. Kichik guruhlar shakllantiriladi. Guruhlardagi o‘quvchilar soni 3-5 nafardan oshmasligi kerak, topshiriq xususiyati, sinfdagi o‘quvchilar sonidan kelib chiqqan holda guruhdagi o‘quvchilar soni o‘zgarishi mumkin. Guruhlarda ishni tashkil etishda ishtirokchilarga vazifalar taqsimlab berilgani ma’qul. Masalan, bir o‘quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yuzaga kelgan fikrlarni qog‘ozga yozib boradi, uchinchisi vazifaning belgilangan vaqtda bajarilishini muvofiqlashtirib turadi, to‘rtinchisi guruhning umumiy xulosalarini taqdim etadi va h.k.

O‘quvchilarni guruhlarga ajratishda ikki usuldan foydalaniladi. Birinchisida, o‘quvchilar xohishiga ko‘ra, ikkinchisi hisoblash usuli bilan (masalan, birinchi, ... to‘rtinchi, shundan keyin raqamlari bir xil o‘quvchilar bitta guruhga birlashadilar). Guruhlarga ajratishda ikkinchi usuldan foydalangan ma’qul. Bunda xolislik tamoyiliga asoslanib, jarayon natijalarini baholash ham birmuncha oson bo‘ladi.

1. Guruhlarda ishlash vaqti belgilab olinadi. Topshiriqni bajarish yo‘l-yo‘riqlari tushuntiriladi. Vazifani bajarish yo‘lini

tushunmagan guruh a’zolariga qo‘shimcha izoh beriladi.

2. Guruhda ish jarayoni tugagandan keyin yakuniy xulosalar taqdimoti o‘tkaziladi. Xulosalarni guruh sardori himoya qiladi. Zarur hollarda taqdimot natijalari doskaga yoki qog‘ozga yozib boriladi. Imkoniyatga qarab guruhlar bir-birlariga savollar berishlari mumkin.

3. Taqdimot natijalari asosida muhokama uyushtiriladi va baholanadi. Bunda quyidagicha savollar o‘rtaga tashlanadi:

A. Guruhlarga bo‘linib ishlash jarayonida qanday natijalarga erishildi?

B. Qanday muammo ustida fikrlashildi, u o‘z yechimini topdimi? S. Jarayonda o‘zingizni qanday his etdingiz va h.k. Kichik guruhlarga bo‘linib ishlashni o‘tkazish qoidalari:

1.Guruhlarda ishlash uchun belgilangan vaqtga qat’iy rioya qilish kerak.

2.Guruhlarga yordam berayotganda o‘qituvchi o‘z nuqtayi nazarini o‘tkazishga urinmasligi lozim.

3.Guruhlar tomonidan bildirilgan fikr va xulosalar muhokama qilinishi, tanqidiy mulohazalar bildirilishi mumkin.

4.O‘rni kelganda bayon etilgan fikr va xulosalarga tuzatishlar kiritilishi, bu narsa umumiy xulosa mazmunini boyitishga, izchillashtirishga xizmat qilishi zarur.

“Sinkveyn” usuli. Sinkveyn – qisqa jumlaga katta axborot singdirilgan matn. Sinkveyn – fransuzcha so‘z bo‘lib, “bosh, asosiy” ma’nolarni anglatadi. Sinkveyn quyidagi qoida asosida yoziladi.

1-qator. Mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi.

2-qator. Mavzu ikki so‘z bilan yoritiladi.

3-qator. Mavzudagi voqelik ikki yoki uch so‘z bilan ochiladi.

4-qator. Mavzudagi munosabat, his-tuyg‘u to‘rtta so‘z bilan beriladi.

5-qator. Mavzu mazmuni bitta so‘z bilan ochiladi.

Masalan: til va so‘zlash madaniyatiga oid xalq maqollari ustida ishlashda:

1. Maqollar.

2. Og‘zaki ijod.

3. Xalq og‘zaki ijodi.

4. Tafakkur mahsuloti, ta’limiy, tarbiyaviy.

5. Ma’rifat. Kichik guruhlarga bo‘linib yoxud yakka holda ishlash jarayonida mazkur usuldan foydalaniladi. Mavzu maqsadidan kelib chiqib, uy vazifasini shu tartibda bajarish topshirig‘ini ham berish mumkin.

“Innovatsion ta’lim texnologiyasi- bu o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta’lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratishuchun mavjud usullar va vositalarni yangilash yoki sifat jihatdan yaxshilashni o‘z iciga olgan o‘quv va ta’lim faoliyatinitashkil etish metodologiyasidir”[2.20.13-b]

Ta’lim texnologiyasi borasidagi turli qarashlar haqidagi tadqiqotlarim natijasiga ko‘ra ilmiy adabiyotlarda asosiy uch xil g‘oyalar tilga olinadi:

Birinchi yondashuv	Bu yondashuvda texnologiya ko‘pincha alohida belgilangan maqsadga erishish uchun ma'lum bir texnika sifatida tushunilib, “texnologiya”ni xususiy texnikaga tenglashtirgan holda, ushbu yondashuv mualliflari texnologiyaning eng muhim xususiyatlaridan biriga tayanadilar - ular bu har qanday aniq maqsadga erishish yo‘li ekanligini g‘oyasini ilgari suradi.
Ikkinchi yondashuv	Ta'lim texnologiyasi yaxlit, bir butun pedagogik tizim ekanligini ta'kidlaydilar.
Uchinchi yondoshuv	Texnologiya metodologiya yoki pedagogik tizim bo‘lishi bilan birga maqsadga erishish uchun eng muvofiq metodologiya yoki tizim sifatida, o‘ziga xos algoritm (“Algoritm”-malum bir turga oid masalalarni yechishda qo‘llanadigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida, dastur.) sifatida qaraladi.

“Pedagogik maqsadga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo‘lgandagina, o‘qituvchi(pedagog) o‘zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlarining maqsadga muvofiqligiga yoki, aksincha, samarasiz ekanligiga ihonch hosil qilishi mumkin”. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quv predmetini o‘zlashtirish samaradorligiga eririshga imkon berish asnosida ta’lim beruvchi va ta’lim

oluvchining individual va shaxsiy oʻsishi masalalariga koʻproq eʼtibor berib, ularning har tomonlama ijodiy kamol topishga yoʻnaltirish imkonini yaratadi. .

Bundan kelib chiqadiki, taʼlimda pedagogik texnologiyalar:

- oʻqituvchining taʼlim jarayonidagi mehnatining samarasini kafolatlaydi va oshiradi;

- har bir oʻquvchining oʻzlashtirish samaradorligini, bilim darajasini nazorat qilish va muntazam tizimli aloqa tizimi oʻquvchilarni individual shaxsiy imkoniyatlari, yosh xususiyatlariga mos ravishda tayyorlash imkonini beradi;

-oʻqitishning asosiy ish funksiyalarini oʻqitish vositalariga yuklash orqali oʻqituvchining vaqti tejalishi va oʻquvchilarning shaxsiy-individual rivojlanishi muammolariga yetarlicha vaqt ajrata oladi;

- texnologiyalarda maqsad hamda vazifalarning bir nuqtaga qaratilganligi tufayli, nazorat usullarini qoʻllash jarayonida inson omili ishtirokini kamaytirishga imkoniyat yaratadi;

- taʼlim texnologiyalarini yaratish taʼlim natijalarining oʻqituvchi malakasi darajasiga bogʻliqligini kamaytirishga imkon beradi, bu esa barcha taʼlim muassasalarida oʻquvchilar tomonidan oʻquv fanini oʻzlashtirish darajasini tenglashtirish uchun imkoniyat beradi;

- texnologiyalashtirish orqali maktab va barcha uzluksiz taʼlim bosqichlarida talim dasturlariga xos boʻlgan muammolarni echimini topish uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi.

Ilgʻor pedagogik texnologiyalar qoʻllanilishida turli xil usullarga tayangan yondoshuvlardan keng foydalaniladi. Shulardan ogʻzaki-koʻrgazmali, ijodiy- tadqiqiy, muammoli-unsurli, kompleks, izlanuvchan, tizimli, funksional, kompleks, texnologik, faoliyatli yondashuvlarni misol qilishimiz mumkin.

Hozirgi kunda bilimlar juda koʻlami juda keng boʻlib, ularni egallash uslub va metodlari ham zamon talablariga koʻra tubdan oʻzgarishi barobarida zamonaviy zarur bilimlar jamlanmasida, yangi bilimlarni oʻrganish uslublarida ham katta oʻzgarishlar roʻy berishi tabiiy holdir. Respublikamizda taʼlim tizimining modernizatsiyasi amalga oshirilayotgan davrda yangi mazmun, innovatsion yondashuv, yangi pedagogik texnologilar taklif

etilayotgan hozirgi sharoitda barcha fan oʻqituvchilari zamonaviy innovatsion texnologiyalar, gʻoyalar, yoʻnalishlarning keng qamrovida faoliyat olib borishlariga toʻgʻri keladi.

Boshlangʻich sinflarda qoʻllanilish imkoniyatiga ega pedagogik texnologiyalarning tasnifiga yuzlanadigan boʻlsak koʻpgina texnologiyalar oʻzlarining maqsadlari, mazmuni, qoʻllaniladigan usullari va vositalarida juda koʻp oʻxshashliklarga ega va bu umumiy xususiyatlarga koʻra ularni bir nechta umumlashtirilgan guruhlarga ajratish mumkin.

1.Boshlangʻich sinflarda oʻtkazilgan tadqiqot tajribalarni oʻzlashtirishning ilmiy kontseptsiyasiga koʻra texnologiyalar, xulq-atvor texnologiyalari, texnologiyalarni ishlab chiqish va hokozo.

2. Ona tili va oqish savodxonligi faniga doir manbalariga e'tibor qaratish orqali umumlashtirilgan axborot texnologiyalari(maktab bilimlarini, fanlararo integratsiya asosida koʻnikmalarni shakllantirish), operatsion texnologiyalar (aqliy rivojlantirish usullari), badiiy-hissiy va axloqiy-hissiy texnologiyalar (axloqiy munosabat va estetik jihatdan rivojlantirish), oʻz-oʻzini rivojlantirish texnologiyalari (shaxs sifatida oʻz-oʻzini nazorat qilish, boshqarish mexanizmini ishga tushirish), evristik texnologiyalar (ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish), amaliy texnologiyalar (samarali-amaliy sohani shakllantirish) kabilar.

3. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tarkib va tuzilish xususiyatlari asosida ta’lim berish hamda tarbiyalash, umumiy ta’lim fanlari integratsiyasi asosida dunyoviy bilimlar berishda va kasbga yoʻnaltirishda harakatli oʻyin texnologiyalarini qoʻllash.

Shuni ta’kidlash joizki, pedagogik texnologiyalar yuzasidan keltirilgan tasniflar mazmunini tahlil qiladigan boʻlsak texnologiyalar maqsad va vazifalari, qoʻllanilish vositalari hamda usullariga koʻra kognitiv jarayonni tashkil etishda boshlangʻich sinf oʻquvchilari tomonidan bilimlarni oʻzlastirish jarayonida atrof-muhit doirasida oʻrganilgan ma’lumotlar orqali bilish, intellektual rivojlanish va tajribaning samarasi oʻlaroq fikrlash, til, xotira, e’tibor, idrok, muammolarni hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish kabi koplab omillar mavjud boʻlib, oʻqituvchining ta’lim oluvchi

bilan o‘zaro munosabati ochiq bo‘lishi (o‘quvchining nazoratsiz va tuzatilmagan faoliyati), nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘zaro nazorat qilish, og‘zaki yoki avtomatlashtirilgan ta’lim vositalaridan foydalangan holda darslarni tashkil etishning xususiyatlarini tushunish mumkin.

Shundan kelib chiqib, ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida integratsiyalashda pedagogik texnologiyalar xususiyatlari kombinatsiyasini quyidagi texnologiyalar turlarini (didaktik tizimlar) belgilaydi:

-klassik ma'ruza mashg‘ulotlari, audiovizual texnik vositalar yordamida o‘qitish (ochiq, tarqoq, avtomatlashtirilgan);

-raqamli elektron darsliklar tizimi yordamida darslarni tashkil etish;

-darslik yordamida o‘rganish (ochiq, yo‘naltirilgan, avtomatlashtirilgan);

-“kichik guruhlar”da ishlash tizimi - o‘qitishning guruhli, tabaqalashtirilgan usullari.

- kompyuterni texnologiyalari boshqarishni o‘rgatish;

- “repetitor” tizimi ya’ni individual ta’lim;

- “dasturiy ta’lim” buning uchun oldindan tuzilgan dastur mavjud bo‘ladi.

Amaliyotda qollanish jarayonida ushbu tizimlarning turli kombinatsiyalari paydo bo‘ladi, ulardan eng keng tarqalgani:

-taqdimotning ma'ruza uslubi va kitob bilan mustaqil ishlash kombinatsiyasi bo‘lgan an’anaviy klassik sinf-dars tizimi;

- texnik vositalar foydalangan holda zamonaviy an’anaviy ta’lim;

- o‘qituvchi butun guruh bilan almashish imkoniyatiga ega bo‘lganda, shuningdek, individual o‘quvchilarga repetitor sifatida e’tibor qaratishda o‘qitishning guruhli va tabaqalashtirilgan usullari;

- boshqa barcha turlardan qisman foydalanish bilan moslashtirilgan dastur boshqaruviga asoslangan dasturlashtirilgan ta'lim.

Pedagogik texnologiyada printsipial jihatdan muhim jihat - bu bolaning ta'lim jarayonida tutgan o‘rni, kattalarning bolaga munosabati. Bu erda bir necha turdagi texnologiyalar mavjud:

- avtoritar texnologiyalar, bunda o‘qituvchi ta’lim jarayonining yagona subyekti, o‘quvchi esa faqat “obyekt” hisoblanadi.

- didaktosentrik texnologiyalar bolaning shaxsiyatiga yuqori darajadagi e’tiborsizlik bilan ajralib turadi, ularda subyekt ustunlik qiladi - o‘qituvchi va o‘quvchilarning obyekt munosabatlari, o‘qitishning ta’limdan ustunligi, didaktik vositalar eng muhim omillar sifatida qaraladi.

- shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar bolaning shaxsiyatini butun maktab ta’lim tizimi maqsadlari markaziga qo‘yadi, o‘quvchining aqliy-ma’naviy rivojlanishi, tabiiy-ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay, ziddiyatli va xavfsiz sharoitlarni yaratib beradi. O‘quvchining shaxsiyati ustuvor, bu ta’lim tizimining maqsadi. Ular antropotsentrizmga ko‘ra o‘quvchi butun jarayonning diqqat markazida bo‘lib, barcha texnologiyalarning maqsadiga aylanadi, gumanistik va psixoterapevtik -sog‘lom, etuk, ijodiy faol shaxslar bo‘lib, doimiy rivojlanishga intilish va faol hayotiy pozitsiyani egallab, ko‘p qirrali, erkin va ijodiy rivojlanishiga qaratilgan.

- insonparvarlik-shaxsiy texnologiyalar o‘zining insonparvarlik mohiyati, shaxsni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan psixoterapevtik yo‘nalishi bilan farq qiladi.

- hamkorlik texnologiyalari demokratiya, tenglik, o‘qituvchi va bolaning mavzudagi - mavzu munosabatlaridagi teng sherikligi ustuvor hisoblanadi.

- ta’lim texnologiyalari bolaning hayotining katta yoki kichik sohasida tanlash erkinligi va mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan.

- ezoterik texnologiyalar ezoterik (“ongsiz”) bilim - Haqiqat va unga olib boradigan yo‘llar haqidagi ta'limotga asoslanadi. Bu jarayonda xabar emas, muloqot emas, balki Haqiqatga kirish hisoblanadi.

Yosh avlodni o‘qitishning usuli va vositalaridan dogmatik(tanqidiy nuqtai nazardan tekshirmay, aniq sharoitni hisobga olmay fikr yuritish usuli), reproduktiv(muammo yechimini oldindan o‘zlashtirilgan bilimlar asosida mulohaza yuritish), dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi, tushuntirish – ko‘rgazmali, muammoli ta’lim texnologiyalari, o‘z-o‘zini

rivojlantirishga qaratilgan ta’lim texnologiyalari, kommunikativ o‘yin texnologiyalari kabi ko‘pgina mavjud texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.

An’anaviy tizimni modernizatsiya qilish yo‘nalishida quyidagi texnologiyalar guruhlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu shaxsiy munosabatlar, individual yondashuv ustuvorligi bo‘lgan texnologiyalar.

-boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar (o‘yin texnologiyalari, muammoli ta’lim, mos yozuvlar signallari eslatmalari asosida o‘qitish texnologiyasi, kommunikativ ta'lim).

-o‘quv materialini uslubiy takomillashtirish va didaktik qayta qurishga asoslangan pedagogik texnologiyalar.

Har qanday zamonaviy texnologiya pedagogika fani va amaliyoti natijalarini ilgari bir-biridan farq qiladigan tushunchalarni bir butun yoki to‘plamga bog‘lash, birlashtirish jarayonida ilgari sinalgan tajribalarning detallari va jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti, insonparvarlashish va demokratlashish faktorlari asosida yuzaga kelgan bilim va tajribalar jamlanmasi bolib, u ijtimoiy o‘sish yoki pasayish natijalari va ilm-fan yutuqlari, pedagogik tafakkur, ilg‘or pedagogik tajribalar, texnik taraqqiyotga erishish yo‘lidagi tadqiqotlar, mahalliy va xorijiy davlatlar tajribalari, xalq pedagogika(etnopedagogika)sining uzoq yillik hayotiy tajribalari asosida takomillashib, boyib boradi.

Boshlang‘ich sinf fanlarini o‘rganishda texnologiyalarni qo‘llashning muhim tarafi nazariy bilimlarni amaliyotga kiritishda qo‘l keladi hamda bolalar yoshlik chog‘idan texnologik jarayonlarga bilan moslashib ulg‘ayadi.

Fikrimizning uzviy davomi sifatida shuni aytish mumkinki, texnologiya – mazmunan va vazifasiga ko‘ra vositalar, usullar va algoritmlarning bir butun tushunchasi bo‘lib, ulardan kompleks foydalanish ortida oldindan rejalashtirilgan faoliyatning kafolatlangan natijalariga olib boruvchi hamda ta’lim jarayonini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarining elementlari tartibiga tayangan holda pedagogik texnologiyalar ierarxiyasini tartibini belgilaydi.

Hozirgi ta’lim jarayonlaridagi rivojlanishlarni hisobga olgan holda ijtimoiy hayotning hamma sohalarini texnologiyalashtirish utuvor masalalardan biri bo‘lib, jumladan pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish yolida amalga oshirishirilishi lozim bo‘lgan zaruriy ehtiyojlar:

-jamiyatimizni rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishi hamda xalq ta’limi tizimini tubdan isloh qilish va samaradorligini oshirilish;

-o‘qituvchiga o‘quv jarayoning tashkilotchisi bolish bilan birga nufuzli bilimlar manbai darajasiga etkazilish;

-fan-texnikaning yuksak darajada taraqqiy etishi natijasida axborotlarning keskin oshib borayotganligi va yangiliklarni yoshlar ongiga etkazishda vaqtning chegaralanganligi;

-insoniyat jamiyat rivojining shu kundagi taraqqiyoti bosqichida nazariy hamda imperik bilimlarga asoslangan tafakkurdan voz kechgan holda foydali natijaga ega bolgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga tayanayotganligi;

-yosh avlodni hayotga har tomonlama mukammal tayyorlash, ularga ta’lim-tarbiya berishda eng samarali usullaridan hisoblangan obyektiv borliqqa tizimli yondoshuv tamoyilidan foydalanishni talab qilayotganligi.

Ta’limda pedagogik jarayonni texnologiyalashtirish, yuqorida berilgan shartlarni amalga oshirish yo‘lidagi ta’limiy tadbir hisoblanib, texnologiyalashtirish pedagogik tizim, jarayon doirasida bajariladigan ishlardan iboratdir. “Pedagogning ta’lim jarayonini loyihalashga qaratilgan harakati texnologik yondoshuv mohiyatini ifodalaydi. Ta’lim jarayonini loyihalashga nisbatan texnologik yondoshuv muayyan xususiyatlarga ega”.

Pedagogikada pedagogik texnologiyalarga yagona qarash mavjud emasligining sababi bu jarayon doimiy rivojlanish va shakllanishda davom etadi. Ba’zi tadqiqot olib boruvchilar an'anaviy ravishda kopchilik fikriga ergashadilar, boshqalari ta’limning rivojlanishi haqida qayg‘uradilar va texnologiyalashtirishni barcha muammolarning boshqa echimi deb bilishadi, yana bir guruhdagilar esa texnologiyalashtirish - sifat jihatidan turli muammolarni hal qilish uchun ta’lim evolyutsiyasi bosqichini tayyorlaydigan jarayon degan fikrni ilgari suradilar.

“Aniqroq qilib aytganda pedagogik texnologiyaga asoslangan faoliyat deganda, ta’lim funksiyasini amalga oshirishdagi mahorat va san’at tushunilib, u juda qulay usullar asosida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga asoslanadi”.

Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflarining ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida eng yaxshi natija beradigan o‘qitish uslublari haqida ilmiy adabiyotlar, qo‘llanmalarni o‘rganar ekanmiz ma’lum boladiki, bugungi yosh avlod uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng mashhur yondashuvlarni ko‘rib chiqar ekanmiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berish jarayonida foydalanishingiz mumkin bo‘lgan o‘qitish metodologiyalari ro‘yxati juda katta bo‘lib, bir o‘qituvchi uchun samarali bo‘lgan yondashuv boshqasi uchun foydali bo‘lmasligi mumkin, chunki har bir usulni amalda qo‘llashda umumiy ta’lim maqsadlariga erishish uchun turli xil usullar va vositalardan foydalaniladi. Bunda ko‘plab o‘qituvchilar turli xil yondashuvlardan orasida fan doirasiga mos keluvchi g‘oyalarni tanlab, ularni integratsiya asosida o‘quvchilarning yashash muhiti, maktabning ehtiyojlari hamda shart-sharoitlari va boshqa holatlardan kelib chiqib yagona o‘qitish usuliga kiritadilar. Ammo, shuni yodda tutish lozimki, quyida berilgan usullardan qaysi biri tanlanishida qat’iy nazar, bugungi kunda texnologiyaga tayanmasdan har qanday yondashuvni amalga oshirish mumkin emas.

O‘qitishning eng yaxshi usullari haqida ko‘proq ma'lumot olish olish uchun quyidagi tahlillar ko‘rib chiqing:

1. O‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’lim: Bu yondoshuv an’anaviy yondashuv sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, ta’lim muhitida asosiy mas’uliyat o‘qituvchi zimmasida degan g‘oyaga tayanadi. Oqituvchi sinfda bo‘ladigan hamma tadbirlarni boshqaradi va sinfga mas’uldirlar. Odatda, bu yondashuvda o‘quvchlar o‘qituvchiga qaragan holda alohida partalarda o‘tirishadi. Guruh ishini amalga oshirish mumkin bo‘lsa-da, ko‘p vaqt o‘qituvchi tomonida uzatiladigan axborot va ma’lumotlarni hamda tushunchalarni tushuntirishi bilan o‘tkaziladi va faol ravishda etkazib beriladi. Bu esa , o‘quvchilar tomonidan oliinishi lozim bo‘lga malumotlarni passiv tarzda o‘zlashtirishiga olib keladi.

Afzal tomonlari:

1. O‘qituvchining vazifasi mavzuga doir faktlarning muhimligini uqturadi. O‘qituvchiga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslangan passiv ta’lim tanqid ostiga olingan bo‘lsa-da, o‘quvchilarning o‘z bilimlarini oshirishlari uchun o‘qituvchi yordamiga muhtojligi haqidagi fikrlarni inkor eta olmaymiz.

2. Xulq-atvor nazariyasidan kelib chiqib, bu usul bevosita belgilangan ko‘rsatmalar yordamida ta’lim oluvchining xatti-harakatlarini nazoratda ushlab turishni qulaylashtiradi. Ushbu yondashuvning asosiy mohiyatidan foydalanishning yagona imkoniyati, diqqatni asta-sekin birinchisidan ikkinchisiga o‘tkazish orqali uning o‘qituvchi va o‘quvchilarning ehtiyojlariga qarab o‘zgartirilishidir

Kamchiliklari:

Birinchidan, o‘qituvchiga yo‘naltirilgan usul o‘quvchilarga etarli darajada aql, mantiqiy fikrlash va ijod erkinligiga imkon bermasligi.

Ikkinchidan tahlil qilish va muammolar ustida bosh qotirish va uni hal qilishga doir ko‘nikmalarini rivojlantirishda ish bermasligi. Ta’lim oluvchilarning tanlash imkoniytlari yo‘qligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanmasligi hamda tanqidiy fikrlash malakalarining etishmasligiga olib kelishi mumkin.

2. O‘quvchi-markazli konstruktivistik yondashuv:

Bunda butun e’tibor o‘qituvchidan o‘quvchilarga qaratilishini tushunish mumkin, boshqa yondoshuvlar o‘quvchiga yo‘naltirilgan yoki konstruktivistik hisoblanadi. Ta’lim sohasida o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv g‘oyasi ommalashib bormoqda va buning o‘ziga yarasha sabablari bor. Ta’lim oluvchilar uchun mo‘ljallangan sinflarni rejalashtirish va baholashni o‘z ichiga oladi. Ushbu qarorlarni qabul qilishda o‘qituvchi emas, balki o‘quvchi zimmasiga ko‘proq mas'uliyat yuklaydi. Shu bilan birga, kichik guruhlarda, ishlashlari va sinfda erkin harakat qilishlari mumkin. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘zlarining etakchilik uslubini maslahatchilik uslubiga o‘zgartirishlari lozim bo‘ladi.

Afzal tomonlari:

1. O‘quvchilar o‘z bilimlarini oshirishda faollik ko‘rsatadilar va ulardagi mas’uliyat hissi rivojlantiriladi.

2. O‘qituvchilar tomonidan ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatishdan maslahatchi maqomiga o‘tganligi sababli o‘quvchilar o‘zlashtirayotgan yangi bilimlarni ilgari o‘rganganlari bilan bog‘lab, o‘zaro bilan muhokama qilish orqali anglab tushunishlari va ularning tahlil qilishga doir tafakkurini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kamchiliklari:

1. Yosh jihatdan kichik bo‘lgan o‘quvchilarga mustaqillik berish oqibatida bolalardagi xulq-atvorida kutilagan ijobiy natijaga zid ravishda ba’zi muammolarning yuzaga kelish xavfi mavjud. Bunday muammolarni oldini olish u o‘qituvchilar to‘g‘ri xatti-harakatlar modelini yaratish orqali muammolarning oldini olish erishish lozim bo‘ladi. Bunda har bir o‘quvchi o‘zi xohlagan narsani bajarish erkinligiga ega bo‘lish barobarida, uning oqibatlari, jarayon va natijalar uchun javobgarlik ham o‘z zimmalariga tushushini his qilishlarini anglatadi.

2. O‘qituvchi tomonidan darsni to‘g‘ri tashkil etilib, qiziqarlilik tamoyili asosida o‘tkazilsa, bu usul yaxshi samara beradi. Aks holda o‘quvchilar zerikib qoladigan bo‘lsa, fikrlarida chakashlik sodir bo‘ladi hamda asosiy ma'lumotlarni o‘tkazib yuborishi mumkin.

O‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv haqidagi fikrlar o‘qituvchilar tomonidan qabul qilinishi yoki takomillashishi oson bo‘lmasligi mumkin va bu har doim ham 100% natijani kafolatlamaydi. Ammo, agar o‘qituvchilar ushbu usullarni boshqa dars turlari bilan integratsiyalash orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

3. Loyihaga asoslangan ta’lim

Nisbatan yangi o‘qitish usuli, loyihaga asoslangan yondashuvga to‘g‘ri keladi. Loyiha asosida o‘qitishda o‘quvchilar loyiha ishlarini bajarish orqali bilim olish, tadqiqot qilish, tanqidiy fikrlash, baholash, tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlik qilish kabi muhim ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradilar. Odatda, loyihalar “Qanday qilib bizning maktabimiz yanada yaxshi bo‘lishi mumkin?” yoki “O‘tmishda shahrimiz qanday rejalashtirilgan edi va kelajakda uni qanday rejalashtirish mumkin?” kabi savollarga javob sifatida yaratiladi.

Loyihalarning muhim tomonlaridan biri, ular real, hayotiy muammolar bilan bog‘liqligidadir. Bunda nafaqat maktab, mahalla, sha taalluqli, balki keng ko‘lamli ta’sirga ega bo‘lishi kerak. Misol uchun, o‘quvchilarni “Toza ichimlik suvi muammo”si, “Atrofmuhitning ifloslanishi”,“Global isish”, “Azon qatlamining emirilishi”, “Yuqumli kasalliklarning ko‘payishi” kabi kelajakda umumbashariyat uchun muhim bo‘lgan muammolar ustida fikrlashga, ishlashga undaydigan loyihalar bo‘lishi mumkin.

Afzalliklari:

1. Loyihalar ustida o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorlikda tadqiqot o‘tkazish, muammolarini hal qilish yo‘llarini izlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish uchun andoza va kichikroq takliflarni ishlab chiqishlari mumkin. O‘quvchilar loyiha ishini o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan savollarga bilganlariga asoslanib, erkin ijodiy fikrlarini bildirib, o‘z munosabatlarini bildirishi, boshqalar bilan muloqot qilishi va tajribalarni aks ettirishi bilan ahamiyatlidir

2. O‘quvchilarga o‘z loyihalarini guruhlarda tashkil etish imkonini berish orqali hamkorlikda o‘qishga e’tibor qaratiladi.

Umuman olganda boshlang‘ich sinflarda matn bilan samarali ishlash bilan birga uni tushunish, tanqidiy fikrlash orqali tahlil qilishi muhimdir. Tanqidiy fikrlashni ribojlantirish texnologiyasi hamda innovatsion metodlar yordamida o‘quvchilarning matn ustida ishlash jarayonida kerakli ma’lumotlarni aniqlashtirish, mustaqil matn tuzish va fikrlarini himoya qilish, isbotlash kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu borada bildirilgan” Ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limi bolalarning tafakkur doirasini kengaytirishga, erkin ijodiy fikrlashi, o‘zgalar fikrini tushunib tinglashi, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma tarzda ravon bayon eta olishi, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqot qila oladigan jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mohiyatan ona tili o‘qish savodxonligi ta’limiga o‘quv fani emas, balki butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi ta’lim, shu bilan birgalikda tarbiya jarayoni sifatida ham qarash mumkin”.

Har bir o‘sib kelayotgan avlod oldida insoniyatga taqdim etilgan jamiki bilimlarni o‘rganish, o‘zlashtirish va rivojlantirish vazifasini yuklaydi. Butun olam taraqqiyoti va jamiyat rivojini oldindan bilishning imkoni yo‘q. Bu vazifani amalga oshirishning

yagona yo‘li ta’lim tizimini doimiy rivojlantirib, takomillashtirib borish orqali yosh avlodni barkamol, har tomonlama etuk, komil inson qilib tarbiyalash ekanligi doimo pedagoglar uchun dasturul amaldir. Demak, bugungi ta`lim oluvchi kelajakdagi savodli mutaxassis bo‘lishi uchun bizning bosh maqsadimiz ham ma’naviy etuk, barkamol, mustaqil fikrli shaxsni tarbiyalash yolida olib boriladigan ishlarni izchil amalga oshirish shartdir. Bu borada ta’lim sohasida olib boriladigan fanlararo integratsion jarayonlarga asoslangan ta’lim berish, pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir rulkan innovatsion o‘zgarishlar katta ahamiyat kasb etadi. Toki hayot davom etar ekan, ta’lim va tarbiya yangi davr uchun muhim bo‘lgan yangi zamon talablarga mos ravishda muttasil o‘sib, o‘zgarib-yangilanib boraveradi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini fanlararo tashkil etishda zamon talablari asosida yondashish, ta’limda eng ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash davr talabiga aylandi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim mazmuni, shakli va vositalariga nihoyatda jiddiy e’tibor qaratish, xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik kerak bo‘ladi. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari dars ishlanmalarni tayyorlashda ijodiy yondoshmog‘i kerak.(2-ilovaga qarang)

Darsni rejalashtirish mavzuga mos ishlanma tayyorlash o‘qituvchining ijodiy mehnati mahsuli bo‘lib, uning bilimi va mahoratini ko‘rsatuvchi oynadir. Shu bois, uni tuzishda shoshmashosharlikka yo‘l qo‘ymaslik kerak. Bir marta maromiga etkazib tuzilgan dars ishlanmasi o‘qituvchi uchun uzoq yillar davomida xizmat qilishi mumkin. Dars ishlanmasini yildan-yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi dars uslublarini qo‘llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilanib turilishi lozim. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv dasturining amaliyotda keng joriy etilishi, ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning, kompyuter, yangi axborot texnologiyalari va texnik vositalarning qo‘llanishi bilan dars ishlanmalariga qo‘yilgan talablar ham o‘zgarib bormoqda. Dars ishlanmalari uchun tayyor qoliplar yo‘q, chunki dars jarayonini rejalashtirish o‘qituvchining mustaqil, ijodiy yondoshuvi mahsuli hisobladi. U turli xil sharoitdan kelib chiqib, mavzu doirasiga mos ravishda turlicha tuzilishi mumkin.

O‘qituvchi darsga tayyorlanar ekan darsning o‘ziga xos xususiyati mashg‘ulotlarning tarkibiy elementlaridan biri sifatida uning dizayniga o‘yinni kiritishdir. Didaktik o‘yinlarni tashkil qilish uchun ma'lum talablar mavjud.

1. O‘yin o‘quvchilar faoliyatining muhim shakli bo‘lib, unda atrofdagi mavjud imkoniyatlar asosida amalga oshiriladi, shaxsiy faoliyat va ijodkorlik uchun imkoniyat eshiklari ochiladi.

2. O‘yin qiziqish asosida bo‘lishi kerak, ishtirokchilar o‘yindan zavqlanishlari lozim.

3. O‘yin ishtirokchilari o‘rtasida raqobat elementi talab qilinadi.

O‘yinlarni tanlash uchun talablarni aniqlaymiz:

1. O‘yinlar muayyan ta'lim vazifalariga, bilim, ko‘nikma va standart talablarga bo‘lgan dastur talablariga muvofiq bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

2. O‘yinlar o‘rganilayotgan materialga mos kelishi va o‘quvchilarning tayyorgarligi hamda psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi shart.

3. O‘yinlar ma’lum didaktik material va uni qo‘llash usullariga asoslangan bo‘lishi kerak.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida didaktik o‘yinlarning quyidagi turlari foydalanishni tavsiya etamiz.

1. Mashq qilish o‘yinlari. Ular o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini yaxshilaydi, o‘quv materialidan o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga hissa qo‘shadi, uni yangi sharoitlarda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Sayohat o‘yinlari. Ushbu o‘yinlar o‘quv materialini tushunish va mustahkamlashga yordam beradi. Bu o‘yinlarda o‘quvchilarning faolligi hikoyalar, munozaralar, ijodiy topshiriqlar, farazlar shaklida ifodalanishi mumkin.

3. Musobaqa o‘yinlari. Bunday o‘yinlarga didaktik o‘yinlarning barcha turlari kiradi. Oquvchilar guruhlarga bo‘lingan holda musobaqalashadilar.

4. Dars - bu ishbilarmonlik o‘yinlarini misol qilishimiz mumkin.

Dars maqsadi va natijalarining o‘zaro mutanosibligini ta’minlash. Ma’lumki, Milliy o‘quv dasturi talablari umumiy tarzda

ifodalangan bo‘lib, har bir bilim va ko‘nikmalar haqidagi talablar avvaliga sinflar, so‘ng boblar, so‘ng mavzular va nihoyat mavzuga ajratilgan dars soatlari kesimida aniqlashtirib boriladi. Shunday qilib, har bir darsda o‘quvchilarda dasturda belgilangan bilim va ko‘nikmalarga qo‘yilgan talablarni shakllantiriladi. Shu jihatdan, har bir darsning ta’limiy maqsadlarini Milliy o‘quv dasturi talablariga mufofiq bo‘lishi lozim. Namuna sifatida quyidagi dars ishlanmalarni keltirib o‘tamiz.

2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsi uchun bir soatlik dars ishlanma.

4-soat. Mavzu: Yo‘l qoidasi-umr foydasi.

Maqsad: Yo‘lda yurganda harakat havfsizligi qoidalarini o‘quvchilar ongiga singdirish. Yo‘l belgilari haqida yangi bilimlarni berish, fe’l soz turkumiga oid nima qildi? Nima qilyapdi? Nima qilmoqchi? so‘roqlariga javob bo‘lgan harakat-holatni bildirgan so‘zlarning ishlatilish o‘rinlarini organish.

Ta’limiy maqsad: Yo‘l harakati qoidalariga oid bilimlarni o‘rganish hamda amal qilish konikma va malakalarini oshirish.

Tarbiyaviy maqsad: O‘zi va o‘zgalar hayotiga befarq bo‘lmaslik, madaniyatlilik, vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilarni og‘zaki nutqini o‘stirish, fikrini erkin bayon etishga o‘rgatish.

FK2. O‘rganilgan yo‘l belgilari nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va ularga baho bera oladi.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi, o‘tgan mavzuni mustahkamlash..

Dars metodi: “Suhbat” metodi, “Tarmoqlash” metodi. “Kim chaqqon” o‘yini

Jihozi: Mavzuga doir ko‘rgazma, slayd, videorolik, audiomatn va tarqatmali savollar.

Darsning borishi:

I Tashkiliy qism:

a) Salomlashish, davomotni aniqlash, tozalikni tekshirish.

b) Manaviyat daqiqasini o‘tkazish ; Kun yangiligi.

II. O‘tgan mavzuni mustahkamlash

O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi. Dars davomida o‘quvchilar rag‘batlantirilib baholanadi.

Tarqatma savollar ustida ishlash:

1. Maktabingiz oldidagi piyodalar o‘tish joyini bildiruvchi belgini ko‘rganda haydovchi nima qilshi kerak?

2. Siz yo‘lning qaysi qismidan kesib o‘tgan bo;lardingiz? Nima uchun?

3. Qanday yo‘l belgilarini bilasiz?

Yo‘l belgilari asosida tayyorlangan slaydni monitorda ko‘rsatish hamda suhbat metodi orqali otgan mavzu mustahkamlanadi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Mavzu:Yo‘l qoidasi-umr foydasi. 4-soat

Dars “Yolg‘iz qolgan yo‘l belgisi” audiomatnini eshittirish hamda shu asosida qisqa savol-javobdan so‘ng matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar leksik ma’nosi ustida ishlashda “Moslashtirish” usulidan foydalamiz. Bunda berilgan so‘zlarning lug‘aviy ma’nosiga mos keladigan so‘z birikmalari moslashtiriladi.

yalpayib yotmoq---------o‘zini erkin tutib, bemalol yotish
gavjum----------odam ko‘p bo‘lgan joy
yo‘l yoqalab----------yo‘l chekkasidan yurish
zo‘rg‘a----------bi amallab, qiyinchilik bilan
ko‘zi tushmoq----------ko‘rib qolmoq
bir zum----------juda qisqa vaqt
halloslash----------og‘ir nafas olish, hansirash
yuragi qinidan chiqish—qo‘rqib ketish

“Gaplarni o‘zgartiramiz” mashguloti. Bunda berilgan gaplardagi ajratib korsatigan so‘zlar o‘rniga ma’nodoshlarini qollash malakalari rivojlantiriladi. Topshiriq doskada va masq daftarida bajariladi. Darsda faol o‘quvchlar og‘zaki rag‘batlantirib boriladi.

“Kim chaqqon” o‘yini

Rasm asosida holat va harakat fe’larini yozish bahsi.

1-guruh	2-guruh	3-guruh
Yurdi	to‘xtadi	yondi (Ilovada, 2-rasm)

O‘quvchilar holat va harakat fe’llarini yozadilar. O‘yin yakunida so‘larning to‘gri yozilishi tekshirilib g‘olib jamoa rag‘batlantiriladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1.”Tarmoqlash” metodi yordamida olingan bilimlar

mustahkamlanadi.

2. Mavzuga oid audiohikoya qoyib eshittiriladi hamda hikoya asosida o‘quvchilar o‘zlari og‘zaki savollar tuzadilar o‘zaro bir-birlariga savol beradilar, javob bergan o‘quvchilar og‘zaki rag‘batlantirib boriladi.

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Dars yakunida va faol, bilimdon o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga Vazifa: Holat va harakat fe’llari ishtirok etgan 5 ta gap tuzib kelish. Yol belgilari haqida ma’lumot to‘plash.

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” fanining bosh maqsadlaridan biri o‘quvchilarni hayotiy nutqiy vaziyatlarga tayyorlashdir. Masalan, “Navbatda turishni bilasizmi?” mavzusida navbatda turish madaniyati, bu vaziyatda ishlatiladigan til birliklari – murojaat shakllari yuzasidan ta’lim beriladi. Ha, bu borada jamiyatimizda muammolar borligini hech kim inkor etmasa kerak...”

2-sinf ona tili o‘qish savodxonligi darsi uchun dars ishlanmasi namunasi.

Mavzu: Navbatda turishni bilasizmi?

Darsning maqsadi: Fanlararo integratsiya asosida yangi mavzuni tushuntirish. Oquvchilarda odob-ahloq qoidalariga rioya

etish doir bilimlarni shakllantirish, jamoat joylarda oʻzini tutishga oʻrgatish. Bolalarning ogʻzaki va yozma nutqlarini rivojlantirish,

Ta'limiy maqsad: Oʻquvchilarning, soʻz birikmalari, gap tuzish hamda bogʻlanishli nutqa oid bilimlarini oʻstirish, topshiriqlar ustida mustaqil ishlash koʻnikmalarini shakllantirish,

Tarbiyaviy maqsad: Oʻquvchilarni navbatda turish, oʻzini tutish, sozlashuv odobi kabi fazilatlari haqidagi tasavvurlarini boyitish, ochkoʻzlik, betartiblik, oʻzini oʻzgalardan ustun qoʻyish kabi nuqsonlarga nafrat tuygʻularini uygʻotish. Muomala madaniyati singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Oʻquvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bogʻlanishli nutqni oʻstirish, oq'zaki nutqning ta'sirchan boʻlishiga erishish.

Tayanch kompitensiya:

1)Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi. Matnda berilgan materiallarga ongli munosabat bildirish;

2)Milliy va umummadaniy kompetensiya. Matnda aks etgan insonparvarlik odob-axloq gʻoyalarini bilib, betartiblik ochkoʻzlik, besabrlik, odobsizlik kabi odatlardan nafratlana oladi; Doʻstlariga, atrofdagilarga va yaqinlariga nisbatan toʻgʻri munosabatda boʻla oladi.

Fanga oid kompetensiya: Adabiy-nutqiy: Matnni ongli, toʻgʻri oʻqiy olish; Fikrlarini ogʻzaki va yozma bayon qilish; Organilgan mavzu mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob berib, qahramonlarning holati va harakatini tahlil qila olish.

Dars turi: Yangi tushuncha va bilim sakllantiruvchi

Dars usuli : Tushuntirish, savol-javob, guruhlarda ishlash,"Aqliy xujum" metodi, "Matn tahlili", "Tezkor savol-javob " mashqlari

Dars jihozi: Darslik, multimedia ilova, slaydlar, mavzuga oid rasmlar.

I Tashkiliy qism:

a) Salomlashish, navbatchilik nazorati, navbatchi axboroti, oʻquvchilarni guruhlarga ajratish va darsga hozirlash.

b) Ma'naviyat daqiqasi:

II. uy vazifasini soʻrash va oʻtilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tgan mavzuni mustahkamlash uchun yo‘ belgilari asosida tayyorlangan rasmli test texnologiyalaridan foydalaniladi. Rasmli testlar monitorda namoyish qilinadi va butun sinf birgalikda test savollariga javob topadilar, faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

III yangi mavzuni tushuntirish.

Yangi mavzu: Navbatda turishni bilasizmi?

Navbatda

-Kechirasiz, siz ham navbatda turibsizmi?

-Ha, men oxirgi navbatdaman.

-Men, esa sizdan keyin keldim. Demak, endi men oxiriman.

-Shunday. Navbatning boshida Nargiza turibdi. Komil ikkinchi, Jahongir uchinchi, to‘rtinchi men, oxirida esa siz.

-Iltimos, menga bitta muzqaymoq uzatvoring.

-Boshqalar qatori navbatda turing.

-Axir maktabga kech qolishim mumkin!

-Aksincha, tartib saqlansa hech kim maktabga kechikmaydi.

-Uzr, men bilmagandim.

Yuqoridagi matn asosida tuzilgan savollar yordamida o‘quvchilar bilan navbatda turish odobi haqida suhbat uyushtiriladi.

1. Odamlar qanday vaziyatlarda navbatda turishadi?
2. Navbatda turish odobi haqida nimalarni bilasiz?

3. Tartibli bola qanday bo‘ladi deb o‘ylaysiz? Tartisiz bola-chi?

4. Navbatda turish qoidalari buzilsa nimalar sodir bo‘lishi mumkin?

Yozma nutqni rivojlantiruvchi mashqlar ustida ishlashda “Aqliy hujum” metodidan foydalanamiz.

1. “Kechirasiz”, “Iltimos”, “Uzr” sozlarini qanday vaziyatlarda ishlatiladi?

2. O’quvchilar tezkor jabob beradilar va shu so‘zlar ishtirokida mustaqil ravishda mashq daftarlariga gaplar tuzib, yozadilar.

3. Topshiriqni bajarishda ilg‘orlik ko‘rsatgan o‘quvchilar ishlari tekshirilib, rag‘batlantiriladi.

IV. o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun o‘rganigan matn asosida “Do‘konda” sarlovhasi bilan sahna ko‘rinishi senariysi tuziladi. Senariyda yuz beradigan voqea-hodisalar o‘quvchilar tomonidan taklif qilingan ijodiy fikrlar hisobga olinib yoziladi va ijrochilar tayinlanadi.

V. Darsda faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Uyga vazifa: Matndan tartibni ifodalab kelayotgan so‘z va birikmalarni aniqlab yozib kelish.Sahna korinishiga ijodiy tayyorlanish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirishning nazariy asoslari

Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda “ijod”, “ijodkorlik” kabi atamalarni uchratib qolmoqdamiz. Bu atamalarning adabiyotlar sahifalarida paydo bo‘lganligi bejiz emas.

“Ijod” so‘zining lug‘aviy ma’nosi: “yaratish”, “yangilikni kashf etish” so‘zlariga monand keladi.

Ijodkorlik - faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan, namoyon bo‘lishigacha jarayonini o‘z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan, hal etuvchi vosita bo‘lib hisoblanmagan intilishdir.

Ijodkorlik- sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Obektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo'lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

-tafakkurning mustaqilligi;

-o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;

- standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;

- o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.[10;87]

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo'lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushiniladi.

Ular quyidagilardan iborat :

1.O'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari.

2. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi.

3.Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg'ulotlar evristika muammoli vaziyatlar yaratish.

4. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi :

O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda ular egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalarga quyidagi talablar qo‘yiladi.

-dastur materiallarni qay darajada o‘zlashtirganligi ;

-mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o‘zlashtirganligi;

-tanlagan mavzu bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi ;

-o‘rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi ;

-topshiriqlarni bajarishda o‘quv ashyolari va texnika vositalar, axborot texnologiyasidan foydalana olishi ;

- o‘z qobiliyatini namoyon etishi va uni rivojlantira olishi ;

-mavzu bo‘yicha o‘z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo‘ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi ;

-mavzularni o‘rganishda o‘z fikrini dalillay olishi;

-o‘z variantini tavsiya eta olishi va hokazolar.

Mazkur talablar o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari, ularning o‘quv-biluv faoliyati, individual moyilliklarini bilish imkoniyati paydo bo‘ladi va bu borada o‘quv jarayoni tuzilmasini belgilab olishga yordam beradi.

Yuqoridagi talablar asosida muammoga doir ta’limni maqsadga muvofiq tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olinadi.

Maqsadga muvofiq yondashuv deganda o‘quv- biluv jarayoni yoki ta’lim mazmuni, metod va shakllari tizimining ijodiy faoliyatni rivojlantirishga doir maqsadli yo‘naltirilgan maxsus tashkil etilgan tuzilmasi tushiniladi.

Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarda chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o‘quvchilarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim.

Buning uchun esa: kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada:

1. Oʻquvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash.

2. Oʻqituvchi va oʻquvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish.

3.Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Hozirgi davrda oʻquvchilarning biror- bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bogʻliq boʻlgan evristik va muammoli ta'lim oʻquv-biluv jarayoniga faol kirib kelmoqda.

V. Karimova oʻz tadqiqotlarida ilmiy faoliyatni ushbu uch turi amalga oshirilganda shaxsning unga mos boʻlgan sifatlari :

1) Oʻquvchilar tomonidan tashqi olamni kuzatish jarayonida zarur boʻladigan sifatlari;

2) Oʻquvchilar uchun faoliyatning ijodiy mahsulini yaratish sharoitlarini ta'minlovchi ijodiy faoliyat sifatlari;

3) Oʻquvchilar bilish faoliyatini tashkil etganda uning oldingi ikki holatda- bilish va ijod holatida koʻrinadigan sifatlari namoyon boʻlishini ko`rsatib o`tadi".

Quyida sanab oʻtiladigan sifatlar ijodiy izlanishli ta'lim turini rejalashtirish, tashkil etish va samaradorligini nazorat qilish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Ijodiy faoliyat sifatlariga quyidagilarni kiritish mumkin :

-ehtirosli-obrazli sifatlar: ijodiy vaziyatlardan ilhomlanish, zavqlanish, joʻshqinlik;

-obrazlilik, uyushganlik, yangilik va gʻayrioddiylikni his etish, ziddiyatlarga nisbatan sezgirlik, ijodiy moyillik, ichki kurashlarni sinashga boʻlgan qobiliyat, ramziy ijodkorlik va boshqalar.

-tashabbuskorlik, kashfiyotchilik, zehn, oʻziga xoslik, har xillik, nostandartlik;

-gʻoyalarni topishga, ularning individual, oʻzga insonlar bilish ob'ektlari bilan munosabatlariga nisbatan qobiliyati;

-maktabda, oilada va boshqa ijtimoiy muhitda beriladigan axloq me'yorlarini saqlab qolish koʻnikmasi bilan uygʻunlashadigan fikrlar, tuygʻular va harakatlar erkinligi;

-sezgirlik, tanish narsalarni notanish narsalarda koʻra olish va aksincha; muammolarni hal etishda stereotiplarni yenga olish, oʻzgacha makonga chiqish qobiliyati;

-oʻrganilayotgan obʼekt bilan dialog olib bora olish ; bilish metodlarini tanlay olish; obektning oʻxshash obʼektlar bilan vazifa va aloqasini topish;

-obektlarning oʻzgarishi, uning oʻsish yoki rivojlanish dinamikasini aniqlash;

-obektning xossalariga koʻra bilishning yangi metodlarini yarata olish;

-gipotezalarni taʼriflay olish taxminiy fikrlar, qonuniyatlar, formula, nazariyalarni, konstruksiyalash: intuitsiya, meditatsiyaga ega boʻlish ;

-oʻz qobiliyatini ijodiy ishlarni bajarish va himoyalash shaklida amalga oshirish, tanlovlar, olimpiadalarda ishtirok etish tajribasiga ega boʻlish.

Bilishga doir sifatlar:

-fiziologik sifatlar: oʻrganilayotgan obʼektni taʼlim yordamida koʻrish, eshitish, sezish, his eta bilish; ishqobiliyati, shijoatni tarbiyalash;

-intellektual sifatlar: qiziquvchanlik , zehnlilik, mulohazalilik, ziyraklik, mantiqiylik, onglilik dalillash, analitik, sintetik oʻxshashini topa olishga qodirlik, isbotlashning turli shakllaridan foydalanish, ishqibozlik ;

-sinchkovlik, zakovatlilik, muammolarda izlanuvchanlik, tajribalarga moyillik, savollar bera bilish, ziddiyatlarni koʻra olish, muammo va gipotezalarni taʼriflay olish, nazariy va amaliy tadqiqotlarni bajara olish, turli xil topshiriqlarni yechish usullariga ega boʻlish, xulosa va umumlashmalar qilish, harakatning tezkorligi tafakkurining xilma-xilligi;

-shaxsiy faoliyatida aks etgan madaniy meʼyorlar va anʼanalarga ega boʻlish; oʻz bilimlari va olgan natijalarini dalillay bilish;

-tanlash vaziyatlarida tanlay bilish;

-paydo boʻlgan har qanday muammo boʻyicha oʻzining tushingani yoki tushunmaganini bildirishga qodirlik;

-o‘zgalar nuqtai nazarini tushunish va baholay olish, mazmunli dialog yoki munozarali chiqishlar qilish;

-o‘rganilayotgan sohalarni tizimli ko‘ra bilish; ob’ektlar aloqalari, ularning sabablari, ular bilan bog‘liq muammolarni izlab topish; har qanday ob’ekt va hodisa (tabiat, madaniyat, siyosat va hokazo) mohiyatini aniqlashga to‘g‘ri yondasha bilish;

-obektlar orasidan asosiysini tanlay bilish, ular orasidagi bir-biriga bog‘liqlikni izlash; tanilgan ob’ektlarning yangi vazifalari va aloqalarini ko‘ra bilish; ob’ektning kelib chiqish sabablarini izlashga qodirlik, ob’ektning ma’nosi, uning manbaini topishga qodirlik ;

-o‘rganilayotgan fanlar bo‘yicha ma’lumotga, tayanch bilimlarga malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

-o‘rganilayotgan bilimning asosiy muammolarini mo‘ljalga olish;

-ta’lim samarasi va sinfdoshlarining erishgan natijalarni qiyoslayo bilish, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini ajratish, shaxsiy ta’limiy natijalarni qayta aniqlash yoki qayta ishlash;

-madaniy-tarixiy o‘xshashliklarning kelib chiqish (namoyon bo‘lish) sabablarini izlashga qodirlik, uning tuzilishini aniqlay bilish, o‘xshash ideal ob’ektlar bilan aloqalarni topish, ideal ob’ektlar tizimini tuzish, ularning shakllangan tamoyillar va mezonlar asosida madaniy- tarixiy o‘xshashliklarning tegishli real ob’ektlar bilan aloqalari tizimini anglay bilish;

-ma’naviy, moddiy va faoliyat shaklida erishilgan bilimlarni ruyobga chiqarishga qodirlik.

Tashkiliy faoliyat- sifatlari:

-o‘quvchi tomonidan o‘zining individual xususiyatlarini, fe’l-atvoridagi belgilarini, har bir o‘quv fani va ta’lim sohasidagi mashg‘ulotlarning maqbul shakllarini bilish;

-mavzu yoki boshqa o‘quv fanidan o‘z mashg‘ulotining maqsadini anglab olish va tushuntira bilish, nimalarni bajarayotganini aniq tushuna bilish;

-yangi yoki erishilmagan yaxshi maqsad, unga erishish dasturining mavjudligi, ishni oxirigacha yetkazish uchun qat’iyat, maqsadga sodiqlik; maqsadni qo‘ya bilish, maqsadga intiluvchanlik maqsadga erishish uchun qat’iyatlilik;

-berilgan bilim sohasiga yoki faoliyatga oʻquv maqsadini qoʻya bilish, unga erishish rejasini tuza olish; oʻzining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan rejani bajarish; oʻz natijasini olish va anglash; uni sinfdoshlarining shunga oʻxshash natijalari bilan qiyoslash;

-egallangan malakada ifodalanadigan faoliyat qoidalari, uning qonunlari tizimini shakllantirish, faoliyat natijalarini prognozlash ;

-oʻz-oʻzining faoliyatini rejalashtirish, harakatni dasturlash, faoliyat bosqichlari va usullarini yaxshilash, harakatning oʻzgaruvchanligi rejalarning bajarilishi; faoliyatga yondashuvning xilma-xilligi, ayni paytda turli xil muqobillarini esda saqlash ;

-oʻzining keyingi oʻqish rejasini tuza bilish; faoliyati maʼno mazmunini aniqlash, natijalarni maqsadlar bilan birlashtira olish, oʻz-oʻzini kuzatish, oʻz-oʻzini tahlil qilish va oʻz-oʻzini baholay bilish;

-taʼlimning boshqa subʼektlari bilan hamda atrof-olam bilan oʻzaro harakatga qodirlik; oʻz gʻoyalarini himoya qila bilish, atrofdagilarning mulohazalarini tinglay olish, “zarbaga dosh berish”; mustaqillik, intiluvchanlik, qatʼiyatlilik, kirishimlilik;

-oʻzgalar ijodiy faoliyatini tashkil etishga qodirlik, boshqa oʻquvchilar bilan birgalikda gʻoyalar yaratish, unda ishtirok etish; gʻoyalar, bahs, munozaralarni qiyoslash va chogʻishtirish.

Shunday qilib evristik taʼlim, kam deganda oʻquvchining uchta integratsion qobiliyati; ijodiy qobiliyati, bilishga doir va faoliyatga oid qobiliyatiga tayanadi. Demak, evristik taʼlim deyilganda oʻquvchining taʼlim samaradorligini taʼminlashga qaratilgan faoliyat va harakatni amalga oshirishdagi kompleks imkoniyatlari tushuniladi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda oʻquvchilar maqsadlarni quyidagicha guruhlash mumkin;

Shaxsga yoʻnalgan maqsad- taʼlim maqsadini idrok etish, oʻzida ishonch hosil qilish, oʻzining potensial imkoniyatlari, aniq individual qobiliyatlarini amalga oshirish;

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga doir maqsad majmuini tuzish, sharhli insho, texnik modellarni konstrksiyalash, rasmlar chizish va boshqalar.

Bilishga oid maqsad- atrofdagi borliq ob'ektlarini bilish; paydo bo'lgan muammolarni yechish usullarini o'rganish, birinchi manbalar bilan ishlash malakasiga ega bo'lish, tajriba qo'yish, tajribani o'tkazish;

Tashkiliy maqsad- o'quv faoliyatini o'zi tashkil etish malakasiga ega bo'lish, o'z oldiga maqsad qo'ya bilish va faoliyatni rejalashtirish, jamoada ishlash malakasini rivojlantirish , munozara olib borish texnikasini egallash;

Fanga oid maqsad- o'rganilayotgan fanga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish: o'rganilayotgan mavzuga kirgan asosiy tushuncha, voqea-hodisa va qonunlarni bilish; oddiy asboblardan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish; mavzu bo'yicha ijodiy topshiriqlarni izlanishli ta'limning asosiy texnologik elementi-darsda izlanuvchan ta'lim vaziyatini yaratish, ya'ni dolzarb faollashtiruvchi vaziyat, yaratishdan iborat an'anaviy darsga muqobil holatda bo'ladi. Uning maqsadi maxsus tashkil etilgan faoliyat davomida o'quvchilar tomonidan shaxsiy ta'limiy natijalar (g'oya, muammo, gipoteza, chizma, tajriba, matn)ni ta'minlashdan iborat.

Izlanishli ta'limiy vaziyat o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yoki o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, uning barcha ishtirokchilaridan evristik faoliyat orqali o'z yechimini talab qiladigan ta'limiy harakat bilan baholanadi. Ta'lim samaradorligi natijasini oldindan aytib bo'lmaydi, avvalo muammo qo'yiladi, so'ng faoliyat texnologiyasi yaratiladi, o'quvchilarning ta'limiy harakati kuzatib boriladi, biroq oldindan olinishi lozim bo'lgan ta'limiy natijalari ma'lum bo'lmaydi.

Izlanishli ta'limiy vaziyatlarning asosiy texnologik elementlari: motivatsiya, muammolar qo'yish, vaziyat ishtirokchilari tomonidan muammni yechish, ta'limiy natijalarni namoyon etish, ularni bir-birlari bilan qiyoslashdan iborat.

Ta'limiy vaziyat o'qituvchi tomonidan quyidagi tarzda tashkil qilinadi: kerakli material va ta'limiy ob'ekt ajratiladi, ular o'rtasidagi munosabatlar o'rganiladi, asosiy tushunchalar tanlanadi. Tadqiqotning umumiy ob'ekti, uning ma'nosini izlash,

faoliyatning yangi usullari hamda turlarini izlash zarurati evristik vaziyatning asosi bo‘lishi mumkin.

Evristik faoliyatni texnologiyalashtirish bolalarning ijodiy qobiliyati qanday bo‘lsa shu qadar zaruriy va qonuniy jarayondir.

Yagona o‘quv mashg‘uloti, o‘quv kursi bo‘yicha tizimli mashg‘ulotlar, evristik yo‘naltirilgan faoliyat asosida sodir bo‘ladi.

Evristik vaziyatlar yaratish va rivojlantirish bo‘yicha texnologik harakat-bolalar ijodkorligi natijalarini ta’minlash yo‘lidir. Quyida evristik vaziyatlar tayyorlash va o‘tkazish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun texnologik yo‘l-yo‘riqlar haqida fikr yuritamiz:

1. Izlanuvchi vaziyatning asosiy ta’limiy ob’ektini (narsa, tushuncha, hodisa, jarayon, an’ana, buyum va boshqalar). Bunda ob’ekt va bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan muammoni aniqlash; bolalarga ularning o‘rganilayotgan ob’ekt bilan shaxsiy ichki aloqasini topishga yordam berish, ular uchun shaxsan ahamiyatli muammolarni qanday tayyorlash bo‘yicha o‘ylashga yo‘naltiradi. Buning uchun shaxsiy tajriba va o‘quvchilarning qo‘yiladigan ta’limiy natijalari taxminlanadi.

2. Bolalarga yechimi noma’lum bo‘lgan muammo yoki topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqni amalga oshirish sinfda ta’limiy ko‘tarinkilik hamda o‘quvchilar topshiriqni bajarish orqali o‘zlarining faolligini namoyon etgandagina samarali bo‘ladi.

Topshiriqning ta’riflanishi muammoni jamoa bo‘lib muhokama qilishning natijasi bo‘lishi mumkin. Bolalar tomonidan ta’riflangan topshiriq shunchaki qiziqarli emas, balki o‘qituvchi uchun yangilik bo‘lsagina maqsadga erishilgan bo‘ladi.

3. O‘quvchining o‘zi paydo bo‘lgan yoki yaratilgan vaziyat (topshiriq)ni shaxsan hal etishga imkoniyat yaratish. Evristik vaziyatning asosiy bosqichi sanaladi. Bunda har qanday ta’lim natijasidan ijod belgisini aniqlash lozim.

4. o‘quvchilarning ta’limiy ijod namunalarining namoyish etish: she’rlar, rivoyatlar, topshiriqlar, ta’riflar, ramzlar,

rasmlar, loyihalar va shu kabilarni jamoaga muhokama etib, ko‘rgazmalar tashkil etish, o‘zaro yozma taqrizlar yozdirish, ma’ruzalar bilan chiqishlar qilish.

5. Ta’limiy ijod namunalari namoyish etilgandan keyin rasmlar, rivoyatlar, ta’riflar, olimlarning fikrlari, darsliklaridagi ma’lumotlar, shaxsiy bilim va tasavvurlari bilan asoslay olish.

6. Bolalarning ijod namunalarini qiyoslash, solishtirish, tasniflash bo‘yicha faoliyatini tashkil etish. O‘quvchilar tomonidan o‘z qarashlari yoki ijod namunalarini aniqlash hollari yuz bersa, ularga o‘z nuqtai nazarlarining o‘zgarish sababalrini tushunishlarida ko‘maklashiladi. Ta’limiy vaziyatlarning rivojlanishi ta’minlanadi.

7. O‘quvchilarning bilishga oid qo‘llanilgan usullarni, paydo bo‘lgan muammo va uni yechish yo‘llarini tushunishi bo‘yicha fikr yuritish, tahlil etish. O‘quvchilarga individual tarzda erishgan natijalarini aniqlashda ko‘maklashishi. Jamoa bo‘lib yaratilgan ta’limiy natijalarini aniqlash.

Izlanuvchi ta’limiy vaziyatlarning davomiyligi o‘zgarib turadi, ular o‘zaro aloqadagi vaziyatlar zanjiri ham bo‘lishi mumkin. Izlanuvchi vaziyatlar tamoyillarida izlanuvchi ta’limni tashkil etish darajasi:

Boshlang‘ich ta’lim dasturlari, o‘qitilayotgan o‘quv predmetlarining tahliliy natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1-4-sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatiga yo‘naltirilgan o‘quv materiallarini to‘g‘ridan to‘g‘ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo‘lsa-da, mahoratli o‘qituvchi o‘z faoliyatini o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin.

Og‘zaki so‘rash;

yozma ishlar o‘tkazish;

amaliy ishlarni bajarish;

turli didaktik o‘yinlar o‘tkazish orqali o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin.

Masalan, boshlang‘ich sinflarning “matematika” darsida bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish uchun o‘quv

materiallarida berilgan tushunchalar konkret – induktiv metod vositasida oʻrganilishi va oʻqituvchining mohirona darsni tashkil qilishi natijasida ularda ijodiy faolllikning oshishiga zamin yaratilishi mumkin. Bunda oʻquvchilar avval oʻqituvchining topshiriqlarini bajargan holda oʻrganilayotgan tushunchaning umumiy xossalarini aniqlaydilar, soʻngra oʻqituvchi rahbarligida taʼrifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar. Yangi tushuncha kiritishning bu yoʻli ayniqsa quyi sinflarda oʻz samarasini beradi. Bundan tashqari konkret induktiv yoʻl orqali tushunchalarni kiritish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil boʻladi, buning natijasida oʻquvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Tahlillardan koʻrinib turibdiki, oʻquvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish turli-tuman uslublar orqali amalga oshirish mumkinligi dasturlarda belgilangan. Ammo umumiy oʻrta taʼlim maktablaridagi tadqiqot doirasidagi mavjud ahvol oʻrganilganda, maktab oʻqituvchilari har doim ham mazkur metodlardan toʻlaqonli foydalanishmayapti.

Maktablardagi mavjud ahvol oʻrganilganda, ilgʻor oʻqituvchilar oʻzlarining oʻquv-uslubiy ishlarida zamonaviy metodlar orqali oʻquvchilarda ijodiy faollikni shakllantirishga harakat qilishadi, biroq ularning harakatlarida har doim ham yetarlicha oʻquvchi shaxsini ijtimoiylashtirishga, unda erkin fikrlash qobiliyatlarini oʻstirishga, quyilgan masala yechimini ijodiy topishga undash motivi kuzatilmaydi.

Maʼlumki, oʻqish orqali bilishga pedagoglar eshitishni, koʻrish, motor-harakat, sezish organlarini, baʼzida esa hid sezishni ham ishtirok ettirib, oʻquvchilarni obʼektiv reallikni bilishga jalb kiladilar, bunda jonli mushohada, abstrakt tafakkur va amaliyot uzviy qoʻshilib ketadi. SHuning uchun ham oʻqish jarayoni bevosita yoki bavosita shaklida taʼlim vositalari va pedagogik imkoniyatlar orqali sodir boʻladigan oʻziga xos jarayon hisoblanadi. Demak, oʻquvchilarning oʻquv faoliyati metodlarini ham oʻqitishning oʻziga xos sharoitlarida qoʻllaniladigan bilish metodlarining turidir, deb hisoblashga hamma asoslar bor.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirishning psixologik - pedagogik asoslari

O‘quv faoliyati metodlarini bilish metodlari bilan qiyoslashdagi o‘ziga xos xususiyat shundan iboratki, o‘qitish jarayonida yangi ilmiy haqiqatni kashf qilish emas, balki olgan bilimlarini ijodiy o‘zlashtirish vazifasi hal qilinadi. O‘qitish davomida yangi bilimlarni egallash uchun umumiy bilishga xarakterli bo‘lgan sinab ko‘rish va xato qilishni deyarli mustasno etadigan ancha "yengillashtirilgan" sharoitlar mavjuddir. Shuning uchun ham o‘quv faoliyati metodlari bilish operatsiyalari bilan qo‘shib olib boriladigan o‘quv jarayoni sharoitlari uchun moslashtirilgan. O‘quv faoliyati metodlarni hosil qilish uchun ko‘plab yillar sarflangan o‘quv axborotini bilishga qisqaroq yo‘lni topib beradi. Ular o‘quvchilarning yosh xususiyatiga bevosita holda bog‘liq bo‘ladi. O‘quv faoliyati metodlarining o‘ziga xos xususiyati mana shunda ham namoyon bo‘ladi.

Dars berish metodlari o‘rganish metodlarini, o‘qish-bilish faoliyatining jarayonini faollashtirishga yo‘llab, uni kuchaytiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faollikka undash davomida o‘qituvchi:

1. O‘quvchilarni obrazli fikrlashga undashi;

2.Aniq muammoni burro ifodalashi;

3. Fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg‘u berib ajratgan holda ifoda etishi;

4. Xushmuomalali va ziyrak bo‘lishi;

5. Qo‘yidagi so‘z birikmalaridan foydalanishi: «faraz qiling”, “tasavvur eting”, “ijodiy parvoz eting ...” va shu kabilar.

6. Ko‘rish kontakti (bog‘lanishi)ni saqlashga harakat qilishi-tinglovchilarga qarashga harakat qilish (har bir qatnashchiga 3 sekunddan);

7. Har bir javob va taklifni doimo rag‘batlanirishi maqsadga muvofiq.

O‘qitishda muammoli ta’limdan foydalanish ham, ijodiy faoliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O‘quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o‘quvchilarni ijodiy fikr “laboratoriyasi”ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir. Muammoli ta’lim shu jihatdan bir qancha afzalliklarga ega:

1.U o‘quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o‘rgatadi.

2. U o‘quv materialini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e’tiqodga aylanishiga ko‘maklashadi.

3. U odatda, ancha ta’sirchan bo‘lib, chuqur intellektual his-tuyg‘ular, shu jumladan ko‘tarinki ruh, hissini o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch tuyg‘usini vujudga keltiradi, shuning uchun u o‘quvchilarni qiziqtiradi, o‘quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi.

4.Haqiqat qonuniyatining mustaqil “kashf etilishi” olingan bilimlarni unutmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tezda qayta tiklash mumkin.

Muammoli ta’limning asosiy maqsadi- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichi talablari asosida bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o‘zlashtirish natijasida bilimlarni amaliyotga tadbiq etilishini kuchaytirishdan iborat.

Demak, muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo‘li bilan egallanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi muammoli ta’lim deyiladi.

Muammoli ta’lim quyidagilarda ko‘rinadi:

1.Muammo

2.Muammoli savol

3.Muammoli vazifa

4.Muammoli topshiriq

5.Muammoli vaziyat.

Muammoning o‘zi yunoncha “problem” so‘zidan olingan bo‘lib, vazifa, topshiriq degan ma’nolarni anglatadi.

Muammoli vaziyat-sub’ektning psixologik holatini ifodalab, muammo bilan duch kelganda, aqliy qiyinchilikni paydo bo‘lishi zudlik bilan hal qilishiga halaqit beradigan yangi bilim va harakat usullarini izlash, ularni topib hosil bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta’minlaydi. Bu esa muammoga psixologik jihatdan yondashishni talab etadi.

Ta’limda darsni to‘g‘ri va samarali tashkil etilishi albatta, o‘quvchilar bilim olishiga ta’sir etadi. Ijodiy faoliyatni

rivojlantirishda muhim masalalardan yana biri o‘qituvchining darsning texnologik jihatdan to‘g‘ri loyihalashga borib taqaladi. Interfaol metodlarni qaysi bosqichda qanday qo‘llash darsni loyihalash vaqtidan boshlanadi. Loyihalash quyidagi bosqichlarda amalga oshadi.

I – diqqatni jamlash bosqichi

II- tinglash bosqichi

III- fikrlash bosqichi

Bu bosqichlar interfaol metodlarni to‘g‘ri, o‘z o‘rnida qo‘llash hamda dars camaradorligini oshirishga yordam beradi.

Diqqatni jamlash bosqichi: bunda o‘qituvchi bolalarning yangi mavzuga oid dastlabki tushunchalarni aniqlaydi.

Maqsadi:

-dastlabki tushunchalar aniq, erkin namoyon qilish;

-o‘z fikrini ifodalay olish;

-darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish kabilardan iborat;

Anglash bosqichi:

bunda o‘qituvchi o‘quvchilardan olgan dastlabki tushunchalariga qo‘shimcha ta’limotlarni jamlab yangi bilim bilan boyitadi. ya’ni o‘quvchining bilgan va bilmagan ma’lumoti to‘ldiriladi.

Aniqlash bosqichining maqsadi:

-dastlabki tushunchalardan kelib chiqib, o‘quvchi anglash yangi bilimlar bilan to‘ldirish:

- o‘quvchilar qiziqishini orttirish;

- tahlil qilishga- taqqoslashga o‘rgatish;

-yangi darsni bayon etish

Fikrlash bosqichi:

bu bosqich darsni mustahkamlash qismiga to‘g‘ri keladi. Unda o‘quvchilar dastlabki tushuncha va ma’lumotlarni tahlil qilib fikrladilar, bilimlarini mustahkamlaydilar. O‘quvchilar o‘tilgan dars, mavzu haqida munosabatlarini bildiradilar.

To‘g‘ri tashkil etilgan dars o‘z samarasini beradi, albatta. Ammo har bir bosqichda qo‘llaniladigan metodlarni chuqurroq o‘rganmay turib, dars samaradorligini oshirib bo‘lmaydi.

Ta’lim standartlari va me’yorlari va an’anaviy ravishda ta’lim natijalarini baholash uchun foydalaniladi. O‘quvchining natijalari

standartga qanchalik yaqin bo‘lsa, uning o‘quv faoliyati shunchalik yuqori baholanadi. O‘quvchi tomonidan haqiqiy egallangan va yaratilgan bilimlar hajmi to‘la darajada nazorat qilinmaydi, chunki o‘quvchilarning standart doirasidan tashqaridagi shaxsiy bilim yoki boshqa natijalari an’anaviy maktab nazaridan chetda qolib keladi.

Ijodkorlikda o‘quv natijalarini baholashga yondashuv o‘zgacha. Tashqi berilgan natijalarga erishilganlik darajasi emas, balki ko‘pincha undan chetga chiqishlar tekshiriladi. Ijodkorlikni baholashda o‘quvchilar ta’limiy natijalarining asosiy parametri-standartlarning minimum talablariga mos kelishi emas balki o‘quvchining shaxsan ta’limiy o‘sish darajasidir.

An’anaviy ta’limda o‘quvchi ta’lim mazmunini saralashda amalda ishtirok etmaydi. Ijodkorlik faoliyatida esa ta’limda o‘quvchi ta’limiy samarasi ta’limning yangi mazmunini saralashda ishtirok etadi; bilimning hajmi,malakasi, faoliyat turlari hamda o‘quvchining foydalaniladigan usullari cheklanmagan bo‘ladi.

O‘quvchilarga beriladigan ta’lim standarti ko‘pincha o‘quvchi shaxsiga, uning haqiqiy ta’limiy faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan materiallarni ham vujudga keltiradiki, bu tayyor insholar, referatlar va boshqa yozma manbalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ta’lim mahsulining bunday turini ta’limning maktab tizimi taqozo qiladi. Kompyuter texnologiyasi bu jarayoni yanada qulay va variativ qilib qo‘ymoqda. Tayyor kontrol ishlar, referatlar hamda shu kabi internet tarmog‘iga joylashtirilgan materiallarning muttasil ko‘payib borayotgan to‘plamlari o‘quvchilarga tayyorgarlik ko‘rmay hamda zarur ishlarni bajarmay turib imtihonlar topshirishlarini osonlashtirmoqda.

Ta’lim standartlarini tuzishda ijodiy yondashuv kurs yoki mavzuning o‘rganish natijasi sifatida tayyor fan mazmunini bermaydi, biroq o‘quvchidan yangi mazmunni, ya’ni uning shaxsan ta’limiy o‘sishini talab qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli

vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlar va o`yinlardan foydalanish

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda evristik va muammoli ta’limdan tashqari bilishga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan ta’lim metodlaridan va o`yindan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Boshlang‘ich ta’limda ishbop, rolli, syujetli o‘yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy-ijodiy izlanishlarga yo‘llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o‘z samarasini berdi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolar qo‘yish va ularni yechish darslari; ishtirokchilik darslari, modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, ijod qilish, kichik kashfiyotlar yaratish, insholar yozish, solnomalar tuzish, ishbop o‘yinlardan, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samarali bo‘ldi. ta’lim jarayonida dars shakllarining o‘yin usullari sifatida o‘qitishning ma’lum bir paytida o‘tkaziladi.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi kattalarning xatti-harakatini taqlid qilishga qiziqadi. Bunda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan ishbop o‘yinlardan foydalanish kata ahamiyat kasb etadi. Bolalarga mo‘ljallangan ishbop o‘yinlar takrorlash, mustahkamlash, o‘tilganlarning qay darajada o‘rganilganligini (diktantlar, musobaqalar, krossvordlar, sirtqi sayohatlar rolli o‘yinlar, dramatik sahnalar tarzida) aniqlash maqsadida o‘tkaziladi

Ishbop o‘yinlarni hayotiy vazifalarni imitatsiya va modellashtirish asosida tashkil etish samarali natijalarga olib keladi. Bunday o‘yinlar faqat bilishga oid bo‘lmay, dunyoqarashni kengaytirish, hamda hissiy ta’sir etishi bilan ham xarakterlidir.

Masalan, boshlang‘ich ta’limda “Nima uchun?”, «T-chizma», “FSMU”, “Tarmoq (Klaster)”, “Ikki qismlik kundalik” kabi innovatsion metodlardan foydalanganda o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga bevosita yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o‘quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional–xissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi.

O‘yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o‘rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. XIX asrning oxirida nemis olimi K. Gross o‘yinlarni tizimli o‘rganishga xarakat qilgan bo‘lsa, nemis psixologi K.Byuller o‘yinlarni “qoniqish hosil qiluvchi” faoliyat sifatida tadqiq etadi.[13;89]

L.S. Vigotskiy, A. N. Leont’evlar fikricha, o‘yinlarni nazariy jixatdan ijtimoy tabiatiga ko‘ra ma’lum faoliyatiga yo‘naltirilganligi bilan bog‘lab, tadqiq etgan bo‘lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o‘yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta’limdagi axamiyatliligidir. O‘yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O‘yinlarning eng muhim jihati uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo‘lib, uning dramatik san’atga ham mosligidir. Bir tamondan o‘yin ishtirokchilari uni amalgam oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog‘liq xaqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o‘yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma’suliyatni his etgan holda xaqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar.

Demak, o‘yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi.O‘yin faoliyati elimentlaridan ta’lim jarayonida keng foydalaniladi.Ular ishbop oyinlar, dedaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, kompyuter o‘yinlari shular jumlasidandir.

Ishbop o‘yinlar kasb faoliyati predmeti yoki ijtimoiy mazmunini qaytadan yaratish shakli bo‘lib, amaliyotning ana shu turiga xos munosabatlar tizimini modellashtirishdir.

Ishbop o‘yinlarni o‘tkazishda uning qatnashuvchilari faoliyatini maxsus (o‘yin tarzida) imitatsiya modelida rivojlantirishdan iboratdir. O‘yinlarning xarakteriga ko‘ra o‘quv jarayoni o‘yinlari tadqiqotchilik o‘yinlari, boshqaruv va attestatsiyaga doir o‘yinlar turiga bo‘linadi.O‘quv jarayoniga doir o‘yinlar o‘quv predmetlar bo‘yicha istiqbolda kasbiy faoliyatini

to‘g‘ri tashkil etish va shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirishga shart-sharoitlar yaratadi. Ana shu shart-sharoitlar natijasida olingan yangi bilimlar kelgusi kasbiy faoliyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Ma’lumki, ta’lim hamkorlikka asoslanib, jamoaviy xarakter kasb etadi; kasbga xos faoliyat qoidalari va jamoaning ijtimoiy qoidalariga mos xolda amalga oshadi. Ana shu ma’noda ta’limning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati o‘zaro birlashib, o‘yin faoliyati shaklida o‘quvchilarning faolligi ortadi. Ishbop o‘yinlarda tavsiya etilgan muammoli topshiriq maqsadga muvofiq dialogik muloqot asosida ishtirokchilarni rag‘batlantiradi, qiziqishlarini orttiradi, emotsional ruh paydo qiladi.

Didaktik o‘yinlar ta’limiy maqsadlarni amalga oshiradigan va ularga moslashtirilgan bo‘ladi.didaktik o‘yinlar tizimidan birinchi marta maktabgacha jarayonida foydalanishga doir F.Fribil va M.Montisorilar ishlab chiqqan bo‘lsa, boshlang‘ich ta’lim uchun O. Dikroli tadqiqotlar olib borgan. 60-70 yillardan boshlab faqat boshlang‘ich ta’limda emas, umumiy o‘rta ta’limda ham foydalanila boshladi. 80-yillarda ayniqsa, ishbop o‘yinlar keng tarqala boshlandi.

Ishbop o‘yinlarning asosiy xususiyati o‘yin rejasining o‘quv maqsadiga yo‘nalganligidadir. Chunki o‘quv maqsadi o‘yin vazifalari doirasida etiladi.

Demak, o‘yinlar bolalarning asosiy faoliyat turi bo‘lib, u orqali kichik maktab yoshdagi o‘quvchilar hayotni, borliqni, tevarak- atrofni o‘rganadilar va unga moslashadilar.O‘yin paydo bo‘lishi uchun quydagilar muhim sanaladi:

-o‘yin ishtirokchilari bilan bo‘lgan muloqatdan qoniqish hissining paydo bo‘lishi;

-tabiiylik, emotsional hissiyotning vujudga kelishi;

-o‘yin davomida o‘yuvchilarning o‘zining tabiiy extiyojlarini qondirishga harakat qilishi va hokazolardir.

Ijtimoiy- psixologik ahamiyati jihatidan o‘yinlar asosan ikkita vazifani bajaradi;

-ma’lum ijtimoiy bilimlarni egallash;

-zarur ijtimoiy qoidalarni shakllantirish.

Shuningdek, muammo nuqtai nazardan yondashganda, o‘yinlar o‘quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning ijodiy qobilyatini o‘stiradi.

Ma’lumki, bolalar o‘yining sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.Bunda onglilik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlar ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turli ijtimoiy- psixologik tavsifga ega o‘yinlargan o‘quv jarayonida foydalanish, shak-shubhasiz o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Aynan faol o‘qitish metodlari ham ana shunday o‘yinlarga tayanilgan xolda tashkil etiladi. Har bir o‘yin bir necha daqiqadan tortib, undan ko‘proq vaqt davom etishi mumkin va unda ikkita boladan tortib to o‘n o‘quvchigacha ishtirok etadi.

Masalan, “ishbop o‘yinlar” yoki “boshqaruv” deb yuritiluvchi o‘yinlar bilim va ko‘nikma hosil qilishga qaratilgan bo‘ladi.

Mazkur o‘yinlarning nazariy va amaliy jihatdan mohiyatini bir qator olimlar YA.M.Belchikov, M.M.Birshteyn, V.N. Burkov, YU.V.Geronimus, V.YA.Platov, B.Qodirov, V.M.Karimova, R.Sunnatova, Z.Nishonova va boshqalar o‘z tadqiqotlarida bayon qilib o‘tganlar. Ular o‘z ilmiy ishlarida guruh sharoitida zamonaviy o‘qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari ustida fikr yuritar ekan, xususan, “Ishbilamonlik” o‘yinlarini o‘tkazish metodikasiga doir bir qator qimmatli fikrlarni bildirdilar. “Ishbop” o‘yinlarni faol o‘qitish metodlaridagi o‘rnini (ayniqsa kichik maktab yoshidagilar uchun) yaqqol tasavvur etish uchun metodlar majmuini keltirib o‘tamiz.

Faol o‘qitish metodlarining oddiy klassifikatsiyasini rus olimi N.N.Kozlenko quyidagicha tavsiflaydi:

“Faol o‘qitish metodlariga” “Ishbilamonlik” o‘yinlaridan tashqari real vaziyatlarni tahlil qilish va rolli o‘yinlarni takomillashtirish jarayoni kiradi”.

V.M.Karimovaning ta’kidlashicha, “faol o‘qitish metodlariga, eng avvalo, bahs, munozara yo‘li bilan va malakalar hosil qilish tushuniladi...”.[12;87]

V.YA.Platov faol o‘qitish metodlari quyidagi real vaziyatli o‘yinlardan iborat, deb ta’kidlaydi:

1.Rolli o‘yinlar

2.Immitativ o‘yinlar

3.Faoliyatga qaratilgan tashkiliy o‘yinlar

4. “Ishbilarmonlik” o‘yinlari

V.YA.Platov fikricha “Ishbop” yoki “boshqaruv” deb ataluvchi o‘yinlarning quyidagi asosiy qirralari mavjud:

1. Obyekt modelining mavjudligi
2. Rollar mavjudligi
3. Qaror qilish jarayonida rolli maqsadlarning tafovuti
4. U yoki bu rollarni bajaruvchi ishtirokchilarning bir-biriga ta’siri.

Rolli o‘yinlarda eng avvalo, ishtirokchi shaxs sifatida o‘zligini namoyon qila boshlaydi.

Faol o‘qitish metodlari tarkibiga kiruvchi imitatsion o‘yinlar qatoriga boshqaruv o‘yinlarini yoki rollarni taqsimlash vaziyatlarini kiritish mumkin.

“Ishbilarmonlik o‘yinlar” mutaxassislarni o‘qitishda va ularning kasbiy sifatlarini takomillashuviga xizmat qiladi.

“Ishbop o‘yinlar”- faol o‘qitish metodlaridan bo‘lib, u real o‘rganilayotgan ob’etni to‘g‘ri anglash maqsadida tahsil oluvchining u yoki bu vaziyatni o‘yin holida talqin qilishga qaratilgan usuldir.

Ishbilarmonlik o‘yinlar keng tarqalgan o‘yin metodlaridan bo‘lib, ular mohiyati jihatdan ma’lum obrazlarga kirish, o‘sha obrazga xos bo‘lgan hissiyotlarni o‘z boshidan kechirishni taqozo etadi. SHunday qilib ishbilarmonlik o‘yinlari qo‘llash sohalari nihoyatda ko‘p. O‘quv maqsadlarida kompyuterdan foydalangan holda qo‘llaniladigan ishbilarmonlik o‘yinlari o‘quvchilarning hayotida to‘g‘ri mavqega ega bo‘lishlari, o‘zi istagan, orzu qilgan hayotiy vaziyatlarni yaratishga o‘rgatadi va undaydi, eng asosiysi ishlab chiqarish jarayonida o‘zini erkin muloqotga oson kirishuvchi shaxs, bilimdon mutaxassis sifatida namoyon qilishga zamin yaratadi. Ishbilarmonlik o‘yinlarining tuzilishi.

1 –bosqich

Tayyorlanish bosqichida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har xil holatli masalalarni yechishning nazariy asoslarini o‘rganadilar. Ob’ekt sifatida o‘yin modeli, o‘yin holatlari

ishtirokchilari majburiyatlari, o‘yin o‘tkazish tartib va qoidalar hamda o‘quvchilari bilimini baholash tizimi bilan tanishiladi. Ko‘rgazmali qurollar, kerakli ko‘rsatmali materiallar dars uchun tayyorlanadi. Ayrim masalalar mustaqil o‘rganiladi.

2- bosqich.

Kirish qismi. Ishbop o‘yinida guruhlar tashkil qilinadi, liderlar tanlanadi, ishtirokchilarga rollar taqsimlanadi. Xodimlar tanlashda qatnashchilar anketa so‘rovi yordamida aniqlanadi. Lavozimlarga tayinlashda buyruq loyihasi ko‘rib chiqilib va yuqoridan tasdiqlanadi. Rol taqsimoti qatnashchilarning shaxsiy jihatlaridan va solohiyatidan kelib chiqqan holda eksperiment usuli yordamida belgilanishi mumkin. Bu bilan qatnashchilarning shaxsiy jihatlari va salohiyatlari belgilangan rollarga mos kelib o‘yin yuqori darajada o‘tadi.

3-bosqich.

O‘yin jadvalini amalga oshirish, bir tomondan barcha guruhlarni bir xil yuklamalar bilan ta’minlab, ikkinchi tomondan vazifalarni taqsimlab qvrorlar qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va ularning guruhlarida muhokama qilish ishlari olib boriladi.

4 -bosqich.

Xulosa chiqarish bosqichi, o‘yin natijalarini tahlili rahbar tomonidan yoki ishtirokchilar tomonidan olib boriladi. Ishtirokchilar tomonidan baholash jarayoni olib borilganda erkin suhbat shaklida o‘tkazilib, o‘qituvchi tahlil yo‘nalishini boshqarib va tuzatishlar kiritib turadi. Ishbilarmonlik o‘yinlarining g‘oliblari e’lon qilinadi.

Qabul qilingan boshqaruv qarorlarining asosiy jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatiladi, bunda katta iqtisodiy samara beradigan, qabul qilingan, muhim qarorlar alohida ta’kidlanadi. O‘yin guruhlari rahbarlarining tavakkal qilishdan ishbilarmonligi guruh umumiy balini belgilashda hisobga olinadi hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha maslahatlar beriladi. Ishbilamonlik o‘yinidan olingan natijalar bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha maslahatlar taklif qilinadi.

Ishbop o‘yinlarining belgilari:

-boshqaruv obyekti va muhitning modeli va mavjudligi.

-rollarning mavjudligi.

-qaror qabul qilishda rollarning faoliyat maqsadlarining farqliligi.

-ishtirokchilarning o‘zaro munosabati.

-umumiy maqsadning mavjudligi.

-jamoa bo‘lib qarorlar ishlab chiqish.

-o‘yin davomida qarorlar tizimini tadbiq qilish.

-qarorlarning ko‘p variantliligi.

-hissiy zo‘riqishni boshqarish.

-o‘yin ishtirokchilarini jamoa tomonidan alohida baholash.

Intellektual-ijodiy o‘yinlar ham ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinda shaxsining kommunikativ sifatlashni rivojlantirish intellektual savodxonligi, ziyrakligi, qarorlar qabul qilishda ta’lim zukkolikni rivojlantirish, xalq ijodkorligiga oid bilimlarga ega bo‘lishi, sinfdagi salohiyatli o‘quvchilarni aniqlash va ularni rag‘batlantirishga oid maqsad va vazifalar qo‘yiladi.

Teleo‘yinlarda namoyish etiladigan “O‘yla, izla, top”, “Oltin toj” kabilar shular jumlasidandir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning intellektual darajasini rivojlantirish uchun sinfda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda shunday o‘yinlarni tashkil qilish mumkin. O‘yin yetti turda o‘tkazilishi mumkin. Har bir turda o‘quvchilar bilimi ballar asosida baholanib boradi. Musobaqa sakkiztadan ikki guruh o‘quvchi kiritiladi. Birinchi turga 5 ball, ikkinchi turga 10 ball, uchinchi turga 15 ball va hokazo tarzda baholanadi. O‘ylash uchun har bir savolga 2-3 sekund vaqt ajratiladi. Noto‘g‘ri javob berilsa, kuzatuvchi o‘quvchilar javob beradilar. Har bir to‘g‘ri javob bali uchun shu ball yozilgan jeton topshiriladi. To‘rtinchi turdan so‘ng musiqali tanaffus tashkil etish mumkin.

Mazkur o‘yin bir tomondan o‘quchilarning bilimini namoyon qilib, uning intellektual salohiyatini aniqlashga yordam bersa, ikkinchi tomondan guruhlarning jamoa bo‘lib birlashishi, aqliy tafakkurning shakllanishi, axloqiy xulq atvorining tarkib topishiga yo‘llaydi. Zero, o‘quvchi intellekti individning ilmiy salohiyatining rivojlanishiga asos bo‘ladi va uning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Ta’limda rolli o‘yinlar keng tarqalgan o‘yin metodlari bo‘lib, ular mohiyat jihatdan ma’lum obrazlarga kirish, o‘sha obrazga xos bo‘lgan hissiyotlarni o‘z boshidan kechirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham nemis olimi va mutaxassisi Margaret Forvert rolli o‘yinlarning 3 asosiy jihatini aniqlaydi:

-o‘yinning emotsional jihatdan mukammalligi;

-unda immitatsiya hodisalarining rivojlanganligi;

-boshlovchining alohida, o‘ziga xos mavqega ega ekanligi

Rolli o‘yinlarning korreksion va amaliy ahamiyati shundaki, ularda har bir shaxs, bizning holatda kichik maktab yoshidagi o‘quvchi o‘z real faoliyatiga yaqin bo‘lgan vaziyatlarga tushuriladi va shu orqali uning yo‘nalishi o‘zgartiriladi. Bunda o‘yin ishtirokchisining o‘sha vaziyatni hissiy boshidan kechira olishi katta ahamiyatga ega. Rolga kirishishda esa quyidagi talablar mavjul:

a) kitob tilida gapirmaslik;

b) muloqotning barcha sirlaridan foydalanish;

v) ovoz xususiyatlariga muntazam e’tibor berish. Bu esa intonatsiyalar, tovushlarning past-balandligi, ovozning emotsionalligi rolni aniqroq idrok qilishga imkon beradi;

g) mimika va pantamimika elementlarini keng qo‘llash;

d) har bir holatni jonlantira olish;

e) vaqt va fazoni doimo tushunib, his qilib turish;

j) boshlovchining rolga kirganlar holatlarini aniq tushunishi va ularga mos baho berib turishi.

Rolli o‘yinlarda eng avvalo boshlang‘ich sinf o‘quvchisi sifatida o‘zligini namoyon qila boshlaydi.

Rolli o‘yinlar jarayonida asosiy shaxslardan biri boshlovchidan keyin ijtimoiy psixologik vaziyatlarning markazida turgan shaxsdir. Uning ijtimoiy-psixologik vaziyatdagi muammo hamda ziddiyatlarni hal qilishdagi roli kattadir, chunki u aynan voqealarning markazida turadi. Unga o‘z rolining barcha jihatlarini har tomonlama namoyon qilish huquqi beriladi, asosiy muammoni hal etuvchi va boshqalarni o‘ziga ergashtiruvchi shaxs sanaladi.

Rollar o‘ynab bo‘linganidan so‘ng uning muhokamasi boshlanadi. Unda barcha guruh a’zolari ishtirok etadilar va

ularning har biri o‘zi turli rollarga kira olishini sinab ko‘radi, ya’ni bunda har bir shaxsning o‘zidagi va boshqalardagi ko‘rsatmalarni his qilishiga imkoniyat tug‘iladi.

Rolli o‘yinlarda “rejissyor” rolidagi boshqaruvchi shaxsining ham roli katta. U ham o‘yinni “sahnaga qo‘yuvchi”, ham psixoanalitik rolini o‘ynaydi. Butun o‘yin davomida u harakatning muvofiqlashtiruvchisi, rollarni aniq obrazlarga, ya’ni ishtirokchilarga bo‘lib beruvchidir. U o‘zining boshqaruvchilik rolini ado etib bo‘lib, o‘quvchilarning ijtimoiy vaziyatni his qilishi va undan chiqish choralari yuzasidan ko‘rsatmalar berib boradi. O‘yinning har bir qismida rollarni almashtiruvchi tayinlovchi ham hisoblanadi.

Rolli o‘yinlardan kutilmagan samaraning ijobiy bo‘lishini ta’minlovchi bir qancha usullar mavjud. Masalan, ulardan biri “rollar almashtiruvchi” deb atalib o‘yinning har bir qismida rol ishtirokchilarining o‘yinlari almashtirilib turiladi. Masalan, birinchi ko‘rinishda qo‘shimcha personaj rolini o‘ynashini, bir ko‘rinishda o‘qituvchi rolidagi odam, keyin o‘quvchi bo‘lishi mumkin. Demak, o‘sha vaziyatdagi har bir personaj ichki dunyosiga kirish to‘la ma’noda o‘sha vaziyatni his qilishga va unga moslashishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan o‘quvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo bo‘lib qoldi. Zero, 1-4 sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olish, ta’limni samarali tashkil etishda darslarni noan’anaviy tarzda o‘tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish ularni har tomonlama yetuk bo‘lishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida

tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatda yashash har bir insondan ayniqsa, o‘quvchi-yoshlardan keng bilimlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Shunday ekan, voyaga yetayotgan yosh avlodni oilada va ta’lim-tarbiya muassasalarida ijodiy mushohada qilishga o‘rgatib borish zarur.

Ilmiy izlanish jarayonida uzluksiz, yaxlit, o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlovchi ta’lim to‘laqonli amalga oshmayotganligi sababli o‘quvchi-yoshlarning ijodiy faoliyat darajasi sust darajada rivojlanayotganligi aniqlandi. Ayrim paytlarda mustaqil mushohada yuritmaslik oqibatida ta’lim jarayonida muammolar yuzaga kelmoqda.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyati shaxsning shakllanishi bilan o‘zaro aloqada real pedagogik jarayonni vujudga keltiradi va bu jarayon turli ta’lim konsepsiyalari, nazariyalari yordamida loyihalashtirilishi va ta’lim muassasalarida tadbiq etilishi maqsadga muvofiq.

Savol va topshiriqlar

1. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdaona tilini o‘rgatishning ahamiyati.
2. Boshlang‘ich sinflarda qanday so‘z turkumlari o‘rganiladi? Ularni o‘rganishdagi izchillikni tushuntiring.
3. O‘quvchilarga otni tushuntirishda qanday usullardan foydalanasiz? Otga oid dars ishlanmasi yozing.
4. Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanilishi haqida ma’lumot bering
5. Boshlang‘ich sinflarda sifatni o‘rganishdan maqsad nima?
6. Boshlang‘ich sinflarda yasama sifatlarni o‘qitish uslubiyatini tushuntiring.
7. Boshlang‘ich sinfda sifat so‘z turkumi yuzasidan o‘quvchilarga qanday bilimlar beriladi va ular qanday izchillikda shakllantiriladi?
8. Sifatni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar nutqini o‘stirish yuzasidan qanday mashqlar o‘tkazasiz?

6-MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI TA’LIMIDA NUTQIY VA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI.

Reja:

1. Kompetensiyalarni shakllantirishga yo’naltirilgan ta’lim.
2. Nutqiy kompetensiyaning mazmun-mohiyati va elementlari.
3. Nutqiy kompetensiyalarini mustaqil ishlar orqali shakllantirish

Tayanch so‘zlar: *nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, Milliy o‘quv dasturi, tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish, mustaqil ish.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tilio‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X.Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.:TDPU, 2013. –70 b.

3.Икромова Р, Ғуломова Х, Йўлдошева Ш, Шодмонқулова Д, Она тили, 4-синф, -Т.: 2017.

4. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2017.

5. Фузалиев С, Худойберганова М, Йўлдошева, “Она тили”, 3-синф, -Т,: “Ўқитувчи”, 2018.

6. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2016.

7. Қосимова К, Фузалиев С, Неъматова А, “Она тили”, 2-синф, -Т,: “Чўлпон”, 2018.

8. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2015.

9. Ғаффорова Г, Шодмонов Й, Ғуломова Х , “Она тили”, 1 -синф, -Т,: “Шарқ”, 2019.

10. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 1-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2014.

11. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2015.

12. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2016.

13. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2017.

14. Ҳ.Бакиева, Н.Аҳмедова, Н.Азизова, Д.Носирова, Б.Тешабоева, У.Исмоилова, Б.Эгамбердиева “Саводга ўргатиш дарслари”.-Т.: “Эхтремум-пресс”, 2014. -119 б

15. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Yevaluation of Yeducational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019.

Axborot manbalari

1.http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

2.http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

3.http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

4.www.pedagog.uz

5.www.timssandpirls.bc.edu.

6. www. pedagog. uz

7. www. Ziyonet. uz

Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi sifatida “o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish, o‘quvchida grammatikaga oid

oʻzlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, soʻzning tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish, ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda toʻgʻri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat" ekanligi belgilangan.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantirdi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tayanch va fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning shakllantirilishi belgilab berilgan.

Kompetensiya –fan boʻyicha egallagan nazariy bilim, amaliy koʻnikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qoʻllay olishdir.

2020-yildan boshlab Milliy oʻquv dasturi loyihasi doirasida xalqaro tajriba hamda mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda, umumta'lim maktablari uchun 22 ta fandan, xususan, "Ona tili va oʻqish savodxonligi" fanidan zamonaviy ta'lim standartlari, oʻquv dasturlari hamda ilgʻor metodikalarni, baholash tizimini ishlab chiqish maqsad qilingan. Milliy oʻquv dasturi asosida 2020-2021-yildan boshlab umumta'lim maktablarida Ona tili va Oʻqish fanlarining birlashuvi natijasi "Ona tili va oʻqish savodxonligi" fani joriy etildi. Ikki fanning birlashuviga asosiy sabab ona tilini oʻqitishdagi yondashuvning oʻzgarishi boʻldi. Endilikda grammatika va yodlashga asoslangan ta'limdan tinglab tushunish, oʻqib tushunish,fikrni ogʻzaki va yozma bayon qilishdan iborat til oʻrgatishning 4k koʻnikmasini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim shakliga oʻtildi. Ona tili fani asosida oʻquvchida shakllantiriladigan koʻnikmalardan biri bu oʻqib tushunishdir. Natijada oʻquvchi

darslikda qoidalar oʻrniga koʻproq matnlar bilan ishlaydi va ularda oʻqib tushunish koʻnikmasi rivojlanadi. Oʻquvchida oʻqib tushunish koʻnikmasini Ona tili fani rivojlantirishi hisobiga oʻz-oʻzidan Oʻqish faniga zarurat qolmaydi. 2020-yildan boshlab Milliy oʻquv dasturi loyihasi doirasida xalqaro tajriba hamda mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda, umumta'lim maktablari uchun 22 ta fandan, xususan, "Ona tili va oʻqish savodxonligi" fanidan zamonaviy ta'lim standartlari, oʻquv dasturlari hamda ilgʻor metodikalarni, baholash tizimini ishlab chiqish maqsad qilingan.

Milliy oʻquv dasturi asosida 2020-2021-yildan boshlab umumta'lim maktablarida Ona tili vaOʻqish fanlarining birlashuvi natijasi "Ona tili va oʻqish savodxonligi" fani joriy etildi. Ikki fanning birlashuviga asosiy sabab ona tilini oʻqitishdagi yondashuvning oʻzgarishi boʻldi. Endilikda grammatika va yodlashga asoslangan ta'limdan tinglab tushunish, oʻqib tushunish,fikrni ogʻzaki va yozma bayon qilishdan iborat til oʻrgatishning 4K koʻnikmasini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim shakliga oʻtildi. Ona tili va oʻqish savodxonligi fanini oʻqitishda asosiy e'tibor oʻquvchida tilga doir toʻrt koʻnikma: oʻqib tushunish, tinglab tushunish, nutq soʻzlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim jarayonida oʻquvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga oʻrgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va oʻqish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. Oʻquvchilar daftarga yozishlari, chizishlari, boʻsh oʻrinlarni toʻldirishlari, oʻqib va tinglab tushunish, matn tuzish bilan bogʻliq topshiriqlarni bajarishlari hamda rasmlarni boʻyashlari mumkin. Amaldagi boshlangʻich sinf ona tili darsliklari asosida oʻquvchilardagi quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish koʻzda tutiladi.

Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid kommunikativ, innovatsion, kreativ yondashuvlarning asosiy omillaridan biri ogʻzaki va yozma nutqini adabiy til me'yorlari asosida rivojlantirish hisoblanadi. Bu jihat, oʻquv faoliyatining jamoaviy xususiyati va bilimlarni qat'iy

oʻzlashtirilishi natijasida, nutqiy koʻnikmalarga ega boʻlish, oʻquvchilarda tinglab tushunish, eshitish, soʻzlash, yozish koʻnikmalarining subyektiv munosabat bildirish bilan bogʻliq boʻlgan koʻnikma va malakalarni nazorat qilish, ta'lim oluvchining intilishlari va qobiliyatlari, uning hayotiy tajribalaridan chiqargan xulosalarni inobatga olish kabi nutqiy vaziyatlarda namoyon boʻladi. Ona tili darslarida oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish innovatsion metodlar asosida amalga oshirildi. Jumladan, ona tili darslarida innovatsion, interfaol ta'lim texnologiyalar ("Emotsional-ekspressiv boʻyoqdor soʻzlar ustida ishlash" metodi, "Onlayn topshiriq berish" metodi, "Savodxon" metodi, Grammatik-assotsiativ metod, va "Qiziqarli taqdimot", "Zukkolik", "Subyektiv munosabat", "Ma'nosiga izoh", "Bahs-munozara" oʻyinlari) tushunib soʻzlash, ifodali oʻqish, adabiy til me'yorlariga amal qilib yozma nutqini oʻstirish uchun samarali natijalar beradi.

Shuningdek ona tili darslarida:

- "Savodxon" metodi yordamida imloviy me'yorlarni aniqlashtirish;
- "Grammatik-assotsiativ metod" metodidan foydalanib oʻquvchilarni mavzu doirasida tilshunoslik asoslari boʻyicha grammatik qoidalar negizida matn turlarini tuzish va yozish;
- "Onlayn topshiriq berish" metodi vositasida masofaviy ta'limda lingvistik kompetensiyalar negizida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish;
- "Qiziqarli taqdimot" oʻyinini oʻtkazish orqali rasmiy matnning rekvizitlariga rioya qilib tuzish; bahs-munozara asosida davra suhbatini tashkil etish;
- "Ma'nosiga izoh" oʻyini yordamida oʻquvchilarning olib borilayotgan dars mashg„ulot doirasida soʻzlarning koʻchma ma'nolarini ogʻzaki va yozma nutqida foydalanish mumkin.

Darsliklarni oʻrganib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga asosli ravishda ona tili darslarida oʻquvchilarning erkin soʻzlash qobiliyatining toʻliq holatda rivojlanmagani, tinglovchi va soʻzlovchining nutqiy vaziyatlarda tilning turli sath birliklari, leksik, morfologik, sintaktik birliklarini qoʻllash mahorati, adabiy til

me’yorlariga muvofiq mustaqil matn tuzish va yozish ko‘nikmalariga etarli darajada ega emasligini inobatga olgan holda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun, ularda nutqning madaniyligini ta’minlovchi kommunikativ sifatlari nutqida ishlatishni mukammal o‘rganish lozim.

Nutqiy kompetensiyaning mazmun-mohiyati va elementlari

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish): -O‘qituvchi nutqini, videova audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi; mashq matnidagi so‘zlarni qo‘shibo‘qiy oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o‘qiy oladi, harflar birikmasi ishtirok etgan so‘zlarni o‘qiy oladi; so‘zda nechta tovush bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘lishini bir unli tovush bo‘g‘in hosil qilishini, ya’ni o-na, u-ka, a-ka kabi bo‘g‘inga bo‘la oladi, harflar birikmalari ishtirok etgan so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘la oladi, x va h tovushli so‘zlarni to‘g‘ri yoza oladi, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, mash’al, ma’qul, ta’lim, Jur’-at, ta’-zim kabi tutuq belgili so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lib yoza oladi, lug‘at, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasmli diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida ko‘chira oladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi turli vaziyatlarda o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, og‘zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo‘lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish ekanligi ko‘p bora ta’kidlanadi.

Demak, ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me’yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish; tilning keng imkoniyatlaridan unumli foyda-langan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni

shakllantirishga yo‘naltiriladi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ona tili ta’limining mazmuni o‘zgarmoqda. Biz yillar davomida ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarga grammatik qonun-qoidalarni, nazariy bilimlarni o‘rgatib keldik. Endilikda grammatika bilan bir qatorda o‘quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya’ni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish kabiamaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘proq e’tibor berishimiz lozim. Bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish) ni har bir darsda amaliy qo‘llash va o‘quvchida bunga nisbatan ko‘nikma shakllantirish darkor. Ana shu fikrlarning isboti sifatida umumta’lim muassasalarining 2-3-sinflari uchun 2022-yilda nashrdan chiqqan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligini keltirish mumkin. Avvalo, mazkur darsliklar hozirgi zamon bola psixologiyasiga mos ravishda tuzilgan: mashqlardan qonuniyat yaratilishiga e’tibor qaratilgan. O‘quvchi matn bilan tanishgach, o‘z fikr-mulohazalari asosida xulosaga olib kelingan va nazariy matn berilgan. Mavzularni kundalik hayotga yaqinlashtirish barobarida muomala madaniyati, odob-axloq me’yorlari, milliy qadriyatlarni ulug‘lovchi o‘zbekona dunyoqarash bilan uyg‘un matnlar berilgan. Masalan, 2-sinf darsligidagi “Oshxonamiz ramzi” audiomatni. Ushbu audiomatndan so‘ng o‘quvchilarning fikrlashga, o‘ylashga undovchi topshiriq berilgan. Bu orqali o‘quvchi eshitgan ma’lumotidan xulosani o‘zi chiqaradi.

“Chumolining jasorati” (3-mashq), Bu mashq orqali o‘quvchilarning o‘qib tushunish malakalari rivojlantiriladi. Bunda ular bir vaqtning o‘zida ham maqollarning mazmuni haqida, ham ulardan qaysi biri hikoya g‘oyasiga mosligi haqida fikr yuritadilar.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslari jarayonida o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda, o‘quvchilarning nutqini ostirish maqsadga muvofiqdir. O‘qish fanidan qiziqarli savol-topshiriqlar tuzish va o‘tiladigan mavzular bo‘yicha mustahkamlashdan iborat. Bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ularning fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishgan iborat .

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning har xil usullari va shakllarini topish va uni tadbiq etish ilimiy tadqiqotning ko‘zlangan asosiy maqsadidir.

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limning poydevori hisoblanadi. Shu boismamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. O‘qituvchilar darsda ilg‘or pedagogik texnologiyalar va o‘qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Har bir ta’lim muassasasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli o‘quv-metodik adabiyotlar, jumladan, elektron resurslarning katta zahirasi mavjud. Sifatli ta’limiy faoliyatni multimedia materiallari orqali tashkil etish an’anaviy uslublarga nisbatan afzalligini o‘qituvchilar anglab yetdi. Boshlang‘ich sinflarda ona Vatanga muhabbat va sadoqat, ona tilini o‘qitishda tilga hurmat, shu bilan birga o‘zbek tilining qanchalik boy til ekanligini anglash, o‘qish va orfografik til me’yorlariga amalqilishni dars jarayonida tadbiq etish lozim. Ona tili va O‘qish fanlarining qiziqarli o‘tishi, interaktiv metodlarning dars jarayonida foydalanishda kompetensiyaviy yondashish lozim. Ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetensiyalarning o‘ziga xos o‘rni muhim sanaladi. Mavzuga doir mashqlar topshirig‘ini mustaqil bajarish, mashq tarkibida gaplardan va matnlar mazmunidan to‘g‘ri xulosa chiqarish, tinglab tushunish orqali matndan anglashiladigan asl g‘oya mazmunini qayta hikoya qilish va adabiy til me’yorlariga asoslanib so‘zlab berishhamda yozish, o‘z nutqini og‘zaki va yozma shaklda erkin ifodalashi zaruriydir.

Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”,-deb e’tirof qilinishi ona tili o‘qitish metodikasi oldiga ta’lim jarayonining sub’ektlarini jahon yoshlari bilan raqobatlasha oladigan, turli informatsiyalarni tinglab tushunadigan, ma’lum fikrini ma’noli ifodalab, aniq, sermazmun so‘zlab yetkazadigan va diqqat bilan o‘qish qobiliyatlariga ega bo‘lgan hamda yozish

jarayonida orfografik qoidalarga amal qiladigan, turli ma'lumot va axborotlarni o'qib kerakli xulosani chiqaradigan, o'z pozitsiyasiga ega bo'lgan kuchli raqobatbardosh bilim egalari qilib tarbiyalashdek dolzarb va muhim vazifani qo'yadi.

Shuningdek, B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasida: "Ona tili mashg'ulotlari nutq san'atini egallash va undan samarali foydalanish bilim, ko'nikma va malakalarni tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat shakllanadi. Nutq madaniyati yoshlarga kundalik oddiy salomlashishidan kimga?, nimaga?, qachon?, qaerda?, qanday? so'zlashgacha bo'lgan muomala-muloqot sirlarini o'rgatadi; sharqona odob-andisha, go'zal qiroat san'ati qonuniyatlarini anglab borishda ham katta ahamiyat kasb etadi"[2], - deyiladi. Shunisi ayonki, ona tili darslarida eng asosiy vazifa – bu o'quvchilarning nutq madaniyatini, nutqiy ko'nikmalarini, mustaqil, ijodiy, mantiqiy fikrlashini o'stirish va turli nutqiy vaziyatlarlarda purma'no, o'rinli so'zlar ishlatib kommunikatsiyadagi ishtirok etishini rivojlantirishdir.

Professor Sh.Yusupovaning ta'kidlashicha, ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish bo'yicha "Sharhlash usuli"ni qo'llashdan turli maqsadlar ko'zlanishi nazarda tutiladi. "1.Sharhlash ona tili bo'yicha o'tilgan nazariy ma'lumotlarni idrok qilishga yordam beradi. 2.Sharhlash nazariy ma'lumotlarni amaliyotda qo'llashni bildiradi. 3.Og'zaki nutqni o'stirishga yordam beradi. 4.Orfoepik va orfografik normalar munosabatlarini muvofiqlashtiradi. 5.Butun dars jarayonida o'quvchilarda nazariy ma'lumotlar ta'kidlanadi". Metodist olima to'g'ri qayd etganidek, ona tili darslarida o'quvchilar nazariy ma'lumotlarni sharhlashi natijasida to'g'ri so'zlash, nutq texnikasiga muvofiq talaffuz qilish va adabiy til me'yorlariga amal qilib to'g'ri yozishdagi ko'nikma va malakalari, dars davomida o'rgangan bilimlarining amaliyotga tatbiq etish darajasi sinovdan o'tadi.

G'.Hamrayevning "Umumiy o'rta ta'lim tizimida fonetikaga doir o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida "Agar darsni tashkil etish, xususan, ona tili darslarida fonetika, orfoepiya, orfografiya

mavzularini o‘qitish o‘qituvchining ixtiyoriga to‘liq topshirib qo‘yilsa, o‘quvchilarning adabiy talaffuz hamda imloga oid ko‘nikmasi bir xil bo‘lmasligi muqarrar. Talaffuz va imlo qoidalari esa bir xillikni taqozo etadi. Shu ma’noda o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni avtomatlashtirish masalasi juda dolzarb bo‘lib qoladi” deyiladi. Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish asosan ona tili o‘qituvchisining darsni yuqori saviyada tashkil etishi bilan bog‘liq. Nutqiy kompetensiyalar: tinglab tushunish, eshitish, o‘qish, , yozish deyarli har bir ona tili darsida rivojlantirilib boriladi. Ona tili o‘qitishda o‘qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri, o‘quvchilardagi hosil bo‘lgan nutqiy ko‘nikmalarlarning rivojlanish ko‘rsatkichini nazorat qilish va shu bilan bir qatorda o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarning o‘sish darajalarining “oqsayotganini” aniqlash, interaktivmetodlardan foydalanish va bu borada ularning yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklari ustida muntazam ishlab bu kemtik o‘rinlarni o‘z vaqtida tuzatishdir.

O‘quvchilarga so‘zlarning imlosi bo‘yicha imlo lug‘at bilan ishlashni, ko‘chirib yozish mashqlarini bajarishda o‘rganib, eslab qolishni uqtirish, so‘zlarning ma’noviy strukturasida izohli lug‘atlar bilan ishlash, omonim va sinonim lug‘atlar bilan ishlashni o‘rgatishdir. Buning uchun u darsning yakunlovchi qismida vaqt ajratsa, o‘qish va yozish mashqlariga alohida urg‘u bersa, nutqiy kompetensiyalar takomillashadi. Albatta, bu jarayon o‘qituvchidan birgina darslik bilan chegaralanib qolmasdan izlanishni, qo‘shimcha ilmiy adabiyotlar ishlashni, zamonaviy va ilg‘or metodlardan foydalanishni talab qiladi.

M.Mahmudovning fikricha, “yoshlarning fikrlashi, tafakkurini o‘stirish, xotirasi va qobiliyatlarini taraqqiy ettirish” o‘qitishning jamiyat rivojidagi bajarilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalardan biri sanalishi e‘tirof etiladi[5]. Yoshlarning keng doirada fikrlashini, tafakkurini o‘stirish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish ayniqsa jamiyatda tub burilishlar, o‘zgarishlar hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘qituvchining darsga jiddiy yondashishi zarur ekanligi Sh.Sariyevning tadqiqot ishida yoritilgan. “O‘qituvchining o‘qish

namunasiga koʻra oʻquvchilar toʻgʻri, ifodali oʻqishni oʻrganadi. Darsda matnni oʻqib berish uchun oʻqituvchi puxta tayyorgarlik koʻrishi, mazmunni chuqurroq anglashga intilishi, matnning ayrim oʻrinlari qanday oʻqilishi lozimligini belgilab olishi lozim. Oʻqituvchi ayrim tovush, boʻgʻin, soʻzlarni qanday oʻqish kerakligini izohlagach, oʻquvchilar matnni navbat bilan oʻqishadi. Oʻqituvchi ularni kuzatib, toʻgʻrilab boradi"[6]. Oʻqituvchi soʻzni risoladagidek oʻqishni, soʻzlarni oʻqish vaqtida intonatsiya va urgʻuga e'tibor berishni, jumlalarning tarkibidagi leksik birliklar tiniq, ravon talaffuz qilishni oʻrgatsa, oʻquvchilarning oʻqish texnikasini egallash faoliyati aktiv holatga oʻzgaradi.

Oʻqish texnikasini egallashda takror oʻqish samara beruvchi nutqiy faoliyatdir. Bir marta oʻqilgan matn o ʻquvchida yetarlicha tushuncha va bilim hosil qilmasligi mumkin. Oʻqish faoliyatining qiziqarli tashkil qilinishi ularning chuqur bilim egallashga yoʻnaltiradi.

Muntazam kitob oʻqish, ilmiy, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish muayyan motivlarni oʻzida tarkib toptiradi. Binobarin, oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi omillarni keltirish mumkin:

-oʻquv dasturida berilgan mavzular boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalarni hosil qilish;

-oʻquvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish;

-mashq va topshiriqlarni bajartirish orqali nazariy bilimlarini mustahkamlashva nutqini oʻstirish;

-ona tili darsligida berilgan matn va lugʻat ustida ishlashni muntazam olib borish;

-ona tili mashgʻulotlarida ilgʻor texnologiyalar va zamonaviy metodlarasosida

-bogʻlanishli matn tuzish va yozish malakalariga e'tibor qaratish;

-ilmiy qarashlarga va badiiy ifodalarni izohlab, ularga

-subyektiv munosabat bildirish va mantiqiy fikrlash koʻnikmasini rivojlantirish.

Demak, ona tili darslarida oʻquvchilarning nutq madaniyatini va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga har bir

dars davomida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Yozma nutqni oʻstirishda uch yoʻnalish aniq ajratiladi:

-soʻz ustida izlanish.

-soʻz birikmasi va gap ustida izlanish.

-bogʻlanishli nutq ustida izlanish.

Koʻrsatilgan uch yoʻnalish parallel olib boriladi: lugʻat ishi gap uchun material beradi; soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash bogʻlanishli nutqqa tayyorlaydi.

Oʻz navbatida bogʻlanishli nutq hikoya va insho lugʻatini boyitish vositasi boʻlib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish ogʻzaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u oʻquvchilardan grammatik va mazmun jihatidan toʻgʻri jumla qurishni, har bir soʻzni oʻz oʻrnida toʻgʻri qoʻllashni,fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bogʻliq. Soʻzni toʻgʻri yozish, tinish belgilarini oʻrinli qoʻllash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish oʻquvchidan katta mas’uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi.Yozma nutqning oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u ogʻzaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. Oʻquvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yoʻl qoʻymaslikka intiladi. Oʻqituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, koʻpincha oʻquvchilar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e’tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar. Matnlarda koʻpincha mavzuga aloqasi boʻlmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e’tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili mashgʻulotlarida oʻquvchilar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega boʻlishi, materialning toʻgʻri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda toʻgʻri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim. Ona tili darslarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, oʻquvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni oʻz nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi. Oʻquvchilar mustaqil

ravishda ijodiy fikrlasalar fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ogʻzaki, yozma shakllarda toʻgʻri, ravon ifodalay olsalar, ona tili mashgʻulotlari samarali oʻtilgan boʻladi.

Pedagogik kitoblarda berilgan ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, 2 yoshli bolalar 30dan 100 gacha, 4 yoshli bolalar 1000 dan 4000 gacha, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha soʻzni bilishlari lozim. Ammo, afsuski, ona tili mashgʻulotlarida fikrni ogʻzaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tugʻilganda oʻquvchilardagi soʻz qashshoqligi darrov sezilib qoladi.

Nutqda soʻzlarni takroriy qoʻllash, berilgan soʻzni uning ma'nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma'noligi bilan almashtira olmaslik, ma'lum bir sohaga qarashli soʻzlar lugʻatini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, oʻquvchilarning soʻz boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi.Ona tili mashgʻulotlarida oʻquvchilar nutqining rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri oʻquvchilarning uyda , koʻchada yoki sinfdan tashqari paytlarda tojik, turkman, qirgʻiz yoki boshqa (sheva) tilda soʻzlashib, maktabda oʻzbek tilida oʻqishidir. Etnografik ma'lumotlar shuni koʻrsatadiki, jumhuriyatimiz hududida juda koʻp tojiklar, turkmanlar, qirgʻizlar, qozoqlar yashaydi. Ularning koʻpchiligi uyda tojik, qirgʻiz va hokazo tilda soʻzlashib, maktabda oʻzbek tilida oʻqishdi. Bu hol, shubhasiz, oʻquvchilarda tilning boy imkoniyatlaridan foydalangan holda oʻz fikrini erkin bayon qilish imkoniyatini chegaralaydi. Yuqorida sanab oʻtilgan salbiy omillardan tashqari ona tilimizdan sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarning mundarija va mazmun jihatdan boʻshligi, yagona nutq rejimiga hamisha ham rioya qilmaslik, ota-onalarning bola nutqi ustida yetarli ishlamasligi kabi oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirishga salbiy ta'sir qiladi. Xullas, oʻquvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon boʻlib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki oʻqituvchigagina bogʻliq emas. Barcha imkoniyatlar toʻlaligicha ishga solinsagina fikrni ogʻzaki va yozma ravishda toʻgʻri, ravon ifodalashga oʻrgatish jarayoni oson kechadi. Oʻquvchi nutqini rivojlantirishga keng yoʻl ochadi. Bizga ma'lumki, oʻquvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini

oʻstirishda doimo har xil metod va oʻyinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan baʼzilarini misol tariqasida keltiraman. “Hikoya” Oʻqituvchi xattaxtaga bir nechta soʻz yozib qoʻyadi. Masalan: Nafosat, yomgʻir, soat va adabiyot kabi. Oʻquvchilar mustaqil ravishda shu soʻzlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

Nutq – fikr bayon qilish vositasi boʻlib, ogʻzaki va yozma shaklda ifodalanadi. Tafakkur nut yordamida roʻy berib, shu tufayli kishilar bir-birlari bilan aloqa bogʻlaydilar. Ogʻzaki nutq pauza, urgʻu, intonatsiya va tovushlar orqali tinglovchiga borib yetsa, yozma nutq harf va soʻzlarning maʼlum qonuniyat asosida oʻzaro birikuvi, tinish belgilari , har xil ajratishlar, gaplarni grammatik jihatdan aniq va tovushlarni bayon qilish orqali yetib boradi. Ogʻzaki nutqning yozma nutqdan yana bir farqi shuki, ogʻzaki nutqni eshitamiz, yozma nutqni koʻramiz va oʻqiymiz. Yozma nutq murakkab jarayon boʻlib , u koʻp vaqt mehnat talab qiladi. Sintaksis jihatdan qaraganda yozma nutq eng toʻliq va mukammal nutqdir. Bu nutq ixtiyoriy fikrimizni ifodalab berishning eng yaxshi vositasidir. Yozma nutq ogʻzaki nutq asosida rivojlanadi. Ogʻzaki nutq hayotda kishilar bilan munosabatda boʻlish , ularga taqlid qilish yoʻli bilan rivojlanib, boladan maxsus oʻqish va oʻrganishni talab etmaydi. Yozma nutq esa harfalar va belgilar yordami bilan tovushlar, soʻzlar, gaplarni koʻz bilan idrok qilishga, qoʻl bilan yozishga moʻljallangan nutqdir. Nutq – kishi faoliyatining turi, til vositasi (soʻz, soʻz birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq oʻzaro aloqa va xabar, oʻz fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga taʼsir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Oʻquvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli taʼlim olish qurolidir. Nutq oʻstirish nima? Agar oʻquvchi va uning tildan bajargan ishlari koʻzda tutilsa, nutq oʻstirish deganda tilni har tomonlama (talafuzi, lugʻati, sintaktik qurilishining, bogʻlanishli nutqni) faol amaliy oʻzlashtirish tushuniladi. Agar oʻqituvchi koʻzda tutilsa, nutq oʻstirish deganda, oʻquvchilar tilning talafuzi, lugʻati, sintaktik qurilishi va bogʻlanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qoʻllash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatik va imlo dasturi tovushlar va harflar, soʻz, gap, bogʻlanishli nutq kabi qismlarini oʻz

ichiga olgan. Ona tili dasturining bo‘limlari: “Xat-savod o‘rgatish va nutq o‘stirish”, “o‘qish va nutq o‘stirish”, “Grammatika, imlo va nutq o‘stirish” deb nomlangan.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartga rioya qilishi zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni , material bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy qimmatli bo‘lsa uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. Shunday ekan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida, bola nutqini mazmunli bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikma , gap , nutq axborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Bolalarga til na’munalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o‘z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta’lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda “tilni sezish” shakllanadi.

Fikrni ifodalash usullariga ko‘ra nutq og‘zaki va yozma bo‘ladi. O‘g‘zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og‘zaki nutq tovush nutqi , yozma nutq esa grafik nutqdir. Og‘zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko‘rish va motor-harakat (qo‘l harakati) sezgisi asosiy o‘rin tutadi. Og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o‘zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og‘zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutqda bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi. Og‘zaki nutq ko‘pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo‘ladi. Yozma nutq logik izchillikka rioya qilgan holda , ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorga yo‘l qo‘ymay bayon qilishni talab etadi, shuning uchun yozma nutq ancha murakkab va mavhum hisoblanadi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:

1. O‘quvchilar nutqi mazmundor bo‘lsin. Hikoya yoki insho o‘quvchilar uchun yaxshi ma’lum bo‘lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitobardan, rasmlardan, radioeshttirish va teleko‘rsatuvdan olgan ma’lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo‘ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko‘rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so‘zlashga yo‘l qo‘yilsa, nutq kambag‘al, mazmunsiz chiqadi. Nutq o‘stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya’ni material yig‘ish uni muhokama qilish, to‘ldirish, asosiy mazmunini ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. Nutqda mantiqiylik bo‘lsin. O‘quvchilar nutqi mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishisz, asosiy o‘rinlar tushirib qoldirmasligi va o‘rinsiz takrorga , mavzuga taaluqli bo‘lmagan ortiqchalikka yo‘l qo‘ymasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyligi narsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi , mantiqy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik , mavzuni o‘ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taaluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

3. Nutq aniq bo‘lsin. O‘quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarni haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so‘z, so‘z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o‘rgansin.

4. Nutq til vositalariga boy bo‘lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o‘quvchi nutqi til vositalariga boy bo‘lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘ish zarur. Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo‘yib bo‘lmaydi, ammo o‘qituvchi o‘quv ishlarida ularning so‘z boyligini oshirib borishni har vaqt ko‘zda tutishi kerak.

5. Nutq tushunarli bo‘lsin. Og‘zaki nutq esa eshituvchiga , yozma nutq esa uni o‘quvchi tushunarli bo‘lishi zarur. So‘zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o‘quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq ifodali bo‘lsin. Agar nutq ifodali, ya’ni jonli, chiroyli, ishontiradigan bo‘lsa, eshituvchiga intonatsiya orqali ta’sir etsa, og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va o‘quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so‘zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida ta’sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo‘lishi har qanday shevaga xos va ortiqcha so‘zlardan sof bo‘lishini taqozo etadi.

7. Nutq to‘g‘ri bo‘lsin. Maktab uchun nutqning adabiy til normalariga mos-to‘g‘ri bo‘lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatik, imlo va punktuatsiya jihatidan, og‘zaki nutq esa orfoepik jihatidan to‘g‘ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to‘g‘ri, bo‘lishi uchun so‘z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega.

Yuqorida sanab o‘tilgan talablar o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib maktab ishlari tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosiy vazifasini bajaradi, uni o‘stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi.

Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o‘stirish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o‘sadi. Tushuncha so‘zlar yoki so‘z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo‘lgan so‘zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so‘z (so‘z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo‘ladi.

Nutqiy kompetensiyalarini mustaqil ishlar orqali shakllantirish

Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiya ekanligi isbot talab qilmas haqiqatdir. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, ularni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Yangi O‘zbekistonga ilm-fanga e’tibor yuqori cho‘qqiga chiqqani bejiz emas. Chunki hozir zamonaviy hayotni ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ham ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanmoqda. Zero, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Kelajagimiz poydevori bo‘lmish yosh avlodni aqlan sog‘lom, tetik va zukko etib voyaga yetkazishda ham ilm fan o‘chog‘I bo‘lmish kichik ta’lim jabhalarining o‘rni beqiyosdir. Shu sababdan islohatlarning asosiy negizi maktabgacha ta’limni tubdan isloh etish, maktablarni malakali ustozlar va zamonaviy tehnologiyalar bilan ta’minlashga qaratilinmoqda. Binobarin, dono xalqimiz aytganidek: “Yoshlikda olingan bilim- toshga o‘yilgan naqsh kabidir”. Farzandlarimizga berilajach bilimlarni barchasini boshlang‘ich sinfdan boshlashimiz yuqorida keltirilgan maqsadlarga birinchi qadam bo‘lib hizmat qiladi. Boshlang‘ich sinfda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini kuchaytirish eng asosiy vazifalardan biridir. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqini yaratadi. “Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langandir. Nutq bo‘lmasa, tafakkur ham bo‘lmaydi, til materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi”. Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo‘lishini ta’minlaydi. Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaroaloqa va xabar funksiyasini, o‘zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta’sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir. Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) aktiv amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar

oʻqituvchikoʻzda tutilsa, nutq oʻstirish deganda, oʻquvchilar tilning talaffuzi, lugʻati, sintaktik qurilishi va bogʻlanishli nutqni muhim aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qoʻllash tushuniladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, oʻquvchilar nutqini oʻstirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1.Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab boʻlishi kerak. Oʻquvchilar nutqinioʻstirishning metodik talabi oʻquvchi oʻz fikrini, nimanidir ogʻzaki yoki yozma bayonxohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2.Har qanday nutqning mazmuni, materiali boʻlishi lozim. Bu material qanchalik toʻliq, boy, qimmatli boʻlsa, uning bayoni shunchalik mazmunli boʻladi.

3.Fikr tinglovchi tushunadigan soʻz, soʻz birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli boʻladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli oʻstirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Nutq oʻquvchilar tafakkurini oʻstirishda muhim vositadir.

Nutq fikrni bayon etish vositasi boʻlibgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni oʻstirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli oʻstirish mumkin. Shuning uchun oʻquvchilar nutqini oʻstirish materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish, mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli oʻsadi. Tushuncha soʻzlar yoki soʻz birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi boʻlgan soʻzda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan soʻz (soʻz birikmasi) ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega boʻladi.

Nutq madaniyati tarixiga yuzlansak, togʻri va ravon soʻzlash haqida juda koʻp ajdodlarimizning yozma nasihatlarini koʻrishimiz mumkin. Hususan, Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar oʻz asarlarida nutqni mahnaviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd

etganlar. Jumladan, Forobiy so‘zlash quvvati haqida shunday deydi: —…so‘zlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go‘zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo‘lgan-bo‘lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi. M.Koshg‘ariyning —Devon-u lug‘otit turk asarida —Adab boshi – til maqoli keltirilgan.

Bu buyuk ajdodlarimizninginson ma‘naviyatining shakllanishi va rivojlanishida tilning nechog‘li ahamiyatli ekanligiga urg‘u berganini ko‘rsatadi. Yusuf Xos Hojib insonda uquv-idrok va bilim til, so‘z orqali a‘yon bo‘lishini aytib,nutqning ravon bo‘lishiga da‘vat etadi: —o‘quv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga ro‘shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obro‘-e‘tiborni ham kishi til orqali topadi. Hech qachon ko‘p gapirma. Juda oz so‘zla. Tuman so‘z tugunini bitta so‘z bilan yozib yubor, ya‘ni oz so‘zlarga ko‘proq ma‘no singdirish payidan bo‘lgin. Kaykovus o‘zining —Qobusnoma asarida so‘zlash madaniyati quyidagicha e‘tirof etadi: —... xalq oldida gapirganda so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so‘zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so‘z orqali biladilar, har kishining ahvoli o‘z so‘zi ostida yashiringan bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni jamlagan holda shuni ta’kidlash joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish masalasi hozirgi uslubiy adabiyotlardatil, lug‘at boyligi va nutq madaniyati haqida bilimlarga turlicha yondashuvlar asosida hal qilinadi. Boshlang‘ich sinf ona tili dasturiga kiritilgan lingvistik tushunchalardan kelib chiqib, mashqlarni fonetik, leksik, so‘z yasalishi, morfemik (so‘z tarkibi), grafik, orfografik, orfoepik, grammatik mashqlarga ajratish mumkin. Mazkur mashqlar asosida amalga oshiriladigan tahlil o‘quvchilarning nazariy tushunchalarni o‘zlashtirishlariga yordam berishi, lug‘atini boyitishi, bog‘lanishli nutqini o‘stirishi jihatidan keng qamrovli bo‘lib, o‘quvchilarning tilni har tomonlama o‘zlashtirishlarinita‘minlashini nazarda tutadi.

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini matn turlari orqali rivojlantirish o‘quv darsligi va ta’limiy vositalar ishlash muhim

ahamiyat kasb etadi. 2019-2022- o‘quv yillari mazmun, ko‘rinish, shakl jihatdan yangi tuzilgan “Ona tili” darsliklari o‘quvchilarning nutqiy kompetensiya elementlarini matn turlari orqali yuqori darajada takomillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, “Ona tili” darsligida ma’lumotnoma, ijodiy-tavsifiy matn, inshoning mavzu va mazmuniga ko‘ra turlari, matn, mumtoz matn va lug‘at bilan ishlash, tilshunoslikningsintaksis bo‘limi haqida umumiy tushuncha, sodda gap, qo‘shma gap, gap bo‘laklari yuzasidan tahlil, gapda tinish belgilarning ishlatilishi, uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘z va unda ohang hamda tinish belgilarning qo‘llanilishi, og‘zaki nutq mahorati bo‘yicha nazorat ishlarini olish bo‘yicha mavzular, mashq, topshiriqlar, savollar,ilmiy,badiiy, rasmiy matnlar ustida ishlash berilgan. Aytish joizki, “Ona tili” darsliklariga tanlangan o‘zbek va jahon mutafakkirlari, olimlari, buyuk siymolarning hikmatli so‘zlari, shaxsiy- hayotiy qarashlari dars davomida ifodali o‘qilib, o‘zaro muhokama qilinsa ulardagi aqliy -tarbiyaviy tomonlama fikriytaraqqiysi rivoj topadi.

“Yangi avlod darsliklari ta’lim mazmunining yangi modellari negizida yaratilishi, unda o‘quvchini pedagogik qo‘llab-quvvatlash, uzluksiz rivojlantirish, mustaqil fikrlashga odatlantirish, aniq hayotiy nuqtai nazarni qaror toptirish,yoshlarni eng zamonaviy, ilmiy- texnikaviy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy- mafkuraviy, iqtisodiy-huquqiy yo‘nalishdagi axborotlar bilan rivojlantirishga erishish bugungi kunda davlat siyosatidagi ustuvor maqsaddir”. O‘quvchilarning nutqi o‘sib, bilimi kengayishi ona tili darsliklarda berilgan matnlarning dars jarayonida tahlil tahlil qilinishi, munosabat bildirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. “Ona tili o‘qitish metodikasi” nomli darslikda ona tili mashg‘ulotlarida matn ustida ishlash publitsistik, ilmiy, badiiy matn va insho va hujjat matnini yozdirish yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan. “Matnlar uslub jihatdan rang-barangdir. Ona tili mashg‘ulotlarida badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy-idoraviy matnlardan foydalaniladi. Har bir uslub o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ma’lum bir til meyorini talab etadi”.Ona tili darslarida har bir uslubga matnlarning o‘ziga xos xususiyatlarini puxta o‘rganib matn turlarini yaratish ularda hosil qilingan bilim, ko‘nikma, malakalarning rivojida aks etadi. “O‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan ko‘nikma va

malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo‘yicha ta’lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi egallagan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi: a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligini aniqlash; b)fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo); d)tavsifning mavzuga muvofiqligini va tasnif qiymatini aniqlash; e) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash; f) imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash. Ona tili ta’limi jarayonida pedagogikaning ta’lim va tarbiya birligi tamoyiliga rioya qilinadi hamda izchil amalga oshirib boriladi”. O‘zbek tili ta’limi tarixiga oid adabiyotlar, hujjatlar tahlili shuni o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bolaning og‘zaki bayon qilinayotgan o‘zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og„zaki qayta bayon qila olish darajasini aniqlaydi.

O‘quvchilarning matn tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha B. To‘xliyev boshchiligida chop etilgan “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” nomli matn yaratishning bosqichli tizimi va 4 moduli bo‘yicha izoh berilgan. So‘z tanlash faoliyati, so‘z birikmasini hosil qilish faoliti,gap tuzish faoliyati, matn yaratish faoliyati bayon qilingan.

Metodika fanida matnning ikki xil yo‘l bilan qayta tasvirlanishi qayd qilinadi.Bular:

-so‘z bilan tasvirlash;

-grafik tasvirlash .

Ona tili darslarida o‘quvchi darslikda berilgan rasmni so‘z orqali tasvirlashda biror rasmga,biror tabiat tasviri manzarasiga qaragan holda o‘z fikrini muayyan darajada qayta bayon qiladi, lekin grafikli tasvirlarda ifodalangan mazmunni qayta yaratish ba’zi o‘quvchilar uchun murakkablik, qiyinlik qilishi tabiiy jarayondir. Shu bois, grafiklarga qarab matnni qayta yaratish o‘quvchilarga uyga vazifa shaklida berilishi maqsadga muvofiqdir. Bu tasvirlashning uyga vazifa qilib berilishi o‘quvchi ko‘proq o‘ylab mulohaza qilishga zamin yaratadi. So‘z bilan tasvirlash o‘ziga xos murakkab ish turi bo‘lib, bunda asarda tasvirlangan voqea,

qahramon yoki manzarani so‘z yordamida aniq qayta tiklash ko‘zda tutiladi. Matn tasvirining to‘laqonli bo‘lishi o‘quvchilarning matnni, unda bayon etilgan voqeani, qatnashuvchi shaxslarning tashqi ko‘rinishini, fe’l-atvorlariga xos xarakterli xususiyatlarni teran tasavvur qilinishiga bog‘liq. So‘z bilan tasvirlash o‘quvchilar nutqini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va talaffuz qilishni talab etadi. “Muhokama matnning asosiy qismida birinchidan, ikkinchidan, fikrimcha, bizningcha, shuning uchun, chunki kabi kirish so‘z va bog‘lovchilar, xulosa qismida, xullas, shunday qilib, shunday ekan, demak kabi kirish so‘z va kirish birikmalaridan foydalaniladi”. Ona tili darslarida o‘quvchilarga muhokama matniga xatboshi va jumlarni semantik, grammatik, stilistik qurilishini ta’minlovchi kirish so ‘zlar, so‘zlarni bir- biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan bog‘lovchilarni, ko‘makchilarni o‘z o‘rnida qo‘llashni amaliy egallash ko‘nikmasi talab darasida bo‘lishi talab qilinadi. Buning uchun muhokama matni yozilishishi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi asosiy sanaladi.

Ona tili darslarini tashkil qilish jarayonida o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri nutqiy va kommunikativ malakalarini, ilmiy, ijodiy fikrlashini matn turlari orqali olgan bilimlariga asoslanib yoza olish qobiliyatini rivojlantirish bilan, ularning ilmiy, ijodiy tafakkur qilishga o‘rgatish bilan chambarchas bog‘liq. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini matn turlari orqali takomillashtirishda ularning egallagan bilimi bilan bir qatorda ijodiy, ilmiy fikrlashini bayon qilinishi talab qilinadi. Bu jarayonda matn mazmunini aniq bayon qilish,tahlil qilish hamda qayta bexato yoza olish nazarda tutiladi. Bu kabi vazifalar asosida ilmiy va ijodiy dunyoqarashni, tafakkurni rivojlantirish muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammolari pedagog olimalar R.G‘. Safarova, N.Ataqulovalar tomonidan o‘rganilgan. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash rivojlanishi uchun ko‘proq ilmiy adabiyotlar bilan tanishish zarur deb hisoblaymiz. Badiiy matn vositasida o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, obrazli fikrlash badiiy idrok qilish ko‘nikmasining egallaganligi muayyan bosqichlarda amalga oshadi. Professor E.G‘oziyev “Ijodiy tafakkur – murakkab bilish faoliyatidan biri bo‘lib, tadrijiy ravishda, o‘zaro bog‘langan izchil protsesslardan tashkil topadi”.

B.X.Raximovning doktorlik dissertatsiyasida keltirilishicha, “O‘quvchilarning ijodiy ishlari tafakkurni o‘stirish omili ekanligi, o‘quvchilarni og‘zaki va yozma ijodiy ishlarga undash ularning kamoloti yo‘lida muhim ahamiyat kasb etishi tekshiriladi.Mustaqil faoliyat va ijodiy ishlar o‘z-o‘zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil fikri, o‘z nuqtai nazari bo‘lmagan o‘quvchi ijod qilolmaydi, mustaqil faoliyat yurita olmaydi”.Ilmiy va ijodiy tafakkur qilish uchun o‘quvchilarni ilmiy, badiiy kitoblarni o‘qish, o‘rganish bilan, kitobxonlik bilan shug‘ullanishga, kitob mutolaasiga qiziqtirish uyg‘otish ijobiy natija beradi. Shu bilan birga, ilmiy va rasmiy ilmiy va badiiy matnlarning o ‘ziga xususiyatlari va bir- biridan differensial jihatlarini, eng asosiysi, bu matnlarga tanlanadigan leksik va morfologik birliklarni tanlashni bilishga yo ‘naltirish ayni muddaodir.

Rasmiy va ilmiy uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1.So‘zlar o‘z ma’nosi (denotativ)da va har bir sohaning o‘ziga xos terminlaridan foydalaniladi.

2.Darak gaplar, qaror, buyruq ko‘rsatmalardan foydalaniladi

3.Gap bo‘laklari odatdagi tartibda bo‘ladi.

4.Rasmiy uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, lo‘nda barcha uchun tushunarli qilib tuziladi.

5.Tasviriylik va majoziylikka yo‘l qo‘yimaydi. 6.Buyurish va undash ohangi kuchli bo‘ladi .

6.Rasmiy hujjatlarning qolip matnlari – tayyor andozalari ishlab chiqilgan.

7.Yozma nutq shaklida amal qilinadi. Ifoda aniq, ixcham , izchil va tushunarli bo‘ladi.

8.Rasmiy matndagi asosiy maqsad zamirida aniqlik va ixcham fikr ifodalanadi.

So‘nggi yillarda tuzib chiqilgan, amaldagi o‘quv dasturi va 2023-2024- o‘quv yillari mazmun, ko‘rinish, shakl jihatdan yangi tuzilgan “Ona tili” darsliklari o‘quvchilarning nutqiy kompetensiya elementларини matn turlari orqali yuqori darajada takomillashtirishga xizmat qiladi. “Ona tili” darsligida ma’lumotnoma, ijodiy-tavsifiy matn, inshoning mavzu va mazmuniga ko‘ra turlari, matn, mumtoz matn va lug‘at bilan ishlash,

tilshunoslikningsintaksis bo‘limi haqida umumiy tushuncha, sodda gap, qo‘shma gap, gap bo‘laklari yuzasidan tahlil, gapda tinish belgilarning ishlatilishi, uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘z va unda ohang hamda tinish belgilarning qo‘llanilishi, og‘zaki nutq mahorati bo‘yicha nazorat ishlarini olish bo‘yicha mavzular, mashq, topshiriqlar, savollar,ilmiy,badiiy, rasmiy matnlar ustida ishlash berilgan. Bu darslikda keltirilgan fikrlar mazmun-ma’noga ega nutq namunasi ayni haqiqatdir.1.Gapirishni bilish talantdir.(Stendal) 2.Bahslashish ko‘plarning qo‘lidan keladi, oddiygina suhbatlashishni kamdan-kam kishi eplaydi.(A.Olkott) 3.Odamlar bilan ularning aqliga monand gaplash.(Sa’diy) 4. So‘z xulq- atvor demakdir.(L.Tolstoy) 5.So‘z gavhari garchi bordir aziz, fahmi yo‘q oldidadur bir qadrsiz.(Nishotiy) 6.Amalsiz ilm -mevasiz yog‘och. (“Otalar so‘zi”). Mazkur darslikdagi bu kabi hikmatli so‘zlarni dars jarayonida ifodali o‘qish va tahlil qilish, o‘quvchilarning bildirgan munosabatlarini taqqoslash ularning insoniy fazilatlar mujassamlashuvi, nutq madaniyati rivojiga ta’sir qiluvchi nutq namunalarini sharhlatgan bo‘lamiz. Shunisi ahamiyatliki, o ‘quvchilar matn mazmunini to ‘liq tushunishlari,uni mustaqil tahlil qilib izohlashlari dars davomida mashq va topshiriqlar vositasida oydinlashadi.

Psixolog V.P.Belyanskiy o‘quvchilarning matn mazmunini tushunib olish jarayonini quyidagi darajalarga bo‘lib ko‘rsatgan:

1.Boshlang‘ich daraja. Tinglovchining nutqiy bayonning asosiy predmeti va gap nima haqda ekanini tushunishidir.

2.Mazmun-mundarijani tushunish darajasi. Bunda tinglovchi so‘zlovchi bayon qilayotgan nutqning nima haqda ekanini anglaydi.

3.Eng yuqori daraja. U nutqda bayon qilinayotgan fikr nima uchun va qanday lisoniy vositalar bilan berilganining tushunilishi bilan xarakterlanadi. Bizningcha, matnda gap nima haqda ekani, fikr qanday lisoniy vositalar berilganiga e’tibor berishi hamda matnning mazmuniga munosabat paydo bo‘ladi va matndagi leksik birliklarning lug‘aviy ma’nosiga yetarlicha tushuncha hosil bo‘lmaydi.Tabiiyki, o‘quvchida savollar yuzaga keladi, ular mazmuniy yechimni izlashga kirishadi .

Xullas, o‘quvchilarning ilmiy va ijodiy tafakkur qilish

qobiliyatlarini rivojlantirish ularda ilmiy fikrlash va kreativ fikrlash salohiyatini o‘stiradi.

Savol va topshiriqlar

1.Ona tili ta’limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasining mohiyati haqida fikr bildiring.

2.Nutqiy kompetensiyaning turlari, mazmun-mohiyati va elementlari

3.Nutqiy kompetensiyaning turlari nechta?

4.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning ahamiyati.

5.Yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning asoslari nima?

6.Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda matn turlarini yaratishning bosqichlarini ta’riflab bering?

7-MAVZU: KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA ILMIY DUNYOQARASH ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISHDA ONA TILINI O‘RGATISHNING AHAMIYATI

Reja:

1.Kichik yoshdagi o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish.

2.Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi mazmuni.

3. Savod o‘rgatish jarayoni.

Tayancha so‘zlar *axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini, talimiy talab,tarbiyaviy talab, didaktik talab, savod o‘rgatish jarayoni.*

Davlat ta’lim standartida ta’kidlanganidek, Boshlang‘ich ta’lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talabda ta’lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg‘unlik to‘la ta’minlangan bo‘lmog‘i kerak. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim standartini belgilash ta’lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang‘ich ta’lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo‘llash imkonini beradi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi mazmuni ta’limning mazkur bosqichiga qo‘yilgan

talablardan kelib chiqib belgilanadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda “Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir”, deyiladi. Shundan kelib chiqqan holda Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limining maqsadi, vazifalari sifatida DTSda quyidagilar belgilab berilgan:

1.Bolaning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglashi, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish.

2.O‘z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o‘rgatish.

3.Yozma nutq belgilarini talaffuzda ifodalash, matnni ifodali o‘qiy olish ko‘nikmasini shakllantirish. o‘qish sur’atini oshirish, ta’limning shu bosqichi uchun xos bo‘lgan sidirg‘a o‘qishni egallashlariga erishish.

Fikrni yozma bayon etish bo‘yicha belgilangan quyidagi ko‘nikmalarni egallash:

1.fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;

2.tavsifning mavzuga muvofiqligi va itrakammalligi;

3.tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;

Bularni amalga oshirish ona tili ta’limi siklidagi fanlarning, ya’ni savod o‘rgatish, o‘qish va ona tilining vazifasidir. Bu vazifalarni ado etish ko‘p jihatdan ta’lim mazmunni to‘g‘ri belgilashga bog‘liq. Ona tili ta’limi mazmuni aniq va ilmiynazariy jihatdan to‘g‘ri belgilansagina, oldinga qo‘yilgan talablar to‘liq bajariladi. Ma’lumki, DTSda belgilab berilgan ona tili ta’limi mazmuni aniq mavzular va til materiallari asosida dastur va darslikda o‘z ifodasini topadi. Ular biri ikkinchisining ijrochisi bo‘iib, birbiriga muvofiq kelishi lozitn.

Boshlang‘ich sinf ona tili mazmuni metodist olimlarning ko‘p yillik kuzatishlari, tajribalari, tajriba natijalarining tahlili asosida takomillashtirilib kelinmoqda. Ayniqsa, ona tili o‘qitishning amaliy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining turlari ya ularga qo‘yiladigan talablar Darsning umumiy tasnifi. Maktabda dars o‘quvtarbiya jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli hisoblanadi.

Dars ta’lim-tarbiyani amalga oshirishning eng qulay va eng zarur omilidir.

Darsga qo‘yiladigan umumiy talablar quyidagilar:

To‘limiy talab. Har bir dars o‘quvchiga qandaydir bilim berishi lozim. Har bir darsning asosiy maqsadi ham shu.

Tarbiyaviy talab. Bu har jihatdan komil shaxsni tarbiyalash demakdir.

Didaktik talablar. Bu o‘qituvchiga darsni to‘g‘ri tashkil qilish: dars maqsadlarini, turini to‘g‘ri belgiiash, darsdagu yoki bu materialni o‘quvchilarga yetkazib berish usullarini to‘g‘ri tanlash, o‘quvchilar bilimini tekshirish va baholash shakllarini aniqlab olish demakdir.

Psixologik talablar. Bu talab shuni nazarda tutadiki, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining xarakterxususiyatini qanchalik darajada yaxshi biiishi juda katta ahamiyatga ega. o‘z o‘quvchilarining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgan o‘qituvchigina to‘laqonli dars uyushtirishi mumkin.

Gigiyenik talablar. Bu o‘quvchilar salomatligi haqida qayg‘urish demakdir. Sinfda yorug‘lik, toza havo har doim yetarli bo‘lishi lozim. Boshqa fanlar kabi, ona tili o‘qitishning samaraliligi darsning sifatiga bevosita bog‘liqdir. Darsga qo‘yilgan umumdidaktik talablar pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Ularni ona tili o‘rgatishga tatbiq qilib, metodik aniqliklar kiritilsa, ona tili darslariga qo‘yilgan talablar quyidagicha bo‘ladi:

Darsda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etishga, foydalaniladigan til materialining g‘oyaviy-siyosiy, estetik va badiiy qimmatli bo‘lishiga, tilni o‘rganish jarayonida bolalarda dunyoqarash elementlarini shakllantirishga alohida ahamiyat berish zanir. Ijodiy izlanish muhiti yaratilgan darslardagina zarur axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Ona tili darslarida o‘zbek tiliga muhabbat va so‘zga ehtiyotlik bilan munosabatni tarbiyalashga alohida e’tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o‘rganish jarayonida leksikuslubiy ishlarga katta o‘rin beriladi. Darsda she’r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlardan ham foydalaniladi.

Ona tili o‘qitish jarayoni o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili darslari har bir kishi

uchun zarur bo‘lgan saranjom sarishtalik, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini ham tarbiyalaydi.

Darsning aniqligi va ichki mantiqiyligi, uning maqsadga yo‘naltirilganligi juda muhim. Yangi material o‘rgatiladigan darsning mazmuni va mantiqiy o‘rganiladigan til hodisasi hamda uning lingvistik mohiyatining birbiriga ta’sir qilishiga ma’lum darajada sabab bo‘ladi. o‘qituvchi bu o‘zaro bog‘lanishni bilishi va uni o‘quvchilar bilan birga topshiriqlarni bajarish davomida asta ocha borishi muhimdir.

Agar dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadini o‘z oldiga qo‘ysa, darsning mantiqiy shattlari asta murakkablashtirib borilgan mashqlar tizirnini aks ettiradi. Bolalar biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o‘rganib olishlari uchun birikki mashq jamoaviy ravishda bajariladi. o‘quvchilar mustaqilligi oshgach, mashqni mustaqil ishlaydilar. Darsda bajarilgan mashqlar o‘rtasidagi bog‘lanishni shakllantiradigan ko‘nikmaning xususiyati ham sabab bo‘ladi. O‘quv materialining mavzuga va darsning maqsadiga mos bo‘lishi uning maqsadga yo‘naltirishni ta’minlaydi. Darsda foydalaniladigan barcha o‘quv materiallari (shu jumladan, til dalillarini kuzatish, imlo va nutqqa oid mashqlarni bajarish uchun tanlanadigan materiallar ham) darsning maqsadiga juda mos bo‘lishi zarur.

Ona tili darsi, avvalo, o‘quvchilar nutq va tafakkurini o‘stirish darsidir. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo‘lishi uchun o‘quvchilarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o‘stirish ko‘rsatmasi grammatik materialni o‘rgatishda o‘quvchilarning tilimizdagi har bir so‘z turkumi yoki so‘z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo‘llashni talab etadi, ya’ni grammatik nazariya grammatik to‘g‘ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o‘stirishga amalda tatbiq etish uchun o‘rgatiladi. Darsda bolalar nutqini o‘stirish darsning mazmunida va qo‘llanilgan vazifalar turlarida o‘z aksini topadi.

Grammatik, so‘z yasalishiga oid, imloviy materiallarni o‘rganishni nutq o‘stirish bilan bog‘lash o‘quvchilar aqliy faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Bolalar nutqini o‘stirish jarayoni ularning tafakkurini o‘stirish bilan bog‘liq.

Ona tili darsi o‘quvchilar taffakurini o‘stirish ustida ishlash maqsadiga yo‘naltirilganligiga qarab baholanadi. Bunda muayyan grammatik va imloviy materialni o‘rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq o‘zlashtirishni taminlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlarni o‘tkazish tushuniladi. Masalan, o‘zakdosh so‘zlar tushunchasini shakllantirish uchun so‘zlarning leksik ma’nosi va morfemik tarkibini taqqoslashni (ularning ma’nolarida umumiylikni va ularda bir xil o‘zakning mavjudligini) bilish lozim. o‘quvchilar tafak-kurini o‘stirish uchun o‘qituvchi darsga tayyorlanganda, vazifa tur-larini tanlaydi, darsning materialini va uni o‘zlashtirishda o‘quvchilar bajaradigan aqliy faoliyat mashqlarini ham belgilab oladi.

O‘quvchilarga beriladigan nazariy bilim tildan ongli foydaianish imkonini beradi. Nazariyaga ahamiyat berish, elementar tarzda bo‘lsa ham, o‘quvchilarning til hodisalari o‘rtasidagi bog‘lanishni bilib olishiga e’tibor berish demakdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bunday bog‘lanishni bilsalar, ***nima uchun shunday?*** so‘rog‘iga javob topa oladilar. Masalan, „Nima uchun *daftar* so‘zi kelishik va egalik qo‘shimchalari bilan turlanadi, *o‘qidik* so‘zi esa Shaxsson qo‘shimchalari bilan tuslanadi?»

Ona tili darslarining foydali bo‘lishiga darsda og‘zaki va yozma ishlarni maqsadga muvofiq o‘tkazish, o‘quvchilarning o‘quv ishlarini tekshirib, nazorat qilib borish, o‘z vaqtida xatoJarning oldini olish va to‘g‘rilash, texnika vositalaridan foydalanish kabi omillar katta ta’sir ko‘rsatadi.

Maktablarda ona tili o‘rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo‘ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar qo‘p qirrali bo‘lib, ularni bajarish o‘quvchilar ongini o‘stirishga, ularga g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo‘naltirilgan. Ona tilini o‘rgatish natijasida o‘quvchilarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to‘g‘ri yoza olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa

oʻquv predmeti sifatida oʻzbek tilining oʻziga xos xususiyati boʻlib, oʻquvchini shaxs sifatida shakllantirishga yoʻnaltirilgan umumtaʼlim vazifalari bilan bogʻliq holda amalga oshiriladi.

Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini oʻzbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); soʻzlarning oʻzgarishi va gapda soʻzlarning bogʻlanishi haqidagi (grammatik, yaʼni morfologik va sintaktik); soʻzning morfemik tarkibi va soʻz yasalish usullari haqidagi (soʻz yasalishiga doir); soʻzlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); oʻzbek tilining toʻgʻri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, soʻz yasalishiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon boʻladi. Bundan tashqari, oʻzbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa koʻnikma va malakalarni ham oʻz ichiga oladi.

Tilni oʻrganish jarayonida oʻquvchilarda boshqa koʻpgina oʻquv predmetlari uchun umumiy boʻlgan koʻnikmalar (predmetlararo koʻnikmalar)ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo koʻnikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu koʻnikmalarni oʻquvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning oʻquv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus koʻnikmalar bilan predmetlararo koʻnikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda oʻquv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi.

Beriladigan bilim va oʻquvchilarda hosil qilinadigan maxsus koʻnikmalar maktab dasturlari va davlat taʼlim standartida qayd etilgan.

Boshlangʻich sinflarda oʻrganish uchun tilni ongli egallashga va oʻquvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin boʻladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida oʻquvchilar soʻzning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning oʻziga xos xususiyatlarini, soʻzda tovushning maʼnoni farqlashdagi

ahamiyatini to‘g‘ri tushunishga imkon beradigan bilimlarni o‘zlashtiradilar, shuningdek, ularga so‘zning tovush va grafik shakli o‘rtasidagi nisbat (bog‘lanish)ni ongli aniqlash, so‘zni to‘g‘ri yozish imkoniyati yaratiladi.

Morfologiya sohasidan ham so‘zni ongli o‘zlashtirish, uni to‘g‘ri ishlatish uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlar tanlangan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 1-sinfdan boshlab so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe’l)ni har xil saviyada o‘rganadilar.

Sintaksisdan dasturga nutq birligi sifatida gap haqidagi, gapda so‘zlarning bog‘lanishi, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar haqidagi bilimlar kiritilgan. So‘zning morfemik tarkibi yuzasidan har bir morfemaning muhim belgilarini, ularning ahamiyati va so‘zda bir-biriga ta’sirini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tushunadigan va so‘zlarni to‘g‘ri yozishda foydalanishlari uchun zarur bo‘lgan hajmda ma’lumot berilgan.

Dasturda “Leksika” bo‘limi alohida berilmagan, ammo o‘quvchilar so‘zlarning leksik-semantik guruhlari (sinonimlar, antonimlar) haqida, ularning leksik ma’nolari haqida so‘z turkumlari va so‘z tarkibini o‘rganish jarayonida ma’lumot oladilar.

Boshlang‘ich sinflar ona tili kursi 1-4-sinflarda tilning hamma tomonlari o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va so‘z yasalishi haqida elementar bilim beriladi. Kursning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini bir-biriga o‘zaro ta’sir etadigan bir butun hodisa sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Tilni o‘rganishga bunday yondashish ta’lim jaryonini o‘quvchilar nutqini o‘stirish vazifasini hal etishga yo‘naltirish imkonini beradi.

Dasturning “Grammatika, imlo va nutq o‘stirish” bo‘limi har bir sinfda quyidagicha qismlarni o‘z ichiga oladi: “Tovushlar va harflar”, “So‘z”, “Gap”, “Bog‘lanishli nutq”. Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har to‘rt sinfda o‘rganiladi. Har bir sinfda yetakchi mavzular ajratiladi. 1-sinfda fonetika va grafikaga oid mavzularni o‘rganishga katta o‘rin beriladi, chunki o‘quvchilar o‘qish va yozish jarayonini egallaydilar.

3- sinfda so‘zning morfemik tarkibi va gapni o‘rganish muhim hisoblanadi. So‘z yasalishiga doir bilimlar asosida o‘quvchilarda

so‘zning leksik ma’nosiga, undan nutqda foydalanishga ongli munosabat o‘sadi.

4-sinfda so‘z turkumlarini o‘rganish birinchi o‘ringa qo‘yiladi (morfologik bilim chuqurlashtiriladi, otlarning egalik va kelishik qo‘shimchalarini, fe’llarning tuslovchi qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozish malakalari shakllantiriladi).

Bog‘lanishli nutq ustida to‘rt yil davomida grammatik va orfografik materiallarni o‘rganish bilan bog‘liq holda reja asosida ish olib boriladi.

Ona tili darslarida til hodisalari ma’nosi (semantikasi), qurilishi, vazifasi jihatidan o‘rganiladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qo‘ydi. Barcha sohalardagi kabi ta’lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshlandi.

Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang‘ich ta’lim darsliklari va metodik qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o‘tamoqda.

Boshlang‘ich ta’lim Davlat ta’lim standartining “Kirish” qismida *“Boshlang‘ich ta’lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi”,* – deb alohida ta’kidlangan.

Boshlang‘ich ta’lim oldiga qo‘yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta’lim mazmunini aniq belgilab olishni, o‘qitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Davlat ta’lim standartida ta’kidlanganidek, “Boshlang‘ich ta’lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talab”da ta’lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg‘unlik to‘la ta’minlangan bo‘lmog‘i kerak. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim standartini belgilash ta’lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash,

boshlang‘ich ta’lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo‘llash imkonini beradi.

Maktabda o‘qitish elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishdan boshlanadi. „Alifbe“ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o‘quvchilar o‘qish va yozishga o‘rgatiladi, ya’ni o‘qish va yozish ko‘nikmasini egallaydilar. Savod o‘rgatish davrida o‘qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o‘qish va yozish ko‘nikmasi deyiladi. Bu ko‘nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko‘nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko‘nikmaga aylanmagan bo‘lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o‘quvchi harflarni tanib, ularni o‘qiy olmasligi mumkin. Yozish ko‘nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya’ni yozish jaravonida partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo‘yish kabilar ham o‘rgatiladi. O‘qish va yozish ko‘nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o‘quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o‘ylab o‘tirmay, so‘z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o‘qish va yozish malakasi harakatning o‘ylab o‘tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o‘qitishning keyingi bosqichlarida mustalikamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi. O‘qish va yozish kishi nutq faoliyatining turi bo‘lib, u nutqqa oid malakadir. O‘qish malakasi ham, yozish malakasi ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya’ni og‘zaki hikoya qilish, o‘zgalar nutqini esli it ish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Maktabda o‘qitishning muvaffaqiyati savod o‘rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog‘liq. O‘quvchini savod o‘rgatish jarayonida elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishda o‘quvchilarning faoliyat ko‘rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab bo‘lishi, o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim. O‘qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta’minlaydi. Shuning uchun ham o‘qishga o‘rgatish bilan yozuvga o‘rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan,

savod oʻrgatish jarayonida bola juda koʻp oʻqishi va yozishi zarur. Oʻqish uchun ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matnni bir necha bor qayta oʻqish bilan maqsadga erishish qiyin. Bu koʻpincha oʻqilgan matnni yuzaki yodlab olishga olib keladi. Takroriy faoliyatda vaziyat va mazmunning almashinishi malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatni oʻstiradi. 0ʻquvchi oldida uzoq muddatda amalga oshadigan maqsad — oʻqish va yozishni oʻrganish hamda hozirda bajarishi shart boʻlgan kundalik maqsad — topishmoqni oʻqish va javobini topish, soʻz va gaplarni oʻqish, rasm asosida soʻzlab berish kabilar turadi. Oʻzbek tili yozuvi tovush yozuvi, ya'ni fonematik yozuvdir. Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf) olingan. Oʻqishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi. Bu oʻqish va yozish faoliyatida oʻquvchi uchun qiyinchilik tugʻdirgandek tuyilsada, aslida oʻqish va yozish jarayonini soddalashtiradi, chunki tilimizdagi tovushni ifodalovchi harflar soni uncha koʻp emas. Oʻqish va yozishni oʻzlashtirish uchun tovush va harflarning oʻzaro munosabaliga oid qoidalarni oʻzlashtirish kifoya.

Savod oʻrgatish metodikasida oʻzbek tili tovushlar va harflar tizimining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Oʻzbek tilining tovush tuzilishi va grafikasi. Oʻzbek tili yozuvi fonematik yozuv hisoblanadi. 1993-yil 2-sentabrdagi „Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida"gi qonunga muvofiq oʻzbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har bir tovushi uchun unga mos grafik shakl qabul qilindi. Oʻqituvchi savod oʻrgatish jarayonida oʻquvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni sintezlab oʻqishga oʻrgatishda oʻzbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Savod oʻrgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. Soʻz boʻgʻinga boʻlinadi, boʻgʻindan kerakli — oʻrganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, oʻrganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butim oʻqish jarayoni oʻzlashtiriladi. Bunda oʻzbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xusu- siyatlari hisobga olinadi. Savod oʻrgatishda oʻzbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega: 1. Savod oʻrgatishda tovush-harf bilan tanishtirish

unlilardan boshlanadi. Hozirgi oʻzbek tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, i, e, u, oʻ. harfi soʻz va boʻgʻin boshida qoʻllanadi (ekin, echki, aeroplan), undoshdan keyin oʻrta keng lablanmagan unli tarzida oʻqiladi (kel, tez)- Savod oʻrgatishda oldin soʻz bosliida keladigan e, soʻngra undoshdan keyin keladigan e tovush-harfi bilan tanishtiriladi. O harfi oʻzbekcha, umumturkiy soʻzlarda quyi keng, lablangan o tovushini ifodalaydi, mscha-baynalmilal soʻzlarda urgʻusiz boʻgʻinda a tarzida (botanika), oʻ tovushi kabi (tonna), qisqa i tarzida (traktor) talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unli qatnashgan ruscha-baynalmilal soʻzlar savod oʻrgatish davridan soʻng oʻquv jarayoniga kiritiladi. “A” tovushi bahor, savol kabi soʻzlarda o kabi, muomala, munosabat kabi soʻzlarda i tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, lekin a yoziladi. U tovushi qovun, sovun kabi soʻzlarda i tovushiga yaqin talaffuz etilsa ham u yoziladi. I tovushi bilan, sira kabi soʻzlarda talaffuz etilmasa ham yozuvda doimo saqlanadi. 2. 0ʻzbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Yozuvda ular 23 ta harf bilan ifodalanadi: shulardan 3 tasi harf birikmasi, 21 tasi yakka harf bilan belgilanadi. Ular quyidagilar: b, d, f, g, h, j (jurnal), j (joʻja), k, 1, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g, sh, ch, ng. Undoshlarni oʻrgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslaniladi. Alifbo davrida undosh tovushlar bilan tanishtirishni sonor, ya’ni ovozdor tovushlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki sonor tovushlarni boʻgʻin va soʻz taikibidan ajratib olish oson. Lekin ng sonor undoshi n va g undosh tovushlari va harflari bilan tanishtirilgach, oʻrgatiladi. Harf birikmalarini oʻrgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda, ularning alifbe davrining oxirgi bosqichida oʻrganilishi maqsadga muvofiqdir. J harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Birinchi darsda portlovchi j tovushini oʻrgatish, talaffuzini tushuntirish, analitik-sintetik mashqlar yordamida koʻnikmalar hosil qiliinadi, keyingi darsda esa sirgʻaluvchi j tovushi va lining talaffuzi oʻrgatiladi. Soʻng bu ikki tovushning talaffuzidagi farq taqqoslash usuli orqali tushuntiriladi. Berilgan bilim analitiksintetik mashqlar yordamida mustahkamlanadi. Sh tovushini ifodalovchi sh harf birikmasi ham s va h harfi bilan, ch tovushini ifodalovchi ch harf birikmasi h harfi bilan tanishtirilgach, oʻrgatiladi. Oʻquvchilar bu harf birikmalarini bir yaxlit tovush

sifatida oʻqish va yozishga koʻnikishlari lozim. Bu davrda s'h (is'hoq) tarzida oʻqiladigan holatga toʻxtalmaydi. Jarangsiz jufti borjarangli undoshlar lalaffuzi (b—p, d—t, v-f g—k, Z-s kabi) haqida dastlabki amaliy tushunchalar hosil qilinadi, ularning talaffuzi va yozilishiga e'tibor qaratiladi. X va h tovushlarining talaffuzi va imlosi haqida ham dastlabki tushunchalar beriladi, ularni farqlash boʻyicha maxsus mashqlar ham uyushtiriladi. Tutuq belgisi (') unli tovushdan soʻng kelsa, uni choʻzib talaffuz qilishga, undosh tovushdan soʻng kelsa. imdoshni unlidan ajratib talaffuz qilishga xizmat qilishi haqida ham tushunchalar berilib, asta-sekin uni qoʻllashga doir koʻnikmalar shakllantiriladi.

Savod oʻrgatish jarayonida harflarning 4 xil (bosma, yozma, bosh va kichik) shakli va ularning ishlatilish oʻrni oʻrgatiladi. 0ʻquvchilarni oʻqishga oʻrgatish boʻgʻin asosida olib boriladi. Boʻgʻinlab oʻqishga oʻrgatish uchun soʻzni boʻgʻinga boʻlish, boʻgʻin chegarasini aniqlashni oʻrgatish muhim sanaladi. Savod oʻrgatish davrida oʻquvchilar soʻzlarni boʻgʻinlarga toʻgʻri ajrata olsalar, oʻqish koʻnikmasini ham yaxshi egallaydilar. Oʻqishning dastlabki bosqichida orfografik oʻqishdan foydalaniladi, astasekin orfoepik oʻqish koʻnikmalari shakllantiriladi. Talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan tovushlar ishtirok etgan soʻzlar oldin orfografik, soʻngra orfoepik oʻqib beriladi va ularning oʻqilishi bilan yozilishi taqqoslanadi. Oʻquvchilar muayyan darajada tushunchaga ega boʻlgan!aridan soʻng orfoepik oʻqish mashq qilinadi.

Savod oʻrgatishda analitik-sintetik tovush metodi Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois analitik-sintetik tovush metodining an'anaviy hamda shakllanish, tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Savod oʻrgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga koʻra ta'limiy va oʻstiruvchi xarakterda boʻladi, nutqiy mashqlar orqali aqliy oʻsishini ta'minlaydi, oʻqishning ongli boʻlishini talab etadi.

2. Analitik-sintetik tovush metodi tashkiliy tomondan quyidagi ikki davrga boʻlinadi: a) alifbegacha tayyorlov davri; b) alifbo davri.

Bunda yozuvga oʻrgatish oʻqishga oʻrgatish bilan parallel holda olib boriladi.

3. Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtai nazardan quyidagilarga e'tibor qaratiladi: a) savod oʻrgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi; b) savod oʻrgatishga tovush asos qilib olinadi, unda tovushni ajra- tishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi; d) oʻqish birligi sifalida boʻgʻin olinadi, boʻgʻin ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardir:

1. Ta'lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan: savod oʻrgatish jarayonida oʻquvchilarga differensial va individual yondashish (bu bolaning umumiy rivojlanishi hamda oʻqish va yozishga tayyorligiga bogʻliq).

2. Oʻqitishning istiqboli nuqtayi nazaridan: grammatika, soʻz yasalishi, imlo, leksikologiyaga oid bilimlarni nazariyasiz amaliy asosda muntazam berib borish.

3. Psixolingvistik nuqtai nazaridan: tovush va harfni oʻqitishning qulay usulini izlash, tovush va harflarning mosligini, osonligini, ta'limning tarbiyaviy va oʻstiruvchi xarakterini hisobga olish. Ta'lim jarayonida oʻquvchilarga tarbiya ham berib boriladi. Tarbiyalash didaktikaning muhim tamoyillaridandir. Maktabda axloqiy tarbiya beriladi, ilmiy dunyoqarash elementlari shakllantiriladi. Bolalar darsda ommaviy siyosiy tushunchalarni egallaydilar. „Alifbe" sahifalarida doʻstlik, baynalmilal munosabat, bolalar mehnati, tabiat, kattalar mehnati. bolalar oʻyinlari, oila, maktab hayotiga oid rasmlar berilgan, turli mavzularda matnlar keltirilgan. Bular bolalarda oʻzaro doʻstlik, mehnatsevarlik, mehnatni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, tabiatni sevish va asrash, hay- vonot dunyosiga qiziqish, ularni muhofaza qilish, maktab va oʻqishni sevish, umuman, estetik tarbiyani shakllantiradi. Demak, bolalarga axloqiy, gʻoyaviysiyosiy, mehnat va estetik tarbiya berish ham savod oʻrgatish vazifasiga kiradi.

Savod oʻrgatish davri bosqichlari Analitik-sintetik (tahlil-tarkib) tovush metodida savod oʻrgatish jarayoni 4 oy davom etadi. Bu

jarayon quyidagi 2 davrga bo‘linadi: a) alifbogacha tayyorgarlik davri (2 hafta); b) alifbo davri (31 dekabrgacha davom etadi). Alifbogacha tayyorgarlik davri. Bu davrning asosiy vazifasi o‘quvchilarni maktab, sinf, tartib-intizom qoidalari va o‘quv qurollari bilan tanishtirish, nutq o‘stirishga oid mashqlar o‘tkazib, fonematik eshitishni o‘stirishdan iboratdir. Alifbogacha tayyorgarlik davri, o‘z navbatida, quyidagi 2 bosqichga bo‘linadi: 1. Harf o‘rganilmaydigan bosqich (1 hafta). 2. Unli tovush va harf o‘rganiladigan bosqich (1 hafta). 1- bosqichda o‘quvchilarga og‘zaki va yozma nutq haqida, gap, so‘z, bo‘g‘in va tovushlar haqida, nutqning gaplardan, gaplarning so‘zlardan tuzilishi, so‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi, bo‘g‘inlarning tovushlardan tashkil topishi haqida ma’lumot beriladi, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o‘rgatiladi, ulardan amaliy foydalana bilish ko‘nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda maxsus nusxalar asosida o‘quvchilarning bogManishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga „Alifbe“da berilgan rasmlar asosida hikoyalar tuzdirishdan tashqari, o‘zlari bilgan she’r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, xalq ashulalari, alla, qo‘shiqlar, latifalardan ayttiriladi. Tayanch so‘zlar asosida gap tuzdirish, „Alifbe“ sahifalaridagi so‘zlarning talaffuzi, o‘qilishi va ma’nolari ustida ishlash kabi ishlar uyushtiriladi (Bu tarzdagi ishlar har bir darsda mavzularga bog‘liq ravishda izchil davom ettirib boriladi). Bu bosqichdagi yozuv darslarida o‘quvchilar yozuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtirilib, harf elementlarini yozishga o‘rgatiladi, ularda namunaga qarab grafik xatolarini aniqlash – o‘z-o‘zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish, chamalab yozish kabi ko‘nikmalar hosil qilinadi. 2- bosqichda unli tovush-harflar o‘rgatiladi. Bunda ularning quyidagi uch xususiyatini o‘quvchilar amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim: a) talaffuzda (og‘izda) to‘siqqa uchramasligi; b) cho‘zib aytilishi; d) faqat ovozdan tashkil topishi. Shuningdek, bu bosqichda tovush bilan harfni farqlashga o‘rgatish ko‘zda tutiladi. Ushbu bosqichdanoq tovush va harf o‘rtasidagi chegaraga qat’iy rioya qilinadi.

Bolalarga tovush haqidagi ma’lumotlar kitob ochtirilmay beriladi. Tovushni ifodalovchi harf ko‘rsatilgach, harf ustida ishlanadi. Tovush va harfga oid o‘ziga xos xususiyatlar (tovushlarni

talaffuz qilamiz, eshitamiz; harflarni yozamiz, koʻramiz, oʻqiymiz) ham izchil ravishda oʻquvchilarning oʻzlashtirishlarini hisobga olgan holda sekin-asta tushuntirila boriladi. Alifbo davri. Bu davr 31-dekabrgacha davom etib, unda oʻquvchilar alifbodagi barcha unli va undosh tovush-harflar bilan tanishtiriladi. Undoshlar osondan qiyinga tamoyili asosida joylashtiriladi. Oldin sonor tovushlar (n, m, I kabi), keyin esa sirgʻaluvchi va boshqa un¬doshlar: ikki tovushni ifodalaydigan j, harf birikmalari (ng, sh, ch), tovush bildirmaydigan tutuq belgisi (ʼ) bilan tanishtiriladi. Oʻquvchilarning tovush va harfni yaxshi tanishlari, elementar oʻqishni inuvafTaqiyatli egallashlari uchun boʻgʻinga boʻlish, boʻgʻin chegarasini aniqlash, boʻgʻindan tovushni ajratish, tovush va harf munosabatini aniqlash, kesma harflardan boʻgʻin tuzish va oʻqish, boʻgʻin-tovush, tovush-harf tahlili kabi mashqlardan foydalaniladi. Bu davrda boʻgʻinlab oʻqish asosi shakllantiriladi: ikki harfli ochiq (na, ni, nut kubi, ikki harfli yopiq (in, ol kabi), uch harfli yopiq boʻgʻinlarni (mon, lim, til kabi,) oʻqishga oʻrgatiladi.

Alifbo davrini oʻrganiladigan tovush-harfning va oʻquv materialining murakkablik darajasiga koʻra 3 bosqichga ajratish mumkin: 1) unli tovush-harflar, ovozdor, sirgʻaluvchi undoshlar, o-na, a-na, il, in, bilan tuzilishidagi soʻzlar oʻrganiladigan bosqich; 2) artikulatsiyasi qiyin boʻlgan r, k, v kabi undoshlar va yoʻlbars, doʻst, rasm kabi tuzilishdagi soʻzlar oʻrganiladigan bosqich; 3) oʻrganilganlar takrorlanib, harf birikmalari ng, sh, ch, 2 tovushni ifodalaydigan j, tutuq belgisi (ʼ) va joʻja, jurnal, jirafa, tong, soʻng, bodring, choynak, shudring va shu kabi soʻzlarni oʻqishga oʻrgatiladigan bosqich.

Fonetik ishlar sohasida jarangli va jarangsiz undoshlarni taqqoslashga, ularning soʻz maʼnosini farqlashdagi holatini aniqlashga oid mashqlar oʻtkaziladi (ziyrak — siyrak, dil — til kabi). Artikulyatsiyasi qiyin boʻlgan undoshlar ng (tong, rang, keng), lab-tish undoshi v, qorishiq undosh ch, jarangli portlovchi j goʻja) va jarangli sirgʻaluvchi — j (jurnal) kabilarni oʻrganishda tovush artikulatsiyasiga oid ishlar qiyinlashadi.

Asosiy davrning oxirlarida jarangsiz jufti talaffuz qilinadigan undoshli soʻzlar: koʻrib (koʻrip), qaytdik (qayttik), aytib (aytip), ketayotib (ketayotip), tortib (tortip), terib (terip), olib (olip), obod

(obot), borishdi (borishti); qisqa talaffuz qilinadigan i unlisi bor soʻzlar: bilan (blan), sira (sra); talaffuzda tushib qoladigan undoshli soʻzlar: baland (balan), doʻst (doʻs), Toshkent (Toshken), farzand (farzan), doraxt (darax) kabilarni yozilgandek oʻqish imloni oʻrganishga tayyorlaydi. Bular avval orfografik, soʻng orfoepik oʻqitiladi. Yuqoridagi kabi soʻzlarni oʻqish bilan boʻgʻinlab oʻqish malakasi takomillashadi: oʻquvchilar talaffuzi va yozilishida farqlanadigan soʻzlarni ham toʻgʻri oʻqishga oʻrganadilar.

Alifbo davrining oxirida oʻquvchilar quyidagi bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishlari zarur: a) hamma tovushlarni tanishi va har qanday holatda toʻgʻri talaffuz qilishi; b) soʻzning boʻgʻin-tovush, tovush-harf tahlilini bilishi, soʻzdagi tovushlarning izchil tartibini aniqlay olishi, kerakli tovushni soʻz va boʻgʻinga ajrata olishi; d) kesma harf va boʻgʻinlardan soʻz tuza olishi va oʻqishi; e) 2-3-4 boʻgʻinli soʻzlarni yaxlit, adabiy-orfocpik talaffuz bilan oʻqishi; f) gaplarni ohangiga rioya qilib oʻqishi; 25 g) oʻzi oʻqigan matnning mazmunini tushunib, ongli oʻqishi; h) oʻqigan matn mazmunini savollar asosida soddagina qilib qayta hikoyalab berishi; i) oʻqigan matnga sarlavha topa olishi; j) toʻgʻri, tez, ongli va ifodali oʻqish malakalariga ega boʻlishi.

Alifbo davri yozuv darslarining vazifasi — kichik va bosh yozma harflarni toʻgʻri shakllantirish, harflarni toʻgʻri ulash, alifbeda oʻqigan boʻgʻin, soʻz va gaplarni namunaga qarab yozish, harf, boʻgʻin, soʻz, gap diktantlami yozish koʻnikmasini shakllantirish, izohli, saylanma, koʻruv rasm diktant kabi ta’limiy diktant turlarini yoza olishlariga erishish, umuman, grafik malakani shakllantirishdir.

Savod oʻrgatish jarayonining oxirida bir darsda, agar darsning 2/3 qismi yozuvga ajratilsa, 20 tagacha soʻz yoza olishlari talab qilinadi.

Grafik malakani shakllantirishda quyidagi bosqichlar

1.Turli shakllar andozasi ustidan chizish. Erkin rasmlar chizish . Yozuv qurollarini toʻgʻri tutish, turli qiya elementlar chizish, uzunlikni, oraliq masofani chamalash va hokazo.

2.Harf elementlarini yozish, baravar masofada qisqa va uzun elementlar, osti va usti ilmoqli elementlar chizish.

3.Bosh va kichik harflarni alohida yozish. harf birikmalarini, bo‘g‘inni yozish, harflarni to‘g‘ri tushib yozish malakasini hosil qilish uchun so‘z yozish.

Grafik malakani hosil qilishdan asosiy maqsad, harflarni bosmasdan bir tekisda, elementlarga ajratmay bog‘lab tez, bir maromda yozish, so‘zlarni qatorga tog‘ri joylashtirishdir.Shuni ta'kidlash kerakki, savod o‘rgatish davrida bola harflarni yozishdan oldin uni qanday shakllantirishni ko‘z oldiga keltirib, fikrlab oladi, ba’zan harf shaklini zavoda «chizadi», harf namunasini ko‘chiradi, tarkibini tahlil qiladi, uni qanday yozishni uzicha sekin gapiradi: o‘qituvchi o‘quvchi yoniga o‘tirib, ruchkani tugri ushlatadi va uning qo‘li bilan xarfni yozishni ko‘rsatadi yoki o‘zi yozib tushuntiradi. Bundan tashqari, bola yozuvning texnik tomoniga katta jismoniy kuch sarflaydi. Savod o‘rgatish oxirida bola bir darsda 20 tacha so‘zni yozishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga binoan 1993-yil 2- sentyabrda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-mayda qonunga o‘zgartirishlar kiritildi. Bu alifbodagi xarflarning asosiy xususiyati bosmasdan, qo‘lni uzmasdan bog‘lab yozishga mo‘ljallangan. Shuning uchun yozuvga o‘rgatish metodikasida harflarni qo‘shishga alohida ahamiyat beriladi. O‘quvchilar barcha harflarni bir-biriga qo‘shish yo‘lini bilishlari lozim. Maktabda asosiy yozuv quroli sharikli ruchka, xattaxtada yozish uchun bo‘rdan foydalaniladi. Savod o‘rgatish davrida bolalarni yozuvga o‘rgatish uchun turli vaqtlarda turli xil chiziqli daftarlardan foydalanilgan: dastlab chiziqsiz silliq qog‘oz ishlatilgan bo‘lsa, keyin quyuq yopiq chiziqlar bilan kesilgan uch chiziqli daftardan foydalanilgan.

Hozirgi vaqtda yozuvga o‘rgatish uchun ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Xattaxta ham shunga mos bo‘lishi talab qilinadi; 2-sinfdan, ba’zan birinchi sinfda o‘quv yilining ikkiichi yarmidan boshlab bir chiziqli daftarga yozishga o‘tiladi. Daftar tutishda bolalarni xoshiya qoldirishga, daftar chiziqlariga rioya qilishga, xarflarni bir xil xajmda yozishga, sarlavxani aniq va to‘gri ajratishga, xat boshidan yozishda joy qoldirishni unutmaslikka o‘rgatib borish ulurda saranjomsarishtalikni tarbiyalaydi. Yozuv

darsida oʻquvchilar “Yozuv daftari” bilan ishlaydilar. Sinfda oʻrganilgan xarfni uyda mashq qilish uchun aloxida daftar boʻlgani maʼqul. Oʻqituvchi yozish vaqtida 65 gradus qiyalikda yozishni, buning uchun daftar parta ustiga 25 gradus qiyalikda qoʻyilishini taʼkidlab turadi.

Savod oʻrgatish davrida oʻquvchilar: a) talaffuzi va yozilishida fark qilmaydigan soʻzlarda tovush bilan xarfning mosligini; b) soʻzlarni alohida yozishni, yani yozuv vositasida suzni maʼno birligi sifatida ajratishni; v) soʻzning satrga sigʻmay qolgan qismini keyingi qatorga boʻgʻinlab koʻchirib yozishki, bunda bugan hosil qilgan bir unli harfni qatorga koʻchirib yozib boʻlmasligini; g) gap boshida, shuningdek, kishilar ismida, xayvonlarga qoʻyilgan nomlarda bosh xarfning ishlatilishini amaliy tarzda oʻrganadilar. Savod oʻrgatish davridayok k oʻchirib yozish, diktant va ijodiy yozuvlardan foydalaniladi. Oʻz-oʻzini tekshirishga oʻrganadilar.

Yozuv darslarida xam oʻquvchilar nutqini oʻstirtish, fikrlashga oʻrgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Maʼlumki, savod oʻrgatish, oʻqish darslarining asosiy vazifasi oʻquvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning toʻgʻri talaffuzga oʻrgatish orqali bolalarda toʻgʻri, ongli, ifodali oʻqish koʻnikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, oʻquvchilar lugʻatini boyitish, bogʻlanishli nutqini oʻstirish, bilimini boyitish, mavhum tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini oʻstirishda ham bu davr mas'uliyatliligi bilan alohida oʻrin tutadi. Tayyorgarlik davri oʻqishda oʻrgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda oʻzgalar nutqini eshitish, diqqatni toʻplash, til birikmalarini (tovush, boʻgʻin, soʻz, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular oʻquvchilarniig oʻqishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi. Oʻqishga oʻrgatish uchun avvalo oʻquvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda boʻgʻindan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi.

Harf bilan tanishtirish bir necha xil yoʻnalishda amalga oshirilishi mumkin:

1.Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bogʻlanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, soʻng kerakli soʻz ajratib

olinadi, soʻngra soʻz ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

2.Soʻz asos qilib olinadi. Analitik matnlar yordamida oʻrganiladigan tovush ajratib olinadi: ot. Oʻqituvchi ot rasmini koʻrsatadi, oʻquvchilar uning nomini – soʻzni aytadi. Oʻqituvchi o tovushini choʻzib (o-o-o-o t) aytadi va q aysi tovushni choʻzib aytayotganini oʻquvchilardan soʻraydi. Oʻquvchilar o tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob oʻtkaziladi. O tovushli soʻzlar oʻylab toptiriladi. Shundan soʻng o harfi kesma harfdan yoki rasmli alifbodan koʻrsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor beriladi.

3.Oʻrganilgan harflar ichiga bugun oʻrganiladigai harf aralashtirib quyiladi bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, soʻng oʻqituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadilar. Oʻquvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmli alifbodan koʻrsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, oʻqishga oʻrgatish ustida ishlanadi. Oʻqishga oʻrgatishda boʻgʻin asos qilib olinadi. Buning uchun oʻqituvchida boʻgʻin jadvali boʻlishi lozim. Boʻgʻin jadvali asosida oʻqish namunasi koʻrsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni koʻz bilan koʻrib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni koʻrish va ikkalasini bogʻlab, unlini moʻljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bunday oʻqish oʻqituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. Bunda quyidagi kabi jadvaldan foydalanish mumkin. Bunda "Alifbe" sahifalaridagi soʻzlarni oldin boʻgʻinga boʻlish, soʻng oʻqishni mashq qilish yaxshi samara beradi. Oʻqituvchining namunali oʻqishidan soʻng xor bilan oʻqish, yakka— yakka oʻqishdan, shivirlab oʻqishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin oʻqiydigan oʻquvchilar boʻlgan sinflarda xor bilan oʻqitish oʻqishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf oʻquvchilarining oʻqish koʻnikmalaridan kelib chiqib, matndagi soʻzlarni harf xattaxtasiga boʻgʻinlarga boʻlib yozish, oʻrganilgan harflarni hisobga olgan holda qoʻshimcha soʻz birikmalari, gaplar tuzib yozish va oʻqitish usu lidan ham foydalaniladi.

Ma'lumki, "Alifbe" sahifalarida bugun tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun oʻqituvchi har bir boʻgʻin tuzilishining

murakkabligiga qarab ish usullarni belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to‘rt tovushdam tuzilgan matnlarni o‘qishga o‘rgatish ham o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o-lam, Man-non, tipidagi bo‘g‘inlarda — o-lam, M’a-no, non tarzidagi qo‘shimcha chiziqdan, bodring, do‘st tipidagi bo‘g‘inda ring, do‘st tarzidaga qo‘shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So‘zlarni o‘qishga o‘rgatishda bilib o‘qitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi, Umuman olganda, har bir o‘qish darsida albatta bo‘g‘in tuzilishi murakkab so‘zlarni o‘qish mashqi o‘tkazilishi lozim. Bu usul o‘quvchilarda o‘qish malakasining takomillashuviga yordam beradi. O‘qishga o‘rgatishda so‘zlarni va gaplarni to‘ldirib o‘qish ko‘nikmalarini hosil qilish o‘quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo‘naltiriladi. O‘quvchi tushirib qoldirilgan harf va so‘zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e’tibor beradi, o‘rtoqlariga nisbatan tez topib, o‘qituvchining rahmatiga sazovor bo‘lishga intiladi. «Alifbe» darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. Ular shularga mos ohang tanlashni, to‘xtash, pauza qilish o‘rinlarini belgilab olishni taqazo etadi. Bunda ham o‘qituvchining tushuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini izohlashi) va ifodali o‘qish namunasini ko‘rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o‘qilgan matngina tushunarli bo‘ladi. Har bir predmetda bo‘lgani kabi o‘qish darslarida ham ta’lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi.

O‘qish darslarida tarbiya o‘qilgan matnning ongli o‘zlashtirilishiga bog‘liq. O‘quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o‘zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan esa yaxshi inson bo‘lish uchun o‘qishning zarurligini anglaydi. Shuning uchun ongli o‘qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga dikkat qaratish lozim.

Masalan, rasmni kuzatish, endi matnni uning, matnda nima haqida gapiriladi? Rasmda nima tasvirlangan? Ular orasida bog‘lanish bormi? Matn mazmunini rasmga qarab so‘zlab bering. Yoki: Bolalar qayerga bordilar? Qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi? Ali, Lola nima qildi? Ular qanday lolar terdilar? Demak, o‘qish o‘qilganlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim,

Shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g‘oya o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtiriladi. So‘ng so‘z va matnlar yod olingan taqdirda ham o‘quvchiniki bo‘lib qoladi. O‘qishning ongliligini va ta'sirchanligiki ta’minlash uchun matn mazmunini o‘quvchilarning ko‘rgan -kechirganlarini, taassurotlari bilan bog‘lash lozim. Shunda o‘quvchida o‘qishga, o‘rganishga qiziqish ortadi.

Ongli o‘qishni amalga oshirishda lug‘at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 51-sahifada uvol, rizq-ro‘z so‘zlari bor. Ularning ma'nosi ustida to‘xtalish, birinchidan, fikrni oydinlashtirsa, ikkinchi tomondan tarbiyalashga ham xizmat qiladi. She’r, tez aytish, topishmoq, maqol, hikmatli so‘zlardan o‘qitish, yod oldirish ham o‘quvchilarni o‘qishga qiziqishini oshiradi, o‘qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. O‘qish darslarining uchdan ikki qismi o‘qishni mashq qilishga ajratilishi lozim. Demak, o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish, ularning o‘qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o‘qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o‘qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi. Orfografiya grekcha “to‘g‘ri” va “yozaman” so‘zlaridan olingan bo‘lib, adabiy tilning yozma shakli bilan bogliq. Orfografiya to‘g‘ri yozish haqidagi qoidalar ko‘nikmasidir. Orfografiyani bilmay turib, fikrni adabiy til normalari asosida yozma ifodalab bo‘lmaydi. O‘quvchilarning orfografik savodxonligi haqida gamxo‘rlik qilish tilning aniqligi, fikrni to‘gri ifodalash, kishilar bilan o‘zaro xatosiz muomala qilish uchun gamxo‘rlik demakdir. Savod o‘rgatishda bolalarda grafik malakani shakllantirish bilan bir vaqtda imloga oid malakani shakllantirishga ham zamin yaratiladi.

Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar:

a) talaffuzi va yozilishida farq qilmaydigan so‘zlarda tovush bilan harfning mosligini;

b) so‘zlarni alohida yozishni, ya’ni yozuv vositasida so‘zni ma’no birligi sifatida ajratishni;

v) so‘zning Savod o‘rgatish davri o‘qish va yozuv darslariga qo‘yiladigan satrga sigmay qolgan qismini keyingi qatorga bo‘ginlab ko‘chirib yozishki, bunda bo‘gin hosil qilgan bir unli harfni qatorga ko‘chirib yozib bo‘lmasligini;

g) gap boshida, shuningdek, kishilar ismida, hayvonlarga qoʻyilgan nomlarda bosh harfning ishlatilishini amaliy tarzda oʻrganadilar.

Savod oʻrgatish davridayoq koʻchirib yozish, diktant va ijodiy yozuvlardan foydalaniladi. Oʻz-oʻzini tekshirishga oʻrganadilar. Yozuv darslarida ham oʻquvchilar nutqini oʻstirtish, fikrlashga oʻrgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Dars ta'limning asosiy shakli hisoblanadi.

Savod oʻrgatish darslari xilma-xil boʻlishiga qaramay oʻqish yoki yozuv darslari va ularning ayrim turlari uchun umumiy boʻlgan asosiy talablar mavjud. Bu oʻrinda umumdidaktik talablar talabalardai soʻrab aniqlanadi. Soʻngra ona tili darslariga kuyiladigan talablar sanab koʻrsatiladi. 1.Oʻquvchilar nutqi uchun qaygʻurish. 2.Darsda adabiy til nuqtayi nazaridan toʻgʻri ifodali, obrazli, aniq logik nutq eshittiriladi. 3.Darsda nutq madaniyati hukmron boʻladi. Oʻqish va yozuv koʻnikma malakalarini shakllantirish mashqlari darsda yetakchi oʻrinni egallab taxminan, darsning 2,3 qismiga turi kelishi lozim.

Har bir oʻqish va yozuv darsida "Alifbe"dagi matnlar bilan bir qatorda Q.Moʻhammadiy, P.Moʻmin, A.Obidjon kabi sevimli bolalar shoiri va yozuvchilari asarlaridan namunalar tanlanadk. Shunday qilib oʻqish sinfdan tashkari oʻqish, oʻqib berilgan matini eshitish bilan bogʻlanadi.

Oʻqish va yozuv darslari bir-biri bilan uzviy bogʻlanadi: oʻqish darsi oʻquvchilarni yozuv darsiga tayyorlaydi, yozuv darsi oldingi oʻqish darsining davomi sifatida xizmat qiladi. Savod oʻrgatish davrida oʻquvchilar bilimi dars jarayonida barcha ishlarga bogʻlab aniqlanadi, bogʻlanishli nutqni oʻstirish ham oʻqish va yozuv darslariga uzviy bogʻlanib ketadi. Oʻquvchilarning sinfdan tashqari oʻqishlariga rahbarlik qilishlariga haftada bir marta 20 daqiqa ajratiladi. Savod oʻrgatish darslarida vaqti-vaqti bilan dam olish daqiqalari oʻtkaziladi.

Darslar sistemasi deyilganda oʻquv vaqtini mavzularga nazariy va amaliy jihatdan rejali taqsimlangan darslarning mantiqiyligi va istiqboli bir-biri bogʻlangan dars turlari va unda oʻqituvchi bilan oʻquvchilar foydalaniladigan asosiy metodik vositalar xilma-xil boʻlgan izchillik nazarda tutiladi. Oraliq davr alifbe davri

hisoblanadi. Ta’limning har bir bosqichidagi darsning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Darslar siklining qurilishida ichki mantiqiylik bo‘lib, har bir siklda yangi tovush va harf o‘rganiladigan dars bilan yangi mavzu o‘rganilmaydigan darsni navbatlashtirish, orfografiya va so‘zning bo‘g‘in tuzilishi haqida ma'lumot berish, o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stirish kabi talablarga rioya qilinadi. Darslar sikli takrorlash-umumlashtirish darsi bilan yakunlanadi.

Oz komplektli maktablarda o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ikki yoki uch sinf bilan ishlaydi. Bunday sinflarda o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida bir necha sinf o‘quvchilari bilan ish olib boradi. Bunday sinflarda dars jadvali integrallashtirilgan bo‘lishi kerak va darslar 30 daqiqaga qisqartirilishi mumkin. Oz komplektli maktablarda o‘quvchilarning mustaqil ishlariga alohida ahamiyat beriladi. Shuning uchun mustaqil ishlar tizimi ishlab chiqilishi zarur. Tovush savod o‘rgatishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Savod o‘rgatish davrida so‘z va bo‘g‘inlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish, tovush va ularning artikulyatsiyasini analiz qilish mashqlari o‘tkaziladi, diktsiya (ravshan, burro gapirish) ustida ishlanadi, logopedik ishlar olib boriladi. Tovush ustida ishlash bilan ayniqsa, kesma harflardan so‘z tuzish kabi sintez qilish priyomlarida birlashib ketadi; tovush va harf Markaziysidagi munosabatni doimo aniqlab borish o‘qish malakalarini shakllantirish uchun ham, imlo tomonidan savodli yozish asosini yaratish uchun ham foydalidir.

Savod o‘rgatish davri o‘qish va yozuv darslarida qo‘llaniladigan mashq turlari S.P.Redozubov tovushni analiz va sintez qilish mashqlarini to‘liq ishlab chiqqan. Shulardan o‘zbek tilida savod o‘rgatishda quyidagi mahg‘ulotlardan foydalaniladi:

I. Analiz mashqlari: 1.Nutq (gap)dan so‘zni ajratish; so‘zni aniq talaffuz qilish; bo‘g‘inlarga bo‘lish va bo‘g‘inlarni aniq talaffuz qilish urg‘uli bo‘g‘inni ajratish hamda uni boshqa bo‘g‘inlardan farqlab, kuchli talaffuz qilib o‘qish, maxsus tovushni ajratgan holda so‘zni bo‘ginlab o‘qish (aaaa-na, nooon, iiil. Sssa-na, yyyul, ki-yyyik, iiish)

2.Shu darsda o‘rganiladigan yangi tovushni ajratish. Yangi tovushni birinchi marta ajratishning bir necha usuli bor: a) so‘zdan tovushni uzun talaffuz qilib ajratish: aaa-na, looo-la, iiin, booo-la; b) undosh tovushni yopiq bo‘g‘indan ajratish: Usss-mon, O- limmm,

Ominnn. v) sirgʻaluvchi undoshni ochiq boʻgʻindan ajratish: sssa-na, to-yyyi, zzzi-rak; g) boʻgʻin hosil qilgan bir unlini ajratish: o-na, u-num, u- tin, yo-rur, o-qta, yu-tuk, u-zuk; d) oʻrganilgan tovushni soʻz boshida kelgan soʻzlardan ajratish (soʻzni oʻqituvchi aytadi, birinchi tovushni esa oʻquvchi aytadi): nok,tok, lola,...; e) rasm nomini ifodalovchi soʻzni aytish: oʻqituvchi nolning rasmini koʻrsatib, nok deydi, oʻquvchilar k tovushini oʻzlari oʻqiydilar nok. Asosan, darsda yangi tovush birinchi marta ajratib, talaffuz qilingandan soʻng, shu tovush soʻz boshida, markaziysida, oxirida kelgan va ana shu talaffuz qilinadigan soʻzlar tanlanib, oʻquvchilarga talaffuz qildiriladi: k tovushi uchun: kuz, tik, tok. O tovushi: olma, osh, O-mon; D tovushi: dor. Odil (suz oxirida jarangsizlashadigan ozod, hisob kabi suzlarni tanlash tavsiya qilinmaydi).

3. Soʻzdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, boʻgʻinlarni sanash: Olma – ol-ma - o-l-m-a; toʻrtta tovush, toʻrtta harf, ikki unli tovush, ikki undosh tovush, ikki boʻgʻin .... Bu mashqdan oqʼuv yilining ikkinchi yarmida va keyingi sinflarda ham fonetik tahlil sifatida foydalaniladi.

4. Jarangli va jarangsiz undoshli soʻzlarni taqqoslash: dil-til, oldin-oltin, tortosh, moy-choy-loy-boy-soy-toy kabi. Savod oʻrgatishda analiz-sintez bir-biridan ajratilmaydi, chunki analiz oʻqish jarayonini egallash uchun zamin yaratadi, sintez esa koʻprok oʻqish malakasini shakllantiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Boshlangʻich sinflarda ona tili taʼlimining maqsadi nima?
2. Maktablarda ona tili oʻrgatishning mazmuni haqida fikr yuriting?
3. Badiiy matnni shakllantiruvchi vositalarni haqida gapiring.
4. Ona tili oʻqitishning qonun- qoidalari haqida mulohaza yuriting?
5. Savod oʻrgatishda analiz-sintez metodlarining ahamiyati.

8-MAVZU. O‘QUVCHILARDA GRAMMATIKA VA SO‘Z YASALISHIGA OLD TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI.

Reja:

1. Boshlang‘ich sinflarda grammatik tushuncha

2.Boshlang‘ich sinflarda so‘zning morfemik tarkibini o‘rganish metodikasi.

3. So‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi ustida ishlash

Tayanch so‘zlar: *grammatik tushuncha, o‘zak, morfema, so‘z turkumlari, o‘zak, so‘z yasovchi va forma yasovchi qo‘shimchalar, sifatning xususiyatlari, otning xususiyatlari, kelishik qo‘shimchalar*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tilio‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X.Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.:TDPU, 2013. –70 b.

3.Икромова Р, Ғуломова Х, Йўлдошева Ш, Шодмонқулова Д, Она тили, 4-синф, -Т.: 2017.

4. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2017.

5. Фузалиев С, Худойберганова М, Йўлдошева, “Она тили”, 3-синф, -Т,: “Ўқитувчи”, 2018.

6. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2016.

7. Қосимова К, Фузалиев С, Неъматова А, “Она тили”, 2-синф, -Т,: “Чўлпон”, 2018.

8. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” - Т,: “Шарқ” 2015.

9. Ғаффорова Г, Шодмонов Й, Ғуломова Х , “Она тили”, 1 -синф, -Т,: “Шарқ”, 2019.

10. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 1-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2014.

11. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2015.

12. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2016.

13. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2017.

14. Ҳ.Бакиева, Н.Аҳмедова, Н.Азизова, Д.Носирова, Б.Тешабоева, У.Исмоилова, Б.Эгамбердиева “Саводга ўргатиш дарслари”.-Т.: “Эхтремум-пресс”, 2014. -119 б

15. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Yevaluation of Yeducational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019.

Axborot manbalari

1.http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

2.http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

3.http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

4.www.pedagog.uz

5.www.timssandpirls.bc.edu.

6. www. pedagog. uz

7. www. Ziyonet. uz

Grammatik tushunchalarda ham boshqa tushunchalar kabi hodisalarning muhim belgilari umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Til hodisalari boshqa hodisalarga nisbatan juda mavhumligi bilan farqlanadi. Grammatik tushunchaning bu

xususiyatlari tufayli o‘quvchilarda tushuncha juda ko‘p qiyinchilik bilan shakllanadi. Grammatik tushunchani bilib olish uchun mavhum tafakkur rivojlangan bo‘lishi kerak. Mavhum tafakkur ta’lim jarayonida maxsus mashqlar orqali rivojlantirib boriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning mavhum tafakkurlarini rivojlantirishga e’tibor bermasa, o‘quvchilar so‘zlarni taqqoslay olmaydilar. Va ularni muhim xususiyaglariga ko‘ra bir guruhga birlashtira olmaydilar. Masalan: yurmoq, ekmoq, chopmoq; uxlamoq, ko‘karmoq, o‘smoq yoki, kitob, do‘st, gulchi; qahramonlik, qadam, tinchlik va h.k. so‘zlarni fe’l va ot turkumiga kirita olmaydilar.

Demak, tushunchani shakllantirish uchun o‘quvchilarda mavhumlashtirish ko‘nikmasini o‘stirish, ular diqqatini so‘zning aniq leksik ma’nosidan grammatik ma’nosiga qaratish va shu guruhdagi so‘zlarga oid umumiy grammatik belgilarni hisobga olgan holda bularni bir guruhga birlashtirishni talab etadi.

Grammatik tushunchani o‘zlashtirish uzoq davom etadigai jarayondir. Bu jarayon shartli ravishda 4 bosqichga bo‘linadi;

1-bosqich – tushunchaning muhim belgilarini ajratish maqsadida til materialini tahlil qilish. Bu bosqichda ma’lum so‘z va gaplarning leksik ma’nosidan kelib chiqib, mavhumlashtirish amalga oshiriladi va til hodisasi uchun xos bo‘lganlari ajratiladi. Tahlil, taqqoslash amalga oshiriladi.

2-bosqich – tushuncha belgilarini umumlashtirish, ular orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash, atamani berish. Qiyoslash, tahlil (analiz), sintezlash o‘tkaziladi.

3-bosqich – tushuncha ta’rifini ifodalashni tushunish, belgilar mohiyatini va ular orasidagi bog‘lanishni aniqlash. Otga xos, fe’lga xos, gapga xos belgilarni sanash.

4-bosqich – yangi til materiali asosida o‘rgatilayotgan tushunchani aniqlashtirish, bilim tajribaga tatbiq etiladigan mashqlar ishlash. Yangi tushunchalarni amalda qo‘llash.

Ko‘rsatilgan bosqichlarni “Fe’l” grammatik tushunchasini shakllantirish jarayoni misolida ko‘rsatib beriladi.

Grammatik tushunchalarni o‘quvchilar ongli o‘zlashtirishlari uchun o‘qituvchi quyidagilarga alohida e’tibor berishi zarur;

1. O‘quvchilar faqat darslikdagi misoldan foydalanmay, o‘zlari mustaqil yoki o‘qish kitobidagi matnlardan topa olsinlar.

2. Qoida aytilgach, o‘quvchidan shu qoidaga mos so‘z yoki so‘z birikmasini qidirib topish yoki o‘ylab topgan misoli orqali qoidani isbotlashni talab qilish.

3. Tushunchaning o‘ziga xos belgilarini qoidani qismlarga bo‘lgan holda sanab berishni so‘rash.

4. Ulardan nutqlarda foydalana olish.

Demak, grammatik tushunchalar ustida ishlash o‘qituvchidan yuksak mahorat talab qiladi.

Grammatik tushunchalarda ham boshqa tushunchalar kabi hodisalarning muhim belgilari umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Til hodisalari boshqa hodisalarga nisbatan juda mavhumligi bilan farqlanadi. Grammatik tushunchaning bu xususiyatlari tufayli o‘quvchilarda tushuncha juda ko‘p qiyinchilik bilan shakllanadi. Grammatik tushunchani bilib olish uchun mavhum tafakkur rivojlangan bo‘lishi kerak. Mavhum tafakkur ta’lim jarayonida maxsus mashqlar orqali rivojlantirib boriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning mavhum tafakkurlarini rivojlantirishga e’tibor bermasa, o‘quvchilar so‘zlarni taqqoslay olmaydilar. Va ularni muhim xususiyaglariga ko‘ra bir guruhga birlashtira olmaydilar. Masalan: yurmoq, ekmoq, chopmoq; uxlamoq, ko‘karmoq, o‘smoq yoki, kitob, do‘st, gulchi; qahramonlik, qadam, tinchlik va h.k. so‘zlarni fe’l va ot turkumiga kirita olmaydilar.

Demak, tushunchani shakllantirish uchun o‘quvchilarda mavhumlashtirish ko‘nikmasini o‘stirish, ular diqqatini so‘zning aniq leksik ma’nosidan grammatik ma’nosiga qaratish va shu guruhdagi so‘zlarga oid umumiy grammatik belgilarni hisobga olgan holda bularni bir guruhga birlashtirishni talab etadi.

Grammatik tushunchani o‘zlashtirish uzoq davom etadigai jarayondir. Bu jarayon shartli ravishda 4 bosqichga bo‘linadi;

1-bosqich – tushunchaning muhim belgilarini ajratish maqsadida til materialini tahlil qilish. Bu bosqichda ma’lum so‘z va gaplarning leksik ma’nosidan kelib chiqib, mavhumlashtirish amalga oshiriladi va til hodisasi uchun xos bo‘lganlari ajratiladi. Tahlil, taqqoslash amalga oshiriladi.

2-bosqich – tushuncha belgilarini umumlashtirish, ular orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash, atamani berish. Qiyoslash, tahlil (analiz), sintezlash o‘tkaziladi.

3-bosqich – tushuncha ta’rifini ifodalashni tushunish, belgilar mohiyatini va ular orasidagi bog‘lanishni aniqlash. Otga xos, fe’lga xos, gapga xos belgilarni sanash.

4-bosqich – yangi til materiali asosida o‘rgatilayotgan tushunchani aniqlashtirish, bilim tajribaga tatbiq etiladigan mashqlar ishlash. Yangi tushunchalarni amalda qo‘llash.

Ko‘rsatilgan bosqichlarni "Fe’l" grammatik tushunchasini shakllantirish jarayoni misolida ko‘rsatib beriladi.

Grammatik tushunchalarni o‘quvchilar ongli o‘zlashtirishlari uchun o‘qituvchi quyidagilarga alohida e’tibor berishi zarur;

1. O‘quvchilar faqat darslikdagi misoldan foydalanmay, o‘zlari mustaqil yoki o‘qish kitobidagi matnlardan topa olsinlar.

2. Qoida aytilgach, o‘quvchidan shu qoidaga mos so‘z yoki so‘z birikmasini qidirib topish yoki o‘ylab topgan misoli orqali qoidani isbotlashni talab qilish.

3. Tushunchaning o‘ziga xos belgilarini qoidani qismlarga bo‘lgan holda sanab berishni so‘rash.

4. Ulardan nutqlarda foydalana olish.

Demak, grammatik tushunchalar ustida ishlash o‘qituvchidan yuksak mahorat talab qiladi.

Tushunchani ko‘rgazmali o‘rganish. Tushunchani shakllantirishning turli bosqichida ko‘rgazmalilikdan foydalanish katta ahamiyatga ega. Tushuncha belgilari bilan tanishtirishning boshlang‘ich bosqichida ko‘rgazmalilikdan o‘rganiladigan hodisannng belgilarini nutqda aniq ko‘rsatish maqsadida foydalaniladi. Til tushunchalarini shakllantirishda foydalaniladigan ko‘rgazmali vositalarning o‘ziga xos xususiyati o‘rganiladigan ob’ekt hisoblangan so‘z, so‘z birikmasi, gap, gap bo‘lagi va boshqalarga mos bo‘ladi. SHunday ekan, ko‘rgazmali vositalarga jadval, chizma, biror predmet, uning rasmi bilan bir qatorda til materialning o‘zi ham kiradi. Tanlangan matnlar, alohida so‘z va gaplarda o‘rganilayotgan hodisa aniq va lo‘nda berilgan, nutqiy vazifasi va grammatik xususiyati ravshan ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Bu ichki ko‘rgazmalilik o‘quvchilarga tushuncha belgilarini mavhumlashtirish, o‘rganilayotgan hodisani biror tomondan o‘xshashi bo‘lgan boshqa hodisalar orasidan topish imkonini beradi.

Masalan, o‘zakdosh so‘zlarni o‘rganishda tarkibida bir necha o‘zakdosh so‘z bo‘lgan matndan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Maktabimiz hovlisida katta gulzor bor. Unga har xil gul ekilgan. Gullarni gulchi o‘quvchilar parvarish qiladilar.

2. Rahimning otasi zavodda ishlaydi. U ilg‘or ishchi. Rahimning o‘zi – ishchan bola. Bu ikki matnda uchtadan o‘zakdosh so‘z bo‘lib, ularning ikki muhim belgisi (bir xil umumiy qismga egaligi va ma’nolaridagi o‘xshashlik)ni hisobga olgan holda, o‘zakdosh so‘zlar yuzasidan umumlashtirish imkoni tug‘iladi. Bundan tashqari, o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida o‘zakdosh so‘zni shu so‘zlarning bir shakli bo‘lgan so‘z (gullarni) bilan taqqoslab, o‘zakdosh so‘zlar bilan so‘z shakli o‘rtasidagi farq haqida elementar tushunchaga ega bo‘ladilar.

Tushunchaning mohiyatini ochishga qaratilgan vazifalarning o‘zi o‘quvchilarni ularni bajarishga undashi, majbur etishi lozim. Bu bilan tushuncha ko‘rgazmaliligi ta’minlanadi. Masalan, gapnnng uyushiq bo‘laklari tushunchasining mohiyatini ochishda ikki-uch gapdan bitta gap tuzish vazifasini berish maqsadga muvofiq. Masalan, Bahorda biz qaldirg‘ochlarni quvonib kutib olamiz. Bahorda biz maynalarni quvonib kutib olamiz. Bahorda biz chug‘urchuqlarni quvonib kutib olamiz. – Bahorda biz qaldirg‘ochlarni, maynalarni, chug‘urchuqlarni quvonib kutib olamiz. Gaplar gap bo‘laklari jihatidan tahlil qilinadi; o‘quvchilar uchala gapda takrorlangan so‘zlarni aytadilar; bunday hollarda kishilar uch gap o‘rniga bitta gapdan foydalanishlarini tushunadilar. Shunday qilib, ular uch gapdan bitta gap tuzadilar, uni gap bo‘laklariga ko‘ra tahlil qiladilar, chizmasini tuzadilar. Bu vazifalarni bajarish bilan o‘quvchilar ko‘rgazmali xulosa chiqaradilar: bir kesimga bir necha ikkinchi darajali bo‘lak bog‘lanishi va ular bir xil so‘roqqa (nimalarni?) javob bo‘lishi mumkin; bir bo‘lakka qarashli va bir xil so‘roqqa javob bo‘lgan bunday so‘zlar gapning uyushiq bo‘laklari deyiladi. Yuqorida keltirilgan misollarda foydalanilgan ko‘rgazmalilik o‘rganilayotgan til hodisalarining belgilarini ajratishga qaratilgan, ya’ni ko‘rgazmalilikdan tushunchani ta’riflashdan oldin foydalanilgan.

Darsda foydalanish uchun ko‘rgazma material tanlashda o‘qituvchi qo‘yilgan maqsadga ko‘ra o‘quvchilar nimani bilib

olishlarini aniq koʻz oldiga keltirishi kerak. Bir koʻrgazma materialdan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Masalan, predmet yoki uning rasmidan soʻzning leksik maʼnosini tushuntirishda ham, grammatik tushunchani shakllantirishda ham foydalanish mumkin. Oʻquvchilarni sifatning nutqdagi ahamiyati bilan tanishtirish uchun oʻqituvchi berilgan predmetni tasvirlash, uning belgilarini aytish vazifasini topshiradi. Oʻquvchilar har qanday predmetni tasvirlash uchun oʻz nutqlarida sifatlardan foydalanadilar. Bu – tabiiy. Oʻqituvchi “Predmetni tasvirlashda siz qaysi soʻzlardan foydalandingiz? Nima maqsadda?” kabi savollar berib, bolalar diqqatini oʻrganiladigan grammatik tushunchaning (bu oʻrinda sifatning) belgilariga qaratadi. Oʻquvchilar predmetni tasvirlash uchun qaysi sifatlardan bir predmetni boshqasidan ajratish maqsadida foydalanganliklarini aytadilar. Bu misolda koʻrgazmali material nutqda grammatik tushuncha (sifat)ning rolini kuzatish maqsadida foydalaniladi va oʻquvchilar aniq materialdan umumlashtirishga oʻtadilar.

Tushunchani shakllantirishni uchun jadval va chizmalardan keng foydalaniladi. Bu koʻrgazmalardan koʻproq tushuncha belgilari ajratilgandan soʻng mavhumlashgan belgilarni umumlashtirish, ular oʻrtasidagi bogʻlanishni aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Shunday qilib, grammatik tushunchani oʻzlashtirishga yordam beradigan asosiy metodik shartlar oʻquvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni yangi bilim olish uchun qiziqtirish, oʻquvchilarning nutqiy tajribasiga tayanish, bilimlarning tizimliligi, oʻquvchilarda til birliklariga lingvistik munosabatni shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash hisoblanadi.

Tushunchani oʻzlashtirish ustida ishlash jarayoni, uning shartli ravishda toʻrt bosqichga boʻlinishi

Soʻzning leksik maʼnosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda oʻzining nazariy asosiga ega.

Morfema – soʻzning eng kichik, boʻlinmaydigan maʼnoli qismi.

Morfema ikki turga boʻlinadi;

1. O‘zak morfema – so‘zda, albatta, qatnashadigan va leksik ma’no anglatadigan morfema

2. Affiksal morfema – mustaqil holda leksik ma’no anglatmay, so‘zning leksik va grammatik ma’nolarining shakllanishi uchun xizmat qiladigan morfema.

Qo‘shimchalar ikki turga bo‘linadi:

1. So‘z yasovchi qo‘shimchalar. So‘zning leksik ma’nosini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

2. Shakl yasovchi qo‘shimchalar so‘zlarning grammatik formalarini shakllantirib, turli grammatik ma’nolarini ifodalaydi.

So‘zning morfemik tarkibi ustida ishlash bilan o‘quvchilar so‘zining leksik ma’nosini aniqlashning asosiy usullarini bilib oladilar. Bunda o‘qituvchining vazifasi bolalar so‘zlarning leksik ma’nosi va morfemik tarkibi bir-biriga bog‘liqligini bilib olishi uchun eng qulay sharoit yaratish, shu asosda ularning lug‘atiga aniqlik kiritishga maqsadga muvofiq raxbarlik qilish hisoblanadi.

So‘zda morfemaning rolini anglash, shuningdek qo‘shimchalarning semantik ma’nosini bilish o‘quvchilarda nutqning aniq shakllanishiga ta’sir etadi. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilar so‘zning leksik ma’nosini tushunibgina qolmay, matnda aniq affiksli so‘zlardan ongli foydalanishlarini oshirish hisoblanadi.

So‘zning morfemik tarkibini o‘rganish orfografik malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Morfologik tamoyil o‘zbek orfografiyasining etakchi tamoyili bo‘lib, bunga binoan so‘zlar va ularning tarkibiy qismi, (o‘zak va qo‘shimchalar) asliga muvofiq yoziladi. O‘zak va qo‘shimchalarni to‘g‘ri yozish malakasini nazariy asosda shakllantirish fonetik, so‘z yasalishiga oid, grammatik bilimlarni maqsadga muvofiq tatbiq etishni talab qiladi. Shuning uchun so‘zning morfemik tarkibini o‘rganishning muhim vazifalaridan biri o‘zak va qo‘shimchalarni to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar asosini yaratish hisoblanadi.

So‘zning morfemik tarkibini o‘rganish o‘quvchilarning aqliy qobiliyatini o‘stirishda, xususan, til birligi sifatida so‘zni ongli bilib olish uchun zarur bo‘lgan maxsus aqliy ko‘mikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatli. O‘qituvchining vazifasi ta’lim jarayonida bilimni o‘zlashtirish bilan o‘quvchilarda aqliy faoliyatni

oʻstiradigan mavhumlashtirish, analiz, taqqoslash koʻnikmalarini shakllantiradigan sharoit yaratish hisoblanadi.

Boshlangʻich sinflar ona tili dasturiga muvofiq, soʻzning morfemik tarkibi 2- sinfda oʻrganiladi. 3- sinfda soʻz turkumlarini oʻrganish bilan bogʻliq holda soʻzning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish koʻzda tutiladi.

Avvalo, til materialini oʻrganish tizimi nimaligini aniqlab olamiz. Til materialini oʻrganish sistemasi deganda, ilmiy asoslangan izchillikdagi va oʻzapo bogʻlanishdagi bilimlar kompleksini oʻzlashtirishni taʼminlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy koʻnikmalarni shakllantirish koʻzda tutiladi.

Mavzuni oʻrganishda 4 bosqich amalga oshiriladi:

1-bosqich – soʻz yasalishini oʻrganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi – oʻquvchilarni bir xil oʻzakli soʻzlarniig maʼno va tuzilishiga koʻra bogʻlanishini tushunishga tayyorlash.

2-bosqich – bir xil oʻzakli soʻzlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy oʻquv vazifasi soʻzlarning maʼno qismlari sifatida oʻzak, soʻz yasovchi va forma yasovchi qoʻshimchalar bilan tanishtirish. "Oʻzakdosh soʻzlar" tushunchasini shakllantirish; bir xil oʻzakli soʻzlarda oʻzakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi.

“Oʻzakdosh soʻzlar” tushunchasini shakllantirish ularning ikki muhim belgisini, yaʼni mazmuniy umumiylikniig (maʼnosida qandaydir umumiylik borligini) va tuzilishiga koʻra umumiylikni (umumiy oʻzak mavjudligini) oʻzlashtirish bilan bogʻlanadi. Shuning uchun bu belgilarni oʻquvchilar oʻzlashtirishiga taʼlim jarayonida sharoit yaratish lozim. Taʼlimning bu bosqichida oʻquvchilarning morfema haqidagi bilimlari etarli emas, ularni bu tushunchalar bilan mashqlarni bajarish jarayonida endigina tanishtirilyapti. Shuning uchun oʻqituvchi tarkibi va yasalish usuli oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga mos boʻlgan soʻzlarni tanlaydi. Bu soʻzlarni analiz va sintez qilishni boshqaradi, soʻzlarning leksik maʼnosi bilan morfemik tarkibi oʻrtasidagi bogʻlanishni oʻquvchilar bilib olishlarga doimiy gʻamxoʻrlik qiladi.

3-bosqich – o‘zak, so‘z yasovchi va forma yasovchi qo‘shimchalarning xususiyatlari va tildagi rolini o‘rganish motodikasi. Bu bosqichning o‘quv vazifasiga “o‘zak”, “so‘z yasovchi qo‘shimcha”, “forma yasovchi qo‘shimcha” tushunchalarini shakllantirish, so‘zning leksik ma’nosi bilan morfemik tarkibi o‘rtasidagi bog‘lanish haqidagi tasavvurlarni o‘stirish, o‘zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so‘zlarni to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so‘z yasovchi ko‘shimchasi bor so‘zlarni ongli ishlatish ko‘nikmasini o‘stirish kiradi. Bu bosqichning vazifasi bir-biri bilan ma’lum bog‘lanishda hal qilinadi.

Masalan, so‘zda har bir morfemaning rolini o‘zlashtirish asosida o‘quvchilar so‘zning leksik ma’nosi bilan uning morfemik tarkibi o‘rtasidagi bog‘lanishni bilib oladilar. Barcha vazifalar bilan bog‘liq holda, so‘zlarning morfemik tarkibini hisobga olib, ulardan nutqda mumkin qadar aniq va ongli foydalanish vazifasi bajariladi.

O‘zakni o‘rganishning xususiyatlari. “O‘zak” tushunchasini shakllantirishda o‘quvchilar o‘zak o‘zakdosh so‘zlarning umumiy qismi ekani va u barcha bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’nosidagi umumiylikni o‘z ichiga olishi bilan tanishtiriladi.

So‘z yasovchi qo‘shimchaning funktsiyasi ustida ishlash. Bu morfemani o‘rganishning asosiy vazifasi o‘quvchilarni so‘zda so‘z yasovchi qo‘shimchaning roli bilan tanishtirish va shu asosda so‘z yasovchi qo‘shimchali so‘zdan o‘z nutqida ongli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish hisoblanadi. O‘quvchilar so‘z yasovchi qo‘shimcha yordamida yangi leksik ma’no tushunishi muhim ahamiyatga ega.

Forma yasovchi qo‘shimchalarni o‘rganish xususiyatlari. Har bir morfemaning lingvistik mohiyatida o‘ziga xoslik bo‘lib uni o‘rganish metodikasi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Forma yasovchi qo‘shimchada grammatik funktsiya etakchi hisoblanadi, bu bilan u so‘z yasovchi qo‘shimchadan farqlanadi.

4-bosqich – so‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi ustida ishlash, (3-4 sinflar). So‘zning morfemik tarkibini o‘rganish sistemasida bu bosqichniig maqsadi so‘z yasovchi qo‘shimchaning so‘z yasashdagi roli va forma yasovchi qo‘shimchani so‘z shaklini o‘zlashtirishdagi ahamiyati haqidagi bilimni chuqurlashtirish; o‘quvchilarni ot, sifat, fe’llarning yasalish

xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi. So‘z turkumlarini o‘rganish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga so‘z yasalishi asoslarini, so‘z yasovchi qo‘shimcha yordamida bir so‘z turkumidan boshqasini yoki shu so‘z turkumining o‘zini yasash mumkinligini tushuntiradi. Masalan, ot ko‘proq boshqa bir otdan (baliqchi, ishchi; sinfdosh, sirdosh; bog‘bon, oshpaz, kitobxon shuningdek fe’ldan (elak, kurak, yutuq); sifat ko‘proq otdan (suvli, suvsiz, o‘tli, o‘tsiz) shuningdek fe’ldan (maqtanchoq o‘tkir, sezgir) fe’llar otdan (ishla, gulla, gapir) sifatdan (oqla, yaxshila, eskir, qoray) yasaladi.

O‘quvchilarni so‘z yasalishi xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o‘qituvchi ularga muayyan bir yangi so‘z qaysi so‘zdan va qaysi forma yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi.

Masalan, o‘qituvchi chegara otini aytadi va chegarani qo‘riqlaydigan kishini bildiradigan o‘zakdosh ot tanlashni topshiradi. (chegarachi). Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: o‘qituvchi so‘zni va so‘z yasovchi morfemani beradi. O‘quvchining vazifasi yangi so‘zni to‘g‘ri yasash va leksik ma’nosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, baliq so‘zidan -chi qo‘shimchasi yordamida yangi so‘z yasash, (baliqchi), uning leksik ma’nosini tushuntirish qaysi so‘z turkumi ekanini aytish topshiriladi. Ikkala topshiriqda ham o‘quvchilar so‘zni morfemik tahlil qiladilar. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar e’tiborini hosil bo‘lgan so‘z qaysi morfema yordamida, qaysi so‘z turkumidan yasalganiga, qanday mashqlarda tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning leksik ma’nosi bilan morfemik tarkibining o‘zaro bog‘liqligiga va biror so‘z turkumiga xarakterli bo‘lgan so‘z yasalish usuliga asoslanadi.

Bundan mashq turlaridan ayrimlari:

1. O‘zakdosh so‘zlari bo‘lgan matnni leksik – so‘z yasalishi tomonidan tahlil qilish. Masalan, quyidagi kabi matn yozdiriladi:

Hovlimizda gulzor bor. Gulzorga har xil gul ekilgan. Ularni gulchi akam parvarish qiladi. Gullar chamandek ochiladi.

O‘qituvchi rahbarligida bir o‘zakdosh so‘zdan boshqasi qanday, qaysi morfema yordamida yasalgani, u qaysi so‘z turkumiga kirishi, qanday ma’no bildirishi aniqlanadi.

2. Leksik ma’nosi keng tushuntirilgan so‘zni o‘zakdosh so‘z bilan almashtirish.

Topshiriq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zga o‘zakdosh bo‘lgan bir so‘z toping. Uning qaysi so‘z turkumiga kirishini ayting va uni so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.

Olma daraxti ko‘p joy (olmazor). Paxta etishtirish bilan shug‘ullanadigan kishi (paxtakor). Bog‘ni parvarish qiladigan odam (bog‘bon)...

O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida shu so‘z qaysi so‘zdan va qanday qo‘shimcha yordamida yasalganini aniqlaydilar.

3. Har xil so‘z turkumiga kiradigan o‘zakdosh so‘zlardan qatnashtirib gap tuzish.

4. So‘z yasashga doir vazifalar.

Oq, ish so‘zlaridan -la, -chi qo‘shimchalari yordamida yangi so‘zlar yasang. Berilgan va siz yasagan so‘zlar qaysi so‘z turkumiga kirishini isbotlang.

Ish, paxta, gul, sinf otlaridan o‘zakdosh otlar yasang. So‘zlarni tarkibiga ko‘ra tahlil qiling. Yangi ot hosil qilish uchun siz so‘zning qaysi qismidan foydalandingiz?

Boshlang‘ich sinflarda so‘zning morfemik tarkibini o‘rganish metodikasi.

O‘zak va qo‘shimcha ustida ishlashning mazmuni va metodikasi. Boshlang‘ich sinflar ona tili dasturiga muvofiq so‘zning morfemik tarkibi III sinfda o‘rganiladi. IV sinfda so‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish ko‘zda tutiladi.

Avvalo, til materialini o‘rganish tizimi nimaligini aniqlab olish zarur.

Til materialini o‘rganish tizimi deganda aniq, ilmiy asoslangan izchillikdagi va o‘zaro bog‘lanishdagi bilimlar yig‘indisini o‘zlashtirishni ta’minlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish tushuniladi.

So‘zning morfemik tarkibiga tatbiq qilganda, tizim so‘z yasalishiga oid va grammatik bilimlarni o‘zlashtirish: a) dastur materialini o‘rganish tizimida so‘zning morfe-mik tarkibini o‘rganishning o‘rni bilan; 2) “o‘zak”, “o‘zakdosh so‘z”, “so‘z yasovchi

qo‘shimcha”, “shakl yasovchi qo‘shimcha” tushunchalari ustida ishlashdagi izchillik bilan; 3) so‘zning morfemik tarkibi va so‘z yasalishining o‘zaro bir-biriga ta’sir qilishi bilan; 4) morfemalarni to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish us-tida ishlash bilan bog‘liqligini belgilab beradi.

Mavzuni o‘rganishda to‘rt bosqich ajratiladi:

birinchi bosqich – so‘z yasalishini o‘rganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi – o‘quvchilarni bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’no va tuzilishiga ko‘ra bog‘lanishini tushunishga tayyorlash. Bunday vazifaning qo‘yilishiga sabab, birinchidan, so‘zning ma’no va tuzilishi jihatidan bog‘lanishini tushunish, o‘zining lingvistik mohiyatiga ko‘ra, bir xil o‘zakli so‘zlarni va so‘z yasalishini o‘zlashtirishga asos hisoblanadi. Haqiqatan ham, yasalgan va yasashga asos bo‘lgan so‘zlar bir-biri bilan ma’no va tuzilishi jihatidan bog‘lanadi: ish – ishchi, g‘alla – g‘allakor. Ikkinchidan, o‘quvchilar bir xil o‘zakli so‘zlarni va morfemalarni o‘rganishda qiyinchiliklarga duch keladilar: ular bir xil o‘zakli so‘zlarnnng ma’nolaridagi umumiylikni tushunishda qiynaladilar, chunki ularda mavhum tafakkur hali yetarli rivojlanmagan bo‘ladi; o‘zak, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalarning vazifalarini o‘zlashtirishda ularga bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’no va tuzilishi jihatidan o‘xshashligi va farqini aniqlash anchagina qiyinlik qiladi. Shuning uchun so‘zning morfemik tarkibini maxsus o‘rganishdan oldin uning ma’no va tarkibiga ko‘ra yaqinligi kuzatiladi.

I sinfda kuzatish o‘rganiladigan materialning mazmuni va ayrim so‘zlarning ma’nosini, yozilishini tushuntirish bilan uzviy bog‘lanadi. I sinfda kim?, nima? So‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni o‘rganish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning “Nima uchun u yoki bu narsa shunday nomlangan?” savoliga birgalikda javob topishi ularni bir xil o‘zakli so‘zlar o‘rtasidagi munosabatni tushunishga tayyorlashda anchagina mos va qiziqarli usul hisoblanadi. Bu savolga javob topish bilan o‘quvchilar “Nega so‘zlar o‘zakdosh hisoblanadi?”, “Bir so‘zdan boshqa so‘z qanday hosil bo‘ldi?” savollariga javob berishga tayyorlanadilar.

Tilda juda ko‘p so‘zlar shaxs va narsaning nomi hisoblanadi. Shuning uchun o‘quvchilar bilan nega shaxs yoki narsa shunday

nomlanganini aniqlashdan asta-sekin tildagi bir so‘z bilan ikkinchi so‘z o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashga o‘tish mumkin. Masalan, “Nega kishilar paxta ko‘p ekilgan joyni paxtazor (paxta – paxtazor), daraxt ko‘p ekilgan joyni daraxtzor (daraxt – daraxtzor) deb nomlashgan?”, “Nega kishilar bir uyni g‘ishtli (g‘isht – g‘ishtli), boshqasini sinchli deyishadi?”

O‘quvchilar predmet yoki predmet belgisining nomlanish sababini aniqlashdan so‘zlarning ma’nosi va tarkibidagi umumiylikni topishga o‘rganadilar. Bularning hammasi o‘quvchilarni bir xil o‘zakli so‘zlarning yasalishi mohiyatini tushunishga tayyorlaydi; ular bir so‘z boshqa so‘zdan o‘zaro ma’no jihatdan bog‘lanishi asosida yasalishini, o‘z navbatida, shu so‘z bilan nomlangan tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishga asoslanishini tushuna boshlaydilar. O‘quvchilar so‘zning yangi so‘z hosil qilishga yordam beradigan qismini bilib olgan sari ularda so‘z yasalishi haqidagi tasavvur chuqurlasha boradi.

ikkinchi bosqich – bir xil o‘zakli so‘zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy o‘quv vazifasi – so‘zlarning ma’noli qismlari sifatida o‘zak, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar bilan tanishtirish, “o‘zakdosh so‘zlar” tushunchasini shakllantirish, bir xil o‘zakli so‘zlarda o‘zakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi.

“O‘zakdosh so‘zlar” tushunchasini shakllantirish ularning ikki muhim belgisini, ya’ni mazmuniy umumiylikni (ma’nosida qandaydir umumiylik borligini) va tuzilishiga ko‘ra umumiylikni (umumiy o‘zak mavjudligini) o‘zlashtirish bilan bog‘lana-di. Shuning uchun bu belgilarni o‘quvchilar o‘zlashtirishiga ta’lim jarayonida sharoit yaratish lozim. Bu o‘quvchilarda bir xil o‘zakli so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari bilan morfemik tarkibi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan, o‘quvchilar gul, gulzor, gulli (ko‘ylak), gulladi so‘zlarini taqqoslaydilar, bu to‘rt so‘z ma’nosiga ko‘ra o‘xshashligini va bir xil umumiy qismga ega ekanini, shuning uchun bularni bitta o‘zakdosh so‘zlar guruhiga kiritish mumkinligini aniqlaydilar.

Bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’nolaridagi umumiylik o‘zakning umumiyligi tufayli vujudga keladi, ularni bir guruhga birlashtiradi; qo‘shimchalar esa so‘zning ma’nosiga o‘ziga xos ma’no qo‘shadi;

ularni bir-biridan farqlaydi. Bir xil oʻzakli soʻzlar ustida bunday ishlash usuli oʻquvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ular diqqatini soʻzning umumiylikka asoslangan aniq belgilariga jalb qilish imkonini beradi.

Masalan, oʻqituvchi kombayn rasmini koʻrsatadi va “Kombaynni boshqaradigan kishi nima deb nomlanadi?” savolini beradi. Javob xattaxtaga yoziladi: kombayn – kombaynchi.

Tushunchalarni taqqoslab kuzatish quyidagi aniq til materialini yaratish imkonini beradi, uni tahlil qilish jarayonida bir xil oʻzakli soʻzlarning xususiyatlari haqida xulosa chiqariladi: Avval soʻzlarni maʼno va tarkibiga koʻra taqqoslash asosida “oʻzakdosh soʻzlar” atamasi beriladi, keyin oʻzakdosh soʻzlarning umumiy qismi oʻzak deyilishi, oʻzakdosh soʻzlarni, boshqacha qilib, bir xil oʻzakli soʻzlar (yaʼni oʻzakdosh soʻzlar) deb nomlanishi ham tushuntiriladi.

Oʻquvchilarda bir xil oʻzakli soʻzlarni ikki muhim belgisiga koʻra aniqlash koʻnikmasini oʻstirish uchun oʻzakdosh soʻzlar yaqin maʼnoli – sinonim soʻzlar bilan, shakli oʻxshash boʻlgan soʻzlar bilan taqqoslanadi.

Masalan, oʻquvchilar baxtli – baxtsiz oʻzakdosh soʻzlari bilan baxtli – saodatli sinonim soʻzlarini taqqoslab, oʻzakdosh soʻzlar ham, sinonim soʻzlar ham yaqin maʼno bildirishini (oʻxshash tomonini), oʻzakdosh soʻzlarda umumiy qism (baxt) mavjud boʻlib, sinonim soʻzlarda bunday umumiy qism yoʻqligini (farqli tomonini) aniqlaydilar, ular bogʻ – bogʻbon oʻzakdosh soʻzlari bilan suv – suva soʻzlarini taqqoslab, quyidagi xulosaga keladilar: bogʻ – bogʻbon oʻzakdosh soʻzlar hisoblanadi, chunki bular yaqin maʼnoli va umumiy qismi bor; suv – suva soʻzlari shakli tomonidangina oʻxshaydi, ammo butunlay boshqa maʼnoni bildiradi. Bunday mashqlar oʻquvchilarni oʻzakdosh soʻzlarni yaqin maʼnoli sinonim soʻzlardan, bir-biriga oʻx-shash boʻlgan soʻzlardan farqlashga oʻrgatadi.

Bir xil oʻzakli soʻzlar turli soʻz turkumiga oid boʻladi. Shuning uchun bir xil oʻzakli soʻzlarni oʻrganishning bu bosqichida oʻquvchilar diqqati oʻzakdosh soʻzlar shaxs, narsa, uning harakati va belgisini bildirishiga qaratiladi. SHu maqsadda turli soʻz turkumiga oid bir xil oʻzakli soʻzlar mavjud boʻlgan matnni tahlil

qilib, oʻzakdosh soʻzlarni aniqlash, shuningdek, kim?, nima?, qanday?, nima qiladi? soʻroqlariga javob boʻladigan bir xil oʻzakli soʻzlar tanlash mashqlaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Bunda soʻzlarni maʼnosi va tarkibiga koʻra taqqoslab, oʻxshash va farqli tomonlarini aniqlash shart. Oʻquvchilar u yoki bu soʻz nima uchun oʻzakdosh ekanini isbotlaganlarida, ularning ikki muhim belgisini aytsinlar. Masalan, gul, gulladi, gulli, guldor, gulzor oʻzakdosh soʻzlar hisoblanadi, chunki bularda umumiy qism – gul mavjud, bu soʻzlar yaqin maʼnoni bildiryapti.

Bir xil oʻzakli soʻzlarni oʻrganish jarayonida oʻquvchilar oʻzakning har vaqt bir xil yozilishini kuzatadilar. Bunday kuzatish oʻzakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar boʻlgan soʻzlarni anglab, toʻgʻri yozishga asos boʻladi.

Bir xil oʻzakli soʻzlar bilan tanishish jarayonida oʻquvchilarda soʻzning maʼnoli qismi boʻlgan morfemalar (oʻzak, soʻz yasovchi, shakl yasovchilar) haqida boshlangʻich tasavvur hosil boʻladi. Buning uchun soʻz yasashga oid vazifa topshirish maqsadga muvofiq. Bu vazifani bajarishda oʻquvchilar morfemalardan foydalanib bir xil oʻzakli soʻzlar guruhini hosil qiladilar va morfemalarning oʻrni hamda vazifasi haqida tasavvur hosil qiladilar.

Masalan, oʻqituvchi gul soʻzini yozish va unga gul koʻp ekilgan joyni bildiradigan oʻzakdosh soʻz tanlashni topshiradi. Oʻquvchilar gul, gulzor soʻzlarini yozadilar. Gulzor soʻzini hosil qilish uchun -zor qismi qoʻshilgani aniqlanadi. Oʻqituvchi “Gul parvarish qilish bilan shugʻullanadigan kishini nima deb nomlaymiz?” savolini beradi. Oʻquvchilar gulchi soʻzini aytadilar; bu soʻz gul soʻziga -chi qismini qoʻshish bilan hosil qilingani (yasalgani) aniqlanadi. Soʻzlardagi -zor, -chi qismlarining ahamiyatini taqqoslash asosida boshlangʻich bilimlar umumlashtiriladi, soʻz yasovchi qoʻshimcha atamasi beriladi.

Shakl yasovchi qoʻshimcha bilan elementar tanishtirish uchun daftar va daftarlar soʻzlarini maʼno va shakl tomondan taqqoslash topshiriladi. Suhbat asosida oʻquvchilar maʼnoning oʻzgarmaganini, shakli oʻzgarganini (-lar qoʻshilganini) aniqlaydilar.

Ta’limning bu bosqichida o‘quvchilarning morfema haqidagi bilimlari yetarli emas, ularni bu tushunchalar bilan amaliy mashqlarni bajarish jarayonida endigina tanishtirilyapti. SHuning uchun o‘qituvchi tarkibi va yasalish usuli o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mos bo‘lgan so‘zlarni tanlaydi, bu so‘zlarni analiz va sintez qilishni boshqaradi, so‘zlarning leksik ma’nosi bilan morfemik tarkibi o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘quvchilarning bilib olishlariga doimiy g‘amxo‘rlik qiladi.

uchinchi bosqich – o‘zak, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalarning xususiyatlari hamda tildagi ahamiyatini o‘rganish metodikasi. Bu bosqichning o‘quv vazifasiga “o‘zak”, “so‘z yasovchi qo‘shimcha”, “shakl yasovchi qo‘shimcha” tushunchalarini shakllantirish, so‘zning leksik ma’nosi bilan morfemik tarkibi o‘rtasidagi bog‘lanish haqidagi tasavvurlarni o‘stirish, o‘zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so‘zlarni to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so‘z yasovchi qo‘shimchasi bor so‘zlarni ongli ishlatish ko‘nikmasini o‘stirish kiradi.Bu bosqichning vazifasi bir-biri bilan ma’lum bog‘lanishda hal qilinadi.

Masalan, so‘zda har bir morfemaning ahamiyatini o‘zlashtirish asosida o‘quvchilar so‘zning leksik ma’nosi bilan uning morfemik tarkibi o‘rtasidagi bog‘lanishni bilib oladilar. Barcha vazifalar bilan uzviy bog‘liq holda, so‘zlarning morfemik tarkibini hisobga olib, ulardan nutqda mumkin qadar aniq va ongli foydalanish vazifasi ham bajariladi.

O‘zakni o‘rganishning xususiyatlari. “O‘zak” tushunchasini shakllantirishda o‘quvchilar o‘zak o‘zakdosh so‘zlarning umumiy qismi ekani va u barcha bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’nosidagi umumiylikni o‘z ichiga olishi bilan tanishtiriladi.

O‘zakdosh so‘zlarni tahlil qilish bilan o‘quvchilar so‘zning qaysi qismi shu so‘zlardan o‘zakdosh so‘zlar hosil qilayotganini tushuntirishga (bunda ular o‘zakni ajratadilar), qaysi qismi har xil ma’noli so‘zlar hosil qilayotganini tushuntirishga (bun-da ular so‘z yasovchi qo‘shimchalarni ajratadilar) o‘rgatiladi. Bunday vazifalarni to‘g‘ri bajarish natijasida o‘quvchilar o‘zak va so‘z yasovchi qo‘shimchaning so‘zning leksik ma’nosini hosil qilishdagi

rolini elementar tarzda bo‘lsa ham tushunadilar, shuningdek, o‘zak o‘zakdosh so‘zlarga asos bo‘ladigan qism ekanini bilib oladilar.

O‘zak ustida ishlash bu bilan tugamaydi, balki boshqa morfemalarni maxsus o‘rganishga ajratilgan darslar mazmuni bilan va keyinroq so‘z turkumlari o‘rganilganda, so‘z yasashga doir mashqlar bilan ham uzviy bog‘lanadi.

So‘z yasovchi qo‘shimchalar ustida ishlash. Bu morfemani o‘rganishning asosiy vazifasi o‘quvchilarni so‘zda so‘z yasovchi qo‘shimchaning ahamiyati bilan tanishtirish va shu asosda so‘z yasovchi qo‘shimchali so‘zdan o‘z nutqida ongli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish hisoblanadi. O‘quvchilar so‘z yasovchi qo‘shimcha yordamida yangi leksik ma’noli so‘z yasash mumkinligini tushunishi muhim ahamiyatga ega.

So‘z yasovchi qo‘shimchalar ustida ishlash ba’zi so‘z yasovchi qo‘shimchaning ma’nosini va yasama so‘zning grammatik belgilarini aniqlash bilan birga olib boriladi. So‘z yasovchi qo‘shimchaning ma’nosini tushuntirish uning so‘z yasashdagi ahamiyatini o‘quvchilar anglashiga imkon beradi, ularning diqqat-e’tibori so‘z yasovchi qo‘shimcha yordamida yangi leksik ma’noli so‘z yasalishiga qaratiladi. Masalan: ish – ishchi, ishli, ishchan, ishla).

Yasalgan so‘z qaysi so‘z turkumiga kirishini aniqlash so‘z yasovchi qo‘shimcha yordamida har xil so‘z turkumiga oid so‘zlar yasash mumkinligi haqidagi tasavvurni chuqurlashtiradi.

So‘z yasovchi qo‘shimchani ongli o‘zlashtirish uchun quyidagi mashqlar guruhidan foydalanish yaxshi natija beradi:

Birinchi guruh mashqlarga har xil so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish bilan hosil bo‘lgan bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’no jihatdan farqini qiyoslashga oid vazifalar kiradi. Masalan, gul so‘zidan -chi, -zor so‘z yasovchi qo‘shimchalari bilan yangi so‘z yasang. Hosil bo‘lgan so‘zlarni ma’nosi va tarkibiga ko‘ra qiyoslang. Ularda nima o‘xshash? So‘zning qaysi qismi ularni ma’nosiga ko‘ra farqlayapti? Yangi so‘zlarni qatnashtirib gap tuzing.

Ikkinchi guruh mashqlarga bir so‘z yasovchi qo‘shimchani har xil so‘zlarga qo‘shishdan hosil bo‘lgan so‘zlarda so‘z yasovchi qo‘shimchaning ma’nosini qiyoslashga oid vazifalar kiradi. Bunday mashqlarning maqsadi so‘z yasovchi qo‘shimchaning ma’nosi

haqidagi bilimni elementar tarzda umumlashtirish hisoblanadi. Masalan, ishchi, suvchi, gulchi so‘zlarini taqqoslash, ma’nosiga ko‘ra o‘xshash tomonini belgilash (biror ishni, vazifani bajaradigan kishini – shaxsni bildiradi), so‘zning qaysi qismi bajaruvchi shaxs ma’nosini bildirayotganligini aniqlash (so‘z yasovchi qo‘shimcha -chi).

Uchinchi guruh mashqlarga matnni leksik-grammatik va leksik-stilistik tahlil qilishga oid vazifalar kiradi. Masalan, matndan o‘zakdosh so‘zlarni topish, ularning ma’nosidagi farqni aytish, bu farq so‘zning qaysi qismi yordamida berilayotganini aniqlash; berilgan so‘zlardan namunadagidek gap tuzish (masalan, Soatsoz soatni tuzatdi. Traktorchi yerni traktor bilan haydaydi); o‘zakdosh so‘zlarni aniqlash va tarkibiga ko‘ra tahlil qilish va h.k.

Shakl yasovchi qo‘shimchalarni o‘rganish xususiyatlari. Har bir morfemaning lingvistik mohiyatida o‘ziga xoslik bo‘lib, uni o‘rganish metodikasi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shakl yasovchi qo‘shimchada grammatik vazifa yetakchi hisoblanadi, bu bilan u so‘z yasovchi qo‘shimchadan farqlanadi.

Shakl yasovchi qo‘shimcha so‘zning grammatik ma’nosini ifodalovchi vosita hisoblanadi. O‘quvchilar so‘zning grammatik ma’nosini bilmay turib shakl yasovchi qo‘shimchaning vazifasini ham anglab yetmaydilar. Bundan tashqari, shakl yasovchi qo‘shimcha bir necha ma’no ifodalaydi (masalan, kitobni o‘qidim so‘z birikmasidagi -m I shaxs birlik ma’nosini bildiradi).

Shakl yasovchi qo‘shimchani o‘rgatishda uning mana shu xususiyatlari hisobga olinadi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uning ikki belgisi bilan (so‘z shaklini o‘zgartirishi va gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘lashi bilan) amaliy tanishtiriladi. O‘quvchilar otlarda birlik va ko‘plik, bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar, otlarning egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi, kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi, fe’llarda shaxs-son, zamonni (IV sinf) o‘rganishlari bilan bog‘liq holda ularning shakl yasovchi qo‘shimcha haqidagi bilimlari asta-sekin chuqurlashtirila boriladi.

O‘quvchilarda gapda so‘zlar shakl yasovchi qo‘shimcha yordamida bog‘lanishi haqidagi dastlabki tasavvur mashqlarni bajarish jarayonida hosil qilinadi. Masalan, gapning mazmuniga mos ravishda ajratib berilgan so‘zning shaklini so‘roqlardan

foydalanib o‘zgartirish va u so‘z gapdagi qaysi so‘z bilan bog‘langanini aniqlash so‘raladi: O‘quvchi (nimani?) kitob... sevadi. U (nimadan?) kitob... yaxshi foydalanadi? O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida “So‘zning shaklini nima uchun o‘zgartirishga to‘g‘ri keldi? So‘z shaklini o‘zgartirish bilan nimaga erishildi?” savollariga javob beradilar.

O‘quvchilar shakl yasovchi qo‘shimchalarning sintaktik vazifasini gapda so‘zlarning bog‘lanishi va so‘z birikmasini o‘zlashtirish jarayonida o‘zlashtiradilar. O‘quvchilarning so‘zlarning bog‘lanishi haqidagi bilimi elementar xarakterda bo‘lsa ham, ularning so‘z birikmasidagi so‘zlar ma’no va grammatik jihatdan shakl yasovchi qo‘shimchalar yordamida bog‘lanishini tushunishiga erishiladi. O‘quvchilar ot va kishilik olmoshlarining kelishik qo‘shimchalari bilan turlanishini o‘rganganlaridan so‘ng gapda ma’no va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan so‘zlarni ajrata olish va nimalar yordamida bog‘langanini tushuntirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari mumkin, so‘ngra shakl yasovchi qo‘shimchalarning sintaktik vazifasini o‘zlashtira boshlaydilar.

O‘quvchilar har bir morfemaning vazifasini boshqa morfemalar bilan qiyoslab ko‘rsatish talab qilingan vazifani bajarish jarayonida shakl yasovchi qo‘shimchaning o‘ziga xos xususiyatini yaxshi o‘zlashtiradilar.

Masalan, o‘zakdosh so‘zlar tanlash vazifasini bajarish davomida so‘z yasash uchun qanday morfemalardan foydalanilgani, so‘z yasovchi qo‘shimcha tufayli so‘zning ma’nosi qanday o‘zgargani aniqlanadi. Shundan so‘ng o‘quvchilarga “Otni shunday o‘zgartiringki, u birlikni emas, ko‘plikni bildirsin” topshirig‘i beriladi. Bolalar bu vazifani bajarib, otga shakl yasovchi ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda, so‘zning leksik ma’nosi o‘zgarmaganini, faqat shakli o‘zgarganini, ko‘plik bildirganini aytadilar. So‘z yasovchi qo‘shimcha bilan shakl yasovchi qo‘shimchalarni taqqoslash orqali o‘quvchilar shakl yasovchi qo‘shimchaning so‘z shaklini o‘zgartirishdagi o‘rnini yaqqol ko‘radilar.

So‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi ustida ishlash

So‘z turkumlari ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi so‘zlarning leksik-grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga ko‘ra turli gruppalarga ajratilishi – so‘z turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi.

So‘zlarni leksik-grammatik turkumlarga ajratishda 3 belgiga: 1)leksik ma’nosi (nimani ifodalashi, ya’ni predmet, harakat yo holat, belgi kabilarning umumlashitirilgan ma’nolari); 2)morfologik (so‘zning turli shakl tizimi); 3)sintaktik (turli morfologik shakllarning sintaktik vazifa bajarishi) belgilariga asoslanadi. Demak, so‘z turkumlari ustida ishlash o‘quvchilarning muayyan guruhlardagi so‘zlarning umumlashtirilgan ma’nolari, kishilarning aloqa vositasi sifatidagi rolini tushunib olishlarga qaratilishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida so‘z turkumi bilan umumiy tanishtirilgandan so‘ng har bir leksik-grammatik guruh alohida o‘rganiladi. Bu so‘z turkumlarini o‘rganishning boshlang‘ich bosqichidayoq ular taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va bu bilan shakllantiradigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ot, sifat, son, fe’lning quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar:

1) so‘z nima bildirishi (predmet, predmet belgisi, predmet sanog‘i va tartibi, predmet harakati yoki holati);

2) qanday so‘roqlarga javob bo‘lishi;

3) o‘zgarish-o‘zgarmasliligi;

4) gapda, asosan, qanday bo‘lak vazifasida kelishi.

O‘quvchilar mana shu o‘rgangan bilimlari asosida so‘z turkumlarini taqqoslaydilar. O‘quvchilar nimani o‘rganganlariga qarab, har bir so‘z turkumining grammatik belgilari haqidagi bilimlari asta kengaya, chuqurlasha boradi. Dasturga ko‘ra, 1-2-sinflarda so‘zlar javob bo‘ladigan morfologik so‘roqlarga qarab tasnif qilinadi. 3-sinfda “so‘z turkumi” tushunchasi shakllantiriladi. O‘quvchilar har bir so‘z turkumiga xos ayrim belgilar (so‘z turkumlarining umumlashtirilgan leksik ma’nolari, otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanilishi, bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar, ot, sifat, son va fe’lning gapdagi vazifasi) bilan tanishtiriladi. 4-sinfda so‘z turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari haqidagi bilim

chuqurlashtiriladi: o‘quvchilar otlaning egalik va kelishiklar bilan o‘zgarishini, sifat va sonning gapdagi vazifasi, kishilik olmoshlari va ularning kelishiklar bilan turlanishini, fe’llarda shaxs-son va zamonni o‘rganadilar.

Quyidagi jadvalda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z turkumlari yuzasidan bilimlarning hajmi ko‘rsatilgan. O‘quvchilarda so‘z turkumlarini bilish ko‘nikmasi ularning belgilari yig‘indisini egallashlari asosida shakllantiriladi.

Masalan, gul, guldor, guladi so‘zlarining qaysi so‘z turkumiga kirishini bilish uchun 3-sinf o‘quvchisi quyidagicha fikr yuritadi: nima? –gul, bu so‘z predmet bildirayapti, ko‘plikda qo‘llanadi – gullar, bu ot; guldor so‘zi qanday? So‘rog‘iga javob bo‘layapti, predmet belgisini bildirayapti, bu sifat; gulladi so‘zi nima qildi? So‘rog‘iga javob bo‘layapti, predmet holatini bildirayapti, bo‘lishsiz shaklda qo‘llaniladi – gullamadi, bu fe’l.

Boshlang‘ich sinflar dasturi o‘quvchilarni so‘z turkumlari mustaqil va yordamchi so‘z turkumlariga bo‘linishi bilan maxsuslashtirishni ko‘zda tutmaydi, ammo o‘qituvchi bolalarni so‘z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. Masalan, o‘quvchilar ot, sifat, son, olmosh, fe’l gap bo‘lagi vazifasida kelishini, bog‘lovchi gap bo‘lagi bo‘lmasligini biladilar.

So‘z turkumlarini o‘rganishdagi asosiy vazifa o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, lug‘atini yangi ot, sifat, son, fe’llar bilan boyitish, o‘quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so‘zlarning ma’nosini aniq tushunishga erishish, bog‘lanishli nutqda u yoki bu so‘zdan o‘rinli foydalanish malakasini o‘stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so‘z turkumlarini o‘rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o‘quvchilar ko‘p ma’noli so‘zlar, ularning o‘z va ko‘chma ma’noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta’limni o‘quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko‘rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog‘lash muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko‘nikmalarini shakllanitrish, atrof-muhit haqidagi bilimlarni boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o‘stirish vazifasini ham amalga oshiriladi. Otni o‘rganish metodikasi

Otni oʻrganishga tayyorlov bosqichi savod oʻrgatish davriga toʻgʻri keladi. Bu bosqichda oʻquvchilar predmetlarni va ularni nomi boʻlgan soʻzlarni farqlashga oʻrganadilar. Soʻzning lekik ma'nosi (har bir soʻz ma'no bildirishi)ga e'tibori oshiriladi, ma'nolarni hisobga olgan holda soʻzlar (qushlar, meva va sabzavotlar va hokazolarni bildirgan otlar)ni gruppalash koʻnikmasi shakllantiriladi. Soʻzlarni leksik ma'nosi asosida gruppalash mashqlari otlarni taqqoslash, oʻxshash tomonlarini aniqlash, abstraklashtirish koʻnikmasini oʻstiradi. Shunga qaramay, gramatik tushunchani shaklantirish uchun oʻquvchilar soʻzning aniq ma'nosini bilmaydilar, soʻzning leksik ma'nosini bilish bilan birgalikda uning grammatik belgilarini ham oʻzlashtirish zarur.

Keyingi bosqichda otning leksik ma'nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi. (kim yoki nima soʻrogʻiga javob boʻlishi, predmet bildirishi tushuntiriladi) Oʻquvchilar kim? Soʻrogʻiga javob boʻlgan otlardan farqlashni oʻrganadilar. Bu bosqichda ular soʻzlarni soʻroq berish bilan farqlashni bilib oladilar, bolalarda mavxum grammatik tafakkur oʻsib boradi. Bolalarda koʻpgina atoqli otlarni bosh harf bilan yozish koʻnikmasi shaklanib boradi.

2-sinfda otlarning leksik ma'nosi, atoqli va turdosh otlar haqidagi bilim chuqurlashtiriladi va sistemalashtiriladi bolalar otlarda son bilan tanishtiriladi.

"Ot" tushunchasini shakllantirish uchun shu soʻz turkumiga kiradigan otlarni asosiy leksik gruppalarga ajratish, barcha otlarga xos boʻlgan belgilarni koʻrsatish, ularning nutqimizdagi rolini ochish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda mavzuni oʻrganishga bagʻishlangan birinchi darslardayoq predmetlarni bildiradigan soʻzlar sistemaga solinadi. Shu soʻzlarning hammasi uchun umumiy boʻlgan belgilar aniqlanadi. Bu soʻzlar predmetlarni bildirib, kim? Yoki nima? Soʻrogʻiga javob boʻladi. Dasturga koʻra, boshlangʻich sinf oʻquvchilarini sifat va boshqa soʻz turkumlaridan yasalgan mavxum ma'nodagi (yaxshilik, goʻzallik, ishonch, oʻkinch kabi) otlar bilan tanishtirish talab etilmaydi. Ammo matnda uchrasa va oʻquvchilar qiziqib soʻrasalar, otlar bolalar oʻrgangan belgilari asosida nima soʻrogʻiga javob boʻlishi, predmet

nomini bildirishi tushuntiriladi. Otlarning nutqda katta ahamiyatga ega ekanini koʻrsatish uchun oʻqituvchi oʻqish kitobidan matn shu soʻzlarsiz oʻqishni topshiradi. Oʻquvchilar matn otlari tushirib qoldirilib oʻqiganda, matn mazmunini tushunib boʻlmasligini anglaydilar. Xulosa chiqariladi: ot atrofimizni oʻrab olgan predmetlarning nomi, bu soʻzlarsiz bir-birimizga oʻz fikrimizni tushuntira olmaymiz. Otlarning birlik va koʻplikda qoʻllanishi taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

Buning uchun bir predmetni va shunday bir necha predmetni bildiradigan otlar taqqoslanadi: Qalam-qalamlar, nok-noklar kabi. Suhbat asosida nok soʻzi nechta (1 ta) predmetni va noklar soʻzi nechta (2 va undan ortiq) predmetni bildirishni aniqlanadi. (boshqa soʻzlar bilan ham shunday ashlanadi) Oddiygina xulosa chiqariladi va umumlashtiriladi; agar otlar bir predmetni bildirsa birlikda, 2 va undan ortiq predmetni bidirsa koʻplikda qoʻllaniladi. Koʻplikdagi otni yasash uchun birlikdagi otga -lar qoʻshimchasi qoʻllaniladi. Birlikdagi otlar kim? Yoki nima? Soʻrogʻiga, koʻplikdagi otlar esa kimlar? Yoki nimalar? Soʻrogʻiga javob boʻladi. Bu sinf oʻquvchilariga faqat birlikda qoʻlaniladigan otlar, birlik shaklida qoʻllangan armiya, qoʻshin, xalq kabi otlar koʻplik maʼnosini anglatadigan maʼnosi maxsus tushuntirilmaydi. Agar oʻquvchilar bu haqda savol bersalar, sodda shaklda tushuntirish mumkin.

Otlarning birlik va koʻplikda qoʻllanilishini kuzatish aslida soʻz formasi ustida ishlashning boshlangʻich bosqich hisoblanadi. Bunda oʻquvchilar otlarni koʻplik qoʻshimchasi bilan oʻzgartirish, yaʼni otga forma yasovchi qoʻshimcha qoʻshish bilan soʻzning leksik maʼnosi oʻzgarmasligiga ishonch hosil qiladilar.

“Otlarda egalik qoʻshimchalari” mavzusi boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun murakkab hisoblanadi. Chunki bu mavzu oʻrganulgunga qadar, bolalar “shaxs” tushunchasi bilan xali tanishtirilmagan, kishilik olmoshlari hali oʻrganmagan boʻladilar. Oʻquvchilarga egalik qoʻshimchasi predmet birlik va koʻplikdagi 3 shaxsdan biriga tegishli ekanini bildirishini tushuntirish qiyin. Shularni hisobga olib, oʻquvchilarni otlarda egalik qoʻshimchalari bilan tanishtirishda oʻqituvchi ishni sarlavhadagi “Egalik” soʻzining leksik maʼnosini tushuntirishdan boshlashi maqsadga

muvofiq: ega bo‘lish, qarashlilik, tegishlilik, oidlilik ma’nolarini bildiradi.

Egalik qo‘shimchasi deyiaganda biror narsaga ega bo‘lishni, shu narsa tegishli, shu narsaning egasi ekanini bildiradigan qo‘shimchalar tushuniladi. Otlar egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llaniladi. Otga qo‘shilgan egalik qo‘shimchasi shu ot ifodalangan predmetning kimgadir qarashli ekanini, shu predmetni egasi ekanini bildiradi; kecha o‘qigan kitobim juda qiziqarli ekan. Sening kitobing ham qiziqarlimi? Ra’noning kitobi ham qiziqarli edi.

Kitobim, kitobing, kitobi so‘zlari so‘z tarkibiga ko‘ra taxlil qilinadi va o‘quvchilar kitob-o‘zak, -im, -ing, -i qo‘shimchalari qo‘shimcha ekanini aniqlaydilar. O‘qituvchi kitobim va kitob so‘zlarini taqqoslashni, -im qo‘shimchasining ma’nosi haqida o‘ylab ko‘rishni topshiradi, muammoli vaziyat yaratadi. Bolalar qo‘shimchaning ma’nosi haqida fikr yuritadi. Ammo kitobim so‘zining ma’nosiga (mening kitobim –kitob meniki) tushunsalar ham, fikrlarini shakllantirib aytib berolmaydilar.

O‘qituvchi qisqa tushuntiradi. Tilda 3 ta shaxs mavjud; so‘zlovchi yoki 1-shaxs, tinglovchi yoki 2-shaxs, o‘zga yoki 3-shaxs. Hozir men sizga so‘zlayapman, tushuntirayapman, demak, men so‘zlovchi, hozir siz meni (tushuntirayotgan mavzuni) tinglayapsiz demak, siz (sen) tinglovchi, hozir tinglashga qatnashmayotganlar ham bor, u (ular) – o‘zga hisoblanadi. Siz otlar birlik va ko‘plik sonda qo‘llanilishini bilasiz.

Ma’lumki, biror narsa bir shaxsga yoki 2 va undan ortiq shaxsga tegishli bo‘lishi mumkin. Mana shu ma’nolarni, ya’ni biror predmetning birlik yoki ko‘plikdagi 3 shaxsdan biriga qarashli ekanini otga qo‘shilgan egalik qo‘shimchalari bildiradi.

Masalan, kitobim so‘ziga qo‘shilgan, siz aniqlangan –im qo‘shimchasi kitobning 1-shaxsga taalluqli ekanini, ya’ni kitobning egasi 1-shaxs ekanini bildiradi. (-im, -ing, -i qo‘shimchalari ham shunday tushuntiriladi) Qisqa shunday xulosa chiqariladi; Otlarga qo‘shilgan mana shunday qo‘shimchalar egalik qo‘shimchalari deyiladi. Egalik qo‘shimchalari tegishlilik, egalik ma’nosini bildiradi. Egalik qo‘shimchalari otlarga 2 xil variantda qo‘shiladi. Oxiri unli bilan tugagan otlarga –m, -ng, -si, -miz, -ingiz, -si egalik

qo‘shimchalari, oxiri undosh bilan tugagan otlarga –im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -i egalik qo‘shimchalari qo‘shiladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar “O‘zbek tili” darsligidagi qoidani o‘qiydilar. Jadvalni taxlil qiladilar.

O‘quvchilarga egalik qo‘shimchalari haqidagi ko‘nikmani shakllantirish uchun matndan egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llangan otni topish uni tarkibiga ko‘ra taxlil qilib, egalik qo‘shimcha shaxs sonini aniqlash, matnda berilgan otga tushirib qoldirilgan egalik qo‘shimchasini qo‘shish, predmet qaysi shaxs yoki shaxslarga qarashli ekanini aytish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Egalik qo‘shimchasi ustida ishlash bu bilan tugamaydi. Otlarning kelishiklar bilan turlanishini o‘rganish jarayonida egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llangan ot qaratqich kelishigida kelgan boshqa ot bilan, kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishini o‘rganish jarayonida esa egalik qo‘shimchasi bilan kelgan ot qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshi bilan bog‘lanib, so‘z birikmasi hosil qilishi haqida bilim beriladi.

Kelishiklar sintaktika kategoriya hisoblanadi. Kelishik otlarining gapda boshqa so‘zlar bilan munosabatini ifodalaydi. Demak, kelishiklarni o‘rgatishda o‘quvchilarning gapda so‘zlarning bog‘lanishini bilishlari nazarda tutiladi. Kelishiklar ustida ishlashni o‘quvchilar gapda ma’no va grammatik tomondan bog‘langan so‘zlarni (so‘z birikmalarini) ajratishga o‘rganganlaridan so‘ng boshlanadi. Kelishiklar ustida ishlash gapda so‘zlarning bog‘lanishi ustida ishlash hamdir.

Kelishiklarni bilish uchun o‘quvchi ot gapda qaysi so‘z bilan bog‘lanishini aniq bilishi kerak. Ot gapda boshqa so‘zlar bilan bog‘langanda qo‘shimchalar bilan o‘zgarishi ancha oldindan kuzatilib boriladi. Aslida o‘quvchilar 1-sinfdayoq so‘z ma’nolarini o‘zgarishi bilan amaliy tanishadilar, ammo ular so‘z formasi nimaligini bilmaydilar. Bolalar keyingi sinfda forma yasovchi (so‘z o‘zgartiruvchi) qo‘shimchalar bilan tanishadilar. Bu qo‘shimchalar gapda so‘zlarni bog‘lashi uchun xizmat qilishini tushunadilar.

3-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik formalaridan ongli foydalanish va kelishik

qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozishga o‘rgatish hisoblanadi. Bu sinfda ot quyidagi izchillikda o‘rganiladi. 1. Otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida ma’lumot berish; 2. Ko‘plikdagi otlarning turlanishini o‘rgatish; 3. Har bir kelishikning xususiyatlarini aloxida o‘rganish va u bilan bog‘liq holda kelishik qo‘shimchalarini yozilishi haqida ko‘nikma hosil qilish. Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi turlanishi haqida tushuncha berish bilan o‘quvchilarga kelishik qo‘shimchalari gapda so‘zlarni bog‘lash uchun xizmat qilishi, o‘zbek tilidagi 6 kelishik, ularning nomi, so‘roqlari, qo‘shimchalari va joylanish tartibi tushuntiriladi.

O‘quvchilar o‘zlashtirgan grammatik bilimlarini imloni o‘zlashtirishda foydalana olishlari uchun ishni bajarishda izchillikka katta ahamiyat beriladi. Bajarilgan ish yozib boriladi. O‘quvchilar avval gapda ot bog‘langan so‘zdan shu otga savol beradilar va savolni qavs ichiga yozadilar: keyin so‘roqqa qarab kelishikni aniqlaydilar, masalan, yashaydi (qayerda?)- qishloqda (o‘rin payt kelishigi) ular buni yaxshi o‘zlashtirgandan so‘ng mashq tez bajariladi, yozish talab etilmaydi. Ko‘plikdagi otlarning turlanishini o‘rganishda nutqda tko‘plikdagi otlardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini takomillashtirish maqsadi ko‘zda tutiladi. O‘quvchilar suxbat yordamida bosh kelishikdagi otning so‘rog‘ini va batta predmetni bildirishini aytadilar. (nima? – kitob, kim? - o‘quvchi). O‘qituvchi agar shu ot 2 va undan ortiq predmetni bildirsa, qanday so‘roqqa javob bo‘lishini, qaysi kelishikni bildirishini so‘raydi, ular qiynalmay javob beradi (nimalar? - kitoblar, kimlar? - o‘quvchilar). Xulosa chiqariladi: ko‘plikdagi otlar bosh kelishikda kimlar? yoki nimalar? So‘rog‘iga javob bo‘ladi. O‘quvchilar otlarning kelishiklar bilan turlanishi jadvalidan foydalanib, shu otlarni ko‘plikda turlaydilar va ko‘plik qo‘shimchasi doim kelishik qo‘shimchasidan oldin qo‘shilishini, so‘roqlarini bilib oladilar.

Har bir kelishikning alohida o‘rganishning vazifasi kelishikni o‘rganish bilan bog‘liq holda kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqidagi malakani shakllantirish va o‘quvchilarning kelishiklar bilan turlangan otlardan ongli foydalanishlariga erishish hisoblanadi.

Kelishiklarni bilib olish maqsadida so‘roqlardan foydalaniladi. Buning uchun o‘quvchilar, birinchidan, so‘roqni otning yakka o‘ziga emas, balki gapda ot ma’no tomondan bog‘langan so‘zdan shu otga berishni o‘rganishlari, ikkinchidan, kelishiklarning so‘roqlarini yaxshi bilishlari zarur.

Kelishiklarning xususiyatlarini o‘rganishga qulaylik yaratish uchun har bir kelishikni quyidagi umumiy reja asosida o‘rganish maqsadga muvofiq:

1. Kelishiklarning grammatik asosi.
2. So‘roqlari.
3. Qo‘shimchasi.
4. Gapdagi vazifasi.

Kelishiklarni shu tarzda o‘rganish ularni o‘zaro taqqoslashni yengillashtiradi va ongli o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Bir kelishik o‘zining muhim belgilari bilan boshqa kelishikldardan farqlanadi. Muayayn bir kelishikdagi otdar ongli foydalanish va kelishik qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozish uchun o‘quvchilar kelishiklarning muhim belgilarini puxta o‘zlashtirishi talab etiladi. Shuning uchun ham kelishiklarning muhim belgilarini o‘zlashtirib, bir kelishikni ikkinchisidan farqlash ko‘nikmasini shakllantirishga katta o‘rin beriladi.

O‘quvchilar qaratqich va tushum kelishigini farqlashga qiynaladilar, bir qo‘shimcha o‘rniga ikkinchisini ishlatadi. Buning oldini olish uchun ikki kelishikning ma’nosi, qo‘shimchasi, so‘roqlari va gapdagi vazifasi taqqoslanadi, suxbat asosida xulosa chiqariladi. Boshlang‘ich sinf dasturiga ko‘ra o‘quvchilarni qaratqich va tushum kelishigida otning belgisiz qo‘llanishi bilan tanishtirish tavsiya etilmaydi.

O‘quvchilar jo‘nalish kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasining yozilishi tushuntiriladi: a) oxiri jarangsiz undosh bilan so‘zlarga jo‘nalish kelishik qo‘shimchasi –ga qo‘shilganda talaffuzda –ka eshitilishi, ammo aslicha yozilishi tovush harf tomonidan taxlil qilish bilan tushuntiriladi. b) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi oxiri k undosh bilan tugagan otlarga –ka shaklida qo‘shiladi, oxiri q undosh bilan tugagan -qa tarzida qo‘shiladi. O‘quvchilar o‘rin-payt kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, kelishik

qo‘shimchasida –da ning –ta bo‘lib eshitilsa ham da shaklida yoziladi. O‘quvchilar chiqish kelishigining xususiyatlar bilan ham reja asosida tanishtirilib, ularga kelishik qo‘shimchasining yozilishi tushuntiriladi.

Kelishiklar haqidagi malakani shakllantirish ustida ishlashning samaradorliligini ta’minlaydigan shartlar maqsadga muvofiq mashq tanlash, mashq materialini asta murakkablashtira borish bilan o‘quvchilarning mustaqilligini oshirish, imloni grammatik bilimni takomillashtira borish, o‘quvchilarning nutqini o‘stirish bilan bog‘lab o‘rgatishdir. Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda ot kompleks ravishda o‘rganiladi va uni o‘rganish o‘quvchilar shu so‘z turkumining belgilarini, funktsiyasini o‘zlashtirishiga, shuningdek ularda kelishik qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratiladi.

Sifatni o‘rganish sistemasi materiali leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borish ko‘zda tutadi. O‘quvchilar 1-sinfda sifatning leksik ma’noni ko‘zatadilar, sifatga qanday? qanaqa? So‘rog‘ini berib o‘rganadilar; 2-sinfdv sifat so‘z turkumi sifatida o‘rgangan 3-sinfda ilgari o‘rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog‘liq holda –roq qo‘shimchasi bilan yasalgan qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlarning yozilishi o‘rgatiladi (termin aytilmaydi). Ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqi yangi sifatlar bilan boyitiladi, oldindan ma’lum bo‘lgan sifatlaning ma’nosiga aniqlik kiritiladi. Sifatni o‘rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat, predmetning belgisi (rangi, shakli, hajmi, ko‘rinishi, maza, ta’mi, hidi, o‘rni va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma’nosi uni ot bilan bog‘liq holda o‘rganishni talab etadi. Sifatni tushunish uchun 1-sinfdayoq bolalar e’tibori sifatning otga bog‘lanishini aniqlashga qaratiladi. O‘quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so‘roq yordamida gapda so‘zlarning bog‘lanishini aniqlash ko‘nikmasi o‘stiriladi, ya’ni ular gapdagi sifat va otdan tuzilgan so‘z birikmasini ajratadilar (termin aytilmaydi).

Keyingi sinflarda bu bog‘liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning simantik- grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashning leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) rejada

olib borishni talab etadi. Boshlang‘ich sinflarda “sifat” mavzusi quyidagi izchillikda o‘rganiladi: 1. Sifat bilan dastlabki tanishtirish (1-sinf). 2. Sifat haqida tushuncha berish. (2-sinf). 3. Shu grammatik mavzu bilan bog‘liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o‘zlashtirish Sifat bilan dastlabki tanishtirish. (1-bosqich) sifatinining leksik ma’nosi va so‘roqlari ustida kuzatish o‘tkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilma-xil bo‘lib uni rangi mazasi, shakli, xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma’nolarini aniqlash talab etiladi.

O‘qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko‘rsatadi, o‘quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, qanday? Olma-qizil, shirin, yumaloq olma. Suhbat asosida o‘quvchilar olma so‘zni nima? So‘rog‘iga javob bo‘lib predmet nomini bildirishi, qizil, shirin, yumaloq kabi so‘zlar qanday? So‘rog‘iga javob bo‘lib, predmetning belgisini bildirishini aniqlaydilar, xulosa chiqariladi. Qanday? Qanaqa? So‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar predmet belgisini bildiradi. O‘quvchilar belgi bildirgan bunday so‘zlarning nutqimizdagi rolini anglashlari uchun sifat ko‘p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarni tushurib qoldirib, so‘ngra sifatlari bilan o‘qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko‘rsatiladi. Bu darslarda ko‘rgazmalaridan keng foydalanadi.

O‘quvchilar qanday? Qanaqa? So‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni o‘zlashtirishlari uchun quyidagi mashqlardan foydalaniladi:

1. So‘roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so‘zlani tanlash.

2. Aralash berilgan so‘zlardan gap tuzish.

3. Matndan kim? Yoki nima? So‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zni tanlab aytish va yozish.

4. Tayanch so‘zlar va rasm asosida gap va hikoyacha tuzish.

2-bosqichda asosan 2 vazifa: “Sifat” tushunchasini shakllantirish hamda o‘quvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish hal

qilinadi. Sifatlarning leksik ma’nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi.

Sifatlarning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o‘quvchilaruning so‘z turkumi sifatidagi o‘ziga xos ko‘rsatkichlarini ko‘rsatadilar.

a) predmet belgisini bildiradi.

b) qanday yoki qanaqa? So‘rog‘iga javob bo‘ladi v) gapda otga bog‘lanib, shu ot bilan so‘z birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida keladi.

O‘quvchilarning sifatning leksik ma’nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o‘stirish uchun:

1. Berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish.

2. Berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash; ehtiyotkor, ayyor, yovvoyi (tulki)

3.Predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini aytish kabi mashqlardan foydalanish mumkin. Sifatning nutqimizdagi fikrini aniq va tushunarli ifodalashdagi rolini puxta o‘zlashtirishga erishish uchun sinonim va antonimlar ustida ishlash, o‘qish darslarida o‘z va ko‘chma ma’noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o‘rganish jarayonida so‘z yasashga oid mashqlarni muntazam o‘tkazib borish o‘quvchilarda u yoki bu so‘z turkumini yasash uchun so‘z yasovchi qo‘shimchalardang ongli foydalanish malakasini shakllantiradi.

3-bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og‘zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirsh bilan bog‘liq holda –roq qo‘shimchasi bilan qo‘llanilgan sifatlarni va ko‘m-ko‘k, yam-yashil sifatlarni to‘g‘ri yozish malakasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o‘quvchilarning nutqini o‘stirishga qaratiladi. Nazariy ma’lumotlarga asoslanib: matnda tanlab qo‘yish, gapda sifat bilan bog‘lanish otni (so‘z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so‘z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini tanlashda –roq qo‘shimchasi bilan qo‘llanilgan yaxshiroq, aqilliroq kabi,

shuningdek, tip-tiniq, sap-sariqiq kabi sifatlar koʻproq boʻlishiga eʼtibor beriladi.

Oʻquvchilarning mustaqilligi oshgan sayin mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni oʻzlashtirishda uni ot bilan oʻzaro bogʻliq holda oʻrganish asoslaniladi. “Oʻquvchilarning mustaqil faoliyatini taʼlim jarayonida mustaqil ishlarni bajarish jarayoni shakllantirib beradi.Mustaqil ish boʻsh oʻzlashtiruvchi oʻquvchilarning oʻz ustida ishlashi, ziyrak va hozirjavob boʻlishiga yordam beradi. Buning uchun oʻquvchini ruhan tayyorlash, koʻzlangan ishni bajarish uning qoʻlidan kela olishiga ishontirish lozim. Bunda bolani nazorat qiluvchiga ham masʼuliyat yuklanadi. U puxta oʻylangan, maqsadli va davomiy mashqlarni tavsiya etishi kerak. Shu oʻrinda eʼtiboringizni boshlangʻich sinf ona tili darslarida oʻquvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish masalasiga qaratmoqchiman.

Boshlangʻich taʼlimda oʻqituvchi oʻquvchining imkoniyati, yosh xususiyati, qiziqishlarini eʼtiborga olish zarur. Oʻgʻil-qizlarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni toʻliq “eslab qolib” bajarishdir. Bajariladigan ishning maqsadini tushungan(tasavvur qilgan) holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yoʻl qoʻyilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishga alohida eʼtibor beriladi. Oʻquvchilarning topshiriqlarni tez, toʻgʻri bajarishi uchun qulay usullarni tanlash, yoʻnaltiruvchi savollar berib, tayanch soʻzlar tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. ” Grammatika koʻplab tilshunoslik atamasi kabi ikki maʼnoli. Bir maʼnosida tilning grammatik qurilishi tushunilsa, ikkinchi maʼnosida tilshunoslikning shu grammatik qurilishni oʻrganuvchi sohasi anglashiladi. Demak, u soʻz va gapning formal-grammatik tomoni — soʻz oʻzgarishi, sintaktik birliklar va ularning turli koʻrinishi, strukturasi va hosil qiluvchi vositalari, shuningdek, ifodalaydigan grammatik maʼnosini oʻrganadi. Tilning oʻziga xosligi — fonetik, leksik, grammatik strukturaning yaxlitligidan iboratligi. Ular bir-biridan ajralgan holda emas, yaxlit sistema sifatida mavjud. Bu yaxlitlikni zohiriy va botiniy tushunish mumkin. Yaxlitlikning zohiriy alomati tovushning soʻz va qoʻshimchani, soʻzning gap va soʻz birikmalarini tashkil etishida namoyon boʻladi. Yaxlitlikning botiniy idrokida

fonetik omilning qoʻshimcha, soʻz, soʻz birikmalari maʼnosini, leksik omilning shu tarzda fonetik, grammatik, grammatik omilning fonetik va leksik hodisalarni farqlashi va nutqqa olib chiqishi kabi bir qarashda koʻzga tashlanmaydigan holat eʼtiborga olinadi.

Grammatika ongda nutqiy qoʻllanishga shay turgan leksemani grammatik vosita bilan shakllantirib, soʻzga aylantiradi, soʻzlarni oʻzaro biriktiradi va fikr almashish vositasi sifatidagi vazifasini yuzaga chiqaradi.

Tillar oʻzaro grammatik xususiyatiga koʻra ham tasniflanadi. Masalan, oʻzbek tilida kesimning gap markazi sifatida boshqa barcha boʻlaklarni oʻz atrofida uyushtirishi, eganing fakultativligi, sifatlovchining sifatlanmishdan oldin kelishi, bunda inversiyaning boʻlmasligi, ega va kesim, qaratuvchi va qaralmishning ikkiyoqlama aloqaga egaligi, toʻldiruvchi va toʻldirilmish, hoi va hollanmish, sifatlovchi va sifatlanmish, izohlovchi va izohlanmishning bir yoqlama aloqada ekanligi kabilar uning boshqa qarindosh tillar bilan birgalikda bir til oilasiga kirishini taʼminlaydi. Ammo bu bir til oilasiga kiruvchi barcha tillar orasidagi farqning mavjudligini inkor qilmaydi. Masalan, turkiy tillarning sintaktik qurilishida oʻxshashlik, morfologik qurilishida esa farq koʻproq. Til hamisha taraqqiyotda. Bunda ustuvorlik, asosan, tilning leksik sathiga beriladi. Ijtimoiy hayotning oʻzgarishi leksikada keskin oʻzgarish yasaydi. Yangi soʻzning vujudga kelishi, soʻzlarning «tirilishi», isteʼmoldan chiqib ketishi kabilar bunga misol. Tilning fonetik va grammatik sathlari ijtimoiy oʻzgarishga befarq, unda faqat vaqt oʻz izini qoldiradi.” Chunki yaqin yillarda tubdan oʻzgarishga uchragan ijtimoiy hayotning taʼsiri natijasida, masalan, oʻzbek tilining morfologik strukturasi, sintaktik qurilishida oʻzgarish kuzatilmaganligi buning yorqin dalili. Lekin asrlar davomida bunday oʻzgarish boʻlib turadi. Masalan, eski oʻzbek tilida [—gu\ affiksi yordami bilan yasalgan ish otiga [-m\, [-ng] affiksi qoʻshilib, ushbu soʻzning kesim ekanligini koʻrsatgan: Men koʻrgum tipida. Bu hozirgi oʻzbek tilida kuzatilmaydi. (andin), (anda), {koʻzun ĸoʻrub) (koʻzi bilan koʻrib) kabi qator soʻz shakl fikrimiz dalili. Yoki eski oʻzbek tilida Bu sening, Bu mening koʻrinishidagi sintaktik qurilma mavjud boʻlgan. U hozirgi kunda Bu seniki, Bu meniki koʻrinishiga ega. Bu vatan meningdir kabi qurilmalar uning «qoldigʻi».

Grammatikaning tarkibiy qismlari, oʻrganish obyekti. Grammatika deganda tor maʼnoda morfologiya va sintaksis yaxlitligi, keng maʼnoda tilning barcha qurilish sathi tushuniladi. Aytilganidek, grammatika tilning soʻz oʻzgartirish va soʻz biriktirish qoidalari haqida boʻlib, bunda soʻz oʻzgartirish doirasida soʻz shakllari, soʻzshakllarini hosil qiluvchi grammatik kategoriya va oʻzgarishi asosida farqlanuvchi soʻzning grammatik guruhi — soʻz turkumi hamda bu hodisalarning mahsuli boʻlmish soʻz birikmasi va gap bir vujudning ikki tomoni sifatida ajraladi. Bu oʻz- oʻzidan ularni oʻrganuvchi ikki soha — morfologiya va sintaksisni farqlashni ham taqozo qiladi.

Morfologiyaning obyekti soʻzning oʻzgarish bilan bogʻliq, yaʼni morfologik strukturasi. Soʻzning morfologik strukturasi — grammatik morfema, grammatik morfema sistemasi — morfologik kategoriya, soʻzning oʻzgarish asosidagi sistemasi (masalan, kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda, kitobdan \kitob] leksemasining kelishik kategoriyasi asosidagi oʻzgarish sistemasi), soʻzshaklning hosil boʻlish yoʻl va usuli, vositaci, bu vositalarning turlari. Grammatika va milliylik, milliy mafkura. Til va tafakkur, milliy til va milliy ruh ajralmas. Har bir tilning grammatik qurilishi maʼlum meʼyorga, qonun-qoidaga ega boʻlib, bu shu tilda soʻzlashuvchi kishilarning ijtimoiy ruhiyati bilan belgilanadi. Shu boisdan nazariy tilshunoslik asoschisi V.Humboldt bundan qariyb ikki asr ilgari har qaysi tilning oʻz sistemasi boʻlib, tilni tadqiq qilish ni shundan boshlash kerak degan edi. Grammatikada aks etuvchi milliylikni uning har ikki tarkibiy qismi — morfologiyada ham, sintaksisda ham kuzatish mumkin. Tilshunoslikda u shunday sharhlanadi. Maʼlumki, oʻzbek tilida soʻzning oʻzak-negizi mustaqil holda maʼno anglatadi va lugʻatlarda grammatik shaklsiz beriladi. Jumladan, feʼlning oʻzak-negizi lugʻaviy, grammatik va kommunikativ maʼno ifodalab, asosiy va qoʻshimcha tushunchadan tashqari fikr ham bildiradi. Shunga koʻra, u asosiy tushuncha ifodalab, lugʻaviy unsur (leksema), qoʻshimcha tushuncha bildirib, grammatik shakl (soʻzshakl), fikr ifodalab kommunikativ birlik (gap) vazifasini bajaradi. Masalan, (ol), (ishla) feʼllarining lugʻaviy maʼnosi harakatni bildirish boʻlib, grammatik maʼnosi feʼl ekanligi. Ular grammatik shakllanmasdan ham lugʻaviy maʼno ifodalay

oladi.Boshqa qurilishga mansub boʻlgan rus tilida feʼlning oʻzak-negizi {pis-, prochita-) bunday xususiyatga ega emas. Oʻzbek tilidagi gapning minimal kesimga toʻgʻri keladi. Rus tilida esa ega va kesim birligi gapning minimal qolipiga muvofiq. Milliy fanda milliy mafkura aks etadi. Oʻzbek tilshunosligi milliy fan boʻlib, u ham oʻzida milliy mafkura va milliy gʻoyani aks ettirish bilan birgalikda, uni targʻib qiluvchi vositalar sirasidan ham oʻrin oladi. Til ijtimoiy-ruhiy hodisa boʻlganligi sababli uning meʼyorlarini belgilash davlatning til siyosati bilan ham bogʻliq. Yurtimiz bir asrdan koʻproq mustamlakada boʻIdi. Hukmron xalq va uning tiliga har jihatdan imtiyoz berilib, qaram xalqlarning ruhiyati va tiliga tajovuz qilindi. Faqat istiqlol natijasi oʻlaroq, til va tilshunosligimiz istibdod kishanidan xalos boʻIdi. Oʻzbek tilshunosligi tom maʼnodagi mustaqil fan sifatida oʻzbek tilining oʻzbekona tabiatini ochiq-oydin oʻrganib, uni milliy gʻoya va milliy mafkurani targʻib qilishning tarkibiy qismiga aylantirdi.

Grammatik tushunchaning mohiyati

Tushuncha atrof-muhitdagi predmet va hodisalarning muhim belgilari va oʻzaro aloqadorligi aks ettirilgan tafakkur shaklini tasvirlab koʻrsatadi. Grammatik tushunchalarda ham, boshqa tushunchalar kabi, hodisalarning muhim belgilari umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Til hodisalarining oʻziga xos xususiyati, yaʼni tushunchaning mazmun tomoni grammatik tushunchaning oʻziga xos xususiyatini keltirib chiqaradi. Til hodisalari, til kategoriyalari boshqa hodisalarga nisbatan juda mavhumligi bilan farqlanadi. Biologik tushunchalarni shakl-lantirishda belgilarini kuzatish, bir tizimga solish va umumlashtirish mumkin boʻlgan aniq hodisalar va predmetlar material sifatida asos qilib olinadi. Grammatik tushunchalar esa soʻz, soʻz birikmasi, gap, morfema, leksema, fonema va boshqalaming oʻziga xos muhim belgilarini aniqlash va umumlashtirish natijasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, kishilar tomonidan yaratilgan grammatik tushunchaga asos boʻlgan dastlabki materialning oʻzi yetarli darajada mavhum- dir. Demak, grammatik tushunchalar umumlashtirilganlarning yana umumlashtirilgani hisoblanadi. Grammatik tushunchaning bu xususiyatlari tufayli oʻquvchilarda tushuncha juda koʻp qiyinchilik

bilan shakllanadi. Grammatik tushunchani bilib olish uchun mavhum tafakkur ma’lum darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Mavhum tafakkur ta’lim jarayonida vujudga keladi va maxsus mashqlarni talab qiladi. Bu mashqlar muayyan aqliy ko‘nikmalarni va lingvistik tasawur hamda bilimlar yig‘indisini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Ko‘pgina ruhshunos olimlarning tekshirishlari natijasida aniqlanishicha, tushunchani shakllantirish jarayoni tafakkurga oid analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, aniq- lashtirish amallarini bilib olish jarayoni ham hisoblanadi. O‘quvchilarda tushunchani shakllantirishning natijasi ularning mavhumlashtirish faoliyatining qay darajada o‘sganligiga bog‘liq. Mavhumlashtirishda qiynaladigan o‘quvchilar so‘zlarni taqqoslay olmaydilar va ularning muhim grammatik belgilariga ko‘ra bir guruhga birlashtira olmaydilar, tushunchani shakllantirishda qiynaladilar va xatoga yo‘l qo‘yadilar. Masalan, fe’l o‘rganilganda o‘quvchilar fe’l predmetning harakatini bildirishini bilib oladilar. Yurmoq, o‘qimoq, olmoq kabi fe’llarda leksik ma’no grammatik m a’noga mos keladi. Ko‘p fe’llarda bunday moslik bo‘lmaydi. “Grammatikada predmet harakati deyilganda, harakat bilan birga predmetning holati, uning boshqa predmetlarga munosabati, predmet belgisining o‘zgarishi kabi- lar ham tushuniladi: uxlamoq, o‘ylamoq, sevmoq, o‘smoq, ko‘karmoq va hokazo. Predmet harakatini bunday keng ma’noda, umumlashtiril- gan holda tushunish endigina tilni o‘rgana boshlagan o‘quvchilarga qiyinlik qiladi, ular harakatni ko‘proq yurish, siljish ma’nosida aniq tasawur qiladilar. Shuning uchun fe’lni o‘rganishning boshlang‘ich bosqichida yotmoq, kasallanmoq, turmoq, qizarmoq kabi so‘zlarni predmet harakatini bildiradi deb hisoblamaydilar. Bunday hodisani otni o‘rganishda ham uchratish mumkin. Ayrim o‘quvchilar tinchlik, qahramonlik, qadam kabi so‘zlarni ot turkumiga kiritmaydilar. Tushunchani shakllantirish uchun o‘quvchilarda mavhumlashtirish ko‘nikmasini o‘stirish, ular diqqatini so‘zning aniq leksik ma'nosidan grammatik ma’nosiga qaratish va shu guruhdagi so‘zlarga oid umumiy, grammatik belgilarni hisobga olgan holda, ularni bir guruhga birlashtirish talab etiladi. Masalan, kim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan barcha so‘zlar „ot“ turkumiga birlashadi; predmet bildirish, son

(birlik va koʻplikda kelish), egalik qoʻshimchalari bilan oʻzgarish, kelishiklar bilan turlanish bu soʻzlar uchun umumiy grammatik belgilar hisoblanadi. Tushunchani shakllantirishda xatoning oldini olish uchun ta'lim berish jarayonida qator metodik talablarga rioya qilinadi."

Boshlangʻich sinflarda morfologik tahlilni oʻrgatish metodikasi

Soʻz turkumlari ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi soʻzlaming leksik-grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga koʻra turli guruhlarga ajratilishi, ya'ni soʻz turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi. Soʻzlarni leksik-grammatik turkumlarga ajratishda uch belgiga: 1) leksik ma'nosi (nimani ifodalashi, ya'ni shaxs, narsa, harakat yoki holat, belgi kabilarning umumlashtirilgan ma'nolari), 2) morfologik(soʻzning turli shakllari tizimi) va 3) sintaktik (turli morfologik shakl- larning sintaktik vazifa bajarishi) belgilariga asoslaniladi. Demak, soʻz turkumlari ustida ishlash oʻquvchilaming muayyan guruhdagi soʻzlaming umumlashtirilgan ma'nolarini, kishilarning aloqa vositasi sifatidagi rolini tushunib olishlariga qaratilishi zarur.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari soʻz turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l) bilan umumiy tanishtirilgandan soʻng har bir leksik-grammatik guruh alohida oʻrganiladi. Bu soʻz turkumlarini oʻrganishning boshlangʻich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari ot, sifat, son, fe'ining quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar:

1) soʻz nimani bildirishi (shaxs, narsa, belgi, miqdor va tartib, harakat yoki holat);

2) qanday soʻroqlarga javob boʻlishi;

3) oʻzgarish-oʻzgarmasligi, qanday doimiy kategoriyalari mavjudligi;

4) gapda, asosan, qanday boʻlak vazifasida kelishi.

Oʻquvchilar mana shu oʻrgangan belgilari asosida soʻz turkumlarini taqqoslaydilar. Ular nimani oʻrganganlariga qarab, har bir soʻz turkumining grammatik belgilari haqidagi bilimlari asta

kengaya va chuqurlasha boradi. Dasturga koʻra, boshlangʻich sinfda soʻzlar dastlab javob boʻladigan morfologik soʻroqlariga qarab guruhlanadi. 3-sinfda „Soʻz turkumi“ tushunchasi shakllantiriladi. Oʻquvchilar har bir soʻz turkumiga xos ayrim belgilar (soʻz turkumlarining umumlashtirilgan leksik ma’nolari, otlaming birlik va koʻplikda qoʻllanishi, boʻlishli va boʻlishsiz fe’llar, ot, sifat, son va fe’ining gapdagi vazifasi) bilan tanishtiriladi. 4-sinfda soʻz turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari haqidagi bilim chuqurlashtiriladi: oʻquvchilar otlaming egalik va kelishiklar bilan oʻzgarishini, sifat va sonning gapdagi vazifasini, kishilik olmoshlari va ularning kelishiklar bilan turlanishini, fe’llarda shaxs-son va zamonni oʻrganadilar. Quyidagi jadvalda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining soʻz turkumlari yuzasidan bilimlari hajmi koʻrsatilgan.

Dastlabki bajargan mustaqil ishidan oʻquvchi mamnun boʻlsa, qiziqishlari ortib, yangi-yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi. Mustaqil ish natijalarini hamisha tekshirish lozim. Tekshirish ogʻzaki yoki yozma shaklda boʻlishi mumkin. Bola avval oʻylaydi, fikrini jamlaydi, soʻng uni yozishga kirishadi. Oʻz fikrini bayon qilish, qoʻyilgan biror savol yoki masala yuzasidan mushohada yuritishga urinadi. Bu jarayon (ogʻzaki) nutq asosida paydo boʻladi va mustahkamlanadi. Masalan, oʻquvchi oʻz fikrini yozma ifodalashdan ilgari oʻylaydi. Pichirlab allanimalar haqida oʻzicha gapiradi(pedagogikada bu aktiv faoliyat hisoblanadi). Insho yozishning dastlabki shakllari ana shunday ishlardan boshlanadi. Bola matnni oʻqib, ogʻzaki tahlil qiladi, sarlavhalar oʻylab topib, qanday rasmlar ishlash lozimligini rejalashtirdi. Oʻquvchilarni mustaqil faoliyatga oʻrgatishda quyidagilarga amal qilish lozim: – beriladigan har bir topshiriq oʻquvchi imkoniyatlariga mos boʻlsin va qiziqish uygʻota olsin; – ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yoʻnaltirilsin, oʻquvchiga tushunarli boʻlsin; – ishni bajarishda bolalarda oʻziga ishonch hissi uygʻonsin, ishga kirishishda oʻzlarida dadillik sezsin; – mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama-yakka tarzda amalga oshirilsin(hamma oʻquvchi uchun bir xil topshiriq berish – mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz), albatta bunda boʻsh oʻzlashtiruvchi oʻquvchiga e’tibor berish kerak; – topshiriqlar turini almashtirishga

alohida ahamiyat berish lozim; – topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma'lum vaqtda tugatishi kerakligini eslatib, boʻsh oʻzlashtiruvchi bolalarni shu talabni bajarishga koʻniktirish lozim; – ish joyi hamisha qulay, saranjom-sarishta boʻlishi(parta ustida ortiqcha narsalar boʻlmasligi) kerak; – topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin.

"Maktabda tildan nazariy bilimni oʻrganishdan maqsad fikrni ogʻzaki va yozma tarzda grammatik toʻgʻri va uslubiy aniq ifodalash uchun undan ongli foydalanish hisoblanadi. Biroq nazariy bilimni amalda qoʻllashni esa maqsadga muvofiq va muntazam oʻrgatib borish talab etiladi. Mashqlar tizimi tushunchani oʻzlashtirish bosqichiga va uning xususiyatiga mos ravishda mashq turini tanlash, uning murakkablasha borishini va oʻquvchilar mustaqilligi oʻsib borishini hisobga olgan holda mashqlarni bajarish izchilligini aniqlashni koʻzda tutadi. Bu tizim mashqlarning oʻzaro bogʻlanishiga asoslangan. Mashq turlari. Grammatik mashqlar turli asosga koʻra tasnif qilinadi, shuning uchun mashqning har xil turi hosil boʻladi." Agar bilimni shakllantirish xarakteriga asoslanilsa, grammatik mashqlar ikki katta guruhga boʻlinadi: 1) morfologik mashqlar (bunga leksik-morfologik mashqlar ham kiradi); 2) sintaktik mashqlar. Agar oʻquvchilar faoliyatining xarakteri, ya'ni mashq jarayonida oʻquvchilar bajaradigan aqliy omillar xarakteri asos qilib olinsa,mashqlar analitik, sintetik, taqqoslashga, guruhlashga, umumlashtirishga oid mashqlarga boʻlinadi. Mashqning oʻziga xos xususiyatlarini aniqroq belgilash uchun yuqoridagi ikki asos hisobga olinadi. Masalan, mashqning vazifasi aralash berilgan soʻzlardan gap tuzishni va gap boʻlaklarini ajratishni talab etsa, bu mashq bilimni shakllantirish turiga koʻra sintaktik mashq, faoliyat xarakteriga koʻra sintetik-analitik mashq hisoblanadi. Boshlangʻich sinflarda sof morfologik yoki sof sintaktik mashq juda kam qoʻllaniladi, shuning uchun ham vazifaning yetakchi tomoni hisobga olinadi. Masalan, matnga mazmunga mos otni qoʻyish, qaysi kelishik ekanini koʻrsatish talab etilsa, bu leksik-morfologik mashqdir. Oʻquvchi otning qaysi kelishikda ekanini aniqlashi uchun u bogʻlangan soʻz (fe'l yoki ot)ni aniqlashi (soʻz birikmasini ajratishi) talab etiladi, shunga koʻra bu mashq sintaktik mashq hisoblanadi. Grammatik tahlil analitik

mashqqa kiradi. Grammatik tahlil soʻz turkumiga koʻra (morfologik) tahlilni, gap boʻlaklariga koʻra (sintaktik) tahlilni oʻz ichiga oladi. Gap boʻlaklariga koʻra tahlil oʻquvchilar oʻzlashtirgan sintaktik bilimlarning me'yoriga qarab chuqurlashib boradi. Amaldagi dasturga koʻra, 1 -sinf oʻquvchilari „ega“ va „kesim" atamalaridan foydalanmaydilar, ammo ular gapning bosh boʻlaklarini amaliy ravishda topish koʻnikmasiga ega boʻladilar, ya'ni gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan soʻz (ega)ni, u haqda nima deyilganini anglatgan soʻz (kesim)ni topadilar.

Masalan, Bolalar olmalarni terdilar gapini tahlil qilishda oʻquvchilar quyidagicha fikr yuritadilar: „Gap bolalar haqida aytilgan. Kimlar? — bolalar (soʻzning tagiga bitta toʻgʻri chiziq chizadilar). Bolalar— nima qildilar? — terdilar (soʻzning tagiga ikki toʻgʻri chiziq chizadilar). Bolalar terdilar — gapning asosiy qismi; nimalarni? (terdilar) — olmalarni11. 2-sinfda 1-sinfdagidek muhokama qilinadi, faqat mazmuni chu- qurlashtiriladi. Masalan, 2-sinf oʻquvchisi „Chiroyli gullar adirtami bezadi“ gapini quyidagicha tahlil qiladi: „Gap gullar haqida aytilgan. Nimalar? — gullar — ega (tagiga bir chiziq chizadi). Paxtalar haqida nima deyilgan? Ochildi — nima qildi? — kesim (tagiga ikki toʻgʻri chiziq chizadi). Qayerlarni? (bezadi) — adirlarni — ikkinchi darajali boʻlak, gapni toʻldirayapti (tagiga uzuq chiziq chizadi). Qanday? (gullar) — chi- royli (gullar) ikkinchi darajali boʻlak, egani izohlayapti. Gullar bezadi gapning asosi. Chiroyli gullar va adirlarni bezadi - soʻz birikmasi1.3—4-sinflarda sintaktik tahlil sifat jihatidan oʻzgarmaydi, ammo soʻz birikmasini ajratishga ahamiyat beriladi. Morfologik tahlilning mohiyati soʻzning qaysi soʻz turkumi ekani, gapda qanday grammatik shaklda kelganida ifodalanadi. Toʻliq morfologik tahlilda oʻquvchi soʻz turkumining oʻzi oʻrgangan belgilarini aytadi. Masalan, 1-sinf oʻquvchisi shu soʻz qanday savolga javob boʻlishini va nimani bildirishini aytadi (shaxs yoki narsa, narsa belgisi, harakati). 3-sinfda soʻz turkumlari oʻtilgach, morfologik tahlil quyidagi tartibda oʻtkaziladi: Ot: 1. Soʻz turkumi. 2. Soʻrogʻi. 3. Birlik yoki koʻplikda ekanligi. Sifat: 1. Soʻz turkumi. 2. Soʻrogʻi. 3. Qaysi ot bilan bogʻlanganligi. Fe'l. 1. Soʻz turkumi. 2. Soʻrogʻi. 3. Boʻlishli yoki boʻlishsiz ekanligi. Ogʻzaki tahlil namunasi: Mevali daraxtlar gulladi. Mevali — sifat, qanday? — mevali;

daraxtlar oti bilan bog‘langan: mevali daraxtlar; daraxtlar — ot, nimalar? — daraxtlar, ko‘plikda; gulladi — fe’l, nima qildi? — gulladi, bo‘lishli. 4-sinfda o‘rganilgan mavzularni hisobga olib, morfologik tahlil biroz to‘ldiriladi va quyidagi tartibda o‘tkaziladi: Ot: 1. So‘z turkumi. 2. Bosh kelishik shakli. 3. Birlik yoki ko‘plikda ekanligi. 4. Egalik qo‘shimchasi, shaxs-soni. 5. Kelishigi. Sifat: 1. So‘z turkumi. 2. So‘rog‘i. 3. Qaysi ot bilan bog‘langanligi. Son: 1. So‘z turkumi. 2. So‘rog‘i. 3. Qaysi ot bilan bog‘langanligi. Olmosh: Kishilik olmoshi: 1. So‘z turkumi. 2. So‘rog‘i. 3. Shaxs- soni. 4. Kelishigi. Fe’l: 1. So‘z turkumi. 2. So‘rog‘i. 3. Bo‘lishli yoki bo‘lishsiz ekanligi. 4. Shaxs-soni. 5. Zamoni. O‘quvchilar tahlil tartibini bilib olishlari uchun o‘qituvchi bu tartibga rioya qilib so‘zga xarakteristika berishning qulayligini tushuntiradi. So‘z turkumiga ko‘ra tahlil og‘zaki va yozma tarzda o‘tkaziladi: uni mustaqil mashq sifatida topshirish ham mumkin. To‘liq bo‘lmagan morfologik tahlildan xilma-xil grammatik vazifalarni bajarish maqsadida yangi mavzu bilan tanishtirish bosqichida ham, uni mustahkamlash bosqichida ham foydalaniladi. Morfologik tahlilning vazifasi hozirgi o‘zbek tilida so‘z qanday ma’noli qismlardan tuzilganini aniqlashdir. Morfologik tahlil 3-sinfdan boshlanadi. Bu sinfda 6'quvchilarga o‘zakdosh so‘zlar, o‘zak o‘zakdosh so‘zlaming umumiy qismi ekani, so‘z yasovchi qo‘shimchalar va so‘z o‘zgartuvchi (shakl yasovchi) qo‘shimchalar haqida elementar ma’lumot beriladi.

“So‘z tarkibiga ko‘ra tahlil quyidagicha o‘tkazilishi mumkin:

1. So‘zga so‘roq berish va u nimani anglatishini bilish.

2. O‘zakni aniqlash. Buning uchun so‘zga o‘zakdosh so‘zlar tanlash. O‘zakdosh so‘zlarni taqqoslash va umumiy qismi (o‘zak)ni aniqlash.

3. So‘z yasovchi qo‘shimchani aniqlash. Bu yangi so‘z yasash uchun xizmat qilishini aytish.

4. So‘z o‘zgartuvchi (shakl yasovchi) qo‘shimchani aniqlash.

Bu so‘zni boshqa so‘z bilan bog‘lash uchun xizmat qilishini aytish. 3-sinfda „So‘zning tarkibi" mavzusi to‘liq o‘rganilgach, gulzor so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra og‘zaki tahlil qilish tartibi quyidagicha bo‘lishi mumkin: 1. Qaysi so‘z turkumi ekanini bilaman. Gulzor so‘zi nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, narsani

bildiradi, bu — ot. 2. Oʻzakni aniqlayman. Buning uchun oʻzakdosh soʻzlar tanlay- man: gulzor, gulli, gulsiz, gulla. Ularni solishtirib, umumiy qismini topaman — gul. Bu — oʻzak. 3. Soʻz yasovchi qoʻshimchani aniqlayman, gulzor soʻzi gul soʻziga -zor soʻz yasovchi qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan. 4. Bu soʻzda soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimcha yoʻq.

Soʻz tarkibiga koʻra tahlildan soʻng shunday koʻrinish hosil boʻladi: gul zor. 4-sinfda paxtakorga soʻzini soʻz tarkibiga koʻra ogʻzaki tahlil qilish tartibi quyidagicha boʻlishi mumkin: 1. Paxtakorga — ot. 2. Oʻzakni aniqlayman. Buning uchun oʻzakdosh soʻzlar tanlay- man: paxtakor, paxtazor. Solishtiraman. Umumiy qism - paxta. Bu — oʻzak. 3. Soʻz yasovchi qoʻshimchani aniqlayman: paxtakor soʻzi paxta soʻziga -kor soʻz yasovchi qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan. 4. Soʻz oʻzgartuvchi (shakl yasovchi) qoʻshimchalarni aniqlayman: -ga — soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimcha, kelishik qoʻshimchasi. 4-sinfda ishladim soʻzini soʻz tarkibiga koʻra ogʻzaki tahlil tartibi:

1. Ishladim — fe’l.”

2. Oʻzakni aniqlayman. 0 ‘zakdosh soʻzlar tanlayman: ishla, ishli, ishsiz, ishchan. Solishtiraman. Umumiy qism — ish. Ish — oʻzak. 3. Soʻz yasovchi qoʻshimchani aniqlayman: ishla fe’li ish soʻziga -la qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan. -la — fe’l yasovchi qoʻshimcha. 4. Soʻz oʻzgartuvchi (shakl yasovchi) qoʻshimchani aniqlayman: -di — oʻtgan zamon qoʻshimchasi, -m — shaxs-son qoʻshimchasi, I shaxs, birlik: ishladim. Soʻz tarkibiga koʻra tahlildan mustaqil mashq sifatida foydalanish ham mumkin. Soʻzni morfologik tahlil qilish uning lugʻaviy m a’nosini tushunishda, morfemalarni toʻgʻri yozishda oʻquvchilarga yordam beradigan muhim vositadir. Boshlangʻich sinflarda grammatik va morfemik tahlil bilan birga, soʻzni tovush-harf tomonidan tahlil qilishdan ham foydalaniladi. Bu tahlilning vazifasi soʻzda tovushlarning tartibini, ularning xarakterli xususiyatlarini, tovushlar va harflar oʻrtasidagi munosabatni aniqlash hisoblanadi. Boshlangʻich sinflarda tovush-harf tomonidan tahlil tartibi quyidagicha: 1. Soʻzda nechta boʻgʻin bor? 2. Soʻzda nechta tovush va nechta harf bor? (Tovushlar soni harflar sonidan kam yoki koʻp boʻlsa, sababini aytish) 3. Unli tovush nechta? Undosh tovush-chi?

4. Har bir tovushni xarakterlash. Tovush soʻzda qaysi harf bilan ifodalangan? Masalan, kitob soʻzi quyidagicha tahlil qilinadi: 1. Soʻzda ikki boʻgʻin bor: ki-tob. 2. Soʻzda beshta tovush, beshta harf bor. 3. Soʻzda ikki unli tovush, uch undosh tovush bor. 4. k — undosh, jarangsiz, k harfi bilan ifodalangan i — unli tovush, i harfi bilan ifodalangan t — undosh tovush, jarangsiz, yozuvda t harfi bilan ifodalangan o — unli tovush, o harfi bilan ifodalangan. b — undosh tovush, jarangli, b harfi bilan ifodalangan Tovush-harf tomonidan toʻliq boʻlmagan tahlildan soʻzning yozilishini tushuntirishda ham, orfoepik toʻgʻri talaffuzni oʻrgatish maqsadida ham foydalaniladi. Masalan, maktab soʻzi oxirida b undoshi p tarzida talafftiz qilinadi, jufti bor undosh, tekshiramiz: maktabim maktab, b harfi yoziladi.

Boshlangʻich sinflarda sintaktik tahlilni oʻrgatish metodikasi

“Boshlangʻich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy oʻrganiladigan va nazariy oʻrganiladigan bilimlarga boʻlinadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy oʻrganish savod oʻrgatish davridayoq boshlanadi va 4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlangʻich sinfda „Gap”, „Darak gap”, „Soʻroq gap”, „Buyruq gap”, „His-hayajon gap”, „Sodda gap”, „Gap boʻlaklari”, „Gapning uyushiq boʻlaklari”, „Undalmali gapiar" mavzulari nazariy oʻrganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi”.

Boshlangʻich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish koʻnikmasini shakllantirish hisoblanadi. Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida oʻzlashtirilgani uchun tilni oʻrganishda gap ustida ishlash markaziy oʻrin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi boʻlib, boshlangʻich sinf oʻquvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe’l va ularning muhim kategori- yalarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. Oʻquvchilar ona tili leksikasini ham gap negizida egallaydilar. Soʻzning leksik ma’nosi va uning qoʻllanish xususiyatlari soʻz birikmasi yoki gapda ma’lum boʻladi. Soʻz gapda bir ma’noli boʻladi (gapdan tashqarida bir necha ma’no ifodalashi mumkin). Metodist olima T. G. Ramzayeva boshlangʻich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yoʻnalishga boʻladi:

“ 1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi boʻlgan gapning muhim belgilarini oʻrgatish)

. 2. Gap qurilishini oʻrgatish (soʻz birikmasida soʻzlaming bogʻlanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarning xususiyatlari, yoyiq va yigʻiq gapiar ustida ishlash).

3. Oʻquvchilaming nutqida gapning maqsadga va ohangga koʻra turlaridan foydalanish koʻnikmasini shakllantirish.

4.Gapda soʻzlarni aniq qoʻllash koʻnikmasini oʻstirish.

5. Yozma nutqda gapni toʻgʻri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qoʻyish) koʻnikmasini shakllantirish. Ishning bu besh yoʻnalishi bir-biriga oʻzaro ta'sir etadi va gapning ayrim tomonlarini oʻrganish maqsadidagina ulaming har biri mustaqil" muhokama qilinadi. Gapni oʻrganish va nutqda undan foydalanish koʻnikmasini shakllantirish 0ʻquvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. Oʻquvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tugʻiladi. U oʻz fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi. „Gap" mavzusi barcha sinflarda oʻrganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. Oʻquvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi - gap haqidagi elementar tasawurdan gapning bosh va ikkinchi darajali boʻlaklari, gapda soʻzlaming bogʻlanishi, gapning uyushiq boʻlaklarini oʻrganishga oʻtadilar. Gap ustida ishlashning boshlangʻich bosqichi savod oʻrgatish davri- ga toʻgʻri keladi. Bu davrda oʻquvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, soʻzlardan gap tuzib boʻlmaydi. Agar oʻquvchilar gapning bosh boʻlaklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham savod oʻrgatish davrida gapning bosh boʻlaklari ustida kuzatish oʻtkazgan ma'qul. Gapning bosh boʻlaklarini kuzatish bilan oʻquvchilar oʻz fikrlarini aniq ifodalashga oʻrganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish koʻnikmasi shakllanadi. Gapni oʻrganish me'yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan, soʻz birikmasi haqidagi tasawur aniqlanadi. Boshlangʻich sinflarda oʻrganiladigan sintaktik material kam boʻlsa ham, butun oʻquv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi.

Dasturga koʻra, 1-sinfda oʻquvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap soʻzlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilari qoʻyilishi haqida amaliy ma'lumotlar beriladi. 2-sinfda esa oʻquvchilar gap haqida nazariy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan soʻzni ajratishga oʻrganadilar. "Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh boʻlaklarni oʻrganishga muqaddima boʻladi. 3-sinf gap ustida ishlashda yangi bosqichdir. Oʻquvchilar gapni amaliy oʻrganishdan tushuncha sifatida oʻrganishga oʻtadilar. Ular gapning muhim belgilarni bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarning ta'rifi, ega va kesim atamalari kiritiladi. Bu sinfda gapda soʻzlaming bogʻlanishiga katta e'tibor beriladi. Oʻquvchilar gapning asosi (ega va kesim)ni ajratadilar, ikkinchi darajali boʻlaklarni farqlaydilar va gapdagi ikki soʻz (hokim va tobe soʻz)ni, soʻzlaming grammatik jihatdan, ya'ni qoʻshimchalar orqali bogʻlanishini bilib oladilar. 4-sinfda gapning uyushiq boʻlaklarini oʻrganish bilan gap boʻlaklari haqidagi bilim kengaytiriladi. Shunday qilib, oʻquvchilarda gap boʻlaklari haqidagi tasav- vurni oʻstirish gapni oʻzlashtirishda yetakchi hisoblanadi". Birinchidan, boshlangʻich sinf oʻquvchilari gap boʻlaklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarga) boʻlinishini oʻzlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali boʻlaklar turlarga ajratilmaydi. Gapni oʻzlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarning mohiyati ochiladi: bosh boʻlaklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali boʻlaklar esa bosh boʻlaklarni aniqlovchilik va toʻldiruvchilik vazifasini bajaradi. Ikkinchi darajali boʻlaklarning mohiyatini ochish uchun oʻquvchilar gapni tahlil qiladilar va ular qaysi gap boʻlagiga bogʻlanib, uni izohlab kelayotganini aniqlaydilar. Ikkinchi darajali boʻlaklarning xususiyatlari gapni yoyish (yigʻiq gapni yoyiq gapga aylantirish) jarayonida yaqqol koʻrinadi. Masalan, oʻquvchilar „Qaldirgʻochlar uchib keldi" gapini yozadilar. Fikrni toʻliq ifodalash uchun gapga qayerga? va qachon? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarni qoʻyish topshiriladi.

Oʻquvchilar bu vazifani bajarib, qaysi gap boʻlagi (ikkinchi darajali boʻlak) fikrni yana aniqroq ifodalaganiga ishonch hosil

qiladilar. O‘quvchilarda gapda so‘zlaming bog‘lanishini aniqlash ko‘nikmasini shakllantirish muhim sintaktik va nutqiy ko‘nikmalar qatoriga kiradi. So‘z birikmasi gap qismi sifatida ajratiladi va boshlang‘ich sinflarda uning muhim belgilari idrok qilinadi. „So‘z birikmasi" atamasi darsliklarga kiritilmagan, ta’rifi berilmaydi. Ammo kichik yoshdagi o‘quvchilar uning quyidagi muhim belgilarini amaliy bilib olishlari zarur: 1. So‘z birikmasi mazmun va grammatik tomondan bog‘langan ikki qism bo‘ladi.

Masalan, „Dunyo xalq lari tinchlik uchun kurashadilar“ gapida ikkita so‘z birikmasi bor: 1) dunyo xalqlari; 2) tinchlik uchun kurashadilar.

“So‘z birikmasida bir so‘z hokim ikkinchi so‘z tobe bo‘ladi. Hokim so‘zdan tobe so‘zga so‘roq beriladi, tobe so‘z shu so‘roqqa javob bo‘lgan so‘zdir. Masalan, (Qanday?) Iqtidorli o‘quvchilar (nimaga?) to‘garakka a’zo bo‘Idilar. Ega va kesim so‘z birikmasini emas, gapni hosil qiladi. Gap tarkibidagi so‘z birikmalarini ajratish ko‘nikmasi uzoq mashq davomida shakllantirilib boriladi. Buning uchun o‘quvchilaming so‘z birikmasidan bir so‘zning boshqa so‘zga tobeligini tushunishga qaratilgan mashqlar tizimidan foydalaniladi:”

Gaplarni yoyish. Buning uchun gapning qaysi bo‘lagi yoyishni talab qilishi aniqlanadi. Masalan, „Daraxtlar gullaydi" gapini tahlil qilish uchun berilgan ega va kesim (gapning asosi) ajratiladi. — Daraxtlar qachon gullashini aytish uchun gapga qaysi so‘zni qo‘shish kerak? — Qachon gullaydi? (bahorda gullaydi) — Bu so‘z gapning qaysi bo‘lagi bo‘ladi? (Ikkinchi darajali bo‘lak) — U gapning qaysi bo‘lagiga bog‘lanadi, ya’ni tobelanadi? (Ke-simga bog‘lanadi) — Gapga egani izohlaydigan yana bitta so‘z qo‘ying. Qanday gap hosil bo‘ldi? (Mevali daraxtlar bahorda gullaydi). 2. So‘zlari aralash berilgan gapni qayta tiklash. Awal gapning asoslari (ega va kesim) tiklanadi (aniqlanadi), so‘ng so‘roqlar yordamida ikkinchi darajali bo‘laklar (so‘z birikmalari) „topiladi", tiklanadi. Masalan, Mashinada, teradi, terimchi, paxtani. — Gap kim haqida aytilgan? (Terimchi haqida, kim? — terimchi) — U haqda nima deyilgan? (Teradi. Terimchi teradi — bosh bo‘laklar). — So‘roqlar yordamida so‘z birikmasini toping. Nimani? teradi (Paxtani teradi), nimada? teradi (Mashinada teradi). Keyin gapda so‘zlaming qulay tartibi aniqlanadi (Terimchi paxtani mashinada teradi). Gap

ohanggi ustida ishlanadi. 3. Uzluksiz (tinish belgilarisiz) matndan gaplarni ajratish. Mashqning bu turi ongli bo‘lishi uchun har bir gapning bosh bo‘laklarini va so‘z birikmalarini ajratish lozim. 4. Gapni tahlil qilish va chizmasini chizish. Gap tahlil qilinayot- ganda dastlab uning asosi ajratiladi, keyin egani izohlovchi ikkinchi darajali bo‘lak, kesimni izohlovchi ikkinchi darajali bo‘lak, boshqa ikkinchi darajali bo‘lakni izohlovchi ikkinchi darajali bo‘lak ajratiladi. Shunday qilib, asta-sekin so‘z birikmalari ham aniqlanadi.

5. O‘qituvchi bergan chizma yoki so‘roqlar asosida gap tuzish: Kim? nimalarni? nima qildi? (Bola olmalami terdi). So‘z birikmasi ustida ikki yo‘nalishda ish olib boriladi: 1) so‘z birikmasiga gap ichida gapning tarkibiy qismi sifatida qaraladi; 2) so‘z birikmasiga predmetning yoyiq nomi sifatida qaraladi, masalan, soat — so‘z, oltin soat, qo‘1 soat, osma soat, elektron soat — so‘z birikmalari. Quyida 2-sinfda gapning bosh bo‘laklarini o‘rganishga oid dars namunasini keltiramiz: Mavzu: Gap (gap asosini aniqlash). Darsning maqsadi: 1. O‘quvchilarda gap kim yoki nima haqida aytilganini (egani) va u haqda nima deyilganini bildirgan so‘zni (kesimni) gapdan topish ko‘nikmasini shakllantirish. 2. Nutqdan gapni ajratish ko‘nikmasini o‘stirish. 3. O‘quvchilarni o‘z fikrini aniq, tushunarli va ravon ifodalashga o‘rgatish. Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars Darsning metodi: suhbat, izlanish metodi

Darsning borishi 1. Uy vazifasi tekshiriladi. 2. „Gap” mavzusi esga tushiriladi. O‘quvchilar diqqatiga quyidagi gapiar havola qilinadi: 1. O‘qituvchi bolalarni o‘qitadi. 2. Kuzda har xil mevalar pishadi. 3. Tikuvchi kiyimlami tikadi. 4. O‘quvchilar kitoblami sevib o‘qiydilar. — Gap nimalardan tashkil topadi? — Og‘zaki nutqda biz bir gapni ikkinchisidan qanday ajratamiz? — Yozuvda gapning boshi va oxiri qanday belgilanadi? O‘qituvchi yuqoridagi savol-javobdan so‘ng, o‘quvchilar javobini umumlashtiradi: — Demak, gap tugallangan mazmun bildiradi. Gap oxiriga uning mazmuniga qarab nuqta, so‘roq va undov belgisi qo‘yiladi. Gap so‘zlardan tuzilib, uning birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi.

Savol va topshiriqlar

1.O‘quvchilarda grammatika va so‘z yasalishiga oid tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslarini snang?

2. Grammatik tushunchaning mohiyati va uni kichik yoshdagi o‘quvchilar o‘zlashtirishidagi qiyinchiliklarini tushuntiring?

3. Tushunchani o‘zlashtirish ustida ishlash jarayoni, uning shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘linadi?

4. O‘zak va qo‘shimcha ustida ishlashning mazmuni haqida fikr bildiring.

5. So‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi ustida ishlash

9-MAVZU: KITOBXONLIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Reja:

1. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish.
2. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilarda kitobxonlikni tarkib toptirish texnologiyasi
3. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish metodikasi

Tayanch so‘zlar: *sinfdan tashqari o‘qish, kitob tanlash madaniyati, analitik, sintetik, kitob tanlab olish, badiiy asar, kitobxon, kompotentlik, matn, kitob tanlash*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tilio‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X.Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.:TDPU, 2013. –70 b.

3.Икромова Р, Ғуломова Х, Йўлдошева Ш, Шодмонқулова Д, Она тили, 4-синф, -Т.: 2017.

4. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2017.

5. Фузалиев С, Худойберганова М, Йўлдошева, “Она тили”, 3-синф, -Т,: “Ўқитувчи”, 2018.

6. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2016.

7. Қосимова К, Фузалиев С, Неъматова А, “Она тили”, 2-синф, -Т,: “Чўлпон”, 2018.

8. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2015.

9. Ғаффорова Г, Шодмонов Й, Ғуломова Х , “Она тили”, 1 -синф, -Т,: “Шарқ”, 2019.

10. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 1-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2014.

11. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2015.

12. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2016.

13. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2017.

14. Ҳ.Бакиева, Н.Аҳмедова, Н.Азизова, Д.Носирова, Б.Тешабоева, У.Исмоилова, Б.Эгамбердиева “Саводга ўргатиш дарслари”.-Т.: “Эхтремум-пресс”, 2014. -119 б

15. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Yevaluation of Yeducational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019.

Axborot manbalari

1.http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

2.http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

3.http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

4.www.pedagog.uz

5.www.timssandpirls.bc.edu.
6. www. pedagog. uz
7. www. Ziyonet. uz

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda jamiyatni har tomonlama rivojlantirishda kitob mahsulotlarini chop etish, tarqatish, aholi o‘rtasida kitob mutolaasini keng targ‘ib etish, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish yo‘lida turkum amaliy ishlar olib borilayapti. Bu boradagi tizimli ishlarning asosini esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi (2017-yil 13-sentabr) Qarori tashkil etadi. Qarorda jamiyatda kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, aholi, xususan, yoshlarda kitob o‘qish hamda kitobxonlikka bo‘lgan ijobiy munosabatni qaror toptirish, kitob mutolaasini kundalik faoliyatga aylantirishga erishish mohiyatini yorituvchi muhim vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-4354-son Qarorida esa, “Kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish (shu jumladan, pulli xizmat ko‘rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internetresurslar bilan hamkorlikni kengaytirish; axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini hamda

milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona fondlarining yaxshi saqlanishini ta’minlash; jamiyatning axborot madaniyatini, tariximizga va milliy madaniyatga qiziqishini shakllantirish va kuchaytirish, mutolaa madaniyatini oshirish va targ‘ib qilish” kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda 5 ta muhim tashabbus ilgari surilib, shulardan to‘rtinchisi – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb
etadi.

O‘quvchi-yoshlarda kitobga mehr uyg‘otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish maqsadida “Ma’rifat karvoni” loyihasi doirasida badiiy, ma’rifiy, ijtimoiy mavzularda kitoblar chop etish, har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do‘koni tashkil etish, ko‘chma kitob pavilonlarini joylashtirish, “Bibliobus”larni yo‘lga qo‘yish kabi qator vazifalar amalga oshirildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ommaviy kitob o‘qishga jalb etish bo‘yicha sezilarli ishlar olib borilayapti. XX asrning oxirlariga kelib kitobxon yoshlarning kamayib ketishi kabi illatni bartaraf etish ishlari shunchalik tez amalga oshirilyaptiki, vatandoshlarimiz qanday qilib kitoblar sotib olishni va kitob o‘qishni boshlaganini o‘zlari ham sezmay qoldilar. Lekin bajariladigan ishlar hali ko‘pligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Bo‘ka tumanida tashkil etilgan “Madaniyat va ma’rifat ekoparki”dagi kutubxonada O‘zbekistonda kitobxonlik haqida “Hududlarga kitob yetkazib berish yaxshi. Lekin ularni o‘qish, o‘qitish yetarli darajada emas. Bolalarimizni bog‘cha yoshidan, boshlang‘ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o‘rgatish, shu orqali ularni kitobsevar qilib ulg‘aytirish zarur. Shundagina

jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob oʻqishga qaytadi",-deb, koʻrsatib oʻtdi.

Kitob oʻqish – insoniyat oʻylab topgan eng ajoyib xodisalarning biri. Buning natijasida odamning ma'naviy dunyosi boyib, insoniylik fazilatlari ortib boradi. Shu sababli kitob oʻqish har kim uchun juda muhim boʻlib, kitob tezkor oʻylashga, sezish qobiliyatlarimizni rivojlantirishga oʻrgatadi. Kitob bilan ishlashni bilmaslik ba'zi birovlarning kitobga qiziqishini yoʻqotsa, ba'zilarning oʻylanmasdan qoʻliga nima tushsa, shuni oʻqishiga olib keladi. Bu kitob oʻqish madaniyati pastligini koʻrsatadi. Davlat ta'lim standarti, zamonaviy jamiyatning talablariga javob beradigan shaxs va axborot oqimlarida erkin xarakat qilish; konstruktiv muloqot oʻrnata olish, hamkorlik qilish, hayot faoliyati davomida oʻquv- biluv vazifalarini samarali hal etishni tarbiyalash va rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu fazilatlarga, oʻquvchilarda oʻqishga qiziqish, oʻqish va kitobxonlik madaniyati shakllansagina, ega boʻlishi mumkin. "Mutolaa madaniyati" tushunchasi keng ma'noda qoʻllaniladi. Xususan, bu hodisa asarni anglash va uni tushunish uchun kitobxondan ma'lum tayyorgarlik va saviyani talab qiladi. Bu hodisaning mohiyati kitobni shunchaki varaqlash va undan umumiy foydalana bilishdan to ijodiy oʻqish, kitob muallifiga oshno boʻlib, uning asarini chuqur tahlil qilib mutolaa qilishgacha boradi. Kitob oʻqish madaniyati juda keng tushuncha boʻlib, bu haqidagi fikrmulohazalar Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan 2007-yili nashr etilgan "Bebaho xazina" nomli metodikbibliografik qoʻllanmada keltiriladi:

1. Kitob tanlab olish.
2. Kitobni qanday oʻqishni bilish.
3. Kitob oʻqiganda nimalarga e'tibor berish va nimalarni esda saqlab qolish.
4. Kerakli ma'lumotlarni qayerdan, qanday, qaysi vositalardan foydalanib topish.
5. Olingan bilimni yoki xabarni qanday yetkazib berish.
6. Qayta oʻqish – kitobxonlik koʻnikmasini shakllantirish.
7. Kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilish.
8. Kitobni tez va sekin oʻqishni farqlay olish.
9. Kitobni oʻqib, uning fusunkor olamiga kira bilish.

10. Kitobni mustaqil oʻqiy bilish.

Shundan kelib chiqib aytadigan boʻlsak, oʻqish madaniyati – bu ongli ravishda mavzularni tanlash, muntazam va izchil oʻqishni oʻz ichiga olgan kitob bilan ishlash koʻnikmalar majmui, shuningdek, bibliografik vositalar yordamida kerakli adabiyotlarni topish hamda lugʻat hamda bibliografik apparatdan foydalana olish, oʻqilganlarni oʻzlashtirish va qabul qilishning (tezis yozish, konspekt qilish, annotatsiya yozish, taqriz yozish) samarali uslublarini qoʻllash, kitobni avaylab-asrash malakalaridir. Mutolaa madaniyati oʻquvchiga oʻqiyotgan asarini toʻlaqonli tushunish, undan badiiy-estetik zavq olish, yozuvchi fikri, asar gʻoyasini anglash va baholay olish, bundan tashqari, kitob va kutubxonadan foydalanish, maʼlumotnoma-bibliografik apparatidan oʻzini qiziqtirgan yoki zarur masalalarga doir kitoblarni topib olish va undan foydalanish yoʻllarini oʻrgatadi.

Kitob tanlash, uni tez oʻqish, oʻqilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya etish, avaylab saqlash ham kitobxonlik madaniyatining tarkibiy qismlariga kiradi.

1. Kitobxon qiziqishi – bu kitobxonning hissiy jihatdan oʻziga jalb etadigan yoki unga qaysi bir aspekti muhim boʻlgan bosma asarlarga ijobiy munosabatidir. Qiziqishi asosida kitobxon badiiy matnlarni oʻzlashtirish ishini oʻzi rejalashtiradi va amalga oshiradi.

2. Oʻqish madaniyati matnni idrok qilish, uni tushunish va asarni talqin qilishni oʻz ichiga oladi va idrok darajasi oʻquvchining oʻqish tajribasi va adabiy saviyasi bilan belgilanadi. Oʻqishning yuqori darajasi ijodiy his-tuygʻular, yangi obrazlar va yangi haqiqatni yaratish, muallif bilan muloqot qilish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Olima B.I.Ganiyeva “oʻqish madaniyati”ning tarbiyaga oid elementlarini quyidagicha belgilagan: - oʻqishga, axborot olishga mayl, havas, ishtiyoqni shakllantirish; - oʻqilgan kitob orqali fikrlash yoʻllarini oʻrgatish; - zehn va uquvni tarbiyalash; - mavjud kitobxonlik malakalarini takomillashtirish.

Professor E.Y.Yoʻldoshev: “Oʻqish madaniyati – juda keng qamrovli tushuncha boʻlib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega boʻlishni, shuningdek, kitobdan toʻla ravishda

foydalanishga yordam beruvchi koʻnikma va malakaga ega boʻlishni taqozo etadi", - deydi. Shu munosabat bilan aytadigan boʻlsak, badiiy matnni oʻqish madaniyatini rivojlantirish ta'limning asosiy maqsadi boʻlishini insonning oʻzini-oʻzi rivojlantirishi va oʻzida ezgu ma'naviy qadriyatlar shakllanishida muhim qadamdir.

Oʻquvchilarda oʻqish madaniyatini boshlangʻich sinfdan boshlab shakllantirib borish kerak. S.N.Plotnikov oʻspirin yoshidagi bolalarda oʻqish madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi mezonlarni belgilaydi: - bolalarda kitobga qadriyatli munosabatni yaratish jarayoni; - qiziqqan kitobini izlab topish va tanlash qobiliyati; - oʻqiganlariga hissiy munosabatda boʻlish qobiliyati; - badiiy matnni estetik jihatdan his qilish imkoniyatlari; - oʻqigan asarlaridan qimmatli va ma'noli ma'lumotlarni topish;
- oʻquvchilarda oʻqish ehtiyojlarini shakllantirish. Oʻqish madaniyatini oʻzlashtirish natijasida "kitobxonlik madaniyati" shakllanadi.

Kitobxonlik madaniyati oʻqish madaniyatiga qaraganda keng ma'nodagi, koʻptomonlama, katta hajmdagi tushunchadir. 3. Kitobxonlik madaniyati bu adabiy asarlarni tushunish va estetik jihatdan baholashni biladigan kitobxon-oʻquvchini shakllantirish jarayonidir. Safo Matchon fikricha, "kitobxonlik – oʻqilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib oʻqish, ya'ni maqsadli oʻqishdir".

Atoqli yozuvchi X.Toʻxtaboyev kitobxonlik haqida shunday deydi: "Kitobxonlik kitobni targʻib qilishgina emas, balki kitob oʻqishni, oʻqiladigan kitobni tanlay olishni, magʻzini chaqishni, ya'ni kitob yordamida oʻzini anglashni oʻrgatish hamdir". Olimlarning fikriga tayanib aytadigan boʻlsak, kitobxonlik madaniyati – bu

1) oʻquvchining kitob bilan madaniy aloqasini rivojlantirishning ma'lum bir darajasi;

2) oʻqilgan kitoblar mazmunini toʻliq tushunish; 3) yoshiga hos boʻlgan adabiy bilimlarning mavjudligi.

4. Kitobxonlik kompetentliligi – intellektual qobiliyat va shaxsiy fazilatlar asosida shakllangan, oʻquvchi va katta yoshli insonning umumiy shaxsiy sifati.

Sotsiolog S.N.Plotnikov kitobxon oʻquvchining intellektual rivojlanishidagi asosiy belgilarni qoʻyidagicha koʻrsatib beradi: faol

tarzda oʻqiydigan oʻquvchilar muammolarni toifalarga ajratib fikrlash, yaxlitlikni bilish va voqealarning orasidagi qarama-qarshiliklarini aniqlash; vaziyatni yanada toʻgʻri baholash va toʻgʻri yechimlarni tezroq topish; koʻproq xotira va faol ijodiy tasavvurga ega boʻlish; yaxshi nutqga ega boʻlish; muloqotga oson kirishish va suhbatdagi yoqimlilik; mustaqillikka va ichki erkinlikka katta ehtiyoj sezish, oʻzining fikrlariga va xatti-harakatlariga tanqidiy munosabatda boʻlish qobiliyatga ega boʻladilar. Buning uchun jamiyatda kitobning ma'naviy hamda axloqiy ozuqa, madaniyat va til ravnaqi uchun asosiy manba, avlodlardan-avlodlarga oʻtib kelayotgan intellektual meros sifatida mavqei hamda ahamiyatini saqlash muhim ahamiyatga ega. Avvalo, yoshlarimiz badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni oʻqishi, oʻrganishi milliy hamda jahon adabiyoti namoyandalarining asarlarini mutolaa qilish lozim.
5. Mutolaa madaniyati. "Mutolaa" soʻzi arabcha "oʻqish", "oʻrganish", "diqqat bilan oʻqish", oʻqib tushunib olish" degan ma'noni anglatadi.

Bugungi kunda mutolaa kitob oʻqishdan koʻra kengroq tushunchani bildirishini olim A.Umarov quyidagicha ta'riflaydi: "Ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yoʻnaltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi oʻzgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalardir". Olim, shuningdek, mutolaa madaniyatining tarkibi boʻlgan mutolaa darajasining bosqichlarini ham koʻrsatib beradi:

- birinchi darajada oʻquvchi matnning mazmunini anglab, hikoya qilinayotgan voqeaning syujetini hamda uning asosiy jihatlarini eslab qoladi;

- ikkinchi darajada oʻquvchi matnning mazmunini hamda syujetni anglab, voqealar rivojini ma'lum darajada bashorat qila olish qobiliyatini namoyon qiladi.

- uchinchi darajada oʻquvchi matnga va unda hikoya qilinayotgan voqeaga oʻzining mustaqil munosabatini bildirib, qahramonlarning xattiharakatlarini baholay oladi hamda asar epizodlarini tahlil qila oladi.

- to‘rtinchi darajada o‘quvchi matning mazmunini to‘la anglab, voqeani mustaqil tahlil qila oladi. Voqea qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, o‘z munosabatini shakllantiradi.

Kitob mutolaasi haqida Gyote shunday fikr bildiradi: a) nihoyatda mashaqqatli (darhaqiqat, kitob mutolaasi kishidan qunt va sabr, kuchli xotira va yuksak fahm talab etadi); b) beqiyos sharafli (kitob mutolaasi tufayli hayot qonuniyatlarini chuqur anglay borgan, bilim doirasi kengayib, tushunchasi, dunyoqarashi o‘sgan, ma’naviy jihatdan yuksalgan); v) huzurbaxsh (aks holda, kitob mutolaasi bilan muttasil shug‘ullanmagan bo‘lardi).

Mutolaa madaniyati – o‘quvchilarning kitob o‘qishga qiziqish va ehtiyojlarini tarkib toptirish, badiiy asarlarni tahlil etish va xulosa chiqarish, axloqiy va estetik ideallarni shakllantirishga qaratilgan yaxlit jarayon. Demak, mutolaa madaniyati insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan uyg‘unlashish, ma’naviy foyda olishga yo‘naltiradi.

Doris Lessing so‘zi bilan aytganda, “Mutolaa insonni to‘ldiradi!” – deyishadi, darhaqiqat, u insondagi bo‘shliqlarni zarur ilmlar bilan to‘ldiradi. Jahon miqyosida bugungi kunda yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni targ‘ib qilish, ularning faol kitobxon bo‘lishiga erishishda davlatning faol aralashuvi, ijtimoiy ishtiroki asosida bu yo‘nalishda dasturiy-loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet-texnologiyalaridan faol foydalanish hamda kitobxonlik faolligini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni izlab topish an’ana tusini olmoqda.

Xorijiy davlatlarda kitob o‘qishning bunday innovatsion usullari jamiyatda kitobxonlikka bo‘lgan ijobiy munosabatni yuzaga keltiradi. Davlatning faol aralashuvi, ijtimoiy ishtiroki aholini, ayniqsa, yoshlarni mutollaga qiziqishini oshiradi. Rivojlangan davlatlarda mavjud sharoitda asosiy e’tibor kutubxona axborot tarmoqlarini rivojlantirish, ularni an’anaviy va zamonaviy kitoblar hamda kitob mahsulotlari bilan boyitish, aholi, shu jumladan, yoshlarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan targ‘ibotning innovatsion shakl, metod va vositalarini yaratishga qaratilgan. J

ahonning rivojlangan davlatlari tajribasida global axborotlashuv muhitida aholi, xususan, yoshlarda kitob o‘qishga

bo‘lgan ijobiy munosabatni qaror toptirishga qaratilgan keng ko‘lamli ijtimoiy harakatlar negizida targ‘ibotning innovatsion vositalarini izlash yetakchi o‘rin tutadi. Ayni o‘rinda bir qator davlatlarning bu boradagi tajribalarini misol sifatida keltirish maqsadga muvofiq sanaladi.

AQSH kitob nashr etuvchilari Kengashining vakili bo‘lgan Patrika Jurning qayd etishicha, Amerikada kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish yo‘lida amalga oshirilgan choralardan biri – kitob o‘qilayotgan holatni ifodalovchi reklama plakatlarida taniqli shaxslar qiyofasining berilishi sanaladi. Xorijiy davlatlarda bunday chora-tadbirlar jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, kitob o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni qaror toptirishning muhim jihatlarini aks ettirib, milliy tajribada keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Janubiy Koreyaning Seul shahrida “Kitob o‘qishni rivojlantirish va uning kitob bozoriga ta’siri” nomli kitob ko‘rgazmasida “Chu San Deyli” gazetasining muxbiri Kim Ki Chul xonadonlardagi mehmonxonani kutubxonalarga aylantirish kitobxonalar sonini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tadi. Kim Ki Chulning taklifi ham ancha e’tirofga loyiqdir, chunki xonadonda oila a’zolari ko‘p bo‘sh vaqtlarini birgalikda aynan uyning mehmon kutadigan zalida o‘tkazishadi. Oilalarga xonadonlarning mehmon kutadigan zallarida qulay va shinam kutubxona tashkil etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berib borilishi lozim.

So‘nggi yillarda yuzaga kelgan yangi internet hodisa – chellenj (ingl. “challenge” – da’vat) ham aholi, yoshlar o‘rtasida kitob o‘qish va kitobxonlik g‘oyalarini axborot texnologiyalari orqali keng targ‘ib etishda alohida o‘rin tutmoqda. Chellenj – o‘yin shaklidagi bahsning qandaydir harakatlar asosida amalga oshirishni taklif qilish hisoblanadi. Ayni vaqtda yoshlarning kitobxonlik faoliyatini kuchaytirish, rag‘batlantirish maqsadida “nashriyotlar, kitob do‘konlari, ijtimoiy tashkilotlarning tashabbuslariga muvofiq chellenj yo‘lga qo‘yilmoqda”.

Jamiyat va shaxs kitobxonligi yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlarning natijalari ham kitob o‘qish katta yoshdagi kishilarning intellektual, psixologik va fiziologik rivojlanishi uchun

yanada ijobiy ta’sir koʻrsatishidan dalolat beradi. AdMe.ru saytida e’lon qilingan ma’lumotlar ushbu fikrning haqqoniyligini tasdiqlaydi. Keltirilgan ma’lumotlar sirasida kitob oʻqishning bolalar va oʻspirinlarning umumiy psixologik, intellektual, hattoki, fiziologik rivoji uchun ahamiyatli boʻlgan gʻoyalar ham mavjud.

Chunonchi, kitob oʻqish: asabni tinchlantiradi (AQSH) olimlarining yondashuvlariga koʻra, kitob oʻqitish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan; buning uchun kuniga bor-yoʻgʻi 6 daqiqa vaqt sarflash talab etiladi); hissiyotlarni (xuddi duo yoki she’r oʻqish kabi) tarbiyalaydi (badiiy asar oʻqigan odam hayotda ham boshqalarning his-tuygʻularini yaxshi tushunadi); miya faoliyatining faolligini oshiradi, miyadagi asab tolalarining sonini koʻpaytiradi (Emori universiteti (AQSh) ning tadqiqotchilariga koʻra, kitob oʻqish natijasida insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda boʻladi); kommunikativlik, tinglash, yozish hamda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi (Obafemi Avolau universiteti (AQSH) pedagoglari bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishini aniqlashgan, darhaqiqat, koʻp kitob oʻqigan shaxslarning aksariyati she’r, hikoya, esse yoki ilmiy maqolalarni yuqori saviyada yoza oladi; badiiy asarlarni, ayniqsa, she’rlarni ifodali oʻqish, sahna asarlarini yuksak mahorat bilan ijro etish qobiliyatiga ega); ijtimoiy faollikni oshiradi; badiiy didni oʻstiradi; xorijiy tillarni oʻrganishni osonlashtiradi (boshqa tillarni oʻrganishda yangi soʻzlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi); koʻp kitob oʻqiydigan bolalar darslarni yaxshi oʻzlashtirishadi; yaxshi hikoyanavisga aylanadi (qancha koʻp kitob oʻqilsa, shaxsning hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi), ota-onalar va farzandlarning oʻzaro munosabatlari yaxshilanadi.

S.A.Denisovaning tadqiqotida bolalarda kitob oʻqishga boʻlgan ijobiy munosabatni shakllantiruvchi asosiy muhit sifatida oila va unda tashkil etilayotgan tarbiya masalalari oʻrganiladi. Muallifning e’tirof etishicha, qachonki oilaning katta yoshli a’zolari kitobxon boʻlsa, oilada kitobga nisbatan kattalarning ijobiy munosabati aks etsa, oila davrasida kitoblar va ularda bayon etilgan voqelik, qahramonlarning xattiharakatlari muhokama qilinsa, ularga nisbatan munosabat bildirilsa, oila a’zolari

tomonidan yangi chop etilgan asarlar haqidagi ma'lumotlar o'zaro o'rtoqlashilsa, uning juda ham qizilarli ekanligi e'tirof etilsa, bolalarda ham kitob o'qishga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyoj yuzaga keladi.

Muallifning fikricha, yoshlikdan shakllantirilgan kitobga nisbatan ijobiy munosabat kishining butun hayoti davomida o'z izini qoldiradi. Qolaversa, bu o'rinda uy kutubxonasining tashkil etilishi ham kutilgan natijalarni qo'lga kiritish uchun sharoit yaratadi.

S.R.Priblix tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda o'quvchiyoshlar va umuman, aholi o'rtasida kitobxonlik malakasi va madaniyatini shakllantirishda davlatning o'ziga xos o'rin tutishiga e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotchi davlatning bu boradagi roli quyidagi uch yo'nalishda namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi:

1) oliy ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarni to'g'ri o'qishga o'rgatishdan iborat;

2) ota-onalar o'rtasida ma'rifiy targ'ibotni tashkil etish;

3) bolalar yozuvchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Mazkur fikrlarga qo'shilgan holda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Mutolaa madaniyati asoslari" maxsus kursini o'qitish, umumiy o'rta ta'lim muasssalari va boshlang'ich sinf larda "O'qish va matnni tushunish savodxonligi" bo'yicha fakultativ mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

G'arbiy Avstraliyada o'spirinlarning badiiy asarlarni o'qish holatlarini o'rganish natijalari o'qituvchilar va ota-onalarning ko'magi mazkur yosh toifasidagi shaxslarning doimiy, izchil ravishda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatlarini barqarorlashuvini ta'minlaydi.

Merga M.Kristin bu o'rinda o'qituvchi va ota-onalarga quyidagilarni tavsiya etadi: o'quvchilarni maktab yoki bolalar kutubxonasiga olib borish, mustaqil o'zi o'qishni xohlagan kitoblarni tanlash va uyga olib ketishni taklif qilish; bolalarga ovoz chiqarib o'qishlariga qarshilik qilmaslik (chunki bunday o'qish ularga yoqadi); kitob tanlash usullarini o'rgatish (bu boshlang'ich sinflarda o'rgatilgan bo'lishi kerak, deb o'ylamang); kitob o'qish va kitob o'qishga qiziqishda ularga namuna bo'lish; o'quvchilar qaysi

kitoblarni oʻqiyotganliklari bilan qiziqqan holda ular bilan tanishish orqali bolalar bilan muloqotda boʻlish; mavularni cheklamagan holda uyda va maktabda kitoblar toʻgʻrisida oʻsmirlar bilan suhbatlashish; oʻsmirlarning hissiy ta'sirlanishlari: asarning ijobiy qahramonlarini yoqtirish, salbiy personajlaridan nafratlanish, asarni yarmini oʻqigan joyda tashlab ketish va sevimli asarlarni qayta oʻqish kabi harakatlarini qoʻllab-quvvatlash (oʻta qiziquvchan kitobxon qanday boʻladi, mazusida suhbatlashish); zarur yumushlarni chetga surgan holda zavqlanish uchun kitob oʻqish amaliyotining amaliy qiymati toʻgʻrisida hikoya qilib berish; oʻspirinlarni shunchaki elektron qurilmalar bilan qurollantirishing oʻzi ularda oʻz-oʻzidan qiziqishni yuzaga keltiradi, deb oʻylash mumkin emas.

E.Perrinning "Kitob oʻqish – 2016" ("Book Reading – 2016") nomli ishida qayd etilishicha, amerikaliklar orasida elektron kitoblar qanchalik ommalashganligiga qaramay, bosma kitoblar oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan holda ularga nisbatan yetakchi oʻrinni egallamoqda. Pyu tadqiqotlar markazi (Pew Research Center)ning oʻrganishiga koʻra, amerikaliklarning kitob oʻqish boʻyicha hissasi 2012-yilda (73%) 2011-yildagina nisbatan deyarli oʻzgarmagan. Soʻnggi bir yil (2012-yil ma'lumoti)da AQSH aholisining 65%i bosma, 28%i (2011-yilga qaraganda uch marta koʻp) elektron, 14%i esa audio kitoblarni oʻqishga muvaffaq boʻlgan. Amerikaliklar oʻrtacha (oʻrta hisobda) yiliga 12 tadan kitob oʻqiydi, xuddi shu vaqt oralig'ida oʻrta tabaqadagi amerikalik 4 ta kitobni bir yilning soʻnggi oyida oʻqigan.

Kollejlarning bitiruvchilari oʻrta ta'lim maktablarini tamomlaganlarga nisbatan taxminan toʻrt marta koʻproq elektron, ikki marta koʻproq bosma va audio kitoblarni oʻqiydi. 2011-2016-yillarda kitobxon amerikaliklar orasida planshetlarda foydalanuvchilar soni toʻrt marta (4%dan 15%ga), smartfonlar orqali oʻqiydiganlar soni ikki barovar (5%dan 13 %gacha) oshgan. Ushbu tadqiqot natijalariga koʻra, turli yoshdagi amerikaliklar orasida: 84%i oʻzlarini qiziqtirgan aniq mavzularga oid, 82%i jamiyatda kechayotgan oʻzgarishlardan ortda qolmaslik (ularning 47%i deyarli har kuni), 80%i kitobdan zavq olish (ularning 35%i deyarli har kuni), 57%i ish joyida yoki maktablarda (ularning 31%i

deyarli har kuni) kitobxonlarni tashkil etadi. Yoshlarning “badiiy asarlarni o‘qish” darajasi keskin pasayishi sabablari o‘rganilar ekan, 18-24 yosh toifasidagi shaxslarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishning pasayishi xavfli tus olayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Xorij tajribalari shaxsda kitob o‘qish, kitobxonlikka nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, jamiyat a’zolarining bosma, elektron va audio kitoblarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini tahliliy o‘rganish muammosi yetakchi. Davlatlar amaliyotida muhim ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatdi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish bugungi kunda ham muhim ijtimoiy zaruriyat bo‘lib, ayniqsa, o‘spirin yoshidagi o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning texnologik asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar mutolaa muammosining markazida o‘qilgan asarni idrok etish darajasi bilan tavsiflanuvchi psixik jarayonlar tursa, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan kitobxonning uning o‘qilgan asarlarga fuqarolik va estetik munosabati birinchi o‘ringa chiqadi.

XX asrning 70-yillari o‘rtalarida V.V.Prozorov o‘zining “Kitobxon va adabiy jarayon” deb nomlangan ishida “adabiyotshunoslikda hozirgacha mutolaa muammosiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘linadi”, deb qayd etib o‘tgan edi. Aslida adabiyotshunoslikda badiiy asarlarni o‘qishga loyiq yoki loyiq emasligi kitobxonlar tomonidan emas, adabiy tanqidchilarning fikr mulohazalari asosida belgilanadi. V.F.Asmus, M.M.Baxtin, B.S.Meylax va boshqalarning fikricha, badiiy obrazlar asosida fikrlash qobiliyatining murakkab tuzilishga ega ekanligi o‘qilgan asarlarni idrok etish chog‘ida ham o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

V.F.Asmus “O‘qish mehnat va ijod sifatida” nomli maqolasida adabiy asarni idrok etishni murakkab jarayon ekanligini ochib beradi va kitobxon uni muallif alohida bir olamga olib kirayotganligini tushunishi zarurligini bevosita idrok etishining birlamchi ekanligini qayd etib o‘tadi. “Kitobxon ongi o‘qish vaqtida faoldir. Kitobxonning bunday faolligi natijasida o‘qish jarayonida o‘ziga xos dialektika amalga oshadi. U bir paytning o‘zida hayotiy obrazlarni ko‘z o‘ngida gavdalantira oladi va tasvirlanayotgan

voqeliklar hayotning oʻzginasi emas, balki badiiy ifoda ekanligini ham tushunib yetadi".

Kitobxon ongining faolligi – tafakkur, xotira, xayol, estetik va axloqiy tuygʻular hamda koʻplab psixik jarayonlar kuchini oʻzida birlashtiruvchi maxsus faoliyat. Tadqiqotchi anglanmagan oʻqish – oʻqish emas, haqqoniy oʻqish – bu "mehnat va ijod" ekanligini qayd etib oʻtadi. "Badiiy asar mazmuni koʻzadan suv quyish singari kitobxon miyasiga koʻchib oʻtmaydi".

Mashhur adabiyotshunos B.S.Meylaxning koʻp yillik ilmiy izlanishlari muallif "ijod strategiyasi" deb qaraydigan asarlarni yaratish jarayonini ijodkorga xos tahlil etish va baholash muammolariga bagʻishlangan. Shuning uchun muallif haqli ravishda yozuvchilarning bosh vazifasi – bu voqelikni yuqori darajada idrok etish uchun kitobxonni san'atni tushunishga oʻrgatish ekanligini ta'kidlab oʻtadi. "Voqelikni yuqori darajada idrok eta olmaslik – bu insonning ma'naviy rivoji, uning ichki olamining boyishi, estetik tajribasi, hayotni tushunishi uchun mavjud zaxiraning boy berilishi". Shuningdek, adabiyotshunos olim badiiy idrok koʻplab funksiyalarga egaligi va idrok etish darajasi bir qancha omillar – kitobxonning madaniy saviyasi, uning psixofiziologik oʻziga xosliklari, hayotiy vaziyatlar bilan bogʻliqligini qayd etib oʻtgan. Faol, tom ma'noda badiiy, yaxlit idrok etish kitobni oʻqish bosqichlarida emas, idrok etishning quyidagi toʻrt asosiy fazasida amalga oshishini koʻrsatgan: birinchi – asarning nomlanishi, uning janri va mualllifini bilish; ikkinchi – mazmunga, obrazlar tizimiga kirish; uchinchi – san'atkor gʻoyalarini bosqichma-bosqich ongda mustahkamlash; toʻrtinchi – asarni talqin qilish va tavsiflash.

Adabiyotshunoslikka doir bilimlar koʻplab ijodiy topshiriqlarni bajarishning asosi, yangiliklardan xabardor boʻlish, estetik tahlil koʻnikma va malakalarini rivojlantirish vositasi boʻlishi lozim. "Estetik tahlil asarga hissiy va ma'lum bir tarzda tartiblangan ma'lumotlar sifatida qaramaslikni, uni ijodkorning estetik faoliyati sifatida talqin qilishni talab etadi", deb yozgan edi M.M.Baxtin. Adabiyot ta'limi standarti va dasturi asosida adabiy faoliyatning nazariy qonuniyatlariga tayanadigan konsepsiya yotadi, bu – badiiy mukammal asar, "dunyoning badiiy modeli"dir

(M.M.Baxtin) . Adabiy ta’limga doir o‘quv dasturlarida adabiyot fani so‘z san’ati sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun badiiy asar ijodiy faoliyat, voqelikning estetik in’ikos etilishi sifatida o‘rganiladi. Adabiy ta’limning maqsadi ma’naviy madaniyat negizida badiiy asarni to‘liq idrok etishga qobiliyatli va so‘z san’ati bilan mustaqil muloqotga kirishishga tayyor kitobxonni shakllantirishdan iborat.

Badiiy asarni qayta hikoya qilishga mo‘ljallangan darslarda ularga quyidagi topshiriqlarni taqdim etish mumkin: asardan parcha tanlash; o‘quvchilarning qobiliyatiga qarab rollar berish; personajlar ruhiyati aks etgan o‘rinlarni ijro etish va tahlil qilish; (ruhiyat tasviri orqali asar idroki maromiga yetadi) asar yuzasidan kengaytirilgan taqriz yozish, badiiy matnni tahlil va talqin qilish. O‘qishni qay yo‘sinda amalga oshirilganiga qarab ham tasniflash mumkin.

Bizningcha, o‘qishni ijro tarziga ko‘ra sintetik va analitik singari ikki turga ajratish mumkin: Sintetik o‘qishda o‘qiyotgan odamning asosiy e’tibori matnni tez qabul qilish va uning umumiy mazmunini eslab qolishga qaratilgan bo‘ladi. Bu jarayonda o‘rganilayotgan matndan olinishi lozim bo‘lgan asosiy axborot xarakteri va hajmi belgilab qo‘yiladi. Badiiy asarni shunchaki ko‘ngil ochish yoki vaqt o‘tkazish uchun o‘qish ham shu turga mansub bo‘ladi.

Analitik o‘qishda asarni o‘qiyotgan shaxsning diqqati matnning mazmunidan tashqari uning til xususiyatlari, badiiy jihatlarini ilg‘ashga ham qaratilgani uchun bu jarayon bir qadar sekin kechadi.

Sintetik o‘qish murakkab bo‘lmagan, alohida tahlil talab etilmaydigan matnlar bilan tanishishda qo‘llaniladi. Analitik o‘qish esa alohida e’tibor, tahlil va aqliy zo‘riqish talab qilinadigan murakkab asarlar bilan ishlashda foydalaniladi. Maqsadni aniq qo‘yish va eng natijador usulni tanlash o‘qishni samarali tashkil etishning muhim shartidir. O‘qishdan maqsad har xil bo‘lishi mumkin: ko‘ngil ochish, vaqt o‘tkazish, nimanidir o‘rganish, bilimlarini to‘ldirish, kerakli ma’lumotni topish va boshqalar.

Odam o‘z oldiga qo‘ygan maqsaddan kelib chiqib, kitob tanlaydi. O‘qish usuli ham to‘lig‘icha maqsadga bog‘liq bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda o‘qish ham ratsional, emotsional,

funksional, estetik, ijodiy, ishga doir, dam olishga qaratilgan va boshqalar tarzida tashkil etiladi: ratsional oʻqish – biror farazni olgʻa surish, taxmin qilish, qarashlarni shakllantirish, ularni umumlashtirish va modellashtirish orqali amaliyotda sinab koʻrishga urinish singarilarni oʻz ichiga oladi; emotsional oʻqish – har bir oʻquvchining individual tabiatiga bogʻliq boʻlgani uchun uning oʻlchamlarini algoritmlash imkonsiz.

Badiiy asar oʻqish ilmiy, oʻquv, publitsistik va rasmiy asarlarni oʻqishdan tamomila farq qiladi. U oʻquvchining tasavvur va tuygʻulari yetakchilik qiladigan ruhiy, ijodiy jarayondir; funksional oʻqish – oʻquvchining muayyan fan boʻyicha qoʻyilgan aniq muammoni yechishi uchun kerak boʻladigan axborotlarni olishga qaratilgan faoliyati. Bunda analitik oʻqish asarni skanerlash, ayrim joylariga belgi qoʻyish bilan birga olib borilishi mumkin; ijodiy oʻqishda matn talqini, qahramonlar xatti-harakatlarini baholash, xayolot parvoziga muhim oʻrin beriladi;ishga doir oʻqishda oʻquvchining oʻz oldida turgan hayotiy masalani hal qilishga tegishli adabiyot bilan tezkor tanishishi koʻzda tutiladi; dam olish uchun oʻqish oʻquvchilar tomonidan toliqtiruvchi mashgʻulotlardan vaqtincha chalgʻish maqsadida amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir.

Tahlillar natijasida metodik fanlar va amaliyotida oʻquvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning quyidagi shakllari mavjudligi aniqlandi. Butun sinfning kitoblarni oʻqib-oʻrganilganligini bilish va aniq koʻrish uchun quyidagi mavzularda insho yozishni soʻrash mumkin: “Sizning sevimli kitobingiz bormi? Nima uchun u sizga boshqalaridan koʻproq yoqadi?”, “Mening sevimli yozuvchim”. “Kitob mening hayotimda”, “Men qanday kitoblarni oʻqiyman?”, “Mening kutubxonam” mavzularidagi insholar asosida oʻqituvchi oʻquvchining kitobxonligi haqida aniq tasavvurlarga ega boʻlishi mumkin. Sinfda yoki uyda yoziladigan har bir inshoni yozish jarayonida oʻquvchi oʻzini kitobxon sifatida yangidan kashf etadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining barcha insholarini diqqat bilan oʻrganish mustaqil oʻqishning ma’lum natijalarini hisobga olish imkonini beradi. Bir necha oy, ba’zan bir necha yildan soʻng yozilgan insholarni qiyoslab oʻrganish oʻqishning dunyoqarashni

shakllantirishga ta’sirini koʻrsatib beradi. Biroq oʻqituvchi va oʻquvchilar oʻrtasida aloqalarning mavjud boʻlmasligi oʻquvchilarning samimiy munosabatiga salbiy ta’sir koʻrsatadi.

Boshlangʻich sinfda oʻqituvchi va oʻquvchilarning hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarini oʻrnatish oʻquvchilarning yozma ishlarini ishonchli boʻlishiga xizmat qiladi. Kitobxonlik tarjimai holi mustaqil oʻqish ishi boʻlib, oʻquvchilarning mutolaa madaniyati haqida koʻproq axborotga ega boʻlish imkonini beradi. Buning uchun oʻqituvchi dastlab quyidagi savollar bilan murojaat qiladi: qachon va qay holatda mustaqil kitob oʻqishni boshlaganligi; kim birinchi boʻlib kitob oʻqishga qiziqish uygʻotganligi; qaysi kitoblar va adabiy qahramonlar bilan tanishish orqali kitobxonlar hayotiga oʻxshash voqealarga duch kelinganligi; qaysi mavzu va janrdagi kitoblarni ayniqsa sevib oʻqishi, oʻqish kunlari, qish, yoz oylarida oʻqish qanday oʻrin egallashi; boshqa darslarga tayyorgarlik koʻrish chogʻida badiiy asarlarni oʻqishni qanday uddalay olishi; chet el adabiyotidan nimalar oʻqiganligi; qanday ilmiy-ommabop asarlar bilan tanish ekanligi; qaysi kitoblar maktab yillaridan soʻng orzu qilingan yoʻlni topshishga yordam berganligi, kitoblarni qayerdan olib oʻqishi, yaqin orada qaysi kitoblarni oʻqimoqchi ekanligi va h.k. Kitobxonlik tarjimai holi oʻquvchining kitob oʻqish doirasini aniqlashtirish shakli boʻlib, bunda oʻqish haqidagi suhbatlar, individual va jamoaviy ish tashkil etiladi.

Jamoaviy suhbatda, qoidaga muvofiq, eng rivojlangan va muloqotchan boshqalardan koʻp oʻqiydigan oʻquvchilar ishtirok etishadi. Buning sababi shundaki, ba’zilar oʻqituvchi va oʻquvchilardan uyaladi, kimlardir esa, birdan asosiy fikrni aniqlay olmaydi, kimdir murakkablik qilganligi sababli kam oʻqiydi, tinglaydi va jim turadi, shuning uchun oʻqituvchi hammani eshita olmaydi. Biroq boshqa oʻquvchilar uchun ham bunday suhbat izsiz ketmaydi: ular nafaqat boshqalar tomonidan oʻqilganlari bilan tanishadi, shu bilan birga aytib oʻtilgan kitoblardan qaysilarini oʻqish lozimligini ham oʻziga belgilab qoʻyadi. Koʻp yillardan beri kitobxon kundaligi yuritish an’anasi mavjud. Shu bilan bogʻliqlikda uning ham oʻziga xosliklari mavjud: agar kundalik oʻquvchining oʻz ixtiyori bilan yuritilsa, uning oʻrtogʻi va doʻstiga aylanishi mumkin, agar oʻquv vazifasi sifatida yuritilsa, u xususiy tavsifga ega boʻlib

qoladi. Xuddi shunday kundalikdagi qaydlarni o‘qish o‘quvchini o‘zining ishi hisoblanadi. Kundalik yuritish kitobga muhabbat, o‘qishga qiziqish, kitobxonlik haqida suhbatlar quriladigan umumiy atmosfera bor sinflarda keng ommalashadi. Hozir ham mazkur ish shakli muhim ahamiyat kasb etadi, biroq ko‘proq boshlang‘ich, ba’zan o‘rta sinflarda ham kamroq bo‘lsa ham ko‘zga tashlanadi. O‘quvchilarning mustaqil o‘qishini o‘rganish va nazorat, shu bilan birga kitoxonlikni targ‘ibot qilishning qiziqarli shakllaridan biri “kitobxonlik biletini himoya qilish” sanaladi. Bu o‘quvchilarga o‘zlari o‘qigan kitoblardagi qiziqarli o‘rinlari, o‘qish vaqtida paydo bo‘lgan fikrlar va kayfiyat bilan o‘rtoqlashish, umuman olganda o‘zining qanday kitoblarni tanlab o‘qishini asoslash imkonini beradi. Bunday tarzdagi “himoya” ba’zan kitobxonlik konferensiyasi ham aylanib ketadi.

Kitobxonlik biletlarini himoya qilish – kitobxonlik qiziqishi va mutolaa madaniyatining rivojlanganligini o‘rganishning keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, u har bir kitobxonning individual mayllarni aniqlashga xizmat qiladi. Kitobxonlik biletidagi qaydlar o‘quvchilar qaysi mualliflarning asarlarini o‘qishni, biror yo‘nalishiga doimiy qiziqishi bormi yoki har xil mavzulardagi kitoblarni o‘qiydimi degan savollarni muhokama qilishga imkon beradi.

Kitob o‘qish madaniyatining rivojlanganligini aniqlashda anketa so‘rovlarini o‘tkazish yaxshi samara beradi. Yangi guruh bilan tanishish, sinfdan tashqari o‘qish darslari tizimini rejalashtirish, individual ish yo‘nalishlarini aniqlashtirish, yakun yasash – sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlik qilishning mazkur muhim jihatlarini anketa o‘tkazish bilan uyg‘unlikda amalga oshirish mumkin. Agar o‘quvchilar ularning fikrlari o‘qituvchi uchun haqiqatan muhim ekanligini, u ishni rejalashtirishda ularning fikrlarini hisobga olishini his etishsa, anketa savollariga javoblar ba’zan uchrab turadiganidek, yuzaki bo‘lmaydi. O‘quvchilarning mutolaa madaniyatni o‘rganishning ishonchli va samarali bo‘lishini ta’minlash, dastlabki xulosalarni tasdiqlash uchun ularni kitob o‘qishga qiziqtirishning bir qancha shakllarini uyg‘unlikda amalga oshirish lozim. Manbalar tahlili kitobxon-o‘quvchi muammosi, uning qiziqishlari, kitoblarning ta’lim

tizimidagi oʻrni, uning oʻquvchiga tarbiyaviy taʼsiri soʻnggi yillarda dolzarb masalaga aylandi. Afsuski, yigirma besh yil davomida mazkur masala ijtimoiy-psixologik manbalarda koʻp yoritildi lekin metodik adabiyotlarda mazkur masala kam oʻrganildi. Bugungi kunda psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar va metodistlar yagona bir fikrga toʻxtalishmoqda: oʻquvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish – bu maqsadga yoʻnaltirilgan jarayon boʻlib, oʻzida bir qancha bosqichlarni, shu jumladan oʻqishga rahbarlik qilishning puxta oʻylangan va asoslangan tizimini talab etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Oʻquvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oʻqish darslarining ahamiyati qanday kasb etadi?

2. Sinfdan tashqari oʻqish darslarida oʻquvchilarda kitobxonlikni tarkib toptirish texnologiyasi haqida fikr bildiring?

3. Oʻquvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish metodikasi oʻrni.

10-MAVZU: ONA TILI TA'LIMIDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI TEKSHIRISH

Reja:

1.Boshlangʻich sinflarda ona tilidan bilim, koʻnikma va malakalar.

2.Boshlangʻich sinflar bilimini oʻzlashtirishda didaktik talablar

3.Yozma nutqning oʻrganilish tartibi

Tayancha soʻzlar: *bilim, koʻnikma va malaka, didaktik talablar, ona tili darsi, ogʻzaki nutq, yozma nutq, lugʻat.*

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1.Qosimova K., Matjonov S., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tilioʻqitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X.Husnixat va uni oʻqitish metodikasi. – T.:TDPU, 2013. –70 b.

3.Икромова Р, Ғуломова Х, Йўлдошева Ш, Шодмонқулова Д, Она тили, 4-синф, -Т.: 2017.

4. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2017.

5. Фузалиев С, Худойберганова М, Йўлдошева, “Она тили”, 3-синф, -Т,: “Ўқитувчи”, 2018.

6. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2016.

7. Қосимова К, Фузалиев С, Неъматова А, “Она тили”, 2-синф, -Т,: “Чўлпон”, 2018.

8. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2015.

9. Ғаффорова Г, Шодмонов Й, Ғуломова Х , “Она тили”, 1 -синф, -Т,: “Шарқ”, 2019.

10. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 1-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2014.

11. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2015.

12. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2016.

13. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2017.

14. Ҳ.Бакиева, Н.Аҳмедова, Н.Азизова, Д.Носирова, Б.Тешабоева, У.Исмоилова, Б.Эгамбердиева “Саводга ўргатиш дарслари”.-Т.: “Эхтремум-пресс”, 2014. -119 б

15. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Yevaluation of Yeducational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019.

Axborot manbalari

1.http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va

o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

2.http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

3.http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

4.www.pedagog.uz

5.www.timssandpirls.bc.edu.

6. www. pedagog. uz

7. www. Ziyonet. uz

Bilimlarni o‘zlashtirishda didaktik talablardan biri bilimlarni o‘quvchilar qanday o‘zlashtirganini muntazam tekshirib va baholab borish hisoblanadi. Tekshirish o‘quvchilarning bilim sifatlarini, shakllantirilgan malakalardan qanchalik foydalanishini aniqlashni ta’minlaydi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning yangi materialni o‘rganishga tayyorligini aniqlash, shuningdek, qo‘llanilgan metod va usullarning samaradorligini baholashga, ish metodlariga ayrim o‘zgartirishlar kiritishga imkon beradi. Tekshirish o‘quvchilar uchun, birinchidan, to‘g‘ri shakllantirilgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi, ikkinchidan, ish sifatini yaxshilaydi, o‘z-o‘zini tekshirishni o‘stiradi. Maktab tajribasida tekshirish og‘zaki va yozma shaklda amalga oshiriladi; bilimlarni kundalik mavzuga oid va yakuniy tekshirish tatbiq etiladi. Boshlang‘ich sinflarda ona tilidan bilim, ko‘nikma, malakalar og‘zaki va yozma shaklda tekshirilsa-da, bir umumiy baho qo‘yiladi.

Bunda o‘quvchilarning grammatik aniqlik, imlo qoidalarini bilishlari, so‘zni va gapni tahlil qila olishlari, bilimni yozma nutqqa (diktant, bayon, inshoga) tatbiq eta olishlari hisobga olinadi. O‘quvchilar yozma ishlarni qanday bajarganliklari muntazam tek-shirib boriladi. O‘qituvchi 1-sinfda o‘quvchilarning barcha yozma ishlari (uy va sinf ishlari)ni tekshiradi. Boshqa sinflarda yangi mavzu o‘rganilgan davrdagi yozma ishlarni tekshiradi, boshqa vaqtda tanlab tekshiradi. Ona tilidan yozma tekshirish uchun asosan diktant, bayon, insho, shuningdek, grammatik, so‘z yasashga oid, leksik va imloga oid topshiriqlarni bajarish, tekshiruv ko‘chirib yozishdan foydalaniladi. Yakunlovchi tekshirish uchun har bir chorakda bir marta tekshiruv ishi o‘tkaziladi. Bulardan

tashqari, o‘quv yili davomida bir necha martadan diktant, gram-matik topshiriqli yozma ishlar, test, bayon va insho o‘tkaziladi. Tekshirish diktanti dasturning biror bo‘limi o‘rganilib, xilma-xil ta’limiy mashqlar bilan mustahkamlangach, ular o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligini sinash maqsadida o‘tkaziladi. Matn sinf o‘quvchilarining saviyasiga mos, sintaktik tuzilishi me’yorlashgan, o‘rganilgan imlo qoidalari asosidagi so‘zlar va tinish belgilari ko‘poq bo‘lishi lozim. Unda o‘rganilmagan qoida asosida yoziladigan va imlosi qiyin so‘zlar bo‘lmasligi kerak. O‘quv yili oxirida o‘tkaziladigan diktantdagi so‘zlar soni keyingi o‘quv yili boshida o‘tkaziladigan diktantdagi so‘zlar soniga teng keladi va asta-sekin ortib boradi.

O‘qituvchi mavzuga aloqador matnni bir necha kun oldin tanlaydi. Matnda shu sinf o‘quvchilari uchun imlosi qiyin so‘z bo‘lsa, (yaxshisi matnda o‘rganilmagan so‘zlar bo‘lmagani ma’qul), shu so‘zlarning ma’nosi, talaffuzi va yozilishi diktant yozganga qadar bo‘ladigan ona tili darslarida tushuntirilishi va mashqlar bilan mustahkamlanishi lozim. Shuning uchun imlosi qiyin so‘zni qatnashtirib gap tuzish, so‘zning talaffuzi va yozilishini tushuntirish, imlosi qiyin so‘z qatnashgan gapni grammatik tahlil qilish, shu so‘zni bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga ko‘ra qismlarga ajratish kabi mashq turlaridan foydalanish mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda ona tilidan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish. Boshlang‘ich ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish bevosita foydalaniladigan didaktik materiallar mazmuni va tuzilishiga bog‘liq.

V.V.Kraevskiy “didaktik materiali” tushunchasini nazariy jihatdan tahlil qilishga alohida ahamiyat qaratadi. U didaktik materialni ma’lumot mazmunining eng so‘nggi darajasi, didaktik loyihalashning eng keyingi bosqichi sifatida sharhlaydi, xususan, “Didaktik material o‘quv kursining (bu erda o‘quv predmeti ko‘zda tutilgan) elementi bo‘lib, ta’limni loyihalash faoliyatining vositasi va tarkibiy qismi funkstiyalarini bajaradi”.

V.V.Kraevskiyning yozishicha, didaktik material o‘quv kursining tarkibiy qismi bo‘lib, unda pedagogik faoliyatning me’yoriy sohasi aks etadi. Didaktik material o‘qitish faoliyatining

ikki xil nuqtai nazarini yoritib, ikki xil ish bajaradi: ta’lim vositasi; o‘qitish faoliyati loyihasi.

Didaktik materiallar - bu biror bir ko‘rinishda ifodalangan bilimni taqdim qilishdir. Umumiy qilib didaktik materiallar deganda, bilish jarayonida pedagogik jihatdan ishlov berilgan va tizimga solingan maqsadli vazifalar to‘plamini tushunish mumkin.

Boshlang‘ich ta’limga oid **didaktik materialning** ta’lim jarayoniga qadar bo‘lgan holati ***darslik*** muallifining pedagogik layoqatiga, uning ta’lim jarayoni mohiyatini bilishiga, ma’lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish va didaktik loyihalash sohasidagi mahoratiga bog‘liq.

Boshlang‘ich ta’limga taalluqli didaktik materialning ***ikkilamchi loyihalari*** *dars loyihasi, ko‘rgazmali qurollar (tabiiy materiallar, illyustrastiya, chizma, audio va video materiallar), o‘quv topshiriqlari tizimi (test topshiriqlar, o‘yin topshiriqlari, tarqatma materiallar to‘plamlari) dan* iborat bo‘lib, ularga pedagogik jihatdan ishlov berilib, darslikdagi mavjud holatdan yangi holatga o‘tkaziladi. Didaktik materiallar tuzilmasini biz quyidagi sxema bo‘yicha ifodaladik:



Boshlang‘ich ta’lim didaktik materialini umumlashtirish, umumiy qoida va qonuniyatlarga ko‘ra alohida misol, topshiriqlar asosida oydinlashtirish mualliflarning tajriba va mahoratlariga bog‘liq.

Boshlang‘ich ta’lim darsliklarining pedagogik ishlov berilgan eng kichik qismi didaktik material hisoblanadi. Didaktik material o‘quvchilarga mo‘ljallangan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, kitoblar va boshqa materiallarda, o‘qituvchiga yordam beradigan metodik tavsiyalarda yoritiladi.

Bizningcha, didaktik materiallar muayyan o‘quv fani mazmunini yorituvchi va maqsadini ifodalovchi, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi uchun moslashtirilgan bilimlar tizimidan iborat.

O‘quv materiallari axborot manbai bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim jarayonini loyihalashda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishi uchun “moslashtiriladi”.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quv materiallari o‘qituvchining shaxsiy yondashuviga muvofiq loyihalandi va mazkur loyiha asosida o‘rganiladigan mavzular o‘quvchilarga ma’lum ketma-ketlikda uzatiladi.

Didaktik materiallarni loyihalash uni o‘rganish va mustahkamlash, takrorlash va amaliyotga tadbiq qilish, umumlashtirish va nazorat qilish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib ta’lim jarayonining samaradorligini taminlaydi.

So‘nggi yillarda hamdo‘stlik mamalakatlari olimlari bilan bir qatorda o‘zbek olimlari ham darsliklar va o‘quv materiallari yaratish muammosini tadbiq etishga alohida e’tibor qarata boshladilar. Yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflar tomonidan didaktik materiallarni takomillashtirishning umumiy jihatlari borasida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan qarashlar ilgari surilgan bo‘lsada, ayni vaqtga qadar boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari bo‘yicha yaratilgan darsliklar didaktik materiallarini takomillashtirishning didaktik jihatlari tadqiq etilmagan.

Boshlang‘ich ta’lim darsliklarida o‘z ifodasini topgan didaktik materialning asosiy hajmini DTS va o‘quv dasturlarida belgilangan me’yoriy bilimlar egallaydi.

Boshlang‘ich ta’lim darsliklaridagi didaktik materiallarni takomillashtirishning samarali usullarini ishlab chiqish, uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konstepstiyasi, davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, darslik hamda o‘quv materiali orasidagi muvofiqlikni ta’minlashga jiddiy e’tibor berish, ular orasidagi uzviylikni ta’minlash, shuningdek, yo‘l

qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish zarur.

Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti, o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quv dasturlari, darsliklar, qo‘llanmalar va boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ayni paytda DTS asosidagi o‘quv dasturlarini takomillashtirish, ulardagi o‘quv materiallari uchun belgilanayotgan yuklamani o‘rganib chiqish asosida darsliklardagi ortiqcha takrorlashlarni bartaraf etish hamda muqobil va raqobatbardosh darsliklarni yaratishga alohida e’tibor berilmoqda. Zero, yagona o‘quv darsligi asosida boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil etish o‘quvchilar, xususan, materiallarni o‘rta va past darajada o‘zlashtiradigan o‘quvchilar uchun jiddiy qiyinchilik tug‘diradi. O‘quvchini mustaqil bilim olish malakalar bilan qurollantirish zaruriyati o‘quv materiallarini didaktik jihatdan maxsus ravishda qayta ishlashni taqozo qiladi.

Darslikning didaktik tizimi vazifalari qat’iy belgilab berilmaydi, u o‘zgaruvchan, harakatchan bo‘lib, ta’lim jarayonining dolzarbligi shuningdek, ta’lim turi, didaktik konstepstiya va o‘quv fani mazmuniga muvofiq tanlanadi. Darsliklarning funkstional yuklamasini kamaytirish uning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishni talab etadi.

Maktab darsliklarini tarkibiy tuzilishi xususida fikr yuritar ekan, uning tarkibiy elementlari quyidagilar ekanligiga alohida urg‘u beradi:

1. Matnlar: a) asosiy; b) qo‘shimcha; s) ilova.

2. Matndan tashqari qismlar: a) o‘zlashtirish apparatini tashkil etish; b)tasvirlar; s) yo‘naltiruvchi apparat.

O‘quvchilarni darsliklar bilan mustaqil ishlashga yo‘naltirishda va didaktik materialni talab darajasida o‘zlashtirishlarini ta’minlashda yo‘naltiruvchi apparatning tarkibiy tuzilmasidan o‘rin olgan materiallar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O‘quv materialini tashkil etgan tushunchalar tizimini shakllantirish jarayoniga nisbatan quyidagi mantiqiy- psixologik talablarni qo‘yadi:

- muayyan o‘quv fani yoki uning asosiy bo‘limlari tarkibiy tuzilishi bilan bog‘liq tushunchalarning o‘quvchilar tomonidan

ularni keltirib chiqaruvchi moddiy sharoitlar mohiyatini tahlil etish yo‘li bilan o‘zlashtirilishi lozim;

- umumiy va mavhum bo‘lgan tushunchalarni o‘zlashtirish alohida va aniq tushunchalar bilan tanishishdan avval amalga oshirilishi kerak;

- u yoki bu tushunchaning moddiy manbalarni o‘rganishda o‘quvchilar mazkur tushunchaning ob’ekti, mazmuni va tarkibiy tuzilishini belgilab beruvchi genetik, boshlang‘ich hamda umumiy bog‘lanishlarni topa olishlari zarur;

- mazkur aloqalar predmet-grafikli yoki belgili modellar vositasida amalga oshiriladi;

- o‘quvchilar shunday predmetli harakatni vujudga keltirishlari kerakki, uning vositasida o‘quv materiallarida o‘z aksini topgan ob’ekt mohiyatini yorituvchi muhim aloqalarni aniqlash va xossalarini o‘rganishi zarur;

- o‘quvchilar predmetli harakatlarni bajarishdan asta-sekin aqliy faoliyatni bajarishga kirishishlari lozim.

Demak, o‘quvchilar boshlang‘ich ta’lim darsliklaridagi o‘quv materiallari asosini tashkil etgan tushunchalarni ma’lum ketma-ketlik va izchillikda o‘zlashtirishlari, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni modellarda aks ettira olishlari ular tomonidan fan asoslarini chuqur egallashlari uchun sharoit yaratadi. Darsliklarida ushbu faoliyatni amalga oshirishga doir mashqlar o‘z ifodasini topishi zarur. Ta’lim berish jarayoni intellektual faoliyat va mantiqiy munosabatlarning yuzaga kelishiga to‘la zamin yaratmaydi. O‘zlashtirilayotgan material o‘quvchi uchun shaxsiy ma’no kasb etadi. Ya’ni, ta’lim bir xil sharoitda berilsada, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish turlicha bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay tadqiqot qilish maqsadida o‘quv materialini loyihalashda ushbu muammoni hal etish va ta’lim berishning qulay usullarini qo‘llash ijobiy natijalar beradi.

Yozma nutqning o‘rganilish tartibi

O‘z navbatida bog‘lanishli nutq hikoya va insho lug‘atini boyitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o‘quvchilardan grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashni,fikrni

ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas’uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi.Yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O‘quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi.

O‘qituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, ko‘pincha o‘quvchilar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e’tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar. Matnlarda ko‘pincha mavzuga aloqasi bo‘lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e’tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo‘lishi, materialning to‘g‘ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to‘g‘ri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim. Ona tili darslarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, o‘quvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o‘z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi. O‘quvchilar mustaqil ravishda ijodiy fikrlasalar fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalay olsalar, ona tili mashg‘ulotlari samarali o‘tilgan bo‘ladi. Pedagogik kitoblarda berilgan ilmiy ma’lumotlarga qaraganda, 2 yoshli bolalar 30dan 100 gacha, 4 yoshli bolalar 1000 dan 4000 gacha, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha so‘zni bilishlari lozim. Ammo, afsuski, ona tili mashg‘ulotlarida fikrni og‘zaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tug‘ilganda o‘quvchilardagi so‘z qashshoqligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so‘zlarni takroriy qo‘llash, berilgan so‘zni uning ma’nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma’noligi bilan almashtira olmaslik,

ma’lum bir sohaga qarashli so‘zlar lug‘atini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, o‘quvchilarning so‘z boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi.

Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar nutqining rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri o‘quvchilarning uyda , ko‘chada yoki sinfdan tashqari paytlarda tojik, turkman, qirg‘iz yoki boshqa (sheva) tilda so‘zlashib, maktabda o‘zbek tilida o‘qishidir. Etnografik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, jumhuriyatimiz hududida juda ko‘p tojiklar, turkmanlar, qirg‘izlar, qozoqlar yashaydi. Ularning ko‘pchiligi uyda tojik, qirg‘iz va hokazo tilda so‘zlashib, maktabda o‘zbek tilida o‘qishdi. Bu hol, shubhasiz, o‘quvchilarda tilning boy imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatini chegaralaydi. Yuqorida sanab o‘tilgan salbiy omillardan tashqari ona tilimizdan sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarning mundarija va mazmun jihatdan bo‘shligi, yagona nutq rejimiga hamisha ham rioya qilmaslik, ota-onalarning bola nutqi ustida yetarli ishlamasligi kabi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga salbiy ta’sir qiladi. Xullas, o‘quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo‘lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta’lim mazmuni yoki o‘qituvchigagina bog‘liq emas. Barcha imkoniyatlar to‘laligicha ishga solinsagina fikrni og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri, ravon ifodalashga o‘rgatish jarayoni oson kechadi.

O‘quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo‘l ochadi. Bizga ma’lumki, o‘quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o‘stirishda doimo har xil metod va o‘yinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba’zilarini misol tariqasida keltiraman. “Hikoya” O‘qituvchi xattaxtaga bir nechta so‘z yozib qo‘yadi. Masalan: Nafosat, yomg‘ir, soat va adabiyot kabi. O‘quvchilar mustaqil ravishda shu so‘zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Yozma nutq og‘zaki nutqni rivojlantirishga katta ta'sir ko‘rsatadi. Axir, matnlarni qayta tuzish, asosiy fikrlarni shakllantirish - bularning barchasi bizning muloqotimizning ajralmas qismidir. Keyinchalik og‘zaki nutqning rivojlanishi nafaqat butun jamiyatning rivojlanishi, balki insonning shaxsiy fazilatlarini ham anglatadi.

“Yozma nutq” kontseptsiyasi aniq, koʻp qirrali, batafsil nutq shaklidir. Bu maxsus trening orqali oʻzini namoyon qiladi. Yozma soʻzlarning shakllanishi inson fikrlashining shakllanishiga katta ta'sir koʻrsatadi. Yozish tarixi uch xil yozma nutqni oʻz ichiga oladi. Dastlab, piktografik xat tugʻildi. Odamlar oʻzlarining fikrlarini diagramma va chizmalar orqali ifoda etdilar. Misol uchun, qoʻlidagi tayoqchani ushlab turgan otga oʻxshash bir otliqning qiyofasi, toshbaqani tasvirlaydigan qayiqlar quyidagicha edi: “Odamlar koʻl boʻylab qayiqda oʻzlarining yoʻlboshchilari bilan ketishdi”. Bugungi kunda xitoycha yozuvlarda ideografik xat qoʻllaniladi. Ideografik tasvir ma’lum bir tilning soʻzlari bilan bogʻliq emas. Bu raqamlar tasviri degan ma’noni anglatadi. Misol uchun, quyosh va oyning qiyofasi quyosh va oyning chizilgani kabi dekodlashni olib bormaydi. Ular ba’zi narsalarni belgilashlari mumkin. Yozma nutqning eng keng tarqalgan turi - nutq maktabi. Maktublar inson tomonidan bildirilgan va u tomonidan eshitishgan kishilarga toʻliq mos kelmaydi. Yozishni oʻrganish uchun siz bir soʻz turlaridan ikkinchisiga oʻtishni yaratishingiz kerak. Shunday qilib, oʻqish jarayonida koʻrinadigan soʻzdan ogʻzaki soʻzga va odamning gapiga qanday oʻtish bor. Yozma ravishda, buning aksi haqiqatdir. Oʻz fikrini yozma nutq bilan etkazish uchun, bir kishi matnni oʻqiydigan odamning fikrini tartibga solishga yordam beradigan paragrafni ishlatadi. Boʻshliq paneli matnning bir qismini bir-biridan ajratib qoʻyishga imkon beradi. Agar ma’lum tanlovlar, shriftlar foydalansangiz, bu bilan siz oʻquvchining diqqatini ma’lum bir ma'lumotga jalb qilishingiz mumkin. Yozishning asosiy jihatlaridan biri - dastlabki ingl. In’ikos boʻlib, u kim tomonidan tartibga solinishi mumkin. Insonda yozma nutqning qisman buzilishi disgrafiya deb ataladi. U oʻzini namoyon boʻlishining qat’iyati bilan tavsiflangan xato bilan oʻzini namoyon qiladi. Buning sababi yozma jarayonlarga bevosita ishtirok etadigan aqliy rivojlanishning yuqori funktsiyalarining mavjud emasligidan kelib chiqadi. Nutq terapevtlari bu muammoni bartaraf etishlari mumkin. Va nihoyat, yozma til ogʻzaki gaplardan sezilarli darajada farq qiladi va oxirgisi kabi bir qator afzallik va kamchiliklarga ega.

Ogʻzaki nutq ustida ishlash

Ma’lumki, nutq og‘zaki va yozma ko‘rinishga ega. Og‘zaki nutq gapirib turgan vaqt birligidagina mavjud bo‘lib, bu jarayon tugashi bilan nutq ham tugaydi. Og‘zaki nutq tezkorlik bilan amalga oshadi tahrir imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Og‘zaki nutqda fikrni aytganlarini xotirada ushlab turgan holda rivojlantirishga to‘g‘ri keladi. Og‘zaki nutqda odatda, muloqot uchun eng zarur narsalarnigina zikr etiladi. Bu bir tomondan vaqt iqtisodi bilan ikkinchidan nutq kuchini tejash bilan bog‘liq.







Boshlang‘ich sinflarda ona tilidan bilim, ko‘nikma, malakalarni og‘zaki va yozma shaklda tekshirish metodikasi.

O‘quvchilar lug‘atini boyitish metodikasi

So‘z tilning ma’no bildiradigan asosiy birligidir. So‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘z va iboralarning yig‘indisi lug‘at tarkibi yoki leksika deyiladi. Leksikologiya o‘zbek tilining lug‘at tarkibini o‘rganadigan bo‘limdir. Leksikologiya lug‘at tarkibidagi so‘zlarning nutqda ma’no ifodalash xususiyati, qo‘llanish faolligi, boyib borishi, ba’zi so‘zlarning eskirib, iste’moldan chiqib ketishi, ma’no ko‘chish hodisasi kabilarni o‘rganadi. Shu sababli leksikologiya lug‘at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi. Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan, mazmunga mos so‘z va so‘z birikmalarining ma’lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug‘ati qanchalik boy va rivojlangan bo‘lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo‘ladi; o‘z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. SHuning uchun lug‘atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning muhim sharti hisoblanadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili ulkan lug‘at boyligiga ega. Besh jildlik ”O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi berilgan bo‘lib, bular umumiy qo‘llaniladiganlaridir. Bunga o‘zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug‘atlarda, o‘zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug‘atlarida va turli izohli lug‘atlarda berilgan so‘zlar qo‘shilsa, lug‘at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko‘p so‘zlar ko‘p ma’noni bildiradi. Masalan, shu izohli lug‘atda bosh so‘zining 40 dan ortiq asosiy va frazeologizm bilan bog‘langan ma’noda ishlatilishi berilgan. Maktabda nutq o‘stirishning muhim vazifalaridan biri lug‘at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini ajratish va asoslash, o‘quvchilarning lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug‘at ustida ishlash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

O‘quvchilar lug‘ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi:

Atrofni o‘rab olgan muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarniig o‘yini va o‘qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish.

Tabiat qoʻyniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan koʻpgina yangi nom va iboralarni oʻrganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan oʻtkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim soʻzlar maʼnosiga aniqlik kiritiladi.

Oʻquvchilar lugʻatini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. Oʻqish darslarida oʻquvchilar Oybek, H. Olimjon, M. SHayxzoda, Gʻ. Gʻulom, H. Hakimzoda, Zulfiya, Uygʻun, A.Qahhor, P. Moʻmin, Q. Muhammadiy, SH. Saʼdulla, Z. Diyor kabi koʻpgina soʻz ustalarining asarlarini oʻqiydilar. Oʻzbek tilini yuksak badiiy obrazlar yordamida oʻzlashtiradilar. Oʻqish darsida bolalar lugʻati maʼlum mavzularga oid soʻzlar hisobiga ham boyiydi. Ular lugʻatiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy, shirinsoʻz, mehribon, haqqoniy, botir, mard, jasur, mehnatsevar kabi koʻpgina soʻzlar qoʻshiladi. Matn ustida ishlash jarayonida koʻp maʼnoli soʻzlar, sinonimlar, koʻchma maʼnoda ishlataladigan soʻzlarni, baʼzi frazeologik birikmalarni bilib oladilar. Bolalar mustaqil oʻqishga oʻrganganlaridan keyin ular lugʻatiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta taʼsir qiladi. SHuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil oʻqish va unga rahbarlik shakllari oʻquvchilar lugʻatini boyitishning, nutqini oʻstirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi. Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni oʻrganish darslari koʻpgina soʻz va atamalarni oʻzlashtirishga yordam beradi, oʻquvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan soʻzlarni bilib oladilar. Bu darslarda oʻquvchilar lugʻati tartibga solinadi, soʻz turkumlarini oʻrganish jarayonida guruhlanadi, soʻz tarkibi, soʻz yasalishi, soʻzlarning oʻzgarishini oʻrganish bilan esa lugʻatga aniqlik kiritiladi; ular oʻrgangan soʻzlaridan oʻz nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lugʻatlari faollashadi.

Oʻquvchilar lugʻati maxsus lugʻaviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi. Bulardan tashqari, kinofilm va televizor eshittirishlarining matnlari, oʻqituvchi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham oʻquvchilar lugʻatini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi. Lugʻatni boyitishda turli lugʻatlar juda foydali qoʻllanmadir. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari

uchun «Imlo lug‘ati» mavjud. O‘qituvchi ma’lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug‘atlardan (o‘zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug‘atlaridan, turli terminologik lug‘atlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi. So‘zlarning ma’nosini tushuntirish o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini o‘stiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma’nosini tushuntirish mazkur so‘z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi.

Masalan, predmet atamasining ma’nosinn tushuntirish bilan o‘quvchilar predmet keng ma’noda qo‘llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe’l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi. So‘zning ma’nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmasligi kerak. Buning uchun o‘qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma’nosi tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o‘rnida tushuntirishni belgilab oladi.

So‘z yasashga oid leksik va imloga oid topshiriqlami bajarish

Til ta’limini so‘z yasashga doir mashqlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ulardan ona tili o‘qitishning xamma bo‘g‘inlarida, o‘quv-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida foydalaniladi. Garchand, so‘z yasashga doir mashqlarning qo‘llanish doirasi qancha keng bo‘lsa-da, xaligacha ularning xamma e’tirof etgan ta’rifi, tarkibiy qismlari, tiplari va tizimi hususida aniq tasavvurlar mavjud emas. So‘z yasashga doir mashqlar o‘quvchilarda irodani tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir. Iroda, ruxshunoslarning ta’biri bilan aytganda, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘z faoliyatini ongli tashkil etish, faoliyat jarayonida uchragan qiyinchiliklarni bartaraf etish vositalarini, usullarini izlashni taqozo etadi. O‘z mexnatining maqsadini tushunish, unga erishish uchun xarakat qilish, intilish bola faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib, ular mashq qilish natijasida tarkib topadi. Bunga mashqlarni etarli darajadagi qiyinchilik va murakkablikda o‘tkazish yo‘li bilan erishiladi. Ammo ona tili metodikasi fanida mashqlarning qiyinligi va murakkabligi

masalasi xaligacha oʻrganilgan emas. Soʻz yasashga doir mashqlardan til bilimlarini oʻrganish, mustaxkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Shuningdek, ular bolalarda orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion va shu kabi malakalar xosil qilishning etakchi omili sanaladi. Binobarin, soʻz yasashga doir mashqlarning moxiyatini toʻliq anglagan, ularning qurilishi hususida bilimlarga ega boʻlgan, tiplarini ajrata biladigan, ularni tizimga keltirish tehnologiyasini egallagan oʻqituvchigina ulardan unumli foydalanadi. Maktabda tilning fonetika, leksika xamda grammatikaga oid bilimlar va ular asosida turli-tuman nutq koʻnikmalari ustida ish qilinadiki, bularni grammatik mashqlar deyish an'anaviydir. Biroq ular tilning birgina grammatika soxasiga tegishli boʻlganligi bois cheklangandir. Binobarin, uning istiloxi oʻrnida "soʻz yasashga doir mashq" istiloxi ishlatish ma'quldir. Mashq eng qadimiy oʻqish usuli. U inson faoliyatining barcha soxalarida qoʻllaniladi. Y.A.Kamenskiy "Pansofiya maktabi" nomli asarida mashqning axamiyatini uqtirib, shunday deb yozgan edi: "Mashq insonni moxir, epchil, barcha narsadan habardor, xamma soxaga qiziquvchan, bilarmon, xar qanday ishga yaroqli kishi qilib etishtiradi. Oʻquvchilarning barcha sinflarda oʻqish va yozish, takrorlash va fikrlashuv, toʻgʻri (ona tilidan chet tiliga) va teskari (chet tilidan ona tiliga) tarjima, deklamatsiya (badiiy asarni ta'sirchan oʻqish) va disput (ilmiy muboxasa, oʻz qarashlarini ximoya qilish) amaliyotida mashq qilishni talab qilamiz" Duradgor teshasiyu, arrani ishlatishni, jarrox kesishu tikishni, sportchi suzishu sakrashni, tikuvchi bichishu qirqishni amaliyotda bajarib mashq qilganidek, oʻquvchi xam mashq qilish yoʻli bilan ijtimoiy xayotda faol ishtirok etish malakalalarini egallab oladi. Ana shularga koʻra mashqni umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi deb bilamiz. Zero, yoshlar mashq qilish yoʻli bilan ijtimoiy tajribani bekamu-koʻst oʻrganishadi, oʻz faoliyatlarida ota–bobolar faoliyatini jonlantirishadi, tevarak atrofdagi narsalar, kishilar bilan muomala qilish madaniyatini oʻzlashtirishadi. Soʻz yasashga doir mashq yoshlarni xayotga tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi, til ta'limini amalga oshirishning etakchi yoʻli xisoblanadi. Mashq ma'lum makonda (sinfda oʻqituvchi raxbarligida) va zamonda

(darsda) oʻtkaziladi. U ongli xayotning aloxida soniyalari, hayotning oʻzi demakdir. Soʻz yasashga doir mashqlarning moxiyatini aniqlash maqsadida ularni yana bir tushuncha oʻquv topshirigʻi bilan muqoyasa qilamiz. Zero, narsa-xodisalar oʻzaro solishtirilganda, ularning moxiyati aniqlanadi.

Fikrlashni “oʻquv topshirigʻi” tushunchasidan boshlaymiz. Yuqoridagi bilimlar qayta qurilib, oʻquv topshirigʻi shakliga olib kelingan. Oʻquv materialini qayta qurishda ta’lim extiyojlari (oʻqitish va oʻqish extiyojlaridan) kelib chiqib u, ya’ni oʻquv materiali, yangi, boshqacha shaklga keltiriladi. Oʻquv materialini bir (berilgan) shakldan ikkinchi (istalgan) shaklga olib kelish jarayonini ta’lim mazmuniga “pedagogik ishlov berish” iborasi bilan qayd etamiz. Pedagogik ishlov berish yoʻli bilan turli didaktik loyixalar-dars konspekti, oʻzaro bogʻlangan savollar, oʻquv muammolari, mashqlar tizimi shakllantiriladi. SHuningdek, pedagogik ishlov berish jarayonida oʻquv materialini oldingi (darslikda berilgan) shakldan ikkinchi (yangi) shaklga, oʻquv topshiriqlari tizimi shakliga olib kelinadi. Zero, tuzilgan topshiriq yoki ularning tizimi oʻquv materialining yangi koʻrinishidir. Demak, oʻquv topshirigʻi oʻqitish va oʻqish extiyojiga koʻra oʻquv materialining oʻzgartirilgan shaklidir. Oʻquv topshirigʻi vositasida bolalarning yakka, tabaqalashgan, umumsinf ishlari tashkil etiladi. Masalan, 3-topshiriqni aloxida oʻquvchiga tarqatma material shaklida taklif etsak, yakka ish shaklini oladi. 2-topshiriqni bolalarning oʻziga mustaqil ish sifatida taklif etish mumkin. Oʻqituvchining (darslik muallifning xam) bevosita ishtirokisiz, ammo uning koʻrsatmalariga koʻra bajarilgan aqliy-amaliy yumushlar mustaqil ish demakdir.

Soʻz yasashga doir mashq-oʻrganilgan bilim va faoliyat usullarini oʻquv xolatlariga tatbiq etish yoʻlidir. Soʻz yasashga doir mashqlar boshqa tizimlarga oʻhshab kompleks elementlardan iborat. Xar qanday tizimning elementlari moxiyati jixatidan ikki turli boʻladi: doimiy-asosiy, oʻzgaruvchan-ikkinchi darajali. Tizimni, ayni xolatda soʻz yasashga doir mashqlarni barcha elementlariga koʻra taxlil etish amri-maxoldir. Shu sababli, soʻz yasashga doir mashqlarning asosiy elementlarini uning tarkibiy qismlari sifatida taxlil qilamiz. Soʻz yasashga doir mashqlar, avvalo,

ochiq tizimdir. Zero, xozir o‘tkaziladigan mashq oldingi mashqlarning davomi, bundan keyin o‘tkaziladigan mashqlar uchun tayyorgarlik bosqichi sanaladi. Mashq qilish jarayonida bolalarning o‘qish faoliyati o‘tmishdan xozirga, undan kelajakka tomon xarakat qiladi. O‘rganilgan bilimlardan (o‘tmishdan) ularning amaliyotga tatbiq etilishiga (xozirga) qarab borish kelajakdagi istiqbolli faoliyat uchun zamin tayyorlaydi. Mashq qilish jarayonining moxiyatini anglash maqsadida mashqning turg‘un-asosiy tarkibiy qismlarini, uning variantlari sifatida ajratamiz.

Savol va topshiriqlar

1.Boshlang‘ich sinflarda ona tilidan bilim, ko‘nikma va malakalarni tushuntiring?

2.Boshlang‘ich sinflar bilimini o‘zlashtirishda didaktik talablarga ta’rif keltiring?

3.Yozma nutqning o‘rganilish tartibi bosqichlari.

4. Og‘zaki nutqning kichik yoshdagi bolalarda shakllanishi haqida mulohaza yuriting.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tilio‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X.Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.:TDPU, 2013. –70 b.

3.Икромова Р, Ғуломова Х, Йўлдошева Ш, Шодмонқулова Д, Она тили, 4-синф, -Т.: 2017.

4. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2017.

5. Фузалиев С, Худойберганова М, Йўлдошева, “Она тили”, 3-синф, -Т,: “Ўқитувчи”, 2018.

6. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2016.

7. Қосимова К, Фузалиев С, Неъматова А, “Она тили”, 2-синф, -Т,: “Чўлпон”, 2018.

8. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2015.

9. Ғаффорова Г, Шодмонов Й, Ғуломова Х , “Она тили”, 1 -синф, -Т,: “Шарқ”, 2019.

10. Машарипова У., Умарова М., Байназарова Д., Набиева М. “Она тили : 1-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма” -Т,: “Шарқ” 2014.

11. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2015.

12. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 3-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2016.

13. Боймуродова Г., Сатторова Х., Муслимова Ш., Кабилова З., Сайдалиева Г., Каримова Ф. Ўқиш: 4-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма -Т.: “Шарқ” 2017.

14. Ҳ.Бакиева, Н.Аҳмедова, Н.Азизова, Д.Носирова, Б.Тешабоева, У.Исмоилова, Б.Эгамбердиева “Саводга ўргатиш дарслари”.-Т.: “Эхтремум-пресс”, 2014. -119 б

15. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Yevaluation of Yeducational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019.

Axborot manbalari

1.http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

2.http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

3.http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

4.www.pedagog.uz

5.www.timssandpirls.bc.edu.

6. www. pedagog. uz

7. www. Ziyonet. uz

MUNDARIJA

So‘zboshı..... 3
1-modul. Mutaxasislikka kirish fani - pedagogik fan 5
1-mavzu: Mutaxasislikka kirish fanining maqsad va vazifalari 5
2-mavzu. Boshlang‘ich sinf davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi mazmuni.....17
3-mavzu. Boshlang‘ich sinf darslariga qo‘yiladigan talablar. Qo‘llaniladigan o‘quv vositalari va ularning vazifalari.....45
4-mavzu: Boshlang‘ich sinf darsligi va qo‘shimcha qo‘llanmalar 67
5-mavzu: Til ta’limida o‘qitish metodlari pedagogik texnologiyalar 92
6-mavzu: Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlari.....146
7-mavzu: Kichik yoshdagi o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishda ona tilini o‘rgatishning ahamiyati.....171
8-mavzu. O‘quvchilarda grammatika va so‘z yasalishiga old tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari. 195
9-mavzu: Kitobxonlik faoliyatini shakllantirish.....242
10-mavzu: Ona tili ta’limida bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish.....261
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....280

Farxodova Dilnoza Qudrat qizi

MUTAXASISLIKKA KIRISH

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: *A. Qalandarov*
Texnik muharrir: *G. Samiyeva*
Musahhih: *Sh. Qahhorov*
Sahifalovchi: *M. Bafoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 14.02.2025. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 17,7. Adadi 100. Buyurtma №94

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45